



SHAVKAT MIRZIYOYEV

MILLIY
TIKLANISHDAN—
MILLIY
YUKSALISH SARI

4

«O'ZBEKISTON»





SHAVKAT MIRZIYOYEV

**MILLIY
TIKLANISHDAN—
MILLIY
YUKSALISH SARI**



TOSHKENT – «O'ZBEKISTON» – 2020

UO'K 323.(575.1)

KBK 66.3(50')

M 54

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlarining 4-jildi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, uning birinchi bo'limiga mamlakatimiz siyosiy-ijtimoiy hayotidagi eng muhim voqealar munosabati bilan so'zlangan nutq va ma'ruzalar kiritilgan.

Kitobning ikkinchi bo'limidan koronavirusga qarshi kurashga bag'ishlangan videoselektordagi ma'ruza, nutq hamda murojaatlar joy olgan. Uchinchi bo'limga xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar rahbarlari bilan uchrashuvlardagi nutq va ma'ruzalar, to'rtinchi bo'limga esa yurtimizda keng nishonlanib kelayotgan umumxalq bayramlari, tarixiy sanalar, turli xalqaro anjumanlar, tadbir va marosimlar munosabati bilan yo'llangan tabrik va qutlovlar kiritilgan.

ISBN 978-9943-6580-9-7



© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2020

**XALQIMIZNING HAYOT DARAJASI
VA SIFATINI YANGI BOSQICHGA
KO'TARISH – ENG MUHIM VAZIFAMIZ**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASI

Hurmatli deputatlar va senatorlar!

Aziz yurtdoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Jonajon O‘zbekistonimiz yangi o‘n yillikka qadam qo‘ymoqda. Erishgan natijalarimiz tarixga aylanib, oldimizda yangi-yangi o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha ulkan vazifalar va imkoniyatlar paydo bo‘lmoqda. Shu bois, bugun Sizlar bilan birgalikda mamlakatimizni 2020-yil va kelgusi 5 yilda rivojlantirish bo‘yicha, ustuvor yo‘nalish va vazifalarni belgilab olishimiz lozim.

Yaqinda «**Yangi O‘zbekiston – yangi saylovlar**» shiori ostida bo‘lib o‘tgan saylovlar natijasida respublikamizda demokratik islohotlarni yuqori bosqichga olib chiqish uchun zarur bo‘lgan yangi siyosiy muhit vujudga keldi.

Saylovlar ochiq-oydin, xalqaro standartlar asosida o‘tkazilishini nazorat qilish uchun 50 ga yaqin davlatdan hamda 10 ta xalqaro tashkilotdan 825 nafar kuzatuvchi ishtirok etdi. Birinchi marta Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosining 316 kishilik to‘laqonli missiyasi bilan yaqin hamkorlik qildik.

Xalqaro kuzatuvchilar saylovlar erkin raqobat muhitida, siyosiy partiyalar o‘rtasidagi qizg‘in tortishuv va bahs-munozaralar sharoitida o‘tganini, bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining roli sezilarli darajada oshganini alohida e‘tirof etdilar.

Barcha xalqaro kuzatuvchilarga saylov jarayonlari haqidagi xolis fikrlari va tavsiyalari uchun butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Biz albatta ushbu tavsiyalarning har birini chuqur o'rganib, tegishli dastur qabul qilib, amaliyotga keng joriy etamiz. Bu borada saylov komissiyalari va aholining saylov madaniyatini yuksaltirish, siyosiy partiyalarning o'z elektorati bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, partiyalarning siyosiy faolligini oshirish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir.

Shu bilan birga mahalliy kengashlarga saylov o'tkazishning uch pog'onali tizimini optimallashtirish, bunda tuman va shahar saylov komissiyasining rolini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Parlament va Markaziy saylov komissiyasi saylov yakunlari bo'yicha rejalashtirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun yaqin hamkorlikda ish olib borishi zarur bo'ladi.

Barcha deputat va senatorlarga, ularning timsolida butun O'zbekiston xalqiga murojaat qilib aytmochiman: demokratik islohotlar yo'li – biz uchun yakka-yu yagona va eng to'g'ri yo'ldir. Bu borada biz har kuni izlanishdamiz, xorijdagi ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, hayotimizni, ish uslubimizni yangilashga harakat qilmoqdamiz.

Biz yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bu borada **«Jamiyat – islohotlar tashabbuskori»** degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda.

Islohotlarning amaliy samaradorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim.

Eng asosiysi, bu islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz lozim. Odamlarimiz yetarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar va ish joylarini ko'paytirishimiz zarur. Bu g'oyat dolzarb ishlarni o'zimiz qilmasak, hech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi.

Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo'l turibdi. Barchamiz jiplashib, tinimsiz o'qib-o'rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy

bilimlarni egallab, o'zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o'zgaradi. Men bunga qat'iy ishonaman va bu fikrni sizlar ham qo'llab-quvvatlaysizlar, deb o'ylayman.

Hurmatli qo'shma majlis ishtirokchilari!

Xalqimizning fidokorona mehnati bilan 2019-yil – «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da salmoqli natijalarga erishdik. Barcha sohalardagi ijobiy natijalar qatorida investitsiyalar hajmi ham sezilarli darajada oshdi.

Ayniqsa, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018-yilga nisbatan – mana shu raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman – 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga yetdi.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi.

Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta yetakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltin-valuta zaxiralarimiz 2019-yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga yetdi.

Qishloq xo'jaligida fermer va dehqonlarning manfaatdorligini oshirish borasidagi o'rganish va izlanishlarimiz davom etmoqda. Sohaga ilg'or texnologiyalar va klaster tizimi joriy etilmoqda.

Tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlarimizni safarbar etyapmiz. «Har bir oila – tadbirkor» dasturi doirasida o'z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so'm kreditlar ajratildi.

Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi.

Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etildi.

Jahon bankining «Biznes yuritish» reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik.

Shuningdek, 86 ta davlat fuqarolariga vizasiz va 57 ta davlat fuqarolariga soddalashtirilgan viza rejimi joriy etilishi natijasida o'tgan yili yurtimizga 6,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Bu 2016-yilga nisbatan 4,7 million nafarga yoki 3,3 barobar ko'p demakdir.

Maktabgacha ta'limni rivojlantirish borasida boshlagan islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 5 ming 722 ta davlat, xususiy, oilaviy bolalar bog'chalari tashkil etildi. Shuning hisobidan farzandlarimizni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi bir yil davomida 38 foizdan 52 foizga ko'tarildi.

2019-yilda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi 4 ta Prezident maktabi, 3 ta Ijod maktabi ish boshladi. Oliy ta'limni rivojlantirish uchun o'tgan yili 19 ta yangi oliy o'quv yurti, jumladan, 9 ta nufuzli xorijiy universitetning filiali ochildi. Yetakchi xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda 141 ta qo'shma ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Oliy ta'lim muassasalariga jami 146 ming 500 nafar yoki 2016-yilga nisbatan 2 barobar ko'p talaba o'qishga qabul qilindi.

Ishlayotgan pensionerlarga pensiyani to'liq to'lash tartibi joriy etildi. Ijtimoiy yordamga muhtoj va ehtiyojmand aholi uchun nafaqa miqdori 2 barobar ko'paytirildi.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat muassasalari bilan bir qatorda xususiy tibbiyot yo'nalishi ham jadal rivojlanmoqda. Davolash faoliyati turlari 50 tadan 126 taga ko'paytirilib, qator imtiyozlar berilgani tufayli o'tgan yili 634 ta xususiy tibbiyot muassasasi tashkil etildi.

«Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so'm yoki 2018-yilga nisbatan 1,5 trillion so'm ko'p mablag' sarflandi.

Qishloq joylarda – 17 ming 100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016-yilga nisbatan salkam 3 barobar ko'p arzon va shinam uylar qurildi.

Kam ta'minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so'mdan ziyod boshlang'ich badal to'lab berildi.

Amalga oshirayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – «Economist» jurnali O'zbekistonni 2019-yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat – «Yil mamlakati» deb e'tirof etdi. Bunday baho barchamizga cheksiz g'urur, iftixor va kuch bag'ishlaydi, yangi marralarga ruhlantiradi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaysizlar.

Aziz vatandoshlar!

O'tgan yili amalga oshirgan ishlarimizni tanqidiy tahlil qilib, quyidagi xulosalarni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Birinchidan, barcha darajadagi rahbarlar, erishilgan dastlabki ijobiy ko'rsatkichlarga mahliyo bo'lib, xotirjamlikka aslo berilmasligi kerak.

Yangi Parlament va hukumatning kelgusi 5 yildagi faoliyatining pirovard maqsadi – O'zbekistonda yashayotgan ko'pmillatli xalqimiz hayotini yuksaltirishdan iborat bo'lishi shart.

Shu munosabat bilan deputatlarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: saylovoldi uchrashuvlarida aholi tomonidan ko'tarilgan dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha aniq dastur va «yo'l xaritasi»ni ishlab chiqish hamda ularni mutasaddi idoralar bilan hamkorlikda to'liq amalga oshirish zarur. Aks holda sizlarga ishonch bildirgan saylovchilar oldida deputatning obro'si bo'lmaydi, partiyaning mavqeyi tushib ketadi. Chunki bugun xalqimizning tafakkuri ham, dunyoqarashi ham, talab va ehtiyojlari ham butunlay o'zgardi. Odamlarimiz hamma narsaga ziyrak va teran nazar bilan qaramoqda.

Ikkinchidan, boshqaruv tizimi sifatini oshirishda «**Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak**» degan asosiy tamoyilni amalda to'liq ta'minlash bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz zarur.

Virtual va Xalq qabulxonalariga yiliga 1 milliondan ziyod murojaat kelib tushayotgani xalq bilan muloqotni yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi.

Endi davlat idoralari rahbarlari va hokimlarning ushbu murojaatlarni qay darajada hal etayotgani bo'yicha hisobotini parlament va xalq deputatlari kengashlarida muntazam eshitish tizimi yo'lga qo'yiladi.

Mahalliy budjetlarning qo'shimcha daromadini taqsimlash, nafaqa oluvchilarni adolatli belgilash, ijro organlari rahbarlari ishiga baho berish bundan buyon Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlar tahlili asosida amalga oshiriladi.

Har bir deputat Xalq qabulxonalarini bilan doimiy ishlab, o'z hududida yashayotgan aholi muammolarini yechishda faol ishtirok etishi, odamlarning dard-u tashvishlarini tinglashi kerak. Shunda deputatlar o'z saylovchilariga bergan va'dalari ustidan chiqadi, xalqning ishonchini oqlaydi, mehrini qozonadi. Shunda men ham nafaqat Prezident, balki oddiy saylovchi sifatida sizlardan juda minnatdor bo'lar edim.

Uchinchidan, biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik.

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, **«Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!»**

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda.

Yurtimiz «Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi» bo'yicha 2019-yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat.

Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir

illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor.

Davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy sohada ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etib, natijadorlikni oshirish, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkin.

Qadrli yurtdoshlar!

Hurmatli xalq noiblari!

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma‘naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida men yurtimizda 2020-yilga «**Ilm, ma‘rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili**», deb nom berishni taklif etaman.

Biz 2020-yil nomida belgilangan sohalarni ustuvor darajada rivojlantirish va isloh etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Xususan, bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga yetkazishimiz zarur. Ushbu maqsadlarga shu yilning o‘zida budjetdan qariyb 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Bu yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunga budjetdan 130 milliard so‘m ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta‘lim muassasalari ham bevosita ishtirok etadi.

2020-yilda budjetdan ajratiladigan 1,7 trillion so‘m mablag‘ hisobidan 36 ta yangi maktab qurilib, 211 tasi kapital ta‘mirlanadi. Shuningdek, 55 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularning soni 141 taga yetkaziladi.

Pedagogik mahorat va malaka darajasiga ega bo‘lgan, o‘z ishida aniq natijalarga erishgan o‘qituvchilarga yuqori maosh to‘lash tizimini joriy etamiz.

Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur.

2021-yilgi xalqaro baholash jarayoniga tayyorgarlik ko'rish uchun 348 ta tayanch maktab belgilanib, 6 mingdan ortiq o'qituvchining malakasi oshiriladi.

Joriy o'quv yilidan boshlab mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etiladi.

Kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqiladi. Ushbu tizim 9 mingga yaqin kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash imkonini beradi.

Oliy ma'lumot olaman, o'z ustimda ishlab, ilimli bo'laman, degan, yuragida o'ti bor, jo'shqin yoshlarimizning tahsil olishi uchun hamma qulayliklarni yaratishimiz shart. Shuning uchun maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020-yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50 – 60 foizga yetkazamiz.

Bu borada shuni unutmaslik kerakki, oliy ta'lim qamrovini oshirish to'lov kontraktiga bog'liq bo'lib qolmasligi zarur. Shuni hisobga olib, oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish davlat grantlarini 2 barobar ko'paytiramiz, desam, sizlar bu fikrga qanday qaraysiz?

Qizlarimiz uchun alohida grantlar ham ajratiladi. Xotin-qizlar qo'mitasi ushbu grantlar asosida o'qitishga nomzodlarni tanlash va saralash mezonlarini ishlab chiqishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini ham optimallashtirish zarur. Biz bunda asosiy e'tiborni o'qishga kirish jarayonlarini soddalashtirishga, oliy o'quv yurtlarida chinakam bilim va tarbiya olishga qaratishimiz zarur. Misol uchun, ona tili bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimini yaratish lozim. Yoshlar istalgan vaqtda imtihon topshirib, tegishli guvohnoma olsa, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirayotgan paytda ona tili bo'yicha qayta sinovdan o'tishga hech qanday ehtiyoj qolmaydi.

Oliy ta'lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtiriladi, ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlar qayta ko'rib chiqiladi. Mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar soni 2 barobar qisqartiriladi.

Oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish talab etiladi. Joriy yildan pedagogik ta'limning 6 ta yo'nalishi bo'yicha o'qish muddati 3 yil qilib belgilanadi.

Bu ishlarni boshqa yo'nalishlarda ham davom ettiramiz.

Oliy o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik beriladi. Joriy yilda ularning 10 tasi o'zini o'zi moliyaviy ta'minlashga o'tadi. Bundan tashqari, kamida 5 ta oliy ta'lim muassasasini konkurs asosida tanlab, nufuzli xorijiy oliy ta'lim dargohlari bilan hamkorlikda ularni transformatsiya qilishni boshlaymiz.

Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini biryo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz.

Joriy yilda matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faollashtirilib, olimlarga barcha shart-sharoitlar yaratib beriladi. Shuningdek, ilm-fan sohasida fundamental va innovatsion tadqiqotlar uchun maqsadli grant mablag'larini ajratish mexanizmini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak.

Ilm-fan yutuqlarining elektron platformasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlanmalar bazasini shakllantirish lozim. Har bir oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot dargohi nufuzli chet el universitetlari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi shart.

Joriy yilda «El-yurt umidi» jamg'armasi tomonidan 700 dan ziyod olimlar, professor-o'qituvchilar chet elga ilmiy izlanish va malaka oshirish uchun yuboriladi.

Kelgusida grantlar miqdorini 2 barobar ko'paytirish va tadqiqot yo'nalishlari ko'lamini kengaytirish lozim. Joriy yilda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tub burilish qilishimiz kerak.

Birinchi navbatda, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog'liqni saqlash, ta'lim, arxiv sohalarini to'liq raqamlashtirish lozim. Shuningdek, «Elektron hukumat» tizimini, amalga oshirilayotgan dasturlar va loyihalarni tanqidiy qayta ko'rib chiqib, barcha tashkiliy va institutsional masalalarni kompleks hal etish zarur.

Toshkent shahrida zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan «IT-park» barpo etilmoqda. U hozirdanoq o'zining dastlabki natijalarini bera boshladi. Bunday «IT-park»lar Nukus, Buxoro, Namangan, Samarqand, Guliston va Urganch shaharlarida ham tashkil etiladi.

Soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda «1 million dasturchi» loyihasini amalga oshirish boshlandi.

Shuningdek, ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etilishi shart.

O'tgan yili barcha shahar va tuman markazlarini yuqori tezlikdagi Internetga ulash ishlari yakunlanganini hisobga olib, yaqin 2 yilda barcha qishloq va mahallalarni ana shunday tezkor Internet bilan ta'minlashimiz kerak.

Hozirgi kungacha 7 mingdan ortiq sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablar yuqori tezlikdagi Internetga ulangan bo'lsa, keyingi 2 yilda yana 12 mingta muassasa tezkor Internetga ulanadi. Bu vazifalarni ko'zda tutgan holda, «**Raqamli O'zbekiston – 2030**» dasturini ishlab chiqishni ikki oy muddatda yakunlash lozim.

Kelgusida bu ishlarni tizimli tashkil etishga bosh-qosh bo'lishi uchun hukumatda – Bosh vazir o'rinbosari, vazirlik va idoralarda hamda hokimliklarda esa – alohida o'rinbosar lavozimlari joriy etiladi.

Parlament ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida hukumat, tarmoq va hududlar rahbarlarining hisobotini muntazam eshitib borishi lozim.

Hurmatli parlament a'zolari!

Endi 2020-yil va keyingi yillarda iqtisodiyot sohasida amalga oshirish zarur bo'lgan dasturiy va maqsadli vazifalarga to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Birinchidan, 2020-yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va inflyatsiyani jilovlash – iqtisodiy islohotlar jarayonidagi bosh vazifamizdir.

Biz shu yildan boshlab inflyatsiyaviy targetlash tizimini joriy qilishga o'tdik. Bu borada Iqtisodiyot va sanoat vazirligi, Markaziy

bank, Moliya vazirligi iqtisodiy o'sish bilan inflyatsiya o'rtasida muvozanatni ta'minlashi, tashqi xavf-xatarlarni hisobga olishi zarur.

Davlat tomonidan 37 turdagi mahsulot va xizmatlar narxining tartibga solinayotgani erkin raqobatga salbiy ta'sir qilmoqda. Shuni hisobga olib, endi asosiy e'tiborni narxlarni belgilashga emas, balki korxonalar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash orqali narxlarni pasaytirishga va sifatni oshirishga qaratishimiz kerak.

Xalqaro tajribani o'rganib, raqobatni olib kirish mumkin bo'lgan monopoliya sohalariga xususiy sektor uchun yo'l ochish va shu orqali raqobat muhitini shakllantirish lozim. Bu borada tabiiy monopoliya va raqobat to'g'risidagi qonunlarni yangilash hamda Iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish talab etiladi.

Iste'mol bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxi barqarorligini ta'minlashning yagona yo'li – meva-sabzavot, chorvachilik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirish hamda «daladan do'kongacha» bo'lgan uzluksiz zanjirni yaratishdir. Hukumat barcha darajadagi hokimliklar bilan ushbu vazifa ijrosini to'liq ta'minlashi kerak.

Budjet mablag'larining maqsadli va oqilona sarflanishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish zarur.

Joriy yilda davlat tashqi qarzining yuqori chegarasini belgiladik. Bundan buyon xalqaro moliya tashkilotlaridan olinadigan mablag'larni qaytarish imkoniyati va ularning natijadorligiga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Vazirlar Mahkamasi uch oy muddatda xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, «Davlat moliyaviy nazorati to'g'risida» va «Davlat qarzi to'g'risida»gi qonunlar loyihalarini ishlab chiqsin.

Islohotlarimizga jiddiy to'sqinlik qilayotgan «yashirin iqtisodiyot»ga barham berilmas ekan, sog'lom raqobat ham, qulay investitsiya muhiti ham shakllanmaydi.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda, xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, «yashirin iqtisodiyot»ning vujudga kelish omillarini chuqur tahlil qilib, unga qarshi kurashish dasturini tasdiqlasin.

Shuningdek, «yashirin iqtisodiyot» ulushi yuqori bo'lgan alkogol va tamaki bozorini tartibga solish uchun tovarlarni raqamli markirovka qilish tizimini joriy etish ishlari boshlandi. Bu tizim kelgusida farmatsevtika mahsulotlari uchun ham qo'llaniladi. Vazirlar Mahkamasi qiymati 200 million dollar bo'lgan, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar hisobidan amalga oshirilayotgan ushbu «raqamli markirovka va onlayn kassa» loyihasini alohida nazoratga olsin.

Ikkinchidan, iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish zarur.

Joriy yilda 23 milliard dollarlik investitsiyalar o'zlashtiriladi hamda 206 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushiriladi. Jumladan, Sho'rtan gaz-kimyó kompleksida sintetik suyuq yoqilg'i, «Navoiyazot» aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi, ammiak va karbamid ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi. Yangi Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent metrosining Sirg'ali tarmog'i, yer usti halqa yo'lining birinchi bosqichi ishga tushiriladi.

2020-yilda o'zlashtiriladigan investitsiyalarning salmoqli qismi to'g'ridan to'g'ri xorijiy sarmoyalar va kreditlar bo'lishini alohida qayd etmoqchiman. Investorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash, infratuzilma yaratish xarajatlarini qisman davlat tomonidan qoplash mexanizmlari joriy etilmoqda.

Shuningdek, foyda solig'ini hisoblashda yangi texnologik uskunalar xarid qilish, yangi obyektlarni qurish va modernizatsiya qilish xarajatlari bo'yicha chegirmalar kengaytirildi.

Mavjud 3 mingga yaqin davlat ishtirokidagi korxonalarni xatlovdan o'tkazib, xususiy sektor va raqobat rivojlangan yo'nalishlardagi korxonalarda davlat ishtirokini keskin kamaytirish choralarini ko'rish kerak.

Navoiy va Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatlari kabi yirik sanoat korxonalarida yangi investitsion loyihalarni amalga oshirish bilan birga, ushbu korxonalarni xalqaro moliya bozorining to'laqonli ishtirokchisiga aylantirish lozim. Buning uchun 2020-yilda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish, zaxiralarni qayta

hisoblash, korporativ oshkoralikni tatbiq etish kabi ishlarni yakunlash zarur.

Neft-gaz sohasidagi davlat korxonalarini boshqarishga xorijiy ekspertlarni jalb etib, ularning samaradorligini oshirish va xarajatlarini optimallashtirish, qarz miqdorini kamaytirishga erishish lozim.

Vazirlar Mahkamasi ana shu vazifalarni to'liq hisobga olib, ikki oy muddatda Davlat ishtirokidagi korxonalarga egalik qilish, ularni boshqarish va isloh etish strategiyasini ishlab chiqsin.

Xorijiy investorlarni faol jalb etish maqsadida joriy yil mart oyida Toshkent xalqaro investitsiya forumini yuqori saviyada o'tkazish zarur.

Investitsiya jalb etishning samarali vositalaridan biri bo'lgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini transport, energetika, yo'l, kommunal, tibbiyot, ta'lim kabi sohalarga keng tatbiq etish kerak.

Hozirgi vaqtda qurilish sohasi iqtisodiyotning muhim «drayver»laridan biriga aylandi. Bu sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 6 foizdan oshgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlab turibdi. Ushbu tarmoqni yanada rivojlantirish uchun qurilishga oid normalarni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy qurilish texnologiyalari va materiallarini tatbiq etish, soha uchun kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish zarur. Shuningdek, tenderlar o'tkazishning aniq mezonlarini ishlab chiqish va sohada axborot texnologiyalarini keng joriy etish kerak.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda qurilish sohasini 2025-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqsin.

Uchinchidan, bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko'rishimiz lozim.

Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo'llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta'minotlar bo'yicha zamon talablaridan 10–15 yil orqada qolmoqda.

2020-yildan boshlab har bir bankda keng ko'lamlı transformatsiya dasturi amalga oshiriladi. Bu borada banklarimizning kapital, resurs bazasi va daromadlarini oshirish alohida e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Bank tizimida tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlaydigan «loyihalar fabrikasi» faoliyatini yo'lga qo'yishimiz lozim.

Banklarimiz xalqaro moliya bozorlariga chiqib, arzon va uzoq muddatli resurslar olib kelishi zarur. Milliy bank va Ipoteka bank bu yil o'z yevrobondlarini chiqarishi maqsadga muvofiqdir.

Davlat ulushiga ega bo'lgan banklar bosqichma-bosqich strategik investorlarga sotiladi.

Bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi – tijorat banklarini mijoz uchun ishlashga o'rgatishdan iborat.

Soha uchun zamonaviy kadrlar tayyorlash maqsadida Bank-moliya akademiyasi xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda to'liq qayta tashkil etiladi. Shuningdek, davlat banklarida zamonaviy bank amaliyoti, menejmenti va xizmatlarini joriy etish uchun rahbarlik lavozimlariga xorijiy yetakchi moliya institutlarining malakali mutaxassislarini jalb etish boshlandi va bu jarayon izchil davom etadi.

Banklarda axborot texnologiyalarini keng tatbiq etish orqali ularning dasturiy ta'minotini tubdan yangilash lozim. Shu yil 1-iyulga qadar «kredit tarixi» axborot tizimini to'liq ishga tushirish zarur.

Aholida bank tizimiga nisbatan ishonchni shakllantirish va banklar faoliyatiga chetdan aralashishga chek qo'yish kerak.

To'rtinchidan, barqaror iqtisodiy o'sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko'paytirish, tranzit salohiyatidan to'liq foydalanish hisoblanadi.

Bu yil eksportyorlarga kafillik beradigan va xarajatlarning bir qismini qoplaydigan – Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda eksportni oldindan moliyalashtirish uchun – Eksport-kredit agentligi tashkil etiladi. Shuningdek, eksport qilishda zamonaviy sug'urta xizmatlari yo'lga qo'yiladi, avtomobil va havo transporti xarajatlarini qisman davlat tomonidan qoplab berish mexanizmi joriy qilinadi.

Tashqi savdo bilan bog'liq nazorat tizimi va infratuzilmani yaxshilash zarur. Jumladan, xorijiy tajribadan kelib chiqib, bojxona postlarida nazoratni amalga oshiradigan bojxona, sanitariya, karantin, veterinariya va boshqa idoralar faoliyatini isloh qilish lozim.

2020-yilda 3 mingga yaqin standartlarni qabul qilish, ularning sonini 10 mingtaga va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashish darajasini 40 foizga yetkazish darkor. Andijon, Termiz va Qo'ng'iro't tumanlarida erkin savdo zonalarini tashkil etib, ular orqali chegaraoldi savdosini rivojlantirish zarur.

Xaridorgir mahsulotlar turlarini aniqlash, ularga bozor topish va sotish bilan xususiy treyding kompaniyalari shug'ullanishi, buning uchun esa, savdo faoliyatini tartibga soladigan qonun loyihalari to'plamini ishlab chiqish lozim. Bu tashqi savdo bilan bir qatorda, ichki bozorga ham tegishli.

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish konsepsiyasini ishlab chiqsin hamda ana shu vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha tegishli qarorlarni tayyorlasin.

Mahsulotlarimizni ichki va tashqi bozorlarga yetkazish, ularning tannarxini tushirish uchun transport-logistika sohasini rivojlantirishimiz zarur.

Temiryo'l sohasida yo'lovchi va yuk tashish, ekspluatatsiya va xizmat ko'rsatishni bir-biridan ajratish, ya'ni, tabiiy monopoliya qismini alohida, xususiy sektorni jalb qilish mumkin bo'lgan yo'nalishlarni alohida rivojlantirish lozim.

Xalqaro ekspertlarning xulosasiga ko'ra, infratuzilmani yaxshilash, moslashuvchan tariflar qo'llash va yangi istiqbolli yo'nalishlarni shakllantirish hisobidan bizda tranzit salohiyatini hozirgi 7 million tonnadan 16 million tonnaga yetkazish imkoniyati mavjud.

Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Aholi daromadlarini oshirish, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun bizga yangi-yangi bozorlar kerak. Buning uchun bozor iqtisodiyoti va davr talablariga mos ko'plab qonun va qarorlarni qabul qilyapmiz. Lekin, afsuski, ularni ijro etadigan ko'pgina amaldorlar hali ham eskicha ish uslubi, rasmiyatchilik va befarqlikdan qutulgani yo'q.

Ochiq bozor mahsulot sifatini oshirish, tannarxni pasaytirish, yangi texnologiyalar olib kelishga majbur qiladi, bozor islohotlarini jadal rivojlantiradi. Sodda qilib aytsak, jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga

hamohang bo'lishimiz lozim. Muloqot va raqobatga tayyor bo'lish uchun tarmoq rahbarlari o'z ustida tinimsiz ishlashi shart.

Mana, nima uchun bizga iqtisodiy integratsiya kerak!

Bizning tashqi savdoga chiqadigan yuklarimizning 80 foizi Qozog'iston, Qirg'iziston va Rossiyaning tranzit yo'laklari orqali o'tadi. Shuningdek, tayyor mahsulotlarimiz eksportining 50 foizi, ayrim tovarlar bo'yicha esa 80 foizi Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston hissasiga to'g'ri keladi.

Ana shu omillarni inobatga olib hamda Rossiya va Qozog'istonga ishlash uchun borgan fuqarolarimizga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida bugungi kunda O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlik qilish bilan bog'liq masalalar o'rganilmoqda. Biz, albatta, ushbu jiddiy masalada, eng avvalo, xalqimizning manfaatlaridan kelib chiqib, uning xohish-irodasiga tayanamiz.

Shuning uchun xalq vakillari bo'lgan deputat va senatorlarimiz parlament palatalarida mazkur masalani atroflicha muhokama qilib, o'z zimmlariga mas'uliyatni olgan holda, asoslangan xulosalarini aytishlari kerak.

Vazirlar Mahkamasi ushbu yo'nalishdagi tahliliy va kompleks baholash ishlarini yakunlab, tegishli xulosa va takliflarni Oliy Majlis palatalariga taqdim etsin.

Shu bilan birga, biz Jahon savdo tashkiloti bilan boshlangan muloqotimizni hamda Yevropa Ittifoqi bilan Hamkorlik va sheriklik to'g'risidagi yangi bitimni tuzish bo'yicha ishlarni izchil davom ettiramiz. Shuningdek, biz boshqa xalqaro va mintaqaviy iqtisodiy tashkilotlardagi ishtirokimizni yanada kuchaytiramiz.

Beshinchidan, sanoat tarmoqlarini uzluksiz xomashyo va zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash zarur.

Iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlari, jumladan, kimyo, neft va gaz, energetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, zargarlik sanoatini xomashyo bilan ta'minlash uchun, avvalo, geologiya-qidiruv sohasini tubdan rivojlantirish lozim. Shuni hisobga olib, joriy yilda istiqbolli konlarni aniqlash va mavjud zaxiralarni ko'paytirish uchun budjetdan 2 trillion so'm mablag' ajratilmoqda.

Davlat geologiya qo'mitasi oldiga ushbu mablag'larni samarali ishlatish orqali shu yilda yangi istiqbolli maydonlar va konlarni aniqlashni 35 foizga, kelgusi yilda esa 40 foizga oshirish vazifasi qo'yiladi.

Davlat geologiya qo'mitasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birga kamida 20 ta kon bo'yicha tayyor loyihalar to'plamini shakllantirib, salohiyatli investorlarga taklif etishi lozim. Shuningdek, Qo'mita uglevodorodlar va ularning zaxiralari bo'yicha hisob-kitob yuritish, toifaga ajratish va boshqarishning xalqaro tizimini amaliyotga joriy etishi kerak.

Iqtisodiy yuksalishni ta'minlash uchun barcha qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy infratuzilma barpo etish nihoyatda zarur.

Biz keyingi 3 yilda yo'l qurilishiga – 9,8 trillion so'm, suv tarmoqlariga – 4,6 trillion so'm, elektr tarmoqlariga – 18,2 trillion so'm, tabiiy gaz ta'minotiga – 1,2 trillion so'm mablag' ajratdik. Bu raqamlar ushbu tarmoqlar uchun so'nggi 10 yilda sarflangan mablag'lardan bir necha barobar ko'pdir. Lekin, shunga qaramasdan, zamonaviy infratuzilma yaratish, mavjud tizimni modernizatsiya qilish uchun bundan bir necha o'n barobar ko'p mablag' talab etiladi.

Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz har yili Investitsiya dasturi doirasida katta mablag' ajratib, bu yo'nalishdagi ishlarni albatta jadal davom ettiramiz. Bunga qo'shimcha ravishda respublika va mahalliy budjetlarning prognozdan yuqori tushumlarining yarmini infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga yo'naltirish – Moliya vazirligi va hokimlar uchun joriy yildagi asosiy vazifalardan biri bo'lishi kerak.

Qonunchilik palatasi Hisob palatasini jalb etgan holda, ushbu mablag'larning maqsadli va samarali ishlatilishini joylarga chiqib, muntazam ravishda o'rganib borishi maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, biznes muhitini yanada yaxshilash biz uchun eng muhim masalalardan biri bo'lib qoladi.

Jahon bankining «Biznes yuritish» reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha barcha tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni qabul qildik. Hukumat ushbu tadbirlarning amaliy ijrosini samarali tashkil etishi zarur.

Yaqinda qabul qilingan yangi Soliq kodeksiga muvofiq, bu yildan boshlab ko'plab yangiliklar amaliyotga joriy etilmoqda. Jumladan, soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish bo'yicha yengillashtirilgan mexanizmlar kiritildi.

Birinchi marta tadbirkorlarga ichki bozorda sotgan mahsuloti bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismini qaytarish tartibi joriy etilmoqda. Hozirgacha bu tartib faqat mahsulot eksport qilinganda qo'llanar edi. Buning hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida 3,4 trillion so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p mablag' qoladi.

Endi tadbirkor tomonidan to'langan ortiqcha soliq o'z muddatida qaytarilmasa, unga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha budjetdan foiz to'lanadi. Buning ahamiyatini mana shu zalda o'tirgan va «oynayi jahon» orqali mening so'zlarimni eshitayotgan tadbirkorlar, o'ylaymanki, hammadan ko'ra yaxshi tushunadi.

Soliq kodeksi normalarini har bir soliq xodimi, tadbirkorlar va soliq to'lovchilar puxta o'zlashtirishi, buning uchun ularni muntazam ravishda o'qitish zarur.

Soliq xizmati xodimlari dunyoqarashini tubdan o'zgartirish va malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida Davlat soliq qo'mitasi qoshida Fiskal institutini tashkil etishni taklif qilaman. Bu jarayonga katta tajribaga ega bo'lgan nufuzli xorijiy ekspertlarni jalb etish zarur.

Shu bilan birga, tadbirkorlarni ko'p qiynaydigan soha — litsenziyalash va ruxsatnomalar berish tartiblarini jiddiy o'zgartiramiz. Ochiq aytish kerak, mavjud 280 ga yaqin litsenziya va ruxsatnomalar orasida faoliyat turlari hisobini yuritish, mablag' undirish yoki shunchaki nazorat qilish uchun joriy qilinganlari ham bor. Bu esa tadbirkorlarning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Shu sababli Adliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman 2020-yil 1-martga qadar litsenziya va ruxsatnomalar berish asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqib, ularning sonini kamida 2 barobar qisqartirish bo'yicha aniq taklif kiritsin. Shuningdek, «Kichik va o'rta biznes to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarur. Unda kichik va o'rta biznes mezonlari hamda bu soha vakillarini rag'batlantirish mexanizmlari nazarda tutilishi kerak.

Bu yil har bir hududda tadbirkorlarga yer uchastkalariga oid ma'lumotlarni ochiq va haqqoniy yetkazish bo'yicha yangi tizim joriy etamiz. Unga ko'ra, tadbirkorning faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bo'sh yer maydonlari, bino va inshootlar, ularning qiymati va shartlari haqidagi to'liq xaritani istalgan vaqt va hududda onlayn tartibida olish imkoniyati yaratiladi.

Xabaringiz bor, bundan 2 yil oldin korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga nisbatan e'lon qilingan moratoriyning muddati tugadi. Lekin, bu yana eski usulda yoppasiga tekshir-tekshirlarni boshlab yuborish mumkin, degani emas. Kingadir yoqadimi-yo'qmi, biz bunga yo'l qo'ymaymiz. Barcha nazorat idoralari rahbarlari shuni qulog'iga yaxshilab quyib olsin.

2020-yilning birinchi choragida, ilg'or tajribalar asosida, barcha darajadagi nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy tizim joriy etilishi shart. Ana shu tizim orqali har bir korxonada va tadbirkor bo'yicha alohida-alohida ish olib borib, ularning qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash, tekshirishni esa eng so'nggi favqulodda chora sifatida adolatli o'tkazish lozim. Mazkur masala yuzasidan, nazorat idoralari rahbarlari parlament oldida har chorakda shaxsan hisobot berib boradi.

Bankrotlik borasidagi hozirgi tartib-tamoyillar korxonalarini tugatish va mol-mulkdan tushgan mablag'lar hisobidan qarzlarni qoplashni nazarda tutadi. Shuning uchun so'nggi 3 yilda atigi 3 ta korxonada sanatsiya qo'llangan, xolos. Endi bunday qoidadan butunlay voz kechib, to'lovga qobiliyatsiz korxonalarini eng ilg'or xorijiy tajriba asosida sog'lomlashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etamiz.

Tadbirkorlarning huquqlarini ta'minlashda Oliy Majlisning ikkala palatasi ham ta'sirchan parlament nazoratini yo'lga qo'yishi zarur.

Tadbirkorlik sohasida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan ayrim jinoyat turlarini jinoyat toifasidan chiqarish siyosatini izchil davom ettirishimiz lozim. Jumladan, soxta tadbirkorlik, raqobatchining obro'sini tushirish kabi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bekor qilinadi. Shuningdek, bojxona qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq jinoyatni birinchi marta sodir etgan, lekin to'lovlarni to'lagan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kerak.

Yuridik shaxs bo'lgan tadbirkorlik subyekti a'zolariga «jinoiy uyushma» degan ayblov qo'yib, ularga og'ir jazo tayinlash kabi allaqachon umrini o'tab bo'lgan tartiblarni bekor qilish vaqti yetdi. Buning oqibatida yuzlab tadbirkorlar qanchadan qancha aziyat chekib, moddiy zarar ko'rayotganlarini inobatga olsak, bu o'zgarishlarning qanday katta ahamiyatga ega ekani yaqqol ayon bo'ladi.

Oliy sud, Bosh prokuratura, Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, Adliya vazirligi 2020-yil 1-aprelgacha ana shu masalalar bo'yicha tegishli qonun loyihasini puxta ishlab chiqishi lozim.

Yettinchidan, iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o'sishini ta'minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarur.

Tarmoqdagi hozirgi o'sish sur'atlari bizni mutlaqo qoniqtirmaydi. Bu borada bozor mexanizmlarini keng joriy etib, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirmas ekanmiz, biz kutgan sezilarli o'zgarish bo'lmaydi. **Shu bois paxta va g'alla yetishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o'tamiz. Agar bu yo'ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot yetishtirishda erkin bo'lmaydi, ular o'zlari kutganlaridek manfaat ko'rmaydi, hokimlarning esa ish uslubi o'zgarmaydi.**

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasini isloh qilib, agrar sohaning boshqa tarmoqlariga ham arzon kreditlar ajratish yo'lga qo'yiladi.

Kelgusida Qishloq xo'jaligi vazirligi soha korxonalariga ko'rsatma berish, resurslarni taqsimlash, reja belgilash kabi eski ish usullaridan mutlaqo voz kechishi zarur. Buning o'rniga vazirlik servis tashkilotiga aylanishi, xususiy agrosanoat tashkilotlariga yer holatini aniqlash, ekin turlari va urug'ni to'g'ri tanlash, zararkunandalarga qarshi kurashish, moliyaviy ko'maklashish, mahsulot bozorini topish bo'yicha xizmat ko'rsatishi kerak.

Agrar tarmoqda fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash bilan birga, paxta va g'alla yetishtirishni klaster shakliga bosqichma-bosqich o'tkazish bo'yicha izlanishlarimizni davom ettiramiz.

Meva-sabzavot, sholichilik, chorvachilik, ipakchilik kabi boshqa tarmoqlarda ham bugungi kun talabiga javob beradigan klasterlarni tashkil etish ishlarini davom ettiramiz.

Bu yil 2 milliard dollarlik, keyingi 5–7 yilda esa 3–4 barobar ko‘p meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish uchun mahsulot yetishtirishni keskin ko‘paytirish choralarini ko‘rish zarur.

Parlamentimiz ushbu islohotlarimizning huquqiy asosi bo‘lgan «Kooperatsiya va klasterlar to‘g‘risida»gi yangi qonunni tezroq qabul qilsa, ushbu katta reja va niyatlarimizga mos ish bo‘lur edi.

Bu yil meva-sabzavotchilik, uzumchilik, urug‘chilik, chorvachilik, agro-logistikani rivojlantirish, suvni tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy tadqiqot ishlari, soha uchun malakali kadrlarni tayyorlashga 3 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltiramiz. Chorvachilik, qorako‘lchilik, baliqchilik, parrandachilik kabi sohalarda naslchilikka alohida e‘tibor qaratilib, uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning yangi mexanizmlari tatbiq etiladi.

2020-yilda 44 ming gektar yerda yoki o‘tgan yilga nisbatan qariyb 4 barobar ko‘p maydonda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etamiz. Buning uchun davlat budjetidan 300 milliard so‘m subsidiya ajratiladi. Shuningdek, suv xo‘jaligi obyektlarini boshqarish jarayonlarini, suvni nazorat qilish va uning hisobini yuritish tizimini avtomatlashtirish zarur. Ushbu masalalar Suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasida o‘z aksini topishi kerak. Vazirlar Mahkamasi joriy yil 1-aprelga qadar ana shu konsepsiya loyihasini tasdiqlash uchun kiritsin.

Sakkizinchidan, turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga yetkazishdan iborat.

Ma‘lumki, qator nufuzli xorijiy ommaviy axborot vositalari 2020-yilda O‘zbekistonni sayohatga albatta borish tavsiya etilgan mamlakatlar qatoriga kiritdi. Biz bunday imkoniyatdan unumli foydalanishimiz kerak.

Katta salohiyatga ega bo'lgan ziyorat va tibbiyot turizmini ham jadal rivojlantirish zarur.

Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, turizm marshrutlariga ularning atigi 500 tasi kiritilgan.

Hukumat uch oy muddatda ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi obyektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilasin.

Yana bir vazifa – UNESCOning Umumjahon moddiy madaniy merosi va Nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga O'zbekistondagi yangi obyektlarni kiritishni tezlashtirish lozim.

Joriy yilda yangi zamonaviy mehmonxonalarni qurishga davlat budjetidan 200 milliard so'm subsidiya ajratib, turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish zarur.

To'qqizinchidan, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirgan holda, hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish kerak.

Ana shu ishlar doirasida 7 ta yirik shahar – Andijon, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Farg'ona, Namangan, Nukusga tutash bo'lgan 12 ta yo'ldosh shaharcha tanlab olinib, ularni rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Ana shu vazifa bilan bog'liq yana bir masala shuki, asosiy ishchi kuchi yashaydigan va ish o'rinlari yaratilayotgan hududlarimiz o'rtasida tafovut mavjud. Buning yechimi – ichki migratsiyani erkinlashtirishdan iborat.

Shu bois, parlament va hukumat 2020-yil 1-aprelga qadar propiska tizimini isloh qilish bo'yicha xalqaro tajribani o'rganib, aniq takliflarni ishlab chiqishi lozim.

Uy-joy qurilishiga xususiy sektorni faol jalb qilmasdan turib, aholining uy-joyga bo'lgan talabini to'liq ta'minlash mumkin emas. Shu sababli yangi ipoteka tizimi joriy etilmoqda.

Bu borada viloyatlardagi shaharlar va Toshkent shahrida 18 mingga yaqin hamda qishloqlarda 4 mingta uy-joy xususiy sektor tomonidan quriladi. Davlat banklar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash maqsadida ularga qariyb 4 trillion so'm mablag'larni auksionlar orqali ajratadi.

Kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida shaharlarda 16 ming oilaga uy-joy olish uchun boshlang'ich badal va kredit foizini qoplashga budjetdan 1 trillion so'm subsidiya ajratiladi.

Mening eng katta niyatim shuki, Vatanimiz ichra har «bir inson o'zining «kichik vatani»ga – uy-joyiga ega bo'lsa, bizdan xalqimiz ham, Yaratgan ham rozi bo'ladi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Oxirgi uch yilda «Inson manfaatlari hamma narsadan ustun» degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamlı ijtimoiy islohotlarni davom ettiramiz. Buning uchun **birinchi navbatda** aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – biz uchun bosh vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbayiga ega emasligidan xabaringiz bor. Har qanday mamlakatda bo'lgani kabi bizda ham kam ta'minlangan aholi qatlamlari mavjud. Turli hisob-kitoblarga ko'ra, ular taxminan 12–15 foizni tashkil etadi. Bu o'rinda gap kichkina raqamlar emas, balki aholimizning 4–5 millionlik vakillari haqida bormoqda.

Ba'zi odamlar ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam pulini to'lash yoki ularning miqdorini oshirish orqali ushbu muammoni hal etish mumkin, deb o'ylaydi. Bu – bir tomonlama yondashuv bo'lib, muammoni to'la yechish imkonini bermaydi.

Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir.

Shuning uchun Jahon banki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan birga Kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqishni taklif etaman. Bu borada xalqaro me'yorlar asosida chuqur o'rganishlar o'tkazib, kambag'allik tushunchasi, uni aniqlash mezonlari va baholash usullarini qamrab olgan yangi metodologiyani yaratish lozim. Shuningdek, Farg'ona vodiysining 22 ta qishloq tumanida aholi o'rtasida zamonaviy ishbilarmonlik va biznes ko'nikmalarini shakllantirish

bo'yicha boshlangan ijobiy tajribani barcha hududlarda bosqichma-bosqich joriy etishimiz kerak.

Joylardagi ijtimoiy muammolarni hal etishga oid tadbirkorlik tashabbuslarini, ayniqsa, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ustuvor ahamiyat berish zarur. Shu maqsadda aholi va tadbirkorlarga, mikromoliya xizmatlari va moliyaviy resurslarga, davlat xaridlariga keng yo'l ochib beriladi. Bunday choralar orqali odamlarimizda tadbirkor bo'lishga ishtiyoq va ishonch ortadi, ular ko'proq daromad olishga intiladigan bo'ladi.

Shu bilan birga, hamma ham tadbirkor bo'la olmaydi. Shu sababli ijtimoiy band bo'lmagan odamlar bilan tizimli ish olib borib, ularni kasbga qayta tayyorlash orqali munosib ish joyi bilan ta'minlash lozim. Ushbu maqsadlar uchun 700 million dollar jalb qilinadi.

Biz yangi ish o'rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularni yelkamizda ko'tarishimiz kerak.

Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddatda ijtimoiy tadbirkorlik asoslari va uni rag'batlantirish choralari to'g'risida tegishli qonun loyihasini ishlab chiqish topshiriladi. Shuningdek, hukumat joriy yilda davlat dasturlari doirasida hamda tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 500 mingta yangi ish o'rni yaratishni ta'minlashi zarur.

Shu munosabat bilan bir fikrni alohida ta'kidlab aytmoqchiman: har bir tarmoq, soha, viloyat va tumanda yaratilgan tadbirkorlik subyektlari va yangi ish o'rinlari, ana shu tuzilmalar rahbarlari faoliyatini baholashda eng asosiy mezon bo'ladi.

Yil davomida budjet tizimi xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdori inflyatsiya darajasidan yuqori miqdorda oshiriladi.

Ijtimoiy nafaqa to'lashning mukammal tizimini joriy etish, jumladan, kam ta'minlangan oilalarga ko'mak ko'rsatish qamrovini kengaytirish, budjet mablag'larining maqsadli sarflanishini ta'minlash zarur. Shuningdek, nafaqa tayinlashdagi mezonlarni qayta ko'rib chiqish va ularni belgilashda ochiq va adolatli tizim yaratish,

bu borada mahallaning ishtirokini tanqidiy qayta ko'rib chiqish lozim. Umuman olganda, aholi ijtimoiy nafaqa bo'yicha bitta idoraga murojaat qilganidan keyin o'sha idoraning o'zi bir kunda hamma hujjatlarni tayyorlab, masalaning yechimini topishi kerak.

Fuqarolarimiz pensiyaga chiqishi uchun faqat pasporti bilan borib, murojaat qilishi kifoya bo'ladigan tizim yaratiladi. Buning uchun, birinchi navbatda, davlat arxivi tizimi elektron shaklga o'tkazilishi kerak.

Joriy yilda keksalar, jumladan, yolg'iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit va ta'sirchan tizim yaratish zarur. Bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy to'lovlar miqdori ham qayta ko'rib chiqilishi kerak.

«Mehribonlik uylari»da tarbiyalangan yoshlarning ijtimoiy moslashuvi, xususan, ularni ish bilan, kelajakda uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish zarur. Chunki bunday farzandlarimiz ularning g'amxo'ri, mehriboni, ortidagi suyanchi davlat va jamiyat ekanini doimo qalbdan his qilib turishi shart.

Nogironlik, dafn marosimi, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqalar, ish paytida mayib bo'lganlik uchun tovon puli kabi to'lovlarni qayta ko'rib chiqib, «Ijtimoiy sug'urta to'g'risida»gi qonunni ishlab chiqish zarur.

Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda Aholini ijtimoiy himoya qilish konsepsiyasini ishlab chiqishi, yuqorida qayd etilgan yo'nalishlar bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilashi lozim.

Ikkinchidan, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha islohotlarimizni ham qat'iyat bilan davom ettiramiz.

Shifokorlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini kuchaytirish, xalqimiz o'rtasida ularga nisbatan hurmatni oshirish, ushbu kasb egalari uchun munosib mehnat sharoiti yaratish va daromadini ko'paytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rishimiz darkor.

Davlat tibbiyot tashkilotlari va aholini dori vositalari, tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashga o'tgan yilga nisbatan 1,3 barobar ko'p yoki qariyb 1,5 trillion so'm ajratiladi. 281 ta tibbiyot muassasasini

qurish va ta'mirlashga budjetdan 1,1 trillion so'm sarflanadi. Shuningdek, 17 ta ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot muassasasini boshqarishda zamonaviy menejment mexanizmlarini joriy etish zarur.

Davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish, sog'lom raqobatni kuchaytirish, birinchi navbatda, ixtisoslashgan tibbiyot markazlariga xorijiy investorlarni jalb etish choralarini ko'rish darkor.

Gematologik va virusologik yordam sifatini oshirish, bu turdagi davolash qiyin bo'lgan bemorlarga tibbiy xizmat ko'rsatishni tubdan isloh etishning vaqti keldi.

Qon va virusli kasalliklarni barvaqt aniqlash, davolash uchun malakali gematolog, virusolog va immunolog tayyorlash, dori-darmon va tibbiyot texnikasi uchun mablag'larni ko'paytirishimiz kerak.

Ixtisoslashgan markazlar va ularning filiallarida, shuningdek, Toshkent shahridagi tibbiyot muassasalarida shu yil elektron tibbiy kartalarni joriy etish darkor.

Sog'liqni saqlash sohasini moliyalashtirishni tubdan isloh qilish maqsadida bu yil majburiy tibbiy sug'urtaga oid qonunlarni qabul qilish va ularni amalga oshirish bo'yicha barcha tashkiliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim.

Ushbu tizimni joriy yilda Sirdaryo viloyatida tajriba sifatida qo'llash boshlanadi.

Dori vositalari harakatini nazorat qilish, kontrafakt mahsulotlar aylanishiga chek qo'yish va dorilarning real narxini onlayn tartibida kuzatib borish tizimini yaratish ham dolzarb vazifadir.

Uchinchidan, biz bu yil xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'taramiz.

2020-yilda 5,5 ming nafar xotin-qizning kichik biznes yo'nalishidagi loyihalariga 100 milliard so'm miqdorida imtiyozli kredit beriladi. Buning uchun banklarga davlat budjetidan resurs ajratamiz. Bundan tashqari, 1 ming 576 nafar xotin-qizga yangi uy-joylarga ega bo'lishi uchun budjet hisobidan boshlang'ich badal to'lab beriladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj opa-singillarimizni Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlarida 5 ta muhim tashabbus doirasida qisqa o'quv kurslarida o'qitish tashkil etiladi.

Mamlakatimizdagi tub o'zgarishlar, yoshlarga oid davlat siyosatini yanada rivojlantirishni kun tartibiga qo'yimoqda. Yoshlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo'yicha yagona ko'rsatkichlar ishlab chiqish, yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi **«O'zbekiston yoshlari – 2025» konsepsiyasini** ishlab chiqishi, unda ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi zarur.

Jamiyatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashda hech kim chetda turmasligi, **«O'z bolangizni, o'z uyingizni, o'z Vataningizni ko'z qorachig'idek asrang!»** degan shior odamlarimiz qalbidan chuqur joy olishi kerak.

Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Shu bois, **«Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari»** degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni shakllantirish – o'ta sharaflı vazifadir.

Yoshlar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasidan boshlangan yangi tashabbusimizni butun mamlakatimiz bo'yicha amalga oshiramiz. Men viloyat rahbarlarini, joylardagi barcha jamoatchilikni ushbu masalaga jiddiy e'tibor berishga chaqiraman.

To'rtinchidan, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish kerak.

Bu borada hududlarda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz uchun yangi ommaviy sport obyektlarini qurish zarur. Bu yil 269 ta futbol, voleybol, basketbol va badminton maydonlari, 178 ta boks, kurash, fitnes va gimnastika sport zallari, 32 ta tennis korti qurish bo'yicha salkam 500 milliard so'mlik loyihalar amalga oshiriladi.

Yoshlar orasida iqtidorli sportchilarni seleksiya qilishning «**tashkilot – tuman (shahar) – hudud – respublika**» bosqichlaridan iborat to‘rt bosqichli tizimi joriy etiladi.

Bu yil Tokioda bo‘lib o‘tadigan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida sportchilarimiz munosib ishtirok etishi uchun hukumat va Milliy olimpiya qo‘mitasi barcha sharoitlarni yaratishlari zarur.

Beshinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e‘tiborni kuchaytirishimiz kerak.

Avvalo, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha boshlagan misli ko‘rilmagan ishlarimizni davom ettirib, dengizning qurigan tubida o‘rmonzorlarni kengaytirish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida «yashil belbog‘»lar barpo etishimiz lozim.

Ishlab chiqarish jarayonini ekologik nazorat qilish tizimini takomillashtirish, ekologik audit o‘tkazish tartibini qayta ko‘rib chiqib, xususiy auditorlik faoliyatini jonlantirish ham muhim vazifadir.

Hukumat sanoat rivojining ekologiyaga ta‘sirining oldini olish bo‘yicha 2025-yilgacha mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqsin. Shuningdek, nufuzli xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, joriy yil 1-oktabrga qadar Ekologiya kodeksi loyihasini ishlab chiqishi lozim.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tuman va shaharlar hokimliklari har bir hudud va korxonada bo‘yicha ekologiyani yaxshilash, chiqindilarga doir ishlar yuzasidan dasturlar ishlab chiqishi va ularning ijrosini ta‘minlashi shart.

Oltinchidan, madaniyat va san‘at muassasalariga alohida e‘tibor qaratish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini ko‘rish zarur.

Joriy yilda budget mablag‘lari hisobidan 22 ta teatr va madaniyat obyektlari quriladi va rekonstruksiya qilinadi. Shuningdek, davlat-xususiy sherikligi asosida 20 ta madaniyat markazi va istirohat bog‘lari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Kinematografiya sohasida badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratish, zamonaviy kinoindustriyani rivojlantirish, jumladan, yangi kino-teatrlar qurishni ta‘minlash lozim.

Joriy yilda davlat buyurtmasi asosida kino mahsulotlari ishlab chiqarishni moliyalashtirish takomillashtiriladi. Shu bois, Kinematografiyani 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini hamda «Kinematografiya to'g'risida»gi qonunni ishlab chiqishimiz lozim.

Bundan tashqari, bu yil madaniy hayotimizdagi muhim voqea – Shahrisabz shahrida ikkinchi Xalqaro maqom festivalini muvaffaqiyatli o'tkazishimiz kerak.

Shuningdek, 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma'rifat mash'alasini baland ko'tarib chiqqan ulug' alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi.

Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Har tomonlama mukammal va samarali boshqaruv tizimini yaratish – oldimizda turgan ulkan vazifalarni bajarishning asosiy shartidir.

Biz parlamentning qonun ijodkorligi, parlament nazoratini samarali tashkil etish mexanizmlari bilan bog'liq barcha masalalarni kuni kecha Oliy Majlisda bo'lib o'tgan uchrashuvlarda atroflicha va chuqur muhokama qilib oldik.

Shu bilan birga, quyidagi dolzarb masalalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan, joylarda ijro va vakillik organlarining davlat boshqaruvidagi roli va mas'uliyatini yanada oshirish zarur.

Hokimlar oxirgi 3 yilda ularga berilgan keng vakolatlardan qanchalik samarali foydalanayotganini, vazirlik va idoralarning hududiy tuzilmalari faoliyati samaradorligini nazorat qilish bo'yicha yangi tizim yaratish shart.

Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: nima uchun Bosh vazirdan boshlab hukumatning barcha a'zolari, viloyat hokimlari parlamentga hisobot beradi-yu, viloyat va tumanlardagi rahbarlar o'z faoliyati haqida mahalliy kengashlarga hisobot bermasligi kerak? Shuning uchun viloyat va tuman hokimlari o'z dasturlari va ularning ijrosi to'g'risida viloyat kengashlarida hisobot beradigan tizim joriy qilinadi.

Ayni vaqtda farmonlar, qarorlar, konsepsiya va strategiyalarda belgilangan indikatorlar va maqsadli parametrlarning ijrosi bo'yicha hokimlar o'z hududlaridagi ommaviy axborot vositalari va jamoatchilikka muntazam axborot berib borishlari zarur bo'ladi.

Ishning samarasini oshirish maqsadida mahalliy vakillik organlari faoliyatida Kengash so'rovi institutini joriy etishni taklif qilaman.

Yana bir muhim masala. Amaldagi qonun hujjatlarida hokimliklarning 300 ga yaqin vazifa va funksiyalari nazarda tutilgan. Shundan 175 tasi, mazmun-mohiyatiga ko'ra, hokimlarning asosiy vazifalari toifasiga kirmaydi va turli idoralarning funksiyalarini takrorlaydi. Bu esa, ish sifati va ijro intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Shu sababli Oliy Majlis Senatiga, Adliya vazirligini jalb etgan holda, shu yilning birinchi yarmida hokimlarning vakolatlarini qayta ko'rib chiqish va ularga xos bo'lmagan hamda bir-birini takrorlaydigan funksiyalarni tegishli organlarga o'tkazishni ta'minlash bo'yicha taklif tayyorlash topshiriladi.

Ikkinchidan, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bugungi kunda aholini o'ylantirayotgan muammolarga davlat idoralari e'tiborini qaratib, o'zlarining asoslangan takliflarini berib borishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning uchun mamlakat va hududlar darajasida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan ijtimoiy sheriklikni keng yo'lga qo'yib, grantlar va ijtimoiy buyurtmalarni ko'paytirishimiz kerak. Vazirlik va idoralar ham bir chetda tomoshabin bo'lib o'tirmasdan, bunday ijtimoiy hamkorlik ishlarini kengaytirishi lozim. Shuning uchun Oliy Majlis huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyati-

ning boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining faoliyatini takomillashtirish dardkor.

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid va jamoatchilikda alohida qiziqish uyg'otadigan o'ta muhim masalalarga doir qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik bilan maslahatlar, jamoatchilik eshituvlarini o'tkazish majburiyligini aniq belgilash kerak. Jamoatchilik ma'qul desa – ma'qul, noma'qul desa – noma'qul bo'ladi.

Jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro yaqin hamkorlik o'rnatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jamoatchilik palatasini tashkil etishni taklif qilaman.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarishda parlament, hukumat va fuqarolik jamiyati institutlarining amaliy hamkorligini yo'lga qo'yish, bu masala bo'yicha muntazam ravishda parlament va jamoatchilik eshituvlarini tashkil etish lozim.

Hurmatli deputat va senatorlar!

Bugungi kunda islohotlarimiz samarasi ko'p jihatdan to'rtta muhim omilga – ya'ni, qonun ustuvorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi qat'iy kurashish, institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog'liq.

Qonun ustuvorligi va sud-huquq sohasidagi asosiy vazifalar haqida Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan tantanali marosimda batafsil to'xtalib o'tganimizdan yaxshi xabardorsiz.

Bu borada quyidagi qo'shimcha vazifalarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Avvalo, sud mustaqilligini to'liq ta'minlash – eng muhim vazifalarimizdan biri bo'lishi zarur.

Yana bir bor aytmqchiman – dastlabki tergovda davom etib kelayotgan qonun buzilish holatlarini faqat va faqat sudlarning haqiqiy mustaqilligiga erishish orqali bartaraf etish mumkin.

Bu borada qabul qilgan qonuniy chora-tadbirlarimiz aniq natijalar bera boshladi. Ushbu ijobiy o'zgarishlarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining sudyalar mustaqilligi bo'yicha maxsus vakili Diyego Garsiya-Sayan janoblari ham alohida e'tirof etdi.

O'tgan 3 yilda 1 ming 989 nafar, 2019-yilning o'zida 859 nafar fuqaroga nisbatan oqlov hukmi chiqarildi. Shuningdek, 2019-yilda 3 ming 81 nafar shaxs sud zalidan ozod qilingan bo'lsa, 2 ming 623 nafar fuqaroga asossiz qo'yilgan moddalar ayblovdan chiqarildi va o'zgartirildi.

Sudyalarimizning adolatni va qonun ustuvorligini ta'minlash borasida oqlov hukmlarini chiqarayotgani, hech shubhasiz, sud-huquq sohasidagi eng katta yutug'imizdir. Men, Prezident sifatida sudyalarning bunday jasorati va qat'iyatini bundan keyin ham to'liq qo'llab-quvvatlayman.

Endi sud orqali insonlarning huquqi tiklanganini e'tirof etish bilan cheklanib qolmasdan, nima sababdan sudgacha bo'lgan tergov jarayonida inson huquq va erkinliklari buzilgan, degan savolni ham ko'ndalang qo'yadigan, tazyiqlar uchun javob beradigan vaqt keldi.

Eski tuzumdan qolgan va hanuz davom etayotgan sud qarorlarini prokuratura tomonidan chaqirib olib, o'rganish amaliyotini cheklash lozim. Endi faqat ish yuzasidan shikoyat kelib tushgan holdagina prokuror sud qarorini olib o'rganishi mumkin.

Sud raislari tomonidan sudyalarning faoliyatini baholash va ularga nisbatan intizomiy ish qo'zg'atish bo'yicha vakolatlarni qayta ko'rib chiqish kerak.

Davlat idoralari mansabdorlari shuni chuqur anglab olingin: sudlarning mustaqilligini ta'minlash masalasi bundan buyon ham shaxsan Prezidentning qattiq nazoratida bo'ladi. Sud ostonasiga qadam qo'ygan har bir inson O'zbekistonda adolat hukm surayotganiga to'la ishonch hosil qilishi kerak. Aks holda, buyuk nemis faylasufi Immanuel Kant aytganidek, «Adolat yo'qolgan paytda, hayotning qadrini belgilaydigan boshqa hech narsa qolmaydi».

Bu haqiqatni hech qachon unutmashimiz zarur. O'zbekistonda sudyalar qonunlarning tolmas himoyachilari, adolatning mustahkam ustunlari bo'lishi lozim.

Oliy sud, Sudyalar oliy kengashi, Adliya vazirligi uch oy muddatda yuqorida bildirilgan takliflarni amaliyotga joriy etishni nazarda tutadigan qonun loyihasini kiritsin.

Ikkinchidan, sud-huquq sohasiga doir asosiy qonun va kodekslar bundan deyarli 20–25 yil oldin qabul qilingan bo‘lib, hozirgi davr talablariga javob bermaydi.

Shu sababli parlament yaqin yillarda Fuqarolik, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Jinoyat-ijro, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarni yangitdan qabul qilishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada, avvalo, tergov va sud amaliyotiga inson huquqlari sohasidagi ilg‘or standartlarni joriy etishga alohida e‘tibor qaratish kerak.

Qonunchilikni yangilashdan maqsad – faqat qonun qabul qilish emas, aksincha, yangi qonunlar ertaga odamlarga qanday amaliy naf berishi, ularning hayotini qanday yengillashtirishi haqida bosh qotirishdan iborat bo‘lmog‘i lozim.

Uchinchidan, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish zarur.

Biz ichki ishlar idoralari faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha jiddiy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Biroq, ochiq tan olish kerak, ushbu idoralar hali xalqchil tuzilmaga, fuqarolarning chinakam himoyachisiga aylangani yo‘q.

Tizimda jamoat tartibini saqlash, jinoyatlarga qarshi kurashish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish faoliyatiga doir aniq mezonlar belgilanmagan. Shu sababli islohotlarni davom ettirib, ichki ishlar idoralarini odamlarimizning og‘irini yengil qiladigan tuzilmaga aylantirish zarurligini yana bir bor takrorlash o‘rinli, deb bilaman.

Bu masala yangi parlament, xususan, Senat oldidagi besh yillik vazifa bo‘lib, buning uchun barcha tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratish va amaliy choralar ko‘rish lozim.

Ichki ishlar organlari uchun barcha darajadagi rahbarlarning malakasini oshirish va maqsadli tayyorlash tizimini tashkil etish zarur.

To‘rtinchidan, afsuski, jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda.

Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi.

Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, «halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak.

Ana shu vazifalar ijrosini tizimli tashkil etish maqsadida parlament va Prezidentga hisob beradigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'ladigan alohida organ tashkil etishni taklif etaman.

Prezident Administratsiyasi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo'mitalari bilan birgalikda uch oy muddatda tegishli farmon loyihasini ishlab chiqsin.

Beshinchidan, fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta'minlash borasida navbatdagi muhim qadam qo'yish zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Ayniqsa, mamlakatimizda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning ana shu muammosini qonuniy hal etish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish vaqti keldi, deb o'ylayman. Xususan, 1995-yilgacha O'zbekistonga kelgan va shundan buyon istiqomat qilayotgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi avtomatik tarzda berilishi darkor. Shu tariqa 50 mingga yaqin yurtdoshlarimizning fuqarolik bilan bog'liq uzoq yillardan buyon yechilmasdan kelayotgan muammolari hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasi bu masalani Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan hamkorlikda ko'rib chiqib, joriy yil 1-mayga qadar tegishli qonun loyihalarini taqdim etishi lozim.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettiramiz. Bu borada 30-iyul – «Xalqaro do'stlik kuni» munosabati bilan yurtimizda birinchi marta «Do'stlik haftaligi»ni va «Do'stlik» xalqaro forum-festivalini o'tkazishni taklif etaman.

Mamlakatimizda «jaholatga qarshi – ma'rifat» degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi.

Joriy yilda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, kalom ilmi asoschisi Abu Mansur Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin Nasafiyning hayoti, ilmiy merosiga bag'ishlangan hamda diniy bag'rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi.

Imom Buxoriy bobomizning Samarqanddagi yodgorlik majmuasini bu mo'tabar zotning musulmon dunyosidagi ulug' maqomiga mos ravishda mutlaqo yangi loyiha asosida qayta barpo etish ishlarini ham boshlaymiz. Shuningdek, buyuk alloma Bahouddin Naqshband bobomizning 700 yillik tavallud ayyomini yuqori saviyada o'tkazishimiz kerak.

Sizlarga ma'lumki, keyingi yillarda yurtimizda olib borilayotgan insonparvar siyosat tufayli to'g'ri yo'ldan adashgan, bilib-bilmay xatoga qo'l urgan fuqarolarni sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda ham diniy ekstremistik yo'lga kirib qolganidan chin dildan pushaymon bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va hal etish, ularni jamiyatga moslashtirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Jahonda shiddat bilan o'zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar jonajon Vatanimiz xavfsizligini, el-yurtimizning osoyishta hayotini ta'minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishimizni taqozo etmoqda.

Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashining yaqinda o'tkazilgan majlisida bu boradagi ustuvor vazifalar va amaliy chora-

Tadbirkorlar hanuzgacha yer ajratish, kadastr, qurilish, litsenziya, bojxona, bank, davlat xaridlari kabi sohalarda korrupsiyaga duch kelayotganini Prezident nomiga kelib tushayotgan ko'plab murojaatlar ham, matbuot va ijtimoiy tarmoqlardagi chiqishlar ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, «halollik vaksinasi» bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlarini bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak.

Ana shu vazifalar ijrosini tizimli tashkil etish maqsadida parlament va Prezidentga hisob beradigan, korrupsiyaga qarshi kurashishga mas'ul bo'ladigan alohida organ tashkil etishni taklif etaman.

Prezident Administratsiyasi Oliy Majlis palatalarining tegishli qo'mitalari bilan birgalikda uch oy muddatda tegishli farmon loyihasini ishlab chiqsin.

Beshinchidan, fuqarolik masalalariga oid qonunchilikni takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta'minlash borasida navbatdagi muhim qadam qo'yish zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Ayniqsa, mamlakatimizda uzoq vaqtdan beri yashab kelayotgan, lekin O'zbekiston fuqarosi degan huquqiy maqomga ega bo'la olmayotgan minglab yurtdoshlarimizning ana shu muammosini qonuniy hal etish bo'yicha tashkiliy-huquqiy choralarni ko'rish vaqti keldi, deb o'ylayman. Xususan, 1995-yilgacha O'zbekistonga kelgan va shundan buyon istiqomat qilayotgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi avtomatik tarzda berilishi darkor. Shu tariqa 50 mingga yaqin yurtdoshlarimizning fuqarolik bilan bog'liq uzoq yillardan buyon yechilmasdan kelayotgan muammolari hal etiladi.

Vazirlar Mahkamasi bu masalani Oliy Majlis Qonunchilik palatasi bilan hamkorlikda ko'rib chiqib, joriy yil 1-mayga qadar tegishli qonun loyihalarini taqdim etishi lozim.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarni izchil davom ettiramiz. Bu borada 30-iyul – «Xalqaro do'stlik kuni» munosabati bilan yurtimizda birinchi marta «Do'stlik haftaligi»ni va «Do'stlik» xalqaro forum-festivalini o'tkazishni taklif etaman.

Mamlakatimizda «jaholatga qarshi – ma'rifat» degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi.

Joriy yilda hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, kalom ilmi asoschisi Abu Mansur Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin Nasafiyning hayoti, ilmiy merosiga bag'ishlangan hamda diniy bag'rikenglik mavzularida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi.

Imom Buxoriy bobomizning Samarqanddagi yodgorlik majmua-sini bu mo'tabar zotning musulmon dunyosidagi ulug' maqomiga mos ravishda mutlaqo yangi loyiha asosida qayta barpo etish ishlarini ham boshlaymiz. Shuningdek, buyuk alloma Bahouddin Naqshband bobomizning 700 yillik tavallud ayyomini yuqori saviyada o'tkazishimiz kerak.

Sizlarga ma'lumki, keyingi yillarda yurtimizda olib borilayotgan insonparvar siyosat tufayli to'g'ri yo'ldan adashgan, bilib-bilmay xatoga qo'l urgan fuqarolarni sog'lom hayotga qaytarish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilda ham diniy ekstremistik yo'lga kirib qolganidan chin dildan pushaymon bo'lgan shaxslarning ijtimoiy-maishiy muammolarini aniqlash va hal etish, ularni jamiyatga moslashtirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Jahonda shiddat bilan o'zgarayotgan notinch va murakkab vaziyat, turli mojarolar jonajon Vatanimiz xavfsizligini, el-yurtimizning osoyishta hayotini ta'minlash hamda mavjud tahdid va xatarlarga munosib javob berishga doim tayyor turishimizni taqozo etmoqda.

Prezident huzuridagi Xavfsizlik kengashining yaqinda o'tkazilgan majlisida bu boradagi ustuvor vazifalar va amaliy chora-

tadbirlarni belgilab oldik. Qurolli Kuchlarimiz ushbu vazifalarni samarali ado etadi, deb ishonaman.

Biz O'zbekiston tashqi siyosatini faollashtirish yuzasidan boshlagan keng ko'lamlı ishlarni, milliy manfaatlarimizga javob beradigan, ochiq, pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat yo'lini davom ettiramiz. Olis va yaqindagi barcha davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini, uzoq muddatli va ko'pqirrali sheriklikni yanada kuchaytiramiz.

Bu borada quyidagi ustuvor jihatlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchi. Markaziy Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar bilan barcha sohalarda o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur.

Ikkinchi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yaponiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va madaniy-gumanitar aloqalarni yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat beramiz.

Uchinchi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Turkiy kengash va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni jadallashtirishni davom ettirishimiz zarur.

Orol muammosini hal etishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan tuzilgan Orol dengizi mintaqasida inson xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ko'p tomonlama Trast fondiga katta ishonch bilan qaraymiz.

Biz O'zbekistonning 2021–2023-yillar mobaynida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo bo'lishi masalasini izchil ilgari surish niyatidamiz.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani

ishlab chiqishni taklif etgan edik. Joriy yilda Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumini yoshlar huquqlariga bag'ishlab o'tkazish va unda ushbu konvensiya loyihasini muhokama etishni taklif qilaman.

Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiyani qabul qilishni ham tezlashtirishimiz kerak.

To'rtinchi. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida faoliyatimiz samarasini yanada oshirishimiz zarur.

O'zbekistonning 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga raislik qilishi biz uchun tarixiy ahamiyatga ega. Biz Hamdo'stlikda savdo-iqtisodiy va transport-tranzit sohalarida hamkorlikni kengaytirish, tashkilot tomonidan qabul qilingan qarorlarning amaliy natijadorligini oshirish va a'zo davlatlar o'rtasida gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash uchun barcha salohiyat va imkoniyatlarni ishga solamiz.

Shanxay Hamkorlik Tashkiloti bilan munosabatlarni rivojlantirish – O'zbekiston tashqi siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib qoladi.

Bundan tashqari, joriy yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Markaziy Osiyo, Yevropa Ittifoqi va Osiyo mamlakatlari bilan oliy darajadagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama tadbirlar o'tkazilishi kutilmoqda. Tashriflar doirasida mamlakatimiz manfaatlariga xizmat qiladigan istiqbolli loyihalar va dasturlar qabul qilinishi ko'zda tutilgan.

Fursatdan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shib kelayotgan mamlakatimizdagi xorijiy diplomatik korpus va xalqaro tashkilotlar vakillariga o'zimning chuqur minnatdorchiligimni bildiraman.

Hurmatli vatandoshlar, aziz mehmonlar!

2020-yilda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaning 75 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlanadi.

Bizning mard, yengilmas va olijanob xalqimiz buyuk G'alabani ta'minlashga beqiyos hissa qo'shgan bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz. Bu qonli urushda jami 1,5 milliondan ziyod

O'zbekiston farzandlari tinchlik va ozodlik uchun mardona jang qilgani, ularning har uch nafaridan biri o'z yaqinlari bag'riga qaytmagani, el-yurtimizning front ortida ko'rsatgan jasoratini xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Biz urush va front orti faxriylarini faqatgina bayramlarda emas, balki doimo e'zozlab, ardoqlashimiz, ularning sog'ligi haqida har kuni, har soatda o'ylashimiz lozim. Joriy yilda ularga har tomonlama e'tibor yanada kuchaytiriladi. Jumladan, mamlakatimizning eng yaxshi sanatoriylarida ularning salomatligini mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratamiz.

Urush yillarida xalqimiz ko'rsatgan haqiqiy jasorat va matonatni kino, teatr san'ati, badiiy-publitsistik asarlar, ilmiy tadqiqotlar orqali ko'rsatish, aholi, ayniqsa, yoshlarimizga ta'sirchan tarzda yetkazish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda. Xususan, Toshkent shahrining Olmazor tumanida muhtasham G'alaba bog'i bunyod etilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Xotira va qadrlash kuni va G'alabaning 75 yilligini har tomonlama munosib va yuqori saviyada nishonlash uchun tayyorgarlik ishlarini puxta tashkil etishimiz kerak.

Muhtaram yurtdoshlar!

Biz bundan uch yil oldin mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida buyuk ishlarni boshlaganmiz. Xalqimizning aql-zakovati, kuch-qudrati va salohiyatiga tayanib, bu yo'lda dastlabki, lekin o'ta muhim va salmoqli natijalarga erishmoqdamiz. Endi ana shu yutuqlarimizni mustahkamlab, yanada dadil va ulkan qadamlar tashlashimiz shart. Chunki yurtimizdagi islohot va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydigan tus olib, hal qiluvchi pallaga kirmoqda.

Samaradorlik hammamiz uchun bosh talab, asosiy mezonga aylanmoqda. Bu borada 2020-yil barchamiz uchun alohida sinov va mas'uliyat yili bo'ladi. Endi kechagi yutuq va marralar bizni sira qoniqtirmaydi. Nega deganda, bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas.

Amaliy natija bilan mustahkamlangan, o'z mevasi, hosilini berayotgan islohot odamlarning qalbiga, yuragiga tez kirib

boradi. Va bunday islohotni, bunday shiddatli jarayonni hech kim, hech qanday kuch to'xtata olmaydi.

Eng muhimi, islohotlarimiz samarasini yurtimizda yashayotgan har bir inson, har bir oila bugun o'z hayotida his etishi kerak. Buning uchun barcha bo'g'indagi rahbarlar foizlar, raqamlar, qog'ozning ortidan quvmasdan, har bir fuqaro uchun, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlash uchun ishlashi shart. Shunda nuroniy keksalarimiz, muhtaram otaxon va onaxonlarimiz, hurmatli ayollarimiz, aziz farzandlarimiz, jajji nabiralarimiz, ko'pmillatli butun xalqimiz bizdan rozi bo'ladi.

Bugungi Murojaatnomada bayon qilingan har bir maqsad va vazifaga, ularni amalga oshirishga aynan shu nuqtayi nazardan yondashsak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasi hudud rahbarlari bilan birgalikda Murojaatnomada belgilab berilgan barcha vazifalar ijrosini so'zsiz ta'minlab, har chorakda Oliy Majlis oldida hisobot berishi zarur.

Prezident Administratsiyasi va hukumat Oliy Majlis palatalari bilan birgalikda 20 kun muddatda 2020-yilga mo'ljallangan davlat dasturi loyihasini puxta tayyorlab, tasdiqlash uchun kiritsin.

Shu o'rinda yana bir muhim masalaga alohida e'tiboringizni qaratmoqchiman.

O'tgan 3 yil mobaynida O'zbekistonda so'z erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarini har tomonlama rivojlantirish, jurnalist va blogerlarning erkin faoliyat yuritishi va ijod qilishlari uchun huquqiy asoslar va keng imkoniyatlar yaratildi. Bundan keyin ham «to'rtinchi hokimiyat» vakillarining erkin va xolis faoliyat yuritishlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlarni xalqimiz va xalqaro hamjamiyat uchun ochiq-oydin yoritishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratamiz.

Joylardagi muammo va kamchiliklarni ro'y-rost ochib berish, ularni haqqoniy yoritishlarida men professional jurnalistlarni hami-sha va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyorman.

Aziz do'stlar!

Imom Buxoriy bobomiz o'z kitoblarida keltirgan muborak hadisda aytilganidek, «**Barcha amallar niyatga qarab bo'ladi**».

Darhaqiqat, pok niyatlar bilan boshlangan xayrli ishlar albatta ijobat bo'ladi.

Bugun biz ham tanti, sabr-qanoatli va mehnatkash xalqimiz bilan birga ulug' maqsadlarni belgilab, marrani baland olmoqdamiz.

Oldinda bizni ulkan vazifalar, katta imkoniyatlar kutmoqda.

Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz. Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azm-u shijoatli, buyuk xalqimiz.

Barchamiz bir tan-u bir jon bo'lib, yakdil va ahil bo'lib harakat qilsak, halol-pok bo'lib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqimiz.

Bu yo'lda qanday qiyinchilik va mashaqqatlar bo'lmasin, barchasini mardona yengib o'tishga tayyormiz. Bunday ezgu ishlarda bizga Yaratganning o'zi, buyuk ajdodlarimizning pok ruhlari madadkor bo'ladi, deb ishonaman.

Men sizlarning timsolingizda, butun xalqimiz, navqiron o'g'il-qizlarimiz timsolida oldimizga qo'ygan olamshumul maqsadlar yo'lida o'zini ayamadan, fidokorona mehnat qilayotgan, qalbimga yaqin, samimiy insonlarni ko'raman. Bugungi Murojaatnomada belgilab berilgan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirishda, avvalo, mehnatkash va bag'rikeng xalqimizga hamda uning munosib vakillari bo'lgan sizlarga ishonaman va tayanaman.

Yana bir bor barchangizga sihat-salomatlik, cheksiz kuch-g'ayrat, yutuq va omadlar, oilaviy baxt va saodat tilayman.

Doimo sog'-omon bo'ling!

Katta rahmat sizlarga!

2020-yil 24-yanvar

PARLAMENT XALQ IRODASINING HAQIQIY KO'ZGUSI BO'LISHI ZARUR

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!

Qadrli majlis ishtirokchilari!

Avvalo, sizlarni xalqimiz ishonchiga sazovor bo'lib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati degan yuksak maqomga ega bo'lganingiz bilan chin dildan muborakbod etaman.

Parlament va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylovlar, O'zbekistonimiz uchun katta siyosiy imtihon bo'ldi. Xalqimiz bu sinovdan yorug' yuz bilan o'tdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tabiiy savol tug'iladi, bu saylovlarning asosiy xususiyatlari avvalo nimalarda namoyon bo'ldi?

Birinchi, saylovlar xalqimizning ong-u tafakkuri, siyosiy bilimi va madaniyati o'sib, jamiyatimizda demokratik tamoyillar ildam qadamlar bilan chuqur qaror topib borayotganini yaqqol namoyon etdi. Ushbu saylovlar xalqaro talab va standartlarga to'liq javob beradigan yangi Saylov kodeksi asosida, «**Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar**» shiori ostida o'tgani bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bizning amaliyotimizda birinchi marta saylov jarayonlarini boshqarish bo'yicha avtomatlashtirilgan tizim va saylovchilarning yagona elektron ro'yxati joriy etildi. Fuqarolarning saylovda qatnashishiga oid konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash maqsadida ozodlikdan mahrum etilgan, biroq og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etmagan mahkumlarga ilk bor ovoz berish imkoniyati yaratildi.

Eng muhimi, saylovlar ochiqlik, oshkoralik va halollik tamoyili asosida hamda keskin kurashlar ostida o'tkazildi. Ularni 70 mingdan ziyod mahalliy kuzatuvchi hamda 10 ta xalqaro tashkilot, 50 ga yaqin xorijiy davlatning 825 nafar kuzatuvchisi, xalqaro va mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining 1 ming 155 nafar vakili kuzatib bordi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Qizg'in siyosiy kurashlar ostida o'tgan saylovlar natijasida yangi parlament quyi palatasi deputatlarining tarkibi shakllandi. Ularning 48 nafarini ayollar, 9 nafarini yoshlar tashkil etmoqda. Bu – yosh avlod va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borayotgan islohotlarimiz samarasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Sizlarning orangizda avvalgi chaqiriq parlamentimizda samarali faoliyat ko'rsatgan, xalq o'rtasida tanilgan, saylovchilar yana bir bor ishonch bildirgan tajribali 39 nafar deputatimiz ham borligi alohida ahamiyatga ega.

Fursatdan foydalanib, Qonunchilik palatasining avvalgi tarkibida ish olib borgan, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim qonunlar qabul qilishga hissa qo'shgan barcha deputatlarimizga minnatdorchilik bildirib, ularga sihat-salomatlik, yangi muvaffaqiyatlar tilashga ijozat bergaysiz.

Bugun ushbu zalda o'tirgan siz, muhtaram deputatlarning ayrimlarini shaxsan taniyman. Ko'pchiligingizni esa televideniye, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlaringiz orqali yaxshi bilaman. Sizlar parlamentimiz hayotiga albatta yangi ruh va mazmun olib kirasizlar, deb ishonaman.

Aziz do'stlar!

Ma'lumki, bo'lib o'tgan saylovda beshta partiyadan ko'rsatilgan nomzodlar sog'lom siyosiy raqobat muhitida kurash olib bordi. Jonli teleefirdagi debatlarda partiyalar tomonidan boshqa partiyalar dasturi jiddiy tahlil qilindi, ochiq tanqidlar ham bo'ldi, dolzarb masalalar bo'yicha qarama-qarshi yondashuvlar ilgari surildi.

O'zingiz ayting, oldingi Parlament saylovlarida mana shunday siyosiy jarayonni – yutuqni yutuq, kamchilikni kamchilik deb ochiq ayta oladigan muhitni tasavvur qila olarmidik?

Ayni vaqtda, tan olish kerak, saylov jarayonida partiyalar tomonidan chuqur asoslanmagan ayrim takliflar ham bildirildi. Tabiiyki, ular fuqarolarning haqli e'tirozlariga sabab bo'ldi.

Deputatlikka nomzodlarning joylarda saylovchilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlarida, ommaviy axborot vositalarida bildirilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar,

ko'tarilgan savol va muammolar – bularning barchasi albatta e'tiborga loyiq. Ular parlament va hukumat uchun kelgusi besh yillik faoliyat dasturiga aylanishi lozim.

Ta'kidlash kerakki, bu saylovlar aholining siyosiy faolligini yuksaltirib, xalqimizning partiyalarga nisbatan ishonchi bilan birga, talabchanligini ham kuchaytirdi. Bu, o'z navbatida, nomzodlar saviyasini oshirish va saylovchilar bilan tizimli ish olib borish bo'yicha partiyalar oldida yechimini kutayotgan bir qator masalalar mavjudligini ko'rsatadi.

Eng muhimi, partiyalar o'rtasidagi siyosiy raqobat soxta obro' orttirishga emas, balki xalqimiz manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Bu haqiqatni hech qachon unutmashimiz lozim.

Ma'lumki, saylovoldi tashviqotlarida siyosiy partiyalar tomonidan jamiyatimizdagi dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha ko'plab va'dalar berildi. Xalqimiz ana shu va'dalarning amalda bajarilishini kutmoqda.

Har bir deputat besh yil davomida o'z so'zining ustidan to'liq chiqishi, partiyasining obro'sini saqlashi uchun bugundan boshlab jiddiy harakat boshlashi kerak. Sizlar alohida «yo'l xaritasi»ni tuzib, saylov vaqtida bildirgan barcha-barcha tashabbuslaringizni yaxlit tizimga solib, ishni puxta tashkil etsangiz, o'ylaymanki, bu xalqimizga va saylovchilaringizga juda ma'qul bo'ladi.

Endi **«Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar – yangi parlament»** degan ustuvor g'oya dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Siyosiy partiyalarning quyi palatadagi fraksiyalari o'zlarining istiqbol rejalarini aniq belgilab oladi va ularni to'liq amalga oshiradi, deb ishonaman.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Saylov natijalarining tahlili saylov kampaniyasi davrida ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yilganini ham ko'rsatdi. Masalan, Toshkent shahrida saylovchilar ishtiroki boshqa hududlarga nisbatan pastligi kuzatildi. Bu esa, ko'pchilik yirik shaharlar aholisiga xos tendensiya-dir. Ayni vaqtda mazkur holat siyosiy partiyalar saylovchilar bilan yetarli ish olib bormayotgani, ularning g'oya va dasturlari elektorat ichiga to'liq kirib bormayotganidan ham dalolat beradi.

Afsuski, bir kishi tomonidan bir necha saylovchi o'rniga ovoz berishga urinish holatlari oz bo'lsa ham uchradi. Saylovchilarning yagona elektron ro'yxati tizimi bilan ishlashda ham kamchiliklar ko'zga tashlandi.

Mashhur davlat va siyosat arbobi Teodor Ruzvelt aytganidek, «Faqat hech qanday ish qilmaydigan odamgina xato qilmasligi mumkin. Xato qilishdan qo'rqish kerak emas, balki ana shu xatoni takrorlashdan qo'rqish kerak».

Shuning uchun yangi saylangan deputatlarimiz hozirgina zikr etilgan muammolarni atroflicha tahlil qilib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish ustida hozirdan boshlab jiddiy o'ylashlari lozim. Bu, bir tomondan, ular a'zo bo'lgan siyosiy partiyalarning faoliyatini kuchaytirishga, ikkinchi tomondan esa, mamlakatimizda parlamentarizm tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Albatta, saylov jarayonidagi har bir qonunbuzish holati bo'yicha huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan tegishli choralar ko'rildi va ko'riladi. Ayni vaqtda milliy saylov tizimimizni tashkiliy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish bo'yicha ham zarur ishlarni amalga oshirishimiz kerak.

Shu munosabat bilan Markaziy saylov komissiyasining saylov jarayoni bilan bog'liq muammolarni o'rganib, joriy yilda xalqaro ekspertlar ishtirokida forum o'tkazish haqidagi taklifini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Shu bilan birga, parlament a'zolari ham bu jarayonda faol qatnashib, milliy saylov tizimimizni yanada takomillashtirish maqsadida mahalliy va xorijiy ekspertlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda har yili muntazam ravishda turli forumlar o'tkazib borsa, o'ylaymanki, bundan ishimizga faqat foyda bo'ladi.

Xalqaro kuzatuvchilar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar tahlili ham saylov komissiyasi a'zolari va saylovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish lozimligini ko'rsatmoqda. Ana shunday taklif va tavsiyalarni inobatga olgan holda, Aholining elektoral madaniyatini yuksaltirish konsepsiyasini ishlab chiqish zarur, deb hisoblayman. Shuningdek, xorijiy kuzatuvchilar tomonidan bayon etilgan saylovni moliyalashtirish manbalarini kengaytirishga doir tavsiya bo'yicha parlament o'z munosabatini bildirishi lozim.

Parlamentga mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha komissiya tuzib, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilishni tavsiya etaman. Mazkur komissiya xalqaro tashkilotlar va kuzatuvchilarning taklif va tavsiyalarini chuqur o'rganib, milliy qonunchiligimiz hamda saylov jarayonini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalarni ishlab chiqishi lozim.

Vazirlar Mahkamasi va Markaziy saylov komissiyasiga saylovchilarning yagona elektron ro'yxati tizimining samarali ishlashi uchun zarur choralarni ko'rish topshiriladi.

Fursatdan foydalanib, saylovlarda ishtirok etgan barcha saylovchilarga, saylov uchastkalari va okruglari a'zolariga, noyob tizim – mahallalar faollariga, ertangi kunga befarq bo'lmagan fuqarolarimizga, butun xalqimizga chin qalbimdan minnatdorchilik bildiraman. Shuningdek, xalqaro kuzatuvchilar, mahalliy va xorijiy jurnalistlarga ham samimiy tashakkur izhor etaman.

Muhtaram xalq vakillari!

Mana, hozirgina Siyosiy partiyalar vakillari kengashining taklifiga asosan Qonunchilik palatasining yangi Spikeri lavozimiga deputat Nurdinjon Muydinxonovich Ismoilov saylandi.

Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bu rahbar ko'p yillar davomida qonun ijodkorligi sohasida va huquqni muhofaza qilish idoralarida faoliyat ko'rsatgan. Yetarli ish va hayot tajribasiga ega. U kishi milliy parlamentimiz taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan boshlab uning rivojiga katta hissa qo'shgan rahbarlardan hisoblanadi.

Spikerning mehnat faoliyatiga nazar tashlasak, u davlat va xalq manfaatlarini ta'minlash yo'lida o'zining bor bilimi va tajribasi, kuch-g'ayratini safarbar etib kelayotganini ko'ramiz. Shuningdek, bugun Qonunchilik palatasi Spikerining yangi ta'sis etilgan birinchi o'rinbosari lavozimiga deputat Akmal Xolmatovich Saidov saylandi. Qonunchilik palatasida bu yangi lavozimni ta'sis etish haqidagi qaror o'z vaqtida va to'g'ri qabul qilingan deb hisoblayman.

Ayni vaqtda yangi parlament instituti bo'lmish Spikerning birinchi o'rinbosari faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Avvalambor, birinchi o‘rinbosar Qonunchilik palatasining xalqaro parlamentlararo tashkilotlar bilan aloqalarini rivojlantirish, xorijiy davlatlar bilan parlamentlararo guruhlar faoliyatini muvofiqlashtirish, O‘zbekistonning jahon miqyosidagi obro‘-e’tiborini yuksaltirishga ko‘maklashish, parlamentlararo diplomatiyani amalga oshirishga mas’ul bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, Konstitutsiyaga muvofiq, Qonunchilik palatasining eng muhim vakolatlaridan biri – bu xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya yoki denonsatsiya qilish hisoblanadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining Hukumat tomonidan izchil bajarilishini nazorat qilish ham Spiker birinchi o‘rinbosarining asosiy vazifasi bo‘lishi kerak.

Masalan, Qonunchilik palatasi bundan buyon Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish bo‘yicha vazirlar hisobotlarini eshitishni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Yana bir muhim masala – O‘zbekiston inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro shartnomaga qo‘shilgan. Shu yo‘nalishda BMTning ustav organlarida Hukumatimiz muntazam ravishda milliy hisobotlar berib kelmoqda.

Inson huquqlarini himoya qilishda Qonunchilik palatasi rolini oshirish, xalqaro tashkilotlar tavsiyalari ijrosini tashkil etish, «yo‘l xaritalari»ni ishlab chiqish va ijro etish ham quyi palataning diqqat markazida bo‘lishi kerak.

Bugungi kunda jahon parlamentarizmida ilg‘or tajriba bo‘lmish, ya’ni nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash amaliyoti xalqaro darajada e’tirof etilayotgani sizlarga yaxshi ma’lum. Shu bois, Spikerning birinchi o‘rinbosari tomonidan ushbu nomdagi Parlament komissiyasi faoliyatining izchil muvofiqlashtirib borilishi muhim, deb hisoblayman.

Xabaringiz bor, Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tuzilgan. Bu institut qonun loyihalarini tayyorlashda, ularni muhokama qilishda, qabul qilingan qonunlar mohiyatini jamoatchilikka yetkazishda parlament a’zolariga haqiqiy yordamchi bo‘lishi lozim.

Qonun ijodkorligi faoliyatiga ilmiy-innovatsion omilni keng joriy etish ham bundan keyin palataning muhim vazifasi bo'lib qolishi kerak.

Spikerning birinchi o'rinbosari lavozimiga saylangan Akmal Xolmatovich Saidovni nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro jamoatchilik vakillari ham qonunchilik sohasida ko'zga ko'ringan, uzoq yillardan buyon faoliyat olib borayotgan yirik mutaxassis sifatida yaxshi bilishadi. U mazkur lavozimda o'zining boy bilimi, keng dunyoqarashi, professional malakasi, tashkilotchilik va tashabbuskorlik qobiliyatini Vatanimiz ravnaqiga safarbar etadi, degan umiddaman.

Spikerning birinchi o'rinbosari partiyaviylikdan xoli ravishda umumdavlat, umumxalq manfaatlari yo'lida ish olib borishi lozim. Shu bilan birga, bugun Spiker o'rinbosarlari etib saylangan barcha partiyalar fraksiyalari rahbarlarini ham samimiy qutlashga ijozat etgaysizlar.

Bir so'z bilan aytganda, bugun Qonunchilik palatasi deputatlari o'zlarining munosib rahbarlariga ega bo'ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Xalq vakillarini jonajon O'zbekistonimizni taraqqiy ettirishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtirib, parlament faoliyatini yangi bosqichga ko'tarishda ularga yutuq va omadlar tilaymiz.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Barchamizga yaxshi ayonki, deputatlik – bu odamdan juda katta intellektual salohiyat, tinimsiz mehnat, izlanish va mas'uliyat talab qiladigan faoliyatdir. O'zim ham ko'p yillar deputat bo'lib ishlaganman, bu vazifaning qanchalik og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflil ish ekanini yaxshi bilaman.

Deputat, avvalo, hamisha xalq dardi bilan yashashi, odamlarni qiynayotgan muammolarni hal qilish uchun fidoyilik ko'rsatib boshqalarga o'mak bo'lishi lozim. Deputatning qalbi, vijdoni uyg'oq bo'lsa, vazirlar ham, hukumat ham, parlament ham uyg'oq bo'ladi, butun jamiyatimiz uyg'oq bo'ladi.

Bugun biz hamma sohada izlanish va o'rganishdamiz. Izlanib yashayotgan, o'z maqsadi sari izchil borayotgan inson va jamiyat albatta ijobiy natija hamda yutuqlarga erisha oladi.

Hozirgi kunda – O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida oldimizda o‘ta dolzarb va murakkab vazifalar turibdi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun avvalo qonun ijodkorligi sohasida ishni butunlay yangicha tashkil etishimiz kerak. Bu borada ayniqsa quyidagi masalalarga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Birinchidan, quyi palata har bir qonun loyihasi bo‘yicha xolis bahs-munozara va tortishuvlar makoniga, turli ijtimoiy manfaatlar o‘rtasidagi kurash maydoniga, chinakam «demokratiya maktabi»ga aylanishi zarur.

O‘tgan besh yil davomida palata faoliyati sezilarli darajada jonlanib, 540 ta qonun yoki 2010 – 2014-yillarga nisbatan 2 barobar ko‘p qonun loyihasi ko‘rib chiqildi. Agar 2015-yilda qabul qilingan qonunlarning bor-yo‘g‘i 11 tasini yaxlit va yangi qonunlar tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 3 barobar oshib, 35 taga yetdi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, bir sohaga taalluqli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan bir nechta qonunlar o‘rniga, yagona kodeks qabul qilish amaliyoti qaror topmoqda. Jumladan, Fuqarolik protsessual kodeksi, Iqtisodiy protsessual kodeks, Ma‘muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeks, Saylov kodeksi kabi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Shuningdek, o‘tgan ikki yilda to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladigan qonunlarni qabul qilishni boshladik. Masalan, «To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida»gi, «Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida»gi qonunlarda havola shaklidagi normalar o‘rniga to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlaydigan qoidalar belgilandi.

Ayni vaqtda hayotning o‘zi, O‘zbekistonning jadal taraqqiyoti bu boradagi faoliyatimizni yangi sifat bosqichiga olib chiqishni talab etmoqda. Jahondagi ilg‘or tajribalar asosida partiyalar o‘z siyosiy manfaatlarini, o‘z elektorati manfaatlarini ifoda etadigan qonunlarni qabul qilish uchun parlamentda qizg‘in bahs olib borishlari kerak. Buning uchun parlamentda ko‘pchilikni tashkil etadigan partiya va unga muxolifatda bo‘lgan partiyalar o‘rtasida sog‘lom raqobat bo‘lishi lozim.

Albatta, Qonunchilik palatasida ham fraksiya o‘zini muxolifat deb e‘lon qilishi mumkin. Bu fraksiya qonun birinchi o‘qishda ko‘rib

chiqilgunga qadar mazkur masala bo'yicha qonunning muqobil tahririni kiritish huquqiga ega ekani belgilangan. Lekin, tan olishimiz kerakki, bu institut shu paytgacha samarali ishlagani yo'q.

Albatta, siz, hurmatli deputatlar tashabbus ko'rsatish uchun o'z ustingizda muntazam ishlashingiz, har bir soha bo'yicha qabul qilingan qarorda xalq manfaatlari yo'lida mustahkam zamin yaratishingiz kerak. Saylovchilar sizlardan tashabbus ko'rsatib, o'z muqobil fikringizni, qat'iy siyosiy irodangizni namoyon etishingizni kutmoqda. Chunki haqiqat bahs va tortishuvlarda tug'iladi, degan gapda chuqur hayotiy ma'no bor.

Albatta, har bir deputat ma'lum bir sohaga oid qonunni qabul qilishda shu sohaning mutaxassisi sifatida fikr yuritishga qodir bo'lishi lozim. Chunki sizlar qabul qiladigan qonun hujjatlari millionlab odamlarning, butun xalqimizning hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Lekin bu ta'sir ijobiy ham, salbiy ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun xalq ishonchini qozongan deputatning xato qilishga, o'z zimmasidagi yuksak mas'uliyatni unutishga sira haqqi yo'q.

Ikkinchidan, deputatlar muhokamaga kiritilgan har bir qonun loyihasi bo'yicha o'zining mustahkam pozitsiyasini ko'rsatgan taqdirdagina, saylovchilar ishonchini oqlay oladi.

O'tgan chaqiriqda quyi palataga kiritilgan har bir qonun loyihasi bo'yicha joylarda jamoatchilik muhokamasini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Shundan so'ng 400 dan ziyod qonun loyihasidagi mingga yaqin qoidalar fuqarolarimiz bildirgan takliflar asosida takomillashtirildi. Misol uchun, «Kasaba uyushmalari to'g'risida»gi qonun loyihasi fuqarolik jamiyati institutlari bilan birgalikda keng jamoatchilik muhokamasidan o'tkazildi.

Deputatlar qonunlarni «nomigagina ko'rib chiqib, bir ovozdan ma'qullash» degan eski amaliyotdan voz kechib, ularni jiddiy va batafsil muhokama qilishni o'rganmoqda. Aholi tomonidan bildirilgan fikrlar, tanqidiy mulohazalar inobatga olinib, 16 ta qonun loyihasi rad etildi va tashabbuskor idoraga qaytarildi. Holbuki, 2010–2014-yillarda birorta ham qonun loyihasi qaytarilmagan edi.

Siz, hurmatli deputatlar, qonun loyihalarini birinchi navbatda xalq manfaatidan kelib chiqqan holda tahlil qilib, ularni tanqidiy ko'rib chiqish borasidagi ishlarni kuchaytirishingizga ishonaman.

Quyi palata a'zolari shu paytgacha qonun loyihasining konseptual masalalaridan tashqari ularning Konstitutsiya va amaldagi qonunlarga, qonunchilik texnikasiga mosligini ta'minlash bilan ham shug'ullanib kelgan. Aslida deputatlar sifatsiz loyihalarni maromiga yetkazish bilan band bo'lmasdan, asosiy e'tiborni qonunlar xalq manfaatini qanchalik ifoda etishiga qaratishi kerak.

Shu o'rinda qadimgi Rimning mashhur shoiri Publiliy Sirning bir fikrini eslash joiz deb bilaman. **«Qonunlar kuchli bo'lgan joyda, xalq ham kuchlidir»**, deb yozgan edi u.

Darhaqiqat, xalq vakillari bo'lgan deputatlar o'z vakolatiga asoslanib, jasur, talabchan va qat'iyatli bo'lishi, fuqarolarning manfaatiga xizmat qilmaydigan qonunlar qabul qilinishiga yo'l qo'ymasligi shart.

Har bir qonunning, ta'bir joiz bo'lsa, ko'zi, oyog'i, ijrosi bo'lishi lozim. Qonun qabul qilindimi, albatta, hayotda o'zgarish bo'lishi kerak.

Ayni vaqtda masalaning ikkinchi tomonini ham o'ylash kerak, ya'ni parlamentga sifatsiz qonun loyihalarini kiritgani uchun avvalo tashabbuskor idoralar va Adliya vazirligining roli hamda mas'uliyatini oshirish zarur. Agar tashabbuskor idora qonun loyihasining ahamiyatini deputatlar oldida asoslab bera olmasa, Qonunchilik palatasi loyihani ko'rib chiqishni rad etishi lozim, deb hisoblayman.

Uchinchidan, quyi palata deputatlari tashabbusi asosida ishlab chiqiladigan qonunlarning salmog'ini oshirish lozim.

2015 – 2019-yillarda deputatlarning qonunchilik tashabbusi huquqidan foydalanishi son jihatidan oshganini ta'kidlash lozim. Xususan, 2010 – 2014-yillarda 37 ta qonun loyihasi deputatlar tomonidan muhokamaga kiritilgan bo'lsa, o'tgan chaqiriqda bu ko'rsatkich 2,5 barobar oshib, 88 taga yetdi. Biroq, bunday qonun loyihalarining salmog'i quyi palataga kiritilayotgan loyihalarning

umumiy soniga nisbatan hanuz pastligicha qolmoqda, ya'ni 16–17 foizdan oshmayapti. Shu sababli deputatlarimizni o'z saylovchilarining dolzarb muammolarini chuqur tahlil qilgan holda yanada tashabbuskor bo'lishga chaqiraman.

To'rtinchidan, hurmatli xalq vakillari qonunlarni qabul qilishda ularning kelgusida ishlashini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ham ko'rishi lozim.

Qonunlarda belgilangan ayrim qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida qabul qilinmasligi – ularning amalda «ishlamay qolishi»ga, bu esa, fuqarolar va tadbirkorlarning haqli e'tiroziga sabab bo'lmoqda. Misol uchun, xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida»gi qonun kuchga kirganiga bir yildan oshgan bo'lsa-da, uning amalda qo'llanishi ko'plab savollarni yuzaga keltirmoqda.

Shuning uchun qonunlarni qabul qilish jarayonida ular bilan bog'liq barcha qonunosti hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ishlab chiqilishini ta'minlash – palataning besh yil davomidagi asosiy vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Shundagina biz «qonunni qabul qilish bilan parlamentning ishi yakunlandi», degan eskicha qarashdan voz kechamiz.

Bundan tashqari, biron-bir qonun loyihasini qabul qilishda tashabbuskor bo'lgan parlament fraksiyasi shu qonunni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Qonunchilik palatasi yil yakuniga ko'ra joriy yilda qabul qilingan har qaysi qonun xalq tomonidan qanday baholangani, qaysi qonun aholiga naf keltirayotganini, qaysi qonun esa ishlamay turganini aniq tahlil qilishi va tegishli xulosalar chiqarishi lozim. Bu esa elektorat bilan ta'sirchan muloqotni yo'lga qo'yishga va parlamentimiz faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, qonun loyihalarining xalqaro shartnomalarga, xalqaro reytinglardagi o'rnimizni yaxshilash bo'yicha tavsiyalarga mosligini o'rganish amaliyotini keng joriy etish lozim. Chunki, xalqaro shartnomalar va reytinglar mazmunida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasi o'z aksini topgan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib, xulosa qiladigan bo'lsak, qonun ijodkorligi faoliyati «qonunning birdan bir manbayi va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart» degan ustuvor tamoyilga asoslanishi kerak.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Quyi palataning parlament nazoratini amalga oshirish borasidagi faoliyatida ham o'z yechimini kutayotgan qator masalalar mavjud.

Birinchi. Yangi deputatlar ta'sirchan parlament nazoratini olib borish orqali xalq ishonchini oqlashi zarur.

O'tgan davrda parlament nazoratining yangi shakl va mexanizmlari hayotimizga kirib keldi. Jumladan, Qonunchilik palatasida hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish tartibi – «Hukumat soati» instituti joriy etildi. So'nggi 2 yilda 14 marta «Hukumat soati» o'tkazilib, ularda 17 ta vazirlik va davlat qo'mitasi rahbarlari ishtirok etdi.

Bundan tashqari, 2019-yildan boshlab Vazirlar Mahkamasi a'zoliciga nomzodlarni quyi palata majlisida ko'rib chiqish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Biroq bunday ishlarimizdan saylovchilarimiz to'liq rozi, deb aytishga hali erta.

Hech kimga sir emas, ayrim mansabdor shaxslar noma'qul xatti-harakatlari bilan jamiyatda qizg'in muhokamalarga, ayrim hollarda esa, keskin norozilikka sabab bo'lmoqda. Ana shunday vaziyatlarda deputatlarning bir chekkada tomoshabin bo'lib turishini bundan keyin xalqimiz aslo qabul qila olmaydi. Axir, fuqarolar o'z vakillarini xalq fikrini ifoda etish va ular manfaatlarini himoya qilishi uchun saylagan-ku!

El-yurtimiz deputatlar timsolida qonun va axloq-odob mezonlarini buzgan mansabdorlarga qarshi tura oladigan talabchan kurashchini, xalq dardini qo'rqmasdan ko'tarib chiqadigan o'z himoyachisi, o'z vakilini ko'rishni istaydi.

Bu borada dastlabki qadamlar tashlanmoqda. Rasul Kusherbayev, Shuhrat Polvonov, Alisher Hamroyev kabi yosh va jonkuyar deputatlar faoliyati saylovchilarga manzur bo'lmoqda. Masalan, avtomototransport vositalarida kunduz kuni chiroq yoqib yurish bo'yicha qabul qilingan qaror deputatlar tashabbusi bilan o'zgartirildi.

Biz bunday holatlarni faqat ijobiy baholashimiz kerak. Shu tariqa biz ta'sirchan parlament orqali samarali ijro hokimiyati faoliyatini yo'lga qo'yishga erishamiz. Shu sababli xalq orasida munozaraga sabab bo'layotgan muammolar yuzasidan mas'ul rahbarlarning parlament va mahalliy kengashlarga tushuntirish berish tartibini yo'lga qo'yish kerak.

Parlament nazorati natijalaridan aholini o'z vaqtida xabardor qilish masalasi ham e'tiborimiz markazida bo'lishi shart. Shu munosabat bilan palata majlislarini, har bir tadbir haqidagi axborotni ommaviy axborot vositalarida, rasmiy veb-saytlarda, ijtimoiy tarmoqlarda keng va tizimli yoritishni kuchaytirish kerak. Bunday amaliyot parlament faoliyatida nafaqat ochiqlikni ta'minlashga, balki barcha davlat idoralari mas'uliyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Ikkinchi. Palataning qo'mitalari va boshqa tarkibiy tuzilmalari nazorat-tahlil ishlarini kuchaytirishi lozim.

Parlament faoliyatining roli va amaliy ta'sirchanligini oshirish maqsadida o'tgan chaqiriqda qator yangi tarkibiy tuzilmalar tashkil etildi. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi endi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini isloh etish va sud mustaqilligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini ishlab chiqishga bosh-qosh bo'lishi kerak. Ushbu qo'mita davlat idoralarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatiga baho berib, rahbarlarning javobgarligi masalasini Hukumat oldiga qo'ysa, o'ylaymanki, juda o'rinli bo'ladi.

Fuqarolar sog'lig'ini saqlash masalalari qo'mitasi joylarda tibbiyot sohasidagi ishlar ahvolini o'rganishga mas'ul etib belgilangan. Umuman, Qonunchilik palatasiga sog'liqni saqlash tizimini nazorat qilish ishonib topshirilgan edi.

Afsuski, palataning bu borada olib borayotgan ishlari hali biz kutgan natijani bermayapti va bunday holat meni jiddiy tashvishga solmoqda. Nega deganda, sog'liqni saqlash tizimida hozirda ham o'z yechimini topmagan muammolar juda ko'p. Misol uchun, sohada davlat-xususiy sheriklikni yo'lga qo'yishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lsa-da, bironta loyiha ishga tushirilmagan. Shuningdek,

onkologik, endokrinologik va yurak-qon tomir tizimi kasalliklarini davolash bo'yicha ishlarning ahvoli talab darajasida emas.

Eng achinarlisi, ayrim tibbiyot maskanlarining o'zi infeksiya tarqalish manbayi bo'lib qolmoqda. Xususan, 2019-yilda shifoxonalarda infeksiya tarqalishi bilan bog'liq mingga yaqin holat qayd etilgan.

Sohadagi mavjud ahvolning nazorati quyi palataga yuklatilganini inobatga olib, Spiker va mas'ul qo'mita parlament nazoratini tizimli yo'lga qo'yishi, kerak bo'lsa, uni har bir tibbiyot muassasasi bo'yicha amalga oshirishi lozim. Ana shu o'ta muhim masalada, ya'ni tibbiy xizmat sifatini yaxshilash uchun qanday qonuniy choralar ko'rish, odamlarni rozi qilish bo'yicha chinakam tashabbus va qat'iyat ko'rsatilsa, tarixda qoladigan ish bo'lur edi.

Quyi palatada Davlat budjeti boshqarmasining tashkil etilgani budjetni shakllantirish va ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatishga xizmat qilmoqda. Masalan, o'zini o'zi moliyalashtirish tartibiga o'tgan oliy ta'lim muassasalari uchun ijtimoiy soliq stavkasi 25 foizdan 12 foizga tushirildi va ularning ixtiyorida 47 milliard so'm mablag' qoldirildi. Albatta, bu – parlament nazoratini kuchaytirish borasidagi sa'y-harakatlarning dastlabki ijobiy natijasi, xolos.

Parlamentimizning bu boradagi faoliyatini kuchaytirishni hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Keyingi paytda hudud va mintaqalarimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan katta hajmdagi mablag'lar yo'naltirilmoqda. Lekin bu mablag'larning to'g'ri va samarali ishlatilishini nazorat qilish borasida, avvalambor, shu hududlardan saylangan deputatlarimizning ishtiroki deyarli sezilmayapti. Holbuki, joylarda ajratilgan mablag'lardan noto'g'ri foydalanish, ularni talon-toroj qilish, korrupsiya holatlari ham uchrab turibdi.

Xalq vakillari o'z vakolatiga asoslanib, ta'sirchan nazorat o'rnat-sa, ularning ham, Qonunchilik palatasining ham obro'-e'tibori ortadi. Eng muhimi, bundan el-yurtimizga amaliy foyda bo'ladi.

Budjetdan sarflanadigan har bir so'm uchun Moliya vazirligi xalq vakillari oldida hisobot berishi, barcha idoralar davlat mablag'ining

aniq maqsadlar uchun ishlatilishi bo'yicha parlamentdan hayiqib turishi lozim. Shunda tartib bo'ladi, shunda hamma deputat bilan hisoblashadigan bo'ladi. Palata bu masalada qat'iyat ko'rsatib, elektorat manfaatlarini himoya qiladi, deb ishonaman.

Umuman olganda, har bir qo'mita chorak ish rejasi asosida o'z faoliyat yo'nalishidagi davlat idoralari oldiga konkret vazifalarni qo'yib, ulardan qonun va qarorlar ijrosi bo'yicha aniq so'rov qilishiga erishmog'imiz zarur.

Uchinchi. Parlament va deputat so'rovining ta'sirchanligini oshirish choralari ko'rish kerak.

O'tgan chaqiriqda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridagi mansabdor shaxslarga 28 ta yoki 2010–2014-yillarga nisbatan 7 barobar ko'p parlament so'rovi yuborildi.

Parlament va deputat so'rovini ko'rib chiqmaganlik yoki ko'rib chiqish muddatini buzganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirildi. Shunga qaramasdan, afsuski, ayrim hollarda deputat so'roviga rahbarning o'zi emas, balki uning o'rinbosari, hatto boshqarma boshliqlari javob qaytarmoqda.

O'zingiz ayting, qani bu masalada xalq vakilining obro'si? Parlamentga va deputatga bo'lgan hurmat shumi? Bunday salbiy holatlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu sababli parlament va deputat so'roviga vazirlik va idoralar birinchi rahbarlarining shaxsan o'zlari javob berishi shartligini qonunda belgilashni taklif qilaman.

To'rtinchi. Saylovchi va deputatning o'zaro munosabatlariga axborot texnologiyalarini keng joriy etadigan vaqt keldi. Jumladan, parlament va deputat so'rovlarini shakllantirish mexanizmini takomillashtirish zarur.

O'tgan chaqiriqda turli masalalar yuzasidan 856 ta deputat so'rovi yuborilgan. Lekin so'rovlarda saylovchilar manfaati qanchalik o'z aksini topdi, ularning nechtasi fuqarolar tashabbusi asosida shakllantirildi, degan savollar meni o'ylantirmoqda. Shuning uchun jamoaviy murojaatlar asosida Internet tarmog'i vositasida parlament va deputat so'rovini shakllantirish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim. Bu orqali biz aholini qiynayotgan masalalarning parlamentda ko'rib chiqilishiga erishamiz.

2019-yilda deputatlar tomonidan 8 mingdan ortiq xonadon, 3 mingdan ziyod ijtimoiy soha va 2 mingga yaqin ishlab chiqarish obyektiga borilib, qariyb 150 ming fuqaro bilan muloqot o'tkazildi. Odamlarni tashvishga solayotgan ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida deputatlar har oyning oxirgi haftasida o'z saylov okrugida bo'lishiga doir tartib yo'lga qo'yildi. Albatta, bu ishlarni tizimli ravishda davom ettirish kerak.

Ayni vaqtda savol tug'iladi – axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi kunda saylovchi o'zining vakiliga murojaat qilishi uchun uning okrugga bevosita kelishini kutib o'tirishi shartmi? Shu sababli xalq bilan muloqot tizimini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqib, deputatlarni o'z saylovchilari bilan bog'lash imkoniyatini beradigan elektron portal va mobil ilovalarni ishga tushirish lozim. Toki ana shu tizim orqali saylovchi deputatning kundalik ishini kuzatib borish, qonun loyihalarini muhokama qilish va ular bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirish imkoniga ega bo'lsin. Ya'ni deputat faoliyatiga uning saylovchilari bevosita baho bersin. Ana shundagina fuqaro va parlament o'rtasida xalqimiz bizdan kutayotgan haqiqiy ko'priq paydo bo'ladi.

Beshinchi. Parlament faoliyatiga aholini keng jalb etish maqsadida «Mening fikrim» veb-portali ishini takomillashtirish darkor.

Ma'lumki, biz bu portalni davlat va jamiyat hayotiga oid muhim masalalarda xalq fikrini atroflicha o'rganish va fuqarolar tashabbusini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida tashkil etgan edik. Lekin hozirgi kunda xalqdan tushayotgan takliflarni chuqur o'rganish va ularni muhokama qilish ishlari samarali yo'lga qo'yilganmi?

Bu savolni o'rta qo'yayotganimiz bejiz emas. Chunki, hozirgi kunga qadar tushgan takliflarning atigi 11 tasi keng muhokamadan o'tkazilib, ular bo'yicha palataning qarorlari qabul qilingan.

Umuman olganda, jamiyat hayoti uchun dolzarb muammolar ko'tariladigan bo'lsa, ularni keng jamoatchilik o'rtasida muhokama qilishning muqobil usullarini amaliyotga kiritish zarur.

Bu borada «Mening fikrim» veb-portaliga tushayotgan murojaatlarni televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalarida

deputatlar, mutaxassislar, keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun ko'rsatuv va eshittirishlar tashkil etish maqsadga muvofiq, deb o'ylayman.

Yana bir muhim masala shuki, Qonunchilik palatasining xalqaro parlamentlararo tashkilotlardagi ishtirokini faollashtirish lozim.

Bugungi kunda quyi palataning xalqaro aloqalari kengayib borayotgani hammamizga yaxshi ma'lum. Masalan, 2015-yilda palatada xorijiy davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik bo'yicha 9 ta parlamentlararo hamkorlik guruhi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2019-yilda ularning soni 28 taga yetdi, shundan 24 ta guruh Senat bilan birgalikda tuzilgani e'tiborga molik. Xalqaro munosabatlardagi samarali faoliyat natijasida o'tgan davrda parlamentda 24 ta chet el delegatsiyasi qabul qilindi.

Milliy parlamentimiz qisqa muddatda ko'plab nufuzli xalqaro parlamentlararo birlashmalarning faol ishtirokchisiga aylandi. Parlamentlararo ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlamentlararo assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar Parlamentlararo assambleyasi shular jumlasidan bo'lib, bizning deputatlarimiz ham mazkur nufuzli tashkilotlarning rahbarlik lavozimlariga saylandilar.

Xalqaro parlamentlararo aloqalarni tizimli ravishda rivojlantirib borish bundan keyin ham deputatlarning doimiy e'tibor markazida bo'lishi zarur.

Yana bir jihatga alohida e'tiboringizni qaratishni istar edim. Afsuski, partiyalarimiz o'z siyosiy maqsad va dasturlarini ilgari surish va saflarini kengaytirish haqida faqat saylov arafasidagina eslab qoladilar. Asosan shu davrda ular o'z a'zolari bilan ishlab, ularning sonini ko'paytirishga intiladi. Bunday yondashuv, vaqtinchalik va rasmiyatchilik uchun qilinadigan ishlar qanchalik to'g'ri? Bu albatta noto'g'ri.

Aslida siyosiy partiyalar o'z a'zolari sonini ko'paytirish ustida doimiy ishlashi, o'z dasturlarini hamisha takomillashtirib, undagi maqsad va g'oyalarni kundalik hayotga tatbiq etib borishi kerak emasmi? Shundagina partiyalarning jamiyatdagi va ijtimoiy

hayotimizdagi o'zni va ta'siri mustahkam bo'ladi. Shuning uchun siyosiy partiyalar va ularning fraksiyalari rahbarlari o'z faoliyatini jonlantirishi, elektorat ichiga chuqur va tizimli ravishda kirib borishi lozim.

Yangi saylangan Spikerning birinchi o'rinbosari, katta tajribaga ega huquqshunos olim sifatida ham, siyosiy partiyalar va fraksiyalarga o'z faoliyatini takomillashtirishida doimiy amaliy ko'mak va tavsiyalar berib borishi zarur.

Hurmatli do'stlar!

Bugungi kunda jonjon O'zbekistonimiz o'z taraqqiyot yo'lidan jadal ilgari lab bormoqda. O'tgan uch yil davomida amalga oshirgan islohotlarimiz o'zining dastlabki mevasini bera boshladi. Jahon hamjamiyatida O'zbekistonga qiziqish va e'tibor, mamlakatimizning kuch va imkoniyatlariga, uning kelajagiga bo'lgan ishonch tobora ortib bormoqda. Bu esa taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqish, ko'zlagan maqsadlarimizga yetish uchun mustahkam zamin yaratmoqda, desak, adashmagan bo'lamiz.

Ana shunday ulkan imkoniyatlarni qo'ldan bermasdan, yo'limizdan og'ishmasdan, yanada qat'iy ilgari lab borsak, ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz. Bu yo'lda Qonunchilik palatasi, hurmatli deputatlarimiz yetakchi kuch bo'lib maydonga chiqishlari kerak.

Xalqimizning eng sara vakillari sifatida sizlar buning uchun yetarli salohiyat va sharoitlarga egasizlar. Umuman olganda, deputatlarimiz o'zining yurish-turishi, madaniyati, odobi va etikasi bilan barchaga ibrat va namuna bo'lishi lozim. Spiker va uning o'rinbosarlari bu muhim masalani o'zining alohida nazoratiga olishi shart.

Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan birgalikda deputatlarning malakasini doimiy oshirib borish yuzasidan yangicha tizim – deputatlik o'quvlarini joriy etishni taklif qilaman.

El-yurtimiz sizlarga haqli ravishda katta umid va ishonch bilan qaramoqda. «Parlament xalq irodasining haqiqiy ko'zgusi bo'lishi zarur» degan ulug'vor g'oyani amalda namoyon etishingizni kutmoqda. Ana shunday ishonch, hurmat va e'tiborga munosib bo'lish – bu juda katta baxt. Bag'rikeng, mehnatkash va olijanob

xalqimizning ana shu ishonchini har birimiz o'z joyimizda amaliy ishlar bilan oqlashimiz kerak. Bu bizning nafaqat fuqarolik, balki, eng avvalo, ona Vatanimiz oldidagi farzandlik burchimizdir.

Ishonamanki, yangi parlament tarkibida o'z faoliyatini boshlayotgan barcha hurmatli deputatlarimiz ana shu talabni chuqur anglab, samarali faoliyat olib boradilar.

Sizlarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati etib saylanganingiz bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat, faoliyatingizda yutuq va omadlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasining
birinchi majlisidagi nutq*

2020-yil 20-yanvar

SENATORLIK TASHABBUSKORLIK VA FIDOYILIK DEMAKDIR

Assalomu alaykum, hurmatli Senat a'zolari!

Qadrlı do'stlar!

Avvalo, sizlarni saylovlarda g'olib bo'lib, senator degan yuksak nomga sazovor bo'lganingiz bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, Oliy Majlis yuqori palatasining avvalgi tarkibida samarali faoliyat olib borgan senatorlarga barchamizning nomimizdan minnatdorchilik bildiraman.

Albatta, oliy vakillik organi a'zosi bo'lish har bir senator uchun nafaqat katta sharaf, balki ulkan mas'uliyat ham ekanini barchangiz yaxshi tushunasiz.

Senator – bu avvalo xalq va davlat ishonchini qozongan inson. U chuqur bilim, boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan, tinimsiz mehnat qilib, tashabbus ko'rsatib yashaydigan, xalq manfaatlarini doimo birinchi o'ringa qo'yib, o'z taqdirini el-yurt taqdiri bilan chambarchas bog'liq holda ko'radigan shaxsdir.

Biz sizlarning timsolingizda ana shunday yetuk va faol shaxslarni tasavvur qilamiz.

Ta'kidlash joizki, Senatning yangi tarkibi ancha yuqori professional darajada shakllandi. Buni Senat a'zolarining 20 nafarini iqtisodchilar, 19 nafarini muhandislar, 13 nafarini pedagoglar, 7 nafarini huquqshunoslar, 6 nafarini tibbiyot xodimlari, 5 nafarini agronomlar, 4 nafarini jurnalistlar hamda 12 nafarini jamoat tashkilotlari vakillari tashkil etgani, ularning orasida 16 nafar fan doktori, 12 nafar fan nomzodi mavjudligi ham tasdiqlaydi. Shuningdek, Senat a'zolarining salkam 25 foizi xotin-qizlardan iborat bo'lib, bu esa yuqori palataning faoliyati yangicha yondashuv va qarashlar asosida tashkil etilishidan dalolat beradi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Jonajon O'zbekistonimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ygan keyingi uch yil Senat uchun ham o'ziga xos tub yangilanish va o'zgarishlar davri bo'ldi. Senat tomonidan ko'rib chiqilgan qonunlar soni qariyb 230 taga yetgani va shundan 190 ta qonun so'nggi uch yilda ma'qullangani ushbu yo'nalishda katta ish qilinganini ko'rsatadi. Bu boradagi ijobiy o'zgarishlar nafaqat qonunlarning soni, balki ularning sifati bilan ham bog'liq, desak, to'g'ri bo'ladi.

Shu o'rinda Senat qo'mitalari tomonidan muhim tashabbuslar ilgari surilgani va ular ko'plab dolzarb masalalar yechimiga xizmat qilganini ta'kidlash lozim. Misol uchun, Budget va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining sug'urta bozori samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflari mazkur sohani takomillashtirishga oid muhim qarorlarda o'z ifodasini topdi.

Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi ham keng jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, muhim tashabbusni ilgari surdi. Hozirgi vaqtda shu asosda to'y va marosimlar o'tkazishni tartibga solish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar hayotga joriy etilmoqda. Eng muhimi, ularni xalqimiz qo'llab-quvvatlamoda.

Bundan tashqari, Senatda ichki ishlar va tashqi ishlar vazirlarining axborotlarini eshitish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Senatning yalpi majlislarida viloyat hokimlarining hisobotlarini eshitish tartibi joriy etilgani parlament nazorati sohasidagi katta amaliy natija, deyish mumkin.

Shuningdek, xalqaro munosabatlar sohasidagi o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan hamkorlik ifodasi sifatida Senatda 25 ta parlamentlararo guruh va 2 ta komissiya faoliyati yo'lga qo'yildi.

Hurmatli senatorlar!

Yuqori palata ishining samaradorligini oshirish maqsadida yaqin va uzoq istiqbolda quyidagi muhim vazifalarni amalga oshirish zarur, deb hisoblayman.

Birinchidan, aholini qiynayotgan muammolarni hal etishning samarali tizimini yaratishimiz lozim.

Uch yil oldin senatorlar tomonidan, bevosita joylarga chiqqan holda, hududlardagi muammolarni o'rganish va mahalliy kengashlarda muhokama qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Biroq, hozircha bu biz kutgan natijalarni berdi, deb ayta olmaymiz. Joylarda hali juda ko'p muammolar o'z yechimini kutib turibdi. Masalan, yo'l qurilishi sohasida jami 184 ming kilometr bo'lgan avtomobil yo'llarining 70 ming kilometri yoki 38 foizi qayta qurishga muhtoj.

Odamlarning eng ko'p e'tiroziga sabab bo'layotgan kommunal xizmat sohasini oladigan bo'lsak, bu borada ham bir qator muammolar kuzatilmoqda. Masalan, mavjud 633 ta qozonxonaning 25 foizi hamda 4 ming kilometr issiqlik tarmog'ining 75 foizi yaroqsiz ahvolda.

Eng achinarlisi, respublikamizda markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi atigi 68 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida 60 foizdan ham past bo'lib qolmoqda.

Shaharsozlik sohasida mamlakatimizda 1 ming 200 ta aholi punktidan faqat 232 tasi yoki 19 foizi bosh rejasiga ega. Sog'liqni saqlash sohasida respublikamiz bo'yicha 13 mingta umumiy amaliyot vrachlari va tor yo'nalishdagi mutaxassislar yetishmaydi.

2019–2020-o'quv yilida umumta'lim maktablarida 2 ming 700 dan ortiq pedagog kadrlarga ehtiyoj mavjud bo'lsa, maktablarning jihozlanish darajasi 79 foizni tashkil etmoqda. Shu bilan birga, 3 mingta maktabda ichimlik suvi tashib keltiriladi, 261 ta maktab esa suv bilan ta'minlanmagan.

Mehnatga layoqatli aholi o'rtasida ishsizlik darajasi 8,9 foizni, ayollar o'rtasida 12,5 foizni tashkil etadi. Mamlakatimizda yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida 2 ming 400 ta mehnat yarmarkasi o'tkazilgan. Shunga qaramasdan, ish izlaganlarning juda kam qismi ishga joylashtirilgan.

Albatta, uzoq vaqt davomida xalq bilan yaqindan muloqot qilinmagani, uning dard-u tashvishlarini atroflicha o'rganib, hal etish choralari ko'rilmagani oqibatida mana shunday ijtimoiy muammolar to'planib qolgani hech kimga sir emas. Biz bu masalalarning

yechimini topish maqsadida muhim dasturlar qabul qilib, shu asosda katta ishlarni amalga oshirayotganimizdan, o'ylaymanki, barchangiz xabardorsiz. Bu muammolarni to'liq bartaraf etish uchun albatta vaqt kerak, ulkan mablag' va kuch-imkoniyatlar zarur. Markazda va joylarda ijro organlarining butun faoliyati ana shu masalalarga qaratilayotgani ham sizlarga yaxshi ma'lum.

O'z navbatida, senatorlarimiz ham bu borada tashabbus va tashkilotchilikni o'z qo'llariga olib, aniq takliflar kiritsalar, ayni muddao bo'lar edi. Shu bois, Senatning har bir qo'mitasi o'z faoliyat rejasini hududiy muammolardan kelib chiqib shakllantirishi lozim.

Ayniqsa, Senatning Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlarini bajarish bo'yicha tasdiqlangan indikatorlarga erishilishi ustidan monitoring olib borishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, yuqorida sanab o'tilgan barcha muammolar Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan hamohangdir.

Shuningdek, o'rganilgan masalalar bo'yicha bevosita joylarga borib, vazirlik va idoralar rahbarlari ishtirokida Senat kengashi va qo'mitalarining sayyor majlislarini o'tkazish zarur. Bu amaliyot aholini tashvishga solayotgan muammolarni tezkorlik bilan hal etish imkonini beradi.

Ikkinchidan, islohotlarimizning bugungi bosqichi Hukumat, barcha vazirlik va idoralar hamda hokimliklar oldiga keskin talablar qo'ymoqda. Bu talablar qonunlarda, Prezident farmonlari va qarorlarida, turli davlat va hududiy dasturlarda o'z ifodasini topgan.

Shuning uchun vazirlik va idoralar rahbarlari ko'proq hududlarda bo'lib, joylardagi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yechimi yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilab olmoqda. Lekin, ularning ijrosini kim nazorat qiladi? Albatta, xalq ishonchiga sazovor bo'lgan senatorlar bu borada asosiy tashabbuskor bo'lib, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishlari zarur.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Senat vazirlik va idoralar rahbarlari, hokimlarning mazkur chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan hisobotini muntazam muhokama qilib borishi lozim. Bu jarayonda

hisobot shunchaki hisobot uchun bo'lib qolmasligi kerak. Aksincha, hisobotlar muhokamasidan so'ng muayyan soha yoki hududda aniq o'zgarishlar bo'lishi zarur.

O'ylaymanki, parlament nazorati natijalari asosida faoliyati qoniqarsiz, deb topilgan rahbarlarning lavozimda qolish yoki qolmaslik masalasi bo'yicha Senat tomonidan Hukumat oldiga masala qo'yadigan va ta'sirchan choralar ko'radigan vaqt keldi.

Amaldagi qonunlarga asosan Senat parlament nazorati natijalari bo'yicha hatto Hukumat a'zosini iste'foga chiqarish to'g'risida Prezidentga taklif kiritishi mumkin.

Fursatdan foydalanib, siz, hurmatli Senat a'zolariga murojaat qilib aytmoqchiman: aniq tahlil va asoslar bilan kiritilgan takliflarni men ko'rib chiqishga tayyorman.

Uchinchidan, yoshlar va ta'lim masalalari Senatning doimiy e'tiborida bo'lishi kerak.

Abdulla Avloniyning «**Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir**», degan so'zlarini takror va takror aytishdan charchamayman. Nega deganda, bu fikr bugungi kunda har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega ekanini unutmashimiz lozim.

Yoshlarimiz kimning avlodlari ekanini chuqur anglashlari kerak. Ayni vaqtda bugungi islohot va o'zgarishlar o'z-o'zidan bo'lmayotganini bilishlari zarur.

Yaqinda yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda joriy yilda yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yasash bo'yicha ulkan maqsadlarni belgilab oldik. Xususan, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni ish bilan ta'minlash, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallashi uchun sharoit yaratish, qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarish, ayniqsa, xotin-qizlarimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning muammolari bilan muntazam ravishda shug'ullanish, qiz bolalarni mustaqil hayotga tayyorlash, shuningdek, madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar ijrosini Senat nazorat qilib, mutasaddi rahbarlarning yoshlar muammolarini hal etish borasidagi faoliya-

tiga oid hisobotlarini eshitib, tegishli choralar ko'rib borsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

To'rtinchidan, Senat hududiy vakillik palatasi sifatida Davlat budjeti loyihasini ko'rib chiqishi va uning ijrosi ustidan parlament nazoratini o'rnatishi zarur.

Biz 2020-yil uchun Davlat budjetini birinchi marta qonun bilan tasdiqlash amaliyotini boshladik. Konstitutsiyamizga muvofiq, budjetni qabul qilish va uning ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalarining birgalikdagi vakolati hisoblanadi.

Ammo, qonunlarda budjet ijrosini faqat Qonunchilik palatasi tomonidan nazorat qilish tartiblari belgilangan. Ajratilayotgan mablag'larning vazirlik va idoralar bo'yicha, ayniqsa, hududlar kesimidagi ijrosini o'rganish Senatning ham asosiy vazifasi bo'lishi lozim. Shu munosabat bilan qonunlarga tegishli tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.

Sizlarga yaxshi ma'lumki, Qonunchilik palatasida Davlat budjeti boshqarmasi tashkil etilgan edi. Bu qisqa muddatda o'zining dastlabki ijobiy natijalarini ko'rsata boshladi. Yuqori palatamizda ham ana shunday faoliyatni amalga oshirish maqsadida Senatda alohida tuzilma tashkil etishni taklif qilaman. Ushbu tuzilma Davlat budjetini shakllantirish va ijro etish jarayonlari ustidan hududlar manfaatidan kelib chiqqan holda nazorat olib borishda senatorlarning asosiy ko'makchisi bo'ladi, deb ishonaman.

Beshinchidan, jamiyat hayotining turli sohalaridagi dolzarb masalalarni hal etishda parlament so'rovi institutidan samarali foydalanish zarur.

2010–2014-yillarda Senat tomonidan atigi 3 ta parlament so'rovi yuborilgan bo'lsa, so'nggi besh yilda 26 ta parlament so'rovi va 700 dan ortiq senator so'rovi yuborilgan. Kelgusida parlament so'rovi alohida viloyat, tuman, shahar miqyosidagi dolzarb masalalarni ham qamrab olsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Biroq, senator so'rovlarining sifati va natijadorligini oshirish bo'yicha hali oldimizda ko'p ishlar turibdi.

Afsuski, davlat boshqaruvi organlari tomonidan senatorlarning so'rovlariga javob bermaslik holatlari ham mavjud.

Ta'kidlab aytmoqchiman, **senator so'roviga bepisandlik – bu xalqqa bo'lgan bepisandlik, deb baholanishi kerak.** Bunday holatga yo'l qo'ymaslik uchun senator so'rovini hududlar manfaatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish, uning natijasiga oid axborotni Senatning qo'mita majlislari va yalpi majlislarida muhokama qilish zarur.

Oltinchidan, Senatning mahalliy kengashlar bilan hamkorligini, ular faoliyatiga amaliy va uslubiy ko'mak ko'rsatish borasidagi faoliyatini yanada kuchaytirish lozim.

Afsuski, bugungi kunda yuqori palatamizning bu boradagi faoliyati sustligicha qolmoqda. Eng achinarlisi, mahalliy kengashlar hududlardagi dolzarb masalalar yechimini topishda o'z vakolatlaridan deyarli foydalanmayapti.

Ma'lumki, so'nggi davrda, ayniqsa, oxirgi uch yilda mahalliy kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, hokim, hokim o'rinbosarlari, prokuratura, adliya, ichki ishlar, moliya, soliq va sog'liqni saqlash idoralari rahbarlarining hisobdorligi belgilab qo'yildi.

Qonunchilikda mahalliy kengashlarga bunday keng vakolatlar berilgan bo'lsa-da, amalda ularning natijasi ko'rinmayapti. Senat qo'mitalari mahalliy kengashlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'ymagani ham bunga sabab bo'lmoqda.

Kengashlar faoliyat samaradorligini oshirishda men, birinchi navbatda, siz, muhtaram senatorlarga suyanaman. Shuning uchun doimiy asosda ishlaydigan senatorlarni mahalliy kengashlarga birlashtirishni nazarda tutadigan yangi tizim yaratish lozim. Buni saylovlarda kuzatuvchi bo'lib ishtirok etgan xalqaro tashkilotlar vakillari ham tavsiya etishgan.

Aslida senatorlar hududlar manfaatini himoya qiladilar. Shuning uchun senatorlarimiz har oyda bittadan mahalliy kengashni namunaviy ishlaydigan qilib bersalar, albatta xalqimiz ulardan rozi bo'ladi.

Shu munosabat bilan mahalliy kengashlarda senatorning kabinetini tashkil etish o'rinli bo'ladi. Shu bilan birga, Senat Raisi, hududlarda barcha senatorlarni jalb qilgan holda, mahalliy kengashlar deputatlarining tizimli o'quvini tashkil etish amaliyotini joriy etishi lozim.

Senat Davlat boshqaruvi akademiyasi bilan birgalikda, mutlaqo yangi bo'lgan tizimni, ya'ni Senatorlar maktabini shakllantirishi kerak. Chunki, joylarda deputatlar korpusi qanchalik kuchli bo'lsa, mahalliy kengashlar va albatta Senat ham shunchalik kuchli bo'ladi.

Hurmatli senatorlar, men sizlarning har biringizni ko'pni ko'rgan, xalq ichida katta obro'-e'tiborga ega, joylardagi muammolarni va ularni hal qilish yo'llarini yaxshi biladigan odamlar deb bilaman. Barchangiz fidokor va tashabbuskor bo'lib, o'z amaliy ishlaringiz bilan senator sifatida mamlakatimiz tarixida nom qoldirishingizni istayman.

Endi ijro hokimiyati yomon ishlamoqda, deb nolib o'tiradigan vaqt o'tdi. Ijro organi faoliyati ustidan kim nazorat olib borishi kerak? Avvalo, senatorlar emasmi?

Quyidagi kengashlar qanchalik faol bo'lsa, Senatning ishi shuncha samarali bo'ladi. Joylardagi ijro organlarini faol ishlatish ko'p jihatdan senatorlarimizga bog'liq.

Senatorlar joylardagi rahbarlar hisobotini eshitishi, mamlakatimiz darajasida hal qilinadigan masalalarni Senat muhokamasiga kiritib borishi kerak. Ushbu faoliyatni samarali tashkil etish va mahalliy kengashlarning ish sifatini oshirish maqsadida ularda doimiy asosda ishlaydigan kotibiyat tashkil etishni taklif qilaman.

Shuningdek, xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, Kengashlarga vazirlik va idoralar hududiy tuzilmalari rahbarlarining o'z lavozimiga loyiqligi yuzasidan taklif kiritish vakolatini bersak, nima deysizlar?

Ma'lumki, «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonunda Kengashlarning qonun hujjatlariga zid bo'lgan qarorlari Oliy Majlis tomonidan belgilangan tartibda bekor qilinishi nazarda tutilgan.

Biroq, shu kunga qadar ushbu normani amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilmagan.

Senat hududiy vakillik palatasi ekanini inobatga olib, Kengashlarning qonunga zid qarorlarini bekor qilish vakolatini yuqori palataga berish to'g'ri bo'ladi, deb o'ylayman.

Yettinchidan, korrupsiyaga qarshi keskin kurashish muhitini yaratishda Senatning rolini kuchaytirish zarur.

Bugungi kunda davlat xizmatchilari, hatto yuqori lavozimlardagi mas'ul shaxslar tomonidan sodir etilayotgan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar ham fosh etilmoqda. Bu haqdagi xabarlar ommaviy axborot vositalarida tez-tez e'lon qilinmoqda. Ayniqsa, muayyan hudud taqdiri ishonib topshirilgan ayrim mansabdorlarning poraxo'rlik va korrupsiya jinoyatiga qo'l urayotgani tashvishli holdir.

Joylardagi rahbarlarning qonunga zid faoliyati doimo hududlarda faoliyat olib borayotgan senatorlarning e'tibor markazida bo'lishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, har bir senator korrupsiyaga qarshi kurashning oldingi saflarida bo'lishi shart. Senat a'zolari jamiyatda qizg'in bahslarga sabab bo'lgan holatlar yuzasidan, yalpi majlisni kutib o'tirmasdan, tezkor eshituvlar tashkil etib, mutasaddi shaxslardan izoh talab qilishi zarur.

Sakkizinchidan, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlikning barvaqt oldini olish masalasi Senatning doimiy e'tiborida bo'lishi kerak.

So'nggi yillarda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish borasida bir qator ishlarni amalga oshirdik. Biroq, bu sohada oldimizda hali o'z yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Masalan, o'tgan yili mamlakatimiz bo'yicha jinoyat sodir etgan 47 mingdan ortiq shaxsning 12 ming nafari yoki 25 foizini yoshlar tashkil etgan.

Bu ko'rsatkich Qashqadaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida 39 foizdan iborat bo'lsa, Andijon va Namangan viloyatlarida 38 foizdan oshgan. Lekin, ming afsuski, ana shu viloyatlar va Toshkent shahrida Senatning sayyor majlislari o'tkazilib, bunday o'ta tashvishli holat jiddiy muhokama qilinmagan. Hamma chetda tomoshabin bo'lib o'tiribdi.

O'zingiz ayting, bu ahvolda ertaga qanday vaziyatga tushib qolamiz?

Bunday beparvolik va e'tiborsizlik endi tarixda qolishi kerak. Yangi senatorlarimiz har bir masala bo'yicha tezkor munosabat bildirishlari va zarur chora-tadbirlar ko'rib borishlari lozim.

Bundan tashqari, bezorilik va firibgarlik bilan bog'liq jinoyatlar soni ortib bormoqda. Shuning uchun joylarda jinoyatchilikka qarshi kurash olib boradigan idoralar faoliyati senatorlarning doimiy nazoratida bo'lishi lozim.

Xabaringiz bor, so'nggi 3 yilda o'z qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 4 mingdan ortiq shaxs afv etilib, o'z yaqinlari bag'riga qaytarildi. O'ylaymanki, bu insonlar kelgusida hayotda o'z o'rinlarini topishida ham senatorlarning alohida hissasi bo'ladi.

Agar o'z vaqtida zarur choralarni ko'rib, afv etilganlarning ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlamasak, afv etish to'g'risida biz qabul qilgan farmonlarning obro'si, ta'siri nima bo'ladi?

To'qqizinchidan, Senat davlat idoralarining jamiyatda xotin-qizlar rolini oshirish borasidagi faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirishi lozim.

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturi doirasida qator chora-tadbirlar belgilangan. Barcha darajadagi rahbarlarga ayollar, ayniqsa, yosh qizlarning bandligini ta'minlash va ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatishni asosiy vazifa sifatida belgiladik.

Ana shu vazifalar ijrosini tashkil etish va nazorat qilishda Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi muayyan ish olib bormoqda. Kelgusida ham mazkur qo'mita gender tenglikni ta'minlash, og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo'llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashishga oid vazifalar ijrosini muntazam o'rganib borishi zarur. Buning natijasi bo'yicha mas'ul idoralar rahbarlarining hisobotini eshitib, ularning faoliyat samaradorligini oshirishga ko'maklashish lozim.

Albatta, Senatda bu borada ozmi-ko'pmi ishlar qilinmoqda. Lekin, afsuski, mahalliy kengashlarda bu masala bo'yicha e'tiborga loyiq muhokamalar deyarli o'tkazilmagan.

Ijro organlarida, vazirlik va idoralarda gender tenglikni ta'minlash, muhtarama opa-singillarimizga mas'ul lavozimlarni ishonib topshirish bo'yicha ko'p ish qilishimiz kerak. Nega deganda, ayollarimiz hayotiy muammolarni boshqalardan ko'ra chuqurroq bilishi, fido-yiligi, kuchli mas'uliyat tuyg'usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o'mak bo'ladi.

O'ninchidan, Senat faoliyatining ochiqligini ta'minlash borasida qilinayotgan ishlarni yanada kuchaytirish zarur.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqori palatamiz jamoatchilik, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari bilan uzviy hamkorlikda ish olib bormoqda. Senat faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etildi va yuqori palataning maxsus veb-portali yaratildi.

So'nggi paytlarda Senat majlislarini jonli efir orqali namoyish qilish amaliyotining joriy etilishi xalqchil parlamentni shakllantirishning muhim omili va xalq oldida hisobot berishning samarali vositasiga aylanmoqda. Ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni tizimli ravishda davom ettirish zarur. Shuningdek, Senatda bu boradagi ijobiy amaliyotni mahalliy kengashlar faoliyatiga ham joriy etish yaxshi natija beradi, deb o'ylayman.

Navbatdagi dolzarb vazifa – parlament palatalarining qonun ijodkorligi jarayonidagi hamkorligini mustahkamlashdan iborat.

Bu borada muhim bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Ikki palatali parlament tashkil etilganidan boshlab hozirgi kunga qadar jami 9 ta qonun Senat tomonidan rad etilgan. Ushbu ko'rsatkich 2005-yildan bugungi kungacha qabul qilingan barcha qonunlarning atigi 1,5 foizini tashkil etadi. Mazkur ko'rsatkich aksariyat rivojlangan davlatlarda bundan bir necha bor yuqori ekanini qayd etmoqchiman.

Biz qonunning Senat tomonidan rad etilishiga salbiy holat deb emas, aksincha, sifatli qonunlarni qabul qilishga qaratilgan demokratik jarayon sifatida baho berishimiz lozim.

Yana bir muhim masala – qonunlar ijrosi ustidan parlament nazoratini amalga oshirish Senatning konstitutsiyaviy vakolati hisoblanadi.

Ayrim hollarda qonunlarni amalga oshirish mexanizmi bo'lmagani ularning to'liq ishlamasligiga sabab bo'lmoqda. Xususan, bunday mexanizm qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa-da, ularda o'zaro muvofiq kelmaydigan holatlar mavjud.

Davlat organlari va tashkilotlarining norma ijodkorligi faoliyatini muvofiqlashtirish bevosita Adliya vazirligining vazifasi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, Adliya vazirligining bu boradagi faoliyati parlament nazoratining markazida bo'lishi lozim.

Ma'lumki, parlament faoliyatini sifatli axborot-tahliliy materiallar bilan ta'minlash maqsadida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tashkil etilgan edi. Islohot talablaridan kelib chiqib, mazkur institut faoliyatini yanada kuchaytirishimiz, uni deputat va senatorlarning chinakam ko'makchisiga aylantirishimiz lozim. Xususan, qonun loyihalarining qizg'in muhokamasini o'tkazish va qabul qilingan qonunlarning amaliyotdagi ta'sirchanligini baholash bo'yicha institut faoliyatining samaradorligini oshirish talab etiladi. Shu boisdan ham parlament mazkur institut faoliyatini tubdan takomillashtirish masalasini ko'rib chiqishi maqsadga muvofiqdir.

Yana bir muhim masala – xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishda yuqori palataning rolini yanada kuchaytirish lozim.

O'zbekistonning obro'-e'tiborini yuksaltirish, xalqaro aloqalarini rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish Senatning muhim vazifasi bo'lib qoladi. Senatning ushbu yo'nalishdagi faoliyati samarasini kuchaytirish maqsadida har yili aniq bir mavzuga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar, uchrashuv va forumlar o'tkazish uchun rejalar ishlab chiqish va ularni Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda amalga oshirish lozim. Masalan, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud-huquq tizimini takomillashtirish,

xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqa dolzarb masalalarni keng muhokama qilish maqsadga muvofiqdir.

Senat xorijiy davlatlar bilan hamkorlik masalalari bo'yicha har yili dasturlar qabul qilib, ijrosini qat'iy nazoratga olsa, bu yaxshi amaliyot bo'lgan bo'lardi. Shu maqsadda Parlament diplomatiyasi konsepsiyasini qabul qilishni tezlashtirish kerak.

Shu bilan birga, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Parlament assambleyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo assambleyasi bilan o'zaro hamkorlikni aniq va uzoq muddatli ish rejalari asosida davom ettirish lozim. Bundan tashqari, Oliy Majlis a'zo bo'lishi kutilayotgan Turkiy tilli davlatlar Parlament assambleyasi va boshqa xalqaro parlament tuzilmalari doirasida ham hamkorlikni kuchaytirish kerak.

Bu borada bir masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Ma'lumki, O'zbekistonning chet davlatlardagi elchilarini tayinlash Senatning vazifasi bo'lib, bu jarayonda ularning kelgusi faoliyati uchun belgilab olgan dasturlari eshitiladi. Lekin, undan keyin-chi? Senat bilan elchilarning o'zaro aloqalarini rivojlantirishga zarurat bormi? Albatta, bor. Shu sababli Senatning tashqi siyosiy va iqtisodiy hamkorlik sohasidagi vazifalarini amalga oshirishda yuqori palatada O'zbekistonning xorijiy davlatlardagi elchilari hisobotini eshitish amaliyotini yo'lga qo'yishimiz kerak.

Hurmatli senatorlar!

Endi kun tartibiga kiritilgan tashkiliy masalaga o'tadigan bo'lsak, avvalo, Senat Raisi va uning o'rinbosarlarini saylash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishimiz zarur.

Ma'lumki, Konstitutsiyamizning 93-moddasiga muvofiq, Senat Raisligiga nomzod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilishi belgilab qo'yilgan. Ana shu normaga asosan, ko'pchilik, jumladan, tajribali senatorlar bilan maslahatlashib, chuqur o'ylagan holda, men Oliy Majlis Senati Raisi lavozimiga senator Tanzila Kamalovna Narbayeva nomzodini taqdim etmoqchiman.

Tanzila Kamalovna so'nggi 30 yilda turli mas'uliyatli rahbarlik lavozimlarida samarali mehnat qilib kelmoqda. 1995–2010-yillarda

Vazirlar Mahkamasida onalik va bolalik, sog'liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza masalalari bilan shug'ullangan. 2010–2016-yillarda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi raisi, 2016–2019-yillarda Bosh vazir o'rinbosari – O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi lavozimlarida samarali mehnat qildi. Oxirgi olti oyda Senat Raisi sifatida katta ishlarni amalga oshirdi.

Tanzila Kamalovna boshqaruv, jamoat ishlarida katta tajriba to'plagan malakali rahbar kadrlarimizdan biri, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Muhtaram senatorlar!

Bugun barchangiz ushbu nomzodni to'liq qo'llab-quvvatlaganingiz va o'z hurmatingizni bildirganingiz Tanzila Kamalovnaga katta ishonch va g'ayrat bag'ishlashi shubhasiz.

Hurmatli Tanzila Kamalovna, Sizga mas'uliyatli faoliyatingizda yangi omadlar va ulkan zafarlar tilayman.

Endi Senat Raisining o'rinbosarlari lavozimiga nomzodlar haqida gapiradigan bo'lsak, men bu vazifalarga quyidagi nomzodlarni tavsiya etmoqchiman.

Senat Raisining birinchi o'rinbosari lavozimiga senator Sodiq Solihovich Safoyev nomzodini tavsiya etaman.

Bu kishi salkam 30 yil davomida tashqi siyosat va tashqi iqtisodiy masalalar sohasida muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Turli yillarda tashqi ishlar vaziri, O'zbekistonning Germaniya va AQSHdagi Favqulodda va muxtor elchisi bo'lib ishlagan. 2005–2016-yillarda Oliy Majlis Senatining Tashqi siyosat masalalari qo'mitasi raisi, 2016-yildan buyon esa Senat Raisining birinchi o'rinbosari lavozimida faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Sodiq Solihovichni barchangiz mohir diplomat, xalqaro maydonda tanilgan jamoat arbobi sifatida yaxshi bilasiz. Bu rahbar ham o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni munosib ado etishiga tilakdoshman.

Senat Raisi o'rinbosari lavozimiga senator Musa Tajetdinovich Erniyazov nomzodini tavsiya etaman.

Bu olijanob inson, oqsoqolimiz o'z faoliyatini qurilish sohasidan boshlab, keyinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi o'rinbosari lavozimida xizmat qilgan. Qoraqalpoq elining katta hurmat va ehtiromini qozonib, 2002-yildan buyon Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, bir paytning o'zida Oliy Majlis Senati Raisining o'rinbosari sifatida ishlab kelmoqda.

O'tgan yili mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, islohotlar jarayonlaridagi fidoyiligi, ibratli faoliyati uchun Musa Tajetdinovichga O'zbekiston Qahramoni degan yuksak unvon berilganidan barchangiz xabardorsiz.

Bu ko'pni ko'rgan, tajribali va tashabbuskor rahbar, kamtarin va mehnatkash inson bilan senatorlar birgalikda samarali ishlaydilar, deb ishonaman.

Senat Raisi o'rinbosari lavozimiga senator Zayniddin Mahamatovich Nizamxodjeyev nomzodini tavsiya etaman.

Tibbiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Qahramoni Zayniddin Mahamatovichni bu zalda o'tirganlarning hammasi yaxshi taniydi, deb o'ylayman. Uzoq yillar davomida xalqimizning sihat-salomatligi, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohalari taraqqiyoti yo'lida katta ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bu kishi oxirgi 5 yilda Oliy Majlisning tegishli qo'mitasi raisi sifatida faol ish olib bordi.

Zayniddin Mahamatovich yangi mas'uliyatli lavozimda sizlar bilan yaqin hamkorlikda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishiga ishonaman.

Hurmatli Senat a'zolari!

Albatta, hozir aytib o'tilgan vazifalar barcha senatorlardan yuksak mas'uliyat, tashabbuskorlik va fidoyilikni talab etadi. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi Senatni kelgusida professional palataga aylantirish borasida dastlabki muhim qadam bo'ladi, deb ishonaman.

Bugun ko'pmillatli xalqimiz biz, rahbarlardan, avvalambor, yangi saylangan deputat va senatorlardan hayotimizni yanada erkin, obod va farovon etishga qaratilgan amaliy ishlarni kutmoqda. Barchamiz saylovchilar oldida, yurtdoshlarimiz oldida bizga bildirilgan yuksak ishonchga har tomonlama munosib bo'lishimiz kerak.

Har kuni, har soatda vijdonimiz oldida hisobot berib, halol-pok bo'lib, el-yurt manfaatini o'ylab ishlasak, men aminman, xalqimiz ham, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi.

Mana shunday ezgu maqsad yo'lida barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat va omad tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senatining
birinchi majlisidagi nutq*

2020-yil 20-yanvar

BOSHLAGAN ISLOHOTLARIMIZNI JADAL DAVOM ETTIRISH – USTUVOR VAZIFADIR

Assalomu alaykum, hurmatli qo'shma majlis ishtirokchilari!

Muhtaram deputat va senatorlar!

Sizlar bilan kuni kecha bo'lib o'tgan tadbirlarda parlament palatalarining kelgusi 5 yildagi ustuvor vazifalari haqida batafsil gaplashib oldik.

Bugun esa, Bosh vazir nomzodi hamda Hukumatning yaqin va uzoq istiqbolga mo'ljallangan harakatlar dasturini ko'rib chiqib, xalqimiz farovonligi va mamlakatimiz ravnaqi uchun muhim qaror qabul qilishimiz kerak. Chunki, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning barqaror rivojlanishi uchun aynan Bosh vazir va u rahbarlik qiladigan Hukumat mas'ul hisoblanadi.

Biz o'tgan 3 yilda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, barqaror bozor iqtisodiyotini shakllantirish va tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohalar, jumladan, tibbiyot, ta'lim va ilm-fan yo'nalishlaridagi ishlarni takomillashtirish bo'yicha qator islohotlarni boshladik.

Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida avval egasi bo'lmagan sohalarda 12 ta mutlaqo yangi davlat boshqaruvi organlari tashkil etildi, 20 ta vazirlik va idora faoliyati tubdan takomillashtirildi.

Ijtimoiy-iqtisodiy sohaning ustuvor yo'nalishlarini o'rta va uzoq muddatda jadal rivojlantirish bo'yicha 3 yilda 30 dan ortiq konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi.

Hukumatning, vazirlik va idoralar, joylardagi hokimlar, butun davlat boshqaruvi tizimining asosiy vazifasi – islohotlar doirasida qabul qilingan ushbu dasturiy hujjatlar ijrosini qat'iy ta'minlash, real natijadorlikka erishishdan iboratdir.

Bu borada oldimizda juda ko'p muammoli masalalar turibdi. Ayrim muhim yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlarimiz bir tekis borayotgani yo'q.

Ayniqsa, yoqilg'i-energetika, geologiya, transport, qurilish, yo'l qurilishi, tadbirkorlik, agrar tarmoqni rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ichimlik suvi ta'minoti, aholi yashash sharoitlarini yaxshilash masalalarida xalqimiz bizdan yanada ko'proq va aniq natijalar kutmoqda. Hozircha Hukumat ushbu sohalar bo'yicha zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'liq uddalamoqda, deb aytishga hali erta.

Joylarda juda ko'plab muammo va masalalar o'z yechimini topishi zarur. Odamlarimizning talab va ehtiyojlari kun sayin o'sib bormoqda. Shuning uchun Vazirlar Mahkamasining barcha yangi a'zolaridan o'zlari mas'ul va javobgar bo'lgan sohalarga tanqidiy yondashib, zimmalaridagi vazifalarni samarali bajarishlari talab etiladi.

Bir so'z bilan aytganda, amaliy natijadorlik va xalq manfaatlarini ro'yobga chiqarish har bir Hukumat a'zosi faoliyatini baholashning asosiy mezoni bo'lishi shart.

Biz kelgusi besh yil uchun yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlash, soliq-budjet siyosatini takomillashtirish, sanoat tarmoqlari, energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy va kommunal sohalarni rivojlantirish borasida katta marralarni belgilab oldik. Jumladan, yalpi ichki mahsulotni qariyb 2 barobar oshirish yoki 58 milliard dollardan 100 milliard dollarga yetkazish zarur.

Inflyatsiya darajasini 5 foizga kamaytirish, o'zimizda ishlab chiqarilayotgan iste'mol mahsulotlari hajmini ko'paytirish Hukumat, Markaziy bank va barcha darajadagi hokimlarning umumiy vazifasi bo'lishi kerak.

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar yillik hajmini 10 milliard dollarga yetkazish va eksport hajmini 30 milliard dollargacha ko'paytirish kerak. Ushbu ustuvor vazifalarga erishish uchun iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarida aniq natijalarni ta'minlash talab

etiladi. Jumladan, iqtisodiyotning asosiy drayverlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligini tubdan isloh qilish, diversifikatsiya asosida eksport hajmini keskin oshirish, sohaga agrar va suvni tejaydigan yuqori texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan, uzoq muddatga mo'ljallangan strategiya qabul qilindi.

Eng muhimi, bu ishlarimizning bosh maqsadi – fermer va dehqonlarning manfaatdorligini yanada oshirish, qishloqlarda zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini va yangi ish o'rinlari barpo etishdan iborat.

Boshoqli donning o'rtacha hosildorligini 75 sentnerga yetkazish, umumiy ekin maydonlari tarkibida ozuqa ekin maydonlarini 12 foizga kengaytirish lozim.

Meva-sabzavotchilik va chorvachilik, ta'bir joiz bo'lsa, qishloq xo'jaligining asosiy lokomotivlari bo'lishi kerak.

Meva-sabzavotchilikda eksport hajmini 2025-yilda kamida 5 milliard dollardan oshirish, buning uchun kooperatsiya va klaster tizimini jadal joriy etish, mahsulotni saqlash, tashish va qayta ishlashning yaxlit va zamonaviy infratuzilmasini tashkil etish va yanada kengaytirish lozim.

Chorvachilikni rivojlantirish maqsadida zamonaviy chorva komplekslari va oilaviy kooperatsiyalar barpo etish, ilm-fan va yuqori texnologiyalarga asoslangan holda chorva naslini 60 foizga yaxshilash uchun barcha choralarni ko'rish zarur.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida Hukumat oldida mahsulot ishlab chiqarish hajmini kelgusi besh yilda 2,5 barobar oshirish vazifasi ham turibdi.

Global sharoitda, ayniqsa, mintaqamizda yildan yilga kamayib borayotgan suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha kechiktirib bo'lmas choralarni ko'rish talab etiladi.

Kelgusi besh yilda sug'oriladigan yerlarning kamida 30 foiziga tomchilatib, yomg'irlatib sug'orish va boshqa suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish zarur. Shuningdek, suv hisobini yuritish tizimini tatbiq qilish hamda suv balansini muntazam ravishda olib borish kerak.

Davlat-xususiy sheriklikni keng joriy etish hisobidan suv inshootlari ekspluatatsiya va investitsiya xarajatlarini kamida 15 foizga qisqartirish choralari ko'rish lozim.

Zamonaviy texnologiyalar hisobidan raqobatdosh va ilg'or qishloq xo'jaligi texnikalarini yetarli darajada ishlab chiqarish orqali fermer va klasterlarni texnika bilan ta'minlash ko'rsatkichini hozirgi 45 foizdan kamida 70 foizga yetkazish zarur.

Bu borada import qilinayotgan mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish hamda ularning tashqi bozorlarga chiqishini alohida nazoratga olish kerak.

Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish yo'lidagi eng katta xavf-xatarlardan yana biri – bu neft-gaz va energetika tarmog'idagi mavjud muammolar bilan bog'liq.

Hukumat bu sohalarni transformatsiya qilish, ularga xususiy sektorni faol jalb etish, hisob-kitobni joy-joyiga qo'yish orqali ortiqcha yo'qotishlarni to'liq qisqartirish va talon-torojliklarning oldini olish bo'yicha ta'sirchan choralarni ko'rishi zarur.

Neft-gaz sohasida 2025-yilda yoqilg'i mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 5,2 million tonnaga oshirish, buning uchun bu yil 4,1 milliard dollarlik 5 ta obyektga tushirish kerak.

Kelgusi besh yilda elektr energiyasi ishlab chiqarishni kamida 80 milliard kilovatt soatga yetkazish, shuning kamida 20 foizini qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ta'minlash talab etiladi. Shuningdek, 2020-yilda elektr energiyasi bo'yicha 7 million, 2022-yilda tabiiy gaz bo'yicha 3,5 million iste'molchilarni hisobga olish va ularning avtomatlashgan nazorat tizimiga ulanishini ta'minlash uchun Hukumat zarur chora-tadbirlarni ko'rishi kerak.

Mamlakatimizda mavjud tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish uchun barcha amaliy choralarni ko'rishimiz zarur. Buning uchun Hukumat geologiya sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha qabul qilingan dasturiy hujjatlar ijrosini to'liq bajarishi shart.

Tog'-kon sanoatida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlar va yirik investitsiya loyihalari hisobidan mahsulot ishlab chiqarish hajmini 2025-yilgacha 1,5 barobar ko'paytirish lozim.

Mavjud xomashyo bazasini to'liq safarbar etish, chet eldan olib kelinayotgan mahsulotlarni o'zimizda chiqarishni ko'paytirish, eksport hajmini oshirish hisobidan qurilish materiallari ishlab chiqarishni shu davrda 3 barobar ko'paytirish eng muhim vazifalardan biridir.

To'qimachilik va charm-poyabzal sanoati sohalarida mahalliy xomashyoni to'liq qayta ishlash va eksportni keskin oshirish zarur. Bu borada 2025-yilda to'qimachilik va charm sanoatida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulot ishlab chiqarishni 4–5 barobar oshirib, 8 milliard dollarlik eksportni ta'minlash kerak.

Yuqori texnologiyalar asosida elektrotexnika sanoatini jadal rivojlantirish, maishiy texnika va sanoat elektr uskunalari, kabel mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish lozim. Buning uchun bu yil ishlab chiqarishni 1,5 barobar oshirib, eksport hajmini 2022-yilgacha 500 million dollarga yetkazish talab qilinadi.

Avtomobil sanoatida 2023-yilgacha yengil va yuk avtomobillari hamda avtobuslar ishlab chiqarish hajmini 360 ming donaga yetkazish, shundan kamida 100 ming donasini xorijga eksport qilish soha mas'ullari uchun asosiy vazifa bo'ladi.

Kimyo sanoatida nafaqat mavjud mineral o'g'itlar ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, balki polimer, kichik tonnajli kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish kerak.

Hukumatdan chet el investorlari bilan birga tabiiy gazni chuqur qayta ishlashga qaratilgan yangi yirik loyihalarni amalga oshirish talab etiladi. Shuningdek, Hukumat kimyo sanoatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturning to'liq bajarilishini ta'minlab, tarmoqda mineral o'g'it ishlab chiqarish ulushini 76 foizdan 33 foizga kamaytirishni o'zi uchun asosiy vazifalardan biri sifatida belgilab olishi lozim.

Farmatsevtika sohasida kelgusi 5 yilda mahalliy dori vositalari ishlab chiqarish hajmining ichki bozordagi ulushini 45 foizdan 70 foizga oshirish va eksportni 100 million dollarga yetkazish zarur.

Biz xorijiy turistlar sonini 12 million nafardan oshirish vazifasini belgilab olganmiz. Buni amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, infratuzilmalarni yaxshilash, mehmonxonalar sonini ko'paytirish,

transport tarmoqlarini rivojlantirish va xizmatlar sifatini yuksaltirish Hukumat va hokimliklarning asosiy diqqat-e'tiborida bo'lishi lozim.

Yuqorida aytilgan barcha rejalarni ro'yobga chiqarish hisobidan ishsizlikni 7 foizga kamaytirib, yiliga kamida 500 mingta ish joyi yaratish, aholi daromadini 2 barobar oshirish – yangi Hukumat oldidagi muhim vazifadir.

Ijtimoiy sohadagi islohotlar ham Hukumat oldiga aniq vazifalarni qo'yimoqda. Jumladan, aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligini hozirgi 74,6 yoshdan 76 yoshga yetkazish va go'daklar o'limi ko'rsatkichini hozirgi 10 promilledan 1,5 barobar kamaytirib, 7 promillega tushirish lozim. O'lim ko'rsatkichini saraton kasalligi bo'yicha hozirgi 73 foizdan 65 foizga, yurak-qon tomir kasalliklari bo'yicha esa bugungi 41 foizdan 30 foizga tushirish ustida sog'liqni saqlash vazirligi jiddiy chora-tadbirlar ko'rishi kerak.

Bundan tashqari, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish kabi og'ir hayotiy masalalarni uzil-kesil hal etish lozim.

Shu bilan birga, zarur shart-sharoitlarga ega bo'lgan uy-joylarda yashaydigan aholi sonini 65 foizga yetkazish ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu borada Hukumatdan, ipoteka krediti berishning yangi tartibiga binoan, xususiy pudrat tashkilotlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, aholining ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlashning aniq mexanizmlarini joriy etish talab etiladi. Bu masala bo'yicha barcha viloyat, tuman va shahar hokimlarining mas'uliyatini oshirish zarurligini alohida ta'kidlamoqchiman.

Issiqlik ta'minoti sohasida joriy yil Toshkent shahrida, 2022-yilga qadar Namangan, Jizzax, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish zarur.

Barchamiz bir fikrni chuqur tushunib olishimiz kerak: biz o'z oldimizga qo'ygan ana shunday ustuvor vazifalar – juda murakkab va haqiqatan ham ulkan marralardir.

Shu bilan birga, vaqt o'tgani sayin dunyo ham o'zgarmoqda, odamlarimizning yaxshi yashashga bo'lgan talablari ham ortib bormoqda. Endi kechagi natija bilan xalqimizni rozi qila olmaymiz.

Bugungi kun har kuni izlanish, yangilik yaratishni talab etmoqda. Faqat ana shunday talablar asosida ish olib borib, xalqimizning hayotini yaxshi tomonga o'zgartirish mumkin.

Vazirlar Mahkamasi ushbu vazifalar ijrosini to'la ta'minlash uchun ish uslubini tubdan takomillashtirishi, o'z faoliyatini samarali tashkil etishi kerak.

Birinchidan, Hukumat qonun, farmon va qarorlar ijrosini to'g'ri tashkil etib, amalga oshirilayotgan islohotlarning har bir tuman va qishloqqa, hatto olis va chekka hududlargacha yetib borishini ta'minlashi zarur.

Biz qancha mukammal qonun, farmon va qarorlar qabul qilmaylik, agar ular joylarda yetarlicha amalga oshirilmasa, shuncha mehnat va sa'y-harakatimiz natijasi sezilmay qolaveradi. Shuning uchun vazirlik va idoralar hamda joylardagi hokimliklar ishini oqilona va samarali yo'lga qo'yish Vazirlar Mahkamasining bosh vazifasi bo'lishi lozim.

Endi har bir topshiriqning ijro etilgani qog'ozga qarab emas, erishilgan pirovard natijaga qarab baholanadi.

Shu bois, barcha darajadagi ijro organlarida intizomni kuchaytirish, belgilangan vazifa va topshiriqlar natijadorligini tanqidiy tahlil qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish zarur.

Bunda Vazirlar Mahkamasi va Hisob palatasi bir oy muddatda ijroni nazorat qilish borasidagi yondashuvlarini tubdan takomillashtirishi lozim. Vazirlik va idoralarning quyi tuzilmalari bilan birgalikdagi faoliyati ustidan vertikal nazorat ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

Eng asosiysi, Hukumat markaziy idoralarning Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda hokimliklar bilan hamkorligini va ular o'rtasidagi manfaatlar muvozanatini ta'minlash uchun mas'ul va javobgar bo'ladi. Buning uchun mamlakatimiz darajasida qarorlar qabul qilishda hokimliklarning ishtirokini oshirish lozim. Ya'ni ishlab chiqilayotgan qaror loyihalarini mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan ham kelishish tartibini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Shuni alohida qayd etib o'tmoqchiman, ijtimoiy, iqtisodiy sohalardagi va ma'naviy hayotga oid qonun hujjatlari ijrosi bilan bog'liq barcha muammolar o'z yechimini Hukumat darajasida topishi kerak. Xususan, turistlar oqimini ko'paytirishda havo, temir-yo'l transporti xarajatlarini kamaytirish, biletlar narxini arzon qilish, yo'llar sifati va infratuzilmasini yaxshilash kabi qator muammolar mavjud. Ularning yechimi yuzasidan Turizm qo'mitasi va Transport vazirligi o'rtasida yagona siyosat va yondashuv bo'lishi kerak.

Yoki investitsiya kiritish va unga to'siq bo'layotgan turli muammolar bir vaqtda muhokama qilinib, o'sha joyning o'zida ularning yechimlari topilishi zarur. Shu bois, Hukumat a'zolari eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha haftada kamida bir marta yig'ilib, xalqimizni qiynagan muammolarni o'rtaga tashlab, yuzma-yuz o'tirib, muhokama qilishlari, ularning yechimini tezkorlik bilan, ahil va yakdil jamoa bo'lib hal etib borishlari maqsadga muvofiqdir.

Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilgan, lekin yig'ilmasdan va real muhokama o'tkazmasdan qaror qabul qiladigan komissiya va ishchi guruhlarni tugatish vaqti yetdi.

Yana bir masala – ijro hokimiyati idoralari qabul qilingan qarorlarning bajarilishi yuzasidan ijtimoiy so'rovlar o'tkazish orqali va boshqa shakllarda keng jamoatchilik fikrini muntazam ravishda o'rganib borishi kerak. Shu bilan birga, elektron portal, ijtimoiy tarmoqlarda maxsus sahifalar tashkil etib, aholi bilan «qayta aloqa» tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Ikkinchidan, har bir ijro organi o'zi mas'ul bo'lgan sohani o'rta va uzoq istiqbolda rivojlantirish bo'yicha aniq reja va dasturlarga ega bo'lishi zarur.

Afsuski, hozirgi kunda hamma rahbarlar ham bu talabni to'liq tushunayotgani va ahamiyatini chuqur anglab yetayotgani yo'q, desak, bu ham to'g'ri bo'ladi. Aksariyat mutasaddilar muammolarning o'z vaqtida oldini olish o'rniga, bor kuch va resurslarni ularning oqibatlarini bartaraf etishga samarasiz sarflamoqda.

Endi ish faoliyatini faqat ishxonasida o'tkazgan va qog'ozbozlikka berilib, amaliy natijani keyingi o'ringa tushirib qo'ygan

rahbarlar bilan xayrlashamiz. Qonunchilik palatasi deputatlaridan ham Vazirlar Mahkamasi yangi tarkibini ko'rib chiqishda ushbu masalalarga alohida e'tibor berishlarini so'ragan bo'lar edim.

Tarmoq va hududlar rahbarlari faoliyatini samarali tashkil etish uchun zamonaviy menejment tizimiga o'tishimiz lozim. Vazirlik va idoralar rahbarlari ish uslubini o'zgartirib, mas'uliyat va javobgarlikni o'z zimmasiga olishni o'rganishi kerak.

Aholi va tadbirkorlar muammolarini hal etish bo'yicha yangi tashabbuslarni ilgari surib, ularni hayotga joriy etish rahbarlar faoliyatini baholashning asosiy mezoniga aylanishi lozim.

O'z vaqtida hal qilinmagan muammolar joylardagi aholi kayfiyati va turmush sharoitiga salbiy ta'sir ko'rsatishini bir soniya bo'lsa ham unutmashimiz zarur.

Bosh vazir va Hukumat a'zolaridan boshlab ijro hokimiyati organlarining barcha darajadagi rahbar va xodimlari faoliyatiga natijadorlik mezonlari (KRI) asosida baholash tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu tizimni xalqaro reyting va indeks ko'rsatkichlari bilan uyg'unlashtirish talab etiladi. Binobarin, ulardagi baholash mezonlarining barchasi xalqimizning mushkulini oson etishga xizmat qiladi. Axir, biz uchun eng muhim, aytish mumkinki, birlamchi vazifa aynan shu emasmi?

Misol uchun, Jahon bankining o'tgan yilgi «Davlat boshqaruvi indikatori»da mamlakatimiz 5 ta ko'rsatkich bo'yicha o'z o'rnini yaxshiladi. Bunga erishish uchun xalq dardini eshitadigan, uning og'irini yengil qiladigan samarali tizim yaratdik, matbuot erkinligi hamda davlat idoralarining aholi oldidagi hisobdorligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlarni boshladik.

Bundan foyda bo'ldimi? Albatta, foyda bo'ldi.

Yoki yana bir misol, 2 ta soliq turini birlashtirganimiz «Biznes yuritish» reytingining soliqqa tortish yo'nalishidagi ko'rsatkichimiz yaxshilanishiga sabab bo'ldi. Bundan kim ko'p manfaat ko'rdi? Albatta, tadbirkor va ishbilarmonlarimiz. Chunki soliq to'lash shakli va jarayonlari keskin soddalashdi.

Shuningdek, mahalliy ijro hokimiyati organlari faoliyatini kompleks baholash tizimini yaratish maqsadida Hududlarning rivojlanish indeksi ishlab chiqilishi lozim. Hukumat mazkur indeks asosida hududlarga oid siyosatni belgilashi, mahalliy budjetlarga moliyaviy ko'mak berish hamda rahbarlarni rag'batlantirish masalalarini puxta ko'rib chiqishi kerak.

Xususan, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qaysi hududda infratuzilma yetishmayapti, qaysi hududga ko'proq bank resurslari va subsidiyalar kerak, degan savollarga javobni ana shu indeks ko'rsatib berishi zarur.

Uchinchidan, davlat organlari faoliyati hamda amalga oshirilayotgan islohotlar ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishi ustuvor vazifaga aylanishi kerak.

Ijro hokimiyati organlari iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalardagi islohotlar, qabul qilinayotgan hujjatlarning mohiyati va ahamiyati hamda ijrosi haqida xalqimizga sodda va ravon tilda tushuntirish berib borishlari lozim. Bu borada ommaviy axborot vositalaridan, ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlardan keng foydalanish, matbuot anjumanlari, brifinglar, media-turlar tashkil etish zarur.

Shuningdek, Hukumat, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda ko'tarilayotgan dolzarb masalalar bo'yicha tezkor choralar ko'rishi va ularga prinsipial munosabat bildirishi lozim. Bu boradagi ishlarni samarali tashkil etish uchun har bir idora o'zining media dasturini ishlab chiqishi, Vazirlar Mahkamasi bu masalaning ijrosini qat'iy nazoratga olishi zarur.

Har bir vazirlik va idora ma'lumotlar ochiqligi faoliyatini tanqidiy ko'rib chiqib, o'zining veb-saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida ma'lumotlarni muntazam joylashtirishi va yangilab borishi zarur.

Yana bir masala – hozirgi vaqtda qarorlar loyihasini elektron portal orqali keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yish tizimi ishlayotgani, bu jarayonda xalqimiz o'z fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslari bilan ishtirok etayotgani ijobiy natija bermoqda.

Jumladan, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga qo'yilgan 4 mingga yaqin qonun hujjatlari loyihasiga 17 mingdan ziyod taklif kiritilgan bo'lib, mingdan ortiq hujjatlar qayta ishlangan.

Shu bilan birga, qabul qilingan qarorlarning amalda qanday ishlayotganini baholash tizimi mavjud emas. Vazirlar Mahkamasi qarorlarning samaradorligi va natijadorligi bo'yicha aholi fikrini o'rganish tizimini amaliyotda qo'llash yuzasidan taklif ishlab chiqsin.

Ishonchim komil, bunday chora-tadbirlar Hukumatni xalqqa yaqinlashtiradi. Ayni vaqtda qabul qilinayotgan qarorlar sifati va rahbarlar mas'uliyatini ham oshiradi.

To'rtinchidan, qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mutlaqo yangi bosqichga ko'tarish va uning samaradorligini oshirishning fursati keldi.

Vazirlar Mahkamasi parlamentga tayyorlab kiritilayotgan qonun loyihalari sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Hukumat, har bir vazirlik va idora qonunchilikni yangilash va tizimlashtirish bo'yicha yangicha ish uslubiga o'tishi lozim.

Qonunchilik palatasida qonun loyihalari hamkorlikda ko'rib chiqilishini, Hukumat – qo'mita – Qonunchilik palatasi o'rtasida faoliyat uyg'unligini ta'minlash zarur.

Yana bir muhim masala – ijro hokimiyati organlari rahbarlarining Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligini yanada oshirish kerak. Bu borada har yili Davlat dasturi ijrosi yuzasidan Hukumat hisobotini eshitish tizimi joriy etildi. Endi ijro hokimiyati organlari muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan parlament palatalari oldida muntazam ravishda hisobot berishi zarur.

Mazkur hisobotlar jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida o'tkazilishi lozim. Bu – qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyati o'rtasidagi o'ziga xos muloqot maydoni sifatida ijobiy natijasini ko'rsatishiga menda hech qanday shubha yo'q.

Qadrli do'stlar!

Konstitutsiyamizning 98-moddasiga ko'ra, Bosh vazir nomzodi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p

deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan siyosiy partiya tomonidan taklif etiladi.

Xabaringiz bor, saylovlarda O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi Qonunchilik palatasida eng ko'p, ya'ni 53 nafar deputatlik o'rnini egalladi. Ushbu partiyadan saylangan deputatlarni hamda O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining barcha a'zolarini ana shunday yuksak natija bilan samimiy tabriklayman.

Partiyaning kuni kecha bo'lib o'tgan Siyosiy kengashi majlisida Bosh vazir nomzodi ko'rib chiqildi va Prezidentga taqdim etildi.

Bosh vazir lavozimiga nomzod tanlash va uni tasdiqlash haqida gap borar ekan, albatta, bu o'ta murakkab va mas'uliyatli masala ekanini barchamiz juda yaxshi tushunamiz. Chunki bu lavozimga har tomonlama chuqur bilim va katta tajribaga, keng tafakkur va zamonaviy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, jonkuyar, o'ziga va boshqalarga talabchan hamda tashkilotchi nomzod tanlanishi zarur.

Albatta, turli sinovlarda toblangan, javobgarlikni zimmasiga olishga qodir, odamlar bilan til topisha oladigan, ularning hurmatini qozongan, qisqacha aytganda, ko'pni ko'rgan va jonkuyar insonni topish ancha og'ir va murakkab vazifadir.

Shu ma'noda, bugun Sizlarning muhokamangizga taqdim etiladigan nomzod o'z faoliyati va avvalgi lavozimlarida amalga oshirgan ishlari bilan el-yurtimiz erishgan yutuqlarga munosib hissa qo'shgan shaxs bo'lishi kerak.

Biz bu masala bo'yicha juda ko'p o'ylab, tegishli maslahat va kengashlar o'tkazdik. Jumladan, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi rahbariyati va faollari bilan ham atroflicha maslahatlashib oldik.

Bildirilgan barcha fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda, men ushbu o'ta mas'uliyatli lavozimga ham amaliy sohada, ham markaziy idoralarda ko'p yillik boshqaruv ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lgan, so'nggi uch yil davomida Bosh vazir lavozimida faoliyat ko'rsatib kelayotgan Abdulla Nigmatovich Aripov nomzodini tavsiya etaman.

Abdulla Aripov bugungi kunda oldimizda turgan juda katta vazifalarni hal etishda Vazirlar Mahkamasi faoliyatini samarali tashkil etish, Hukumat a'zolari, hokimlar va boshqa rahbarlar bilan bir yoqadan bosh chiqarib, barchani safarbar qilish salohiyatiga ega ekanini alohida ta'kidlashni istardim.

Shuning uchun siz, hurmatli deputat va senatorlardan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri lavozimiga tavsiya etilgan Abdulla Nigmatovich Aripov nomzodini qo'llab-quvvatlashingizni so'rayman.

Hurmatli deputat va senatorlar!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqin kunlarda parlamentga taqdim etiladigan Murojaatnomasida O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq sohalari hamda xalqaro munosabatlardagi eng ustuvor vazifalarni batafsil muhokama qilib olamiz.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlab aytmoqchimanki, jonajon Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida bir tan-u bir jon bo'lib, belni mahkam bog'lab harakat qilish, boshlagan islohotlarimizni jadal davom ettirish – kelgusi 5 yilda Parlament uchun ham, Hukumat uchun ham g'oyatda muhim va ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Shuning uchun barchangizni yaqin hamkorlikda ish olib borishga chaqiraman.

Shu yo'lda hammangizga sihat-salomatlik, faoliyatingizda ulkan zafarlar, baxt va omadlar yor bo'lishini tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
va Senatining qo'shma
majlisidagi nutq*

2020-yil 21-yanvar

KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI – HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINING ENG MUHIM MEZONI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, barchangizni, butun xalqimizni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yillik bayrami bilan samimiy tabriklab, ezgu tilaklarimni izhor etishga ijozat bergaysiz.

Hurmatli do‘stlar!

Har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi – Asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin, o‘z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo‘lgan mamlakat o‘zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og‘ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi.

Tarixga nazar solsak, asrlar davomida shakllangan ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar va insonning tabiiy huquqlari sivilizatsiya jarayonlari natijasida Konstitutsiya shakliga kelganini ko‘ramiz.

Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo‘lish, ta‘lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so‘z hamda e‘tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko‘tardi.

Mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarda o‘zaro huquq va majburiyatlar hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi.

Bosh qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, yurtimiz fuqarolari tengligining kafolatlanishini e‘tirof etdi va zamonaviy demokratik taraqqiyot uchun zamin yaratdi.

Aynan shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirom bilan ulug'lashimiz, har tomonlama o'rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo'lgan ajdodlarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz qalbiga singdirishimiz zarur.

Hurmatli yurtdoshlar!

Sohibqiron Amir Temur bobomiz «**Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo'qoladi**», deb ta'kidlagan edilar. Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash biz bunyod etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni hisoblanadi.

Har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq.

Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir.

Shu boisdan ham barcha bo'g'indagi kadrlar, u xoh vazir, hokim yoki oddiy fuqaro bo'lsin, Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etishi hamda birinchi navbatda bu qoidalarga butun jamiyat a'zolari qat'iy amal qilishi shart bo'lgan muhit yaratishimiz zarur.

«Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – farovon hayot garovi» degan tushuncha fuqarolarimizning ongi va qalbida chuqur o'rin egallashi hamda ijtimoiy ehtiyojga aylanishi uchun quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim, deb hisoblayman.

Birinchidan, qonunlar ijrosini samarali tashkil etish, tizimli muammolarni oldindan ko'ra bilish, qonun buzilishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bilan birga bunday holatni barvaqt bartaraf etishga qaratilgan tizimni shakllantirish ayniqsa dolzarbdir. Afsuski, ushbu talablar bizda hali to'liq bajarilmoqda, deb ayta olmaymiz.

Shu yilning o'zida 70 dan ortiq qonun, 350 dan ziyod Prezident farmoni va qarorlari qabul qilindi. Bu qonun hujjatlari kim uchun

va nima maqsadda qabul qilinmoqda? Albatta, xalqimiz farovonligi uchun.

Masalan, iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishning muhim sharti bo'lgan «**Davlat-xususiy sherikligi to'g'risida**»gi qonunni qabul qilganimizga 7 oy bo'ldi. Ko'pdan buyon kutilgan, hayotning o'zi talab etayotgan bu qonun loyihasi ustida biz uzoq vaqt ishladik. Ushbu hujjat fuqarolarning davlat va jamiyat vazifalarini bajarishga doir konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirishning ta'sirchan mexanizmidir.

Hozirgi vaqtda ayrim tarmoqlarda davlat-xususiy sheriklik bo'yicha loyihalarni amalga oshirish boshlandi. Ammo sog'liqni saqlash, ta'lim, transport, yo'l qurilishi, kommunal xo'jaligi kabi yo'nalishlarda, aksariyat hududlarda hali bu borada tashabbus umuman sezilmayapti.

Vazir yoki hokim qonunning mazmun-mohiyatini tushunmasa, anglab yetmasa, uni hayotga tatbiq etishda jonbozlik ko'rsatmasa, islohotlarimizning oldinga yurishi, odamlarda tashabbus uyg'otish qiyin bo'ladi.

Hududlardagi ekin maydonlarida ruxsatnomasiz, o'zbo-shimchalik bilan qurilish qilish, bino-inshootlarni betartib buzish kabi noxush holatlar qonunlar ijrosini nazorat qilish ishlari oqsayotganidan dalolat beradi. Shu bois Parlament, Hukumat va Oliy sud qabul qilinayotgan qonunlar ijrosini ta'minlashning samarali mexanizmlarini qo'llashi zarur.

Bu borada kadrlarni o'qitish va malakasini oshirishga, huquqiy axborotni zamonaviy usullar orqali keng ommaga yetkazishga, qonunlarni bilish va qo'llash bo'yicha mutasaddi rahbarlar faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqishga birinchi darajali e'tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan ko'ra samarali vosita yo'q.

Buyuk yunon olimi Aflotun shunday degan edi: «**Xalq qonunlarga ehtiyoj sezib, ularni puxta o'rgansa, bu faqat uning o'ziga**

foйда keltiradi. Aks holda qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi».

Haqiqatan ham, xalqimiz qonun buzilishiga qarshi qattiq turmas ekan, davlat idoralari, mansabdor shaxslar qanchalik urinmasin, qonun ustuvorligini ta'minlash qiyin bo'ladi.

Bugun jamoatchiligimiz tom ma'noda uyg'ondi, endi turli lavozimdagi shaxslarning xatti-harakatlariga odamlarimiz bevosita baho berib, o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rganmoqda.

Yakunlanayotgan yilda Davlat budjeti ilk bor keng muhokama etilib, ochiqlik va oshkoralik ruhida qabul qilindi. Unda turli vazirlik va idoralar har bir so'mni nimaga va qanday xarajat qilishi aniq ko'rsatib berildi.

Fuqarolarimiz va deputatlarimiz bildirgan fikrlar asosida maktablarga mebel va kompyuterlar xarid qilish uchun budget xarajatlarini qisqartirish hisobidan 50 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratildi. Bunday ijobiy holat bizning tajribamizda birinchi marta yuz berayotganini alohida qayd etish lozim.

Yoki ko'pchiligingiz xabardorsiz, keyingi paytda joylarda daraxtlarni ommaviy ravishda kesish kuchayib ketgan edi. Bu odamlarning noroziligiga sabab bo'ldi. Shuning uchun yaqinda daraxtlarni sababsiz kesishga qarshi moratoriy e'lon qilindi. Bu ham jamoatchilik fikri qanday kuchli ta'sirga ega ekaniga misol bo'la oladi.

Bularning bari odamlarimizning ijtimoiy jarayonlarga nisbatan mas'uliyat va daxldorlik hissi oshib borayotganini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda jamoatchilik nazorati «**bir tomonlama vosita**»ga aylanib qolmasligi kerak.

Davlat idoralari faqat fuqarolarga emas, balki o'zlariga nisbatan tanqidiy fikrlarni ham adolat bilan, xolis ko'rib chiqishlari lozim. Shahar va qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish, qurilish va obodonchilikka oid qarorlar, dastlab o'sha hududdagi aholi o'rtasida muhokama qilinib, jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazilishi shart.

Yana bir masalaga diqqatingizni jalb qilmoqchiman.

Konstitutsiyaga asosan sudlar o'z faoliyatida mustaqil, lekin ularning chinakam nazoratchisi xalq bo'lishi kerak.

Sudlar va tergov idoralari biron-bir ish yuzasidan chiqarilgan qaror bo'yicha fuqarolarning jamoaviy murojaatlariga tushuntirish va huquqiy izohlar berishi zarur.

Shuni aniq tushunib olish lozimki, **jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o'zini o'zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir.**

Shuning uchun Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish markazi, Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi kelgusi yilda har bir soha va tarmoq bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ta'sirchan tizimini yaratishga bosh-qosh bo'lishi va tashabbus ko'rsatishi lozim.

Jamoatchilik nazorati, birinchi navbatda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari, moliya, bank, ta'lim, sog'liqni saqlash, kommunal xo'jalik, energetika va transport sohalarida joriy etilishi zarur. Shuningdek, bozorlar va savdo majmualaridagi mahsulotlar va xizmat ko'rsatish sifati kabi masalalar ham doimo jamoatchilik nazoratida bo'lishi darkor.

Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari qonuniylikni qaror toptirishda chinakam «jamiyat ko'zgusi»ga aylanishi kerak.

So'z erkinligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar o'tgan uch yilda jamiyatimiz hayotida tub burilish yasadi.

Bugungi kunda xalqimiz orasida yurib, uni qiynayotgan ijtimoiy muammolarni ko'rsatib berayotgan eng katta kuch – bu mustaqil va xolis ommaviy axborot vositalari vakillaridir.

Demokratik islohotlarimiz natijasida ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar mansabdor shaxslarni o'z ishini qonuniy asosda to'g'ri tashkil etishga undamoqda. Shu sababli ham davlat organlari faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni

jamoatchilikka to'liq va tezkor yetkazish maqsadida ularning har birida matbuot xizmati ish boshladi.

Aslida, demokratik jamiyatda barcha davlat xizmatchilari ommaviy axborot vositalari bilan yaqin ijtimoiy hamkorlik qilishga o'rganishi kerak.

Ma'lumki, bugungi kunda an'anaviy axborot vositalari bilan birga Internet, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar jamoatchilik fikrini shakllantirishda katta rol o'ynamoqda.

Davlat va jamiyat boshqaruvida, kundalik faoliyatimizda ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini kuchaytirish maqsadida biz fuqarolarning so'z erkinligi, axborot olish va tarqatishga oid konstitutsiyaviy normaning ijrosini amalda to'liq ta'minlashimiz zarur. Buning uchun esa birinchi galda ommaviy axborot vositalari haqidagi qonunchilikni takomillashtirish kerak va biz bu borada faol ish olib bormoqdamiz.

Shu munosabat bilan jamoatchilik nazorati ham, ommaviy axborot vositalari ham yagona bir maqsadga, ya'ni xalqimizni rozi qilish va uning turmushini yaxshilashga qaratilganini hammamiz birdek anglashimizni istardim.

Har bir davlat organi ijtimoiy tarmoqlarda o'z sahifasiga ega bo'lishi, amalga oshirayotgan ishlari haqida, kerak bo'lsa, har kuni batafsil ma'lumot berib borishi shart.

Yana bir marta takrorlayman, O'zbekistonda jamoatchilik nazorati va ommaviy axborot vositalari vakillarining qonuniy haq-huquqlariga hech qanday shaklda tazyiq o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

To'rtinchidan, qabul qilinayotgan qonunlar olib borayotgan islohotlarimiz bilan uyg'un bo'lgan taqdirdagina ishlaydi.

Bu – ayni haqiqat, aksiomadir. Lekin ayrim qonunlarimiz zamon talablariga mos emas. Shu bois qonunlarni ijro etish mexanizmlarini aniq tizim asosida yaratish – dolzarb vazifamizdir.

Kelgusi yildan boshlab Adliya vazirligi qonunchilikni yangilash va tizimlashtirish bo'yicha mutlaqo yangi ish uslubiga o'tishi zarur. Bunda Konstitutsiyamiz normalari huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilishi lozim.

Beshinchidan, biz qanchalik mukammal qonunlar yaratmaylik, qanday islohotlar o'tkazmaylik, agar fuqarolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati yetarli bo'lmasa, kutilgan natijalarga erishish mushkul bo'ladi.

Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval «**Huquqni anglash mas'uliyat hissini rivojlantiradi**», deb aytgan hikmatli so'zlari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Boshqacha aytganda, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog'i kerak. Lekin ana shunday huquqiy mas'uliyatni bugun hammada ham shakllantira olayapmizmi?

Afsuski, bu savolga hozircha ijobiy javob berolmaymiz. Misol uchun, dehqonlarimizning fidokorona mehnati bilan yaratilgan nonni xalqimiz ulug' va aziz ne'mat sifatida g'oyatda qadrlaydi. Nonning qadrini ayniqsa rizq-ro'zimiz bunyodkori bo'lgan dehqon va fermerlarimiz juda yaxshi biladilar.

Bugun ushbu muhtasham saroyda ularning eng munosib vakillarini ko'rib turganimdan juda xursandman.

Bu yil Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni Konstitutsiya bayrami bilan bir kunda nishonlanayotgani bu ayyomga o'zgacha fayz bag'ishlamoqda.

Fursatdan foydalanib, yurtimizdagi barcha dehqon va fermerlarni chin qalbidan samimiy muborakbod etib, ularga yuksak hurmat va ehtirom bildirishga ruxsat etgaysiz.

Biz uchun non qanchalik aziz va qadrli bo'lsa, zahmatkash dehqonlarimiz, ularning mehnati ham shunchalik aziz va qadrlidir.

Haqiqatan ham, urush va ocharchilikni boshidan kechirgan bobo va momolarimiz bizga bolalikdan boshlab nonni ko'zimizga surtib e'zozlashni o'rgatganlar. Bu bizning buyuk qadriyatimizga aylangan. Shu ma'noda, Yaratganning bebaho ne'matlarini, hayotdagi ijobiy o'zgarishlarni qadrlash tuyg'usini farzandlarimiz qalbiga yoshligidan singdirib borishimiz zarur.

Yashirishning hojati yo'q, oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish, tadbirkorlikni boshlash uchun ruxsatnoma yoki litsenziya olish, so-

liq to'lash kabi ko'p-ko'p kundalik hayotiy masalalarni hal etishda «qonunni chetlab o'tish» bizning sharoitimizda yomon bir odatga aylangan edi.

Bunday illatning ildizlarini qirqishga qaratilgan ishlarni, qanday qiyin bo'lmasin, asta-sekin amalga oshirmoqdamiz. Jumladan, bolalarni bog'chaga joylashtirishga elektron navbat, maktablar va oliy ta'limga o'qishga qabul qilishda ochiq va oshkora tartiblar yaratildi. Shuningdek, «yagona darcha» tamoyili asosida 100 dan ortiq davlat xizmatlari ko'rsatilmoqda.

Ammo bu o'zgarishlar tufayli jamiyatimiz salbiy illatlardan, qonunga bepisandlik holatlaridan batamom qutuldi, deb aytishga hali erta.

Ochiq tan olish kerak, aksariyat odamlarimiz bu masalada loqayd va beparvo bo'lib qolmoqda. Bugun olib borayotgan islohotlarimiz yo'lidagi eng katta to'siq ham aslida shu emasmi?

Ayrim fuqarolarimiz boshqaruv idoralaridan mas'uliyat talab qilishni yaxshi biladi-yu, lekin o'zining jamiyat oldidagi, qonun oldidagi mas'uliyati va majburiyatini unutib qo'yadi. Holbuki, O'zbekistonni yangilash, milliy yuksalishni yangi bosqichga ko'tarish bu – o'z-o'zidan, osonlikcha bo'layotgani yo'q.

Hammangiz ko'rib turibsiz, qanchalik og'ir va murakkab bo'lmasin, bugungi kunda zarur kuch va imkoniyat, mablag' topib, qancha-qancha katta dastur va loyihalarni amalga oshirmoqdamiz. Yangi-yangi korxonalar, yo'l va ko'priklar, bog'cha, maktab va shifoxonalar, madaniyat va sport inshootlari, ko'plab uy-joylar quryapmiz va Xudo xohlasa, bunday ishlarimizni yanada ko'paytiramiz.

Xalqimizda «**Qars ikki qo'ldan chiqadi**», degan maqol bor. Agar o'ylab qarasak, bu maqol Konstitutsiyamiz normalariga ham to'la mos keladi. Ya'ni Asosiy qonunimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari bilan birga, ularning burch va majburiyatlari ham aniq belgilab qo'yilgan.

Ko'pni ko'rgan muhtaram keksalarimiz, faol fuqarolarimiz, aziz opa-singillarimiz, ziyolilar, navqiron yoshlarimiz bugungi

islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularda fidoyilik bilan ishtirok etayotgani shaxsan menga katta kuch-quvvat bag'ishlaydi. Imkoniyatdan foydalanib, barchangizga, butun xalqimizga buning uchun chin yurakdan alohida minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komil, biz mana shunday tinch va osoyishta hayotimizni qadrlab, o'zaro hurmat va ahilligimizni asrab-avaylab, shukrona qilib yashasak, Yaratganimiz o'z ne'matini xalqimizga yanada ziyoda qilib beradi.

Aziz do'stlar!

Biz jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarimizni uzluksiz davom ettirishimiz zarur.

Huquqiy tarbiyani maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashimiz, bu boradagi ilk ko'nikmalar ona allasi kabi farzandlarimiz qalbidan umrbod joy olishi darkor.

Konstitutsiyamiz har bir fuqaroning ongi va qalbidan chuqur joy olgan, ularning huquq va erkinliklarini to'liq kafolatlaydigan haqiqiy hayot qomusiga aylanmog'i lozim.

Har bir soha va yo'nalish, ta'limning barcha bosqichlari uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturi tayyorlanishi kerak. Bunda, avvalambor, Konstitutsiyani o'rganishga jiddiy yondashish lozim. Umumta'lim maktablari uchun «Konstitutsiya alifbosi», «Konstitutsiya saboqlari», «Konstitutsiya asoslari» kabi darsliklarni yaratish zarur, deb hisoblayman.

Adliya, Maktabgacha ta'lim, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari bu ishlarga mas'ul bo'ladi.

Ushbu fanlardan dars beradigan o'qituvchilarni tayyorlashda ularning siyosiy, huquqiy va ma'naviy saviyasiga alohida ahamiyat berish lozim. Shuningdek, hayotdagi adolat tantanasi, qonuniy haq-huquqlar tiklangani haqida qiziqarli ko'rsatuvlar, seriallar, badiiy filmlar, teatr asarlari yaratish ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, qonun va adolat tantanasi uchun kurashadigan insonlar bugungi kunning qahramonlari bo'lishi kerak. Aynan shunday odamlarning hayoti shoir va adiblar, rejissorlar, jurnalistlar uchun ijodiy mavzu bo'ladi, deb o'ylayman.

Qadrli vatandoshlar!

Inson huquq va erkinliklariga amal qilinishini ta'minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash biz barpo etayotgan ochiq, erkin va adolatli jamiyatning ajralmas xususiyatidir. Bunday prinsip Asosiy qonunimizda qat'iy belgilangan.

Konstitutsiyada xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbayi sifatida muhrlab qo'yilgan va bunda chuqur ma'no bor. Bu qoidalar mamlakatimizda demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslani-shi, davlat o'z faoliyatini faqat inson va jamiyat farovonligini ko'zlab amalga oshirishini anglatadi. Buni birgina shu yilning o'tgan davrida Xalq qabulxonalariga kelib tushgan 880 mingdan ortiq murojaatning 510 mingdan ziyodi ijobiy hal etilgani ham tasdiqlaydi.

Shu munosabat bilan hamma rahbarlarga yana bir bor eslatib o'tmoqchiman. **Bizga umid va ishonch bildirgan, bizni rahbar etib saylagan, el-yurtimizni, har bir fuqaroni rozi qilish asosiy burchimiz ekanini hech qachon unutmaylik. Xalq bizdan rozi bo'lsa – Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi.**

Konstitutsiyamizda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida mujassam etilgani bejiz emas. Ana shu prinsipni amalga oshirish uchun bizda qat'iy siyosiy iroda va yetarli imkoniyatlar mavjud. Buning uchun biz, avvalo, quyidagi muhim vazifalarni hal etishimiz zarur.

Birinchidan, inson huquqlarini ta'minlash samaradorligini yanada oshirish uchun milliy strategiyamiz bo'lishi lozim.

Keyingi yillarda mamlakatimizda bu borada keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilayotgani sizlarga yaxshi ma'lum.

Bu yilning o'zida «**Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida**»gi, «**Jabrlanuvchi, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida**»gi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, Xalqaro mehnat tashkilotining «**Majburiy mehnat to'g'risida**»gi, «**Sanoat va savdoda mehnat inspek-siyasi to'g'risida**»gi konvensiyalari ratifikatsiya qilindi. Bu bizning majburiy mehnatga qarshi kurashish borasidagi qat'iy va o'zgarmas pozitsiyamizni ifoda etadi.

So'nggi yillarda jinoyat sodir etgan shaxslarni afv etish bo'yicha 8 ta farmon qabul qilinib, 4 mingdan ziyod shaxs jazoni o'tash joylaridan ozod qilindi. Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida kuni kecha navbatdagi farmonga imzo chekdim. Unga binoan jinoiy qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 92 nafar mahkum afv etilib, ular erkin hayotga qaytariladi.

Bu yil Jasliq qo'rg'onidagi jazoni ijro etish koloniyasini yopganimiz ham ana shunday insonparvar siyosatning amaliy namunasi bo'ldi.

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarga pensiya va ijtimoiy sug'urta to'lash tartibi birinchi marta amaliyotga kiritildi. Natijada manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan pensiya yoshidagi 709 nafar mahkumga pensiya pullari to'lab berilmoqda.

Biz avval yo'l qo'ygan xatomizni tuzatib, ushbu toifadagi fuqarolarning Konstitutsiyamizda belgilangan pensiya olish huquqini ta'minlash yo'lida dastlabki qadamni qo'ydik.

Joriy yilda «Mehr-1» va «Mehr-2» insonparvarlik tadbirlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ana shu tadbirlar doirasida Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar maydonidan, Afg'onistondan 261 nafar fuqaro, asosan ayollar va bolalar yurtimizga qaytarib olib kelindi. Ularga zarur tibbiy va moddiy yordam ko'rsatildi.

Inson huquqlarini ta'minlash haqida gapirganda, o'tgan uch yilda 9 ming 692 nafar, jumladan, ushbu yilda 5 ming 868 nafar yurt-doshimiz O'zbekiston fuqaroligiga qabul qilinganini ta'kidlashni istar edim. Lekin bu sohada hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

Avvalo, yuqorida zikr etilgan Milliy strategiyani ishlab chiqib, shu asosda mazkur yo'nalishdagi siyosatimizni izchil amalga oshirishimiz kerak. Ushbu strategiyada inson huquq va erkinliklariga oid konstitutsiyaviy tamoyillarni ro'yobga chiqarish mexanizmlari aniq-ravshan belgilanishi lozim.

Jamiyatda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish madaniyatini shakllantirish, shu orqali mamlakatimizning xalqaro nufuzini yanada yuksaltirishimiz zarur.

Milliy strategiya doirasida inson huquqlarini o'qitishning uzluksiz tizimini yaratish, umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, kadrlarni qayta tayyorlash markazlarida «**Inson huquqlari**», «**Bola huquqlari**», «**Ayollar huquqlari**» nomli maxsus o'quv kurslarini joriy etishning vaqti-soati keldi, deb o'ylayman.

Ikkinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni faqat va faqat xalq manfaati yo'lida og'ishmay xizmat qiladigan idoralarga aylantirishimiz lozim.

O'tgan uch yilda jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat protsessi-ning boshqa ishtirokchilarini himoya qilish tizimi yaratildi. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatiga ruxsat berildi. Sohani rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar va zarur chora-tadbirlar tasdiqlandi.

Xabaringiz bor, o'tgan yillarda tintuv jarayonini, olingan ko'rsatmalarni hodisa sodir bo'lgan joyda tekshirish, tergov eksperimenti kabi protsessual harakatlarni video tasvir orqali qayd etish shartligi qonuniy asosda belgilangan edi.

Biroq aholi bilan muloqotlar huquq buzilishi xavfi bo'lgan boshqa holatlar bo'yicha ham shunday choralarni qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda. Xususan, shaxsni ushlab turish, unga protsessual huquqlarini tushuntirish kabi jarayonlarni, agar u himoyachidan voz kechsa, bu holatni ham majburiy tarzda video tasvirga tushirish tartibini o'rnatish zarur.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan ushlangan shaxs maxsus binoga olib kelinganidan keyin bu haqda uning oila a'zolari darhol xabardor qilinishi kerak. Buni surishtiruvchi, tergovchi va boshqa vakolatli shaxsning majburiyati sifatida qonunda aniq belgilab qo'yishni taklif etaman.

Bundan tashqari, shaxsni ushlab turish va uning huquqini cheklaydigan boshqa protsessual majburlov choralarni qo'llash holatlarini hisobga olishning elektron tizimiga o'tish zarur. Bu jarayonda inson omili ishtirokini iloji boricha kamaytirish lozim.

Kelgusi yildan boshlab prokuror qarori ustidan sudga murojaat qilish tartibi joriy etiladi. Shu orqali surishtiruv va dastlabki ter-

gov jarayonida muvozanatni, ya'ni o'zaro tiyib turish tamoyillarini ta'minlash imkoni yaratiladi. Bunday muhim o'zgarish ham bizning tajribamizda birinchi marta joriy etilmoqda.

Sir emas, ilgari prokuratura idoralari nihoyatda yopiq, nazoratdan xoli bir organga, ta'bir joiz bo'lsa, oxirgi instansiyaga aylanib qolgan edi. Buning oqibatida qancha-qancha odamlar nohaq jabr chekkani, adolatsizlikka duchor bo'lgani ham ayni haqiqat. Qanchalik og'ir va noxush bo'lmasin, biz shu haqiqatni tan olib, bu sohada qonuniylik va adolatni qaror toptirishga kirishdik.

Ishonamanki, prokuror qarori ustidan sudga murojaat qilish bo'yicha rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qiladigan bunday tajribani joriy etish hayotimizda adolat mezonini mustahkamlashda ulkan qadam bo'ladi.

Sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash biz uchun eng ustuvor vazifadir. Ayniqsa, sud biron-bir mansabdor shaxsning qo'li yetadigan idoraga aylanib qolishiga mutlaqo yo'l qo'ymaslik shart. Shu sababli sud ishlariga aralashgani yoki sudga bosim o'tkazgani uchun javobgarlikni kuchaytirish lozim.

Keyingi paytda Xalq qabulxonalariga kelib tushayotgan murojaatlarning aksariyati sud, prokuratura, ichki ishlar idoralari faoliyatidagi kamchiliklarga taalluqli. Shuni inobatga olib, ushbu idoralar xalqimiz bilan ishlashning mutlaqo yangi tizimini yaratishi zarur. Har bir ariza va shikoyatning qonuniy yechimi ana shu idoralar rahbarlari faoliyatiga berilgan baho bo'ladi.

Bunday yangi o'zgarishlarni avvalo, xalqimiz, jumladan, yurtimizda qonun ustuvor ekaniga ishonib sarmoya kiritayotgan chet ellik hamkorlarimiz har tomonlama his qilishlarini istardim.

Uchinchidan, advokatura institutini takomillashtirish orqali inson huquqlarini ta'minlashni yangi bosqichga ko'tarish zarur.

Bu tizimning huquqiy maqomini kuchaytirish, advokatlar vakolatlarini kengaytirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Lekin hali o'z yechimini topmagan muammolar ham bor. Misol uchun, 33 milliondan ortiq O'zbekiston aholisiga faqatgina 4 mingta advokat xizmat ko'rsatayotganini ijobiy baholab bo'lmaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagi advokatlarning 60 foizi 50 yoshdan oshgan shaxslardir. Ular orasida 30 yoshga to'lmagan yoshlar 70 nafarga ham yetmasligini qanday izohlash mumkin?!

Bunday achinarli holatga barham berish uchun avvalo advokatlar nufuzi va maqomini oshirish, advokatura institutining mustaqilligini ta'minlashimiz shart.

Yaqin istiqbolda Advokatura institutini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish lozim. Hech bir idora advokatlarning faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

Ayni vaqtda advokatlarga nisbatan qo'yiladigan malaka talablari ham ushbu konsepsiyada to'liq aks etishi zarur. Bu borada biz rivojlangan davlatlarning ilg'or tajribasini har tomonlama o'rganishimiz kerak.

To'rtinchidan, vijdon erkinligi, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, mamlakatimizda va xorijda fuqarolarimizni kafolatli himoya qilish bundan buyon ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Shu maqsadda fuqarolarimizning muqaddas ziyoratlarni ado etish bilan bog'liq imkoniyatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Jumladan, umra ziyoratiga boruvchilar soni 10 mingdan 30 mingtaga, haj ziyoratiga boruvchilar esa 5 mingdan 7 ming 200 nafargacha oshirildi, safar bilan bog'liq xarajatlar esa kamaytirildi.

Umuman, so'nggi yillarda mamlakatimizda vijdon erkinligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan katta ishlar sizlarga yaxshi ma'lum, deb o'ylayman.

Bugungi kunda mahalliy va xorijiy nufuzli ekspertlar ishtirokida biz «**Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida**»gi qonunning yangi tahriri ustida ish olib bormoqdamiz. Ushbu qonun fuqarolarimizning vijdon va e'tiqod erkinligi borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini to'la ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhtaram majlis ishtirokchilari!

Xorijda vaqtinchalik mehnat qilayotgan fuqarolarimiz va ularning oila a'zolarini himoya qilish bo'yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuzildi. Hukumat tarkibida Xorijda vaqtinchalik mehnat qilayotgan O'zbekiston fuqarolari huquqlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash masalalari departamenti tashkil etildi.

Biroq chet elga ishlash uchun fuqarolarni jo'natish bilan shug'ullanayotgan ba'zi bir xususiy firmalar odamlarni aldayotgani haqidagi materiallar matbuot sahifalarida e'lon qilinmoqda. Departament ushbu firmalar faoliyatini qat'iy nazoratga olishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi, mamlakat ichkarisida yoki tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish, ularga homiylik ko'rsatishni bundan buyon ham kafolatlaydi va barcha choralarni ko'radi.

Buning uchun, jumladan, xorijdagi diplomatik vakolatxonalarimiz tomonidan ko'rsatilayotgan konsullik xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish lozim. Toki chet eldagi fuqarolarimiz boshqa shahardan konsullik bo'limlariga bevosita o'zi kelib, ovora bo'lib yurmasin.

Tashqi ishlar va Adliya vazirliklari kelgusi yilda ushbu tizimni to'liq ishga tushirishga mas'ul etib belgilanadi.

Beshinchidan, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida huquqiy tenglikni mustahkamlashga mamlakatimizda jiddiy e'tibor berilmoqda.

Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari butunlay yangitdan tashkil etilgani, ularga qo'shimcha vakolat va imkoniyatlar berilib, to'laqonli faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratilgani bu yo'lda yangi qadam bo'ldi.

Joriy yilda Konstitutsiyamizning 46-moddasiga asosan «**Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida**»gi hamda «**Xotin-qizlarni taziyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida**»gi qonunlar qabul qilindi. Mazkur qonunlarni izchil amalga oshirishda parlament va jamoatchilik nazorati nihoyatda zarur, deb o'ylayman.

Kelgusida ham onalik va bolalikni himoya qilish, xotin-qizlarning ijtimoiy muammolarini hal etish davlatimizning diqqat markazida bo'ladi.

Keyingi paytda ko'plab ayollarimiz davlat va jamiyat boshqaruvi, iqtisodiyot, moliya-bank, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalarda mas'ul rahbarlik lavozimlariga ko'tarilmoqda.

O'zingiz ayting, joylarda odamlarning dard-u tashvishlarini, oila va mahalladagi ahvolni kim hammadan ko'ra ko'proq biladi, kim hammadan yaxshiroq his qiladi? Albatta, hurmatli va mehribon ayollarimiz emasmi?

Hech shubhasiz, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni o'z vaqtida hal etishda, boshqaruv samarasini oshirishda opa-singillarimizning o'rni va ta'siri juda katta. Shuning uchun biz xotinqizlarning jamiyatdagi o'rni va mavqeyini oshirish, ularga turli mas'ul vazifalarni ishonib topshirishga qaratilgan siyosatni yanada faol davom ettiramiz.

Oltinchidan, fuqarolarning Konstitutsiyada belgilangan mulk huquqi daxlsizdir va doim davlat himoyasida bo'ladi.

Biz o'tgan yillar davomida tadbirkorlik yo'lidagi ortiqcha cheklovlarni bartaraf qilish, ularning faoliyatiga davlat idoralarining noqonuniy aralashuvini qat'iy cheklash borasida salmoqli ishlarni amalga oshirdik. Jumladan, korrupsiyaga yo'l ochib berayotgan yer ajratish amaliyoti tubdan isloh qilindi. Bu jarayon endilikda yer ajratish elektron tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

Kelgusi yil 1-yanvardan boshlab hokimlarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni olib qo'yish bo'yicha vakolati xalq deputatlari Kengashlariga beriladi. Bu o'zgarish ham mulk daxlsizligini ta'minlash yo'lidagi jiddiy qadamlardan biridir.

Bundan tashqari, yerni olib qo'yish va kompensatsiya to'lashning yangi tartibi, yer faqat mulk egasining roziligi bilan olinishiga oid qoidalar joriy qilindi. Shu bilan birga, mulk daxlsizligi to'g'risidagi qonunlarga amal qilmagan mansabdor shaxslarga nisbatan, ular qanday lavozim egasi bo'lishidan qat'i nazar, javobgarlik kuchaytirildi. Shuningdek, kompensatsiya miqdori to'g'risida taraflarda kelishmovchilik vujudga kelsa, endi bunday holatlar faqat sud yo'li bilan hal etiladi.

Ma'lumki, shu paytga qadar hokimlar yerdan foydalanish huquqini beradigan qarorlarni o'zlari qabul qilar, vaqti kelganda esa, ularni

o'zlari bekor qilishi ham mumkin edi. Endi ana shu vakolatni cheklashning fursati yetdi. Chunki bunday vakolat faqat hokimga berilishi turli adolatsizliklarga sabab bo'lishini ko'p misollar ko'rsatmoqda. Bunday masalalar endi faqat sud tartibida hal qilinadi.

Biznes-ombudsman tomonidan tadbirkorlik subyektlarining mulkiy huquqlarini noqonuniy cheklash bilan bog'liq holatlar aniqlangan taqdirda, unga tadbirkor manfaatlarini ko'zlab sudga murojaat qilish huquqini berish lozim.

Sohada ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash uchun hokimlarning fuqarolarga yer berish haqidagi qarorlarini tegishli saytlarda e'lon qilib borish amaliyotini yo'lga qo'yish kerak.

Biz jismoniy va yuridik shaxslarning mulk huquqi kafolatlarini ta'minlash maqsadida xalqaro andozalarga javob beradigan islohotlarimizni bundan buyon ham qat'iy davom ettiramiz.

Bir so'z bilan aytganda, **mamlakatimizda demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun biz hayotimizning barcha jabhalarida konstitutsiyaviy nazoratni kuchaytirishimiz zarur.** Bu esa pirovard natijada inson huquq va erkinliklarini, uning sha'ni, qadr-qimmati, mol-mulkinging daxlsizligini saqlash, fuqarolarning mehnat qilish, ta'lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish kabi eng asosiy huquqlarini to'la ta'minlash imkonini beradi.

Qadrli yurtdoshlar!

Ma'lumki, shu yil 22-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va xalq deputatlari kengashlariga saylovlar bo'lib o'tadi.

«Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar» shiori ostida o'tayotgan bu kampaniya mamlakatimiz siyosiy hayotidagi g'oyat muhim voqeadir.

Konstitutsiyamizga muvofiq, fuqarolar davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Saylovda o'ziga ma'qul bo'lgan nomzod yoki biron-bir partiya ilgari surayotgan dastur uchun ovoz berish, ularni qo'llab-quvvatlash vakillik demokratiyasining yaqqol ko'rinishidir.

O'tgan qisqa davrda saylovga oid 21 ta qonun tizimlashtirilib, O'zbekiston tarixida ilk bor yagona **Saylov kodeksi** qabul qilindi. Bu milliy qonunchiligimizni mustahkamlash, demokratik saylovlarni o'tkazishni yanada takomillashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.

Mazkur kodeksdagi eng katta yangilik siyosiy maydonning to'liq siyosiy partiyalarga berilishi bilan bog'liq, desak, adashmagan bo'lamiz. Unga muvofiq, siyosiy partiyalar Qonunchilik palatasiga bo'lib o'tadigan saylovda ilgaridek 135 ta emas, balki to'liq – 150 ta saylov okrugidan o'z nomzodlarini ko'rsatadi.

O'zbekiston Ekologik harakati uchun belgilangan kvotaning bekor qilingani ham siyosiy maydonda sog'lom raqobatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Saylov kodeksiga muvofiq siyosiy partiya vakolatli vakilining huquqlari ham kengaytirildi. Endi vakil saylov komissiyasi majlislarida, hujjatlarni topshirishda, imzo varaqalari qanday to'ldirilganini tekshirishda qatnashadi. Shuningdek, u saylov uchastkasida ovozlarni sanab chiqishda ishtirok etish huquqiga ham ega.

Bularning barchasi saylov jarayonida ochiqlik va oshkoralikni, jamoatchilik nazoratini oshirishga xizmat qiladi.

Bu yilgi saylovlarda fuqarolarimiz erkin ovoz berishlari uchun joylarda 6 ming 720 ta okrug va 10 ming 253 ta saylov uchastkasi tashkil etildi.

Fuqarolarning saylash va saylanishga oid huquqlari yanada kengaytirildi va amalda bo'lgan ko'plab cheklovlar bekor qilindi.

Konstitutsiyamizda belgilangan fuqarolarning saylovda ishtirok etish huquqini ta'minlash maqsadida bu yil yangi bir qadam qo'ydik. Endi og'ir va o'ta og'ir bo'lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar ham saylovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ldi. Shu asosda bo'lajak saylovlarda ozodlikdan mahrum etilgan 1 ming 905 nafar shaxs ham ishtirok etishi uchun qonuniy imkoniyat yaratildi.

Hech shubhasiz, yangi Saylov kodeksi va undagi 30 dan ortiq yangi demokratik qoidalar saylov qonunchiligimizni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bu yil mamlakatimizda 5 ta siyosiy partiya saylovda ishtirok etmoqda. Xalqimiz hayotiy muammolar va ularning yechimini yaxshi biladigan, islohotlar samarasiga xizmat qiladigan qonun va qarorlar qabul qilishda jonbozlik ko'rsatadigan, katta bilim va malakaga ega insonlar deputat bo'lishini xohlaydi. Shuning uchun ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan yangi parlamentimiz, birinchi navbatda, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlarini himoya qilishga qodir bo'lgan deputatlardan iborat bo'lishi lozim.

Saylov jarayonida o'nlab xalqaro tashkilotlar, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosining to'laqonli missiyasi kuzatuvchilari hamda 40 dan ortiq xorijiy davlatdan 600 dan ziyod kuzatuvchi qatnashishi kutilmoqda.

Ushbu saylovlar orqali xalqimiz bugungi islohotlarimizga baho bersa, jahon hamjamiyati yangilanayotgan O'zbekistonga baho beradi.

O'ylaymanki, har bir yurtdoshimiz o'zining konstitutsiyaviy va fuqarolik burchini, Vatanimiz taqdiri va kelajagi oldidagi mas'uliyatini anglab, yurtimiz ravnaqi, xalqimiz tinchligi va farovon hayoti uchun, farzandlarimizning baxti va kamoli uchun ovoz beradi.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Barchamizga yaxshi ma'lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarmoqda. Insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Jahon miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar, savdo urushlari g'oyat keskin tus olmoqda.

Mana shunday murakkab sharoitda biz faqat xalqimizning aql-zakovati, bukilmas irodasi va salohiyatiga, o'z kuch va imkoniyatlarimizga tayanib, ayni vaqtda dunyo hamjamiyati bilan hamkor bo'lib, dadil oldinga borishimiz shart. Bu borada bizga Konstitutsiyamiz hamisha rahnamo bo'lib, beqiyos kuch-qudrat manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Biz bugun o'z oldimizga katta-katta maqsadlar qo'yib, marrani baland oldik.

O'zbekistonda demokratik islohotlar muqarrar tus oldi va hech kim, hech qanday kuch bizni o'z tanlagan yo'limizdan qaytara olmaydi.

Bu – bugungi hayot, bugungi zamon talabi.

Bu – ko'pmillatli, bag'rikeng, mehnatkash va olijanob xalqimizning xohish-istagi. Va biz xalqimizning tub manfaatlarini, uning ezgu orzu-intilishlarini ifoda etadigan ana shunday siyosatni jadal davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki uni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'taramiz.

El-yurtimiz, jahon hamjamiyati bizga katta ishonch bilan qaramoqda. Ana shu yuksak ishonchga har tomonlama munosib bo'lib, qat'iyat bilan olg'a intilib, ko'zlagan ulug' maqsadlarimizga birgalikda albatta yetamiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi marosimda ishtirok etayotgan, ezgu tashabbus va islohotlarimizni qo'llab-quvvatlab kelayotgan muhtaram elchilarga, xalqaro tashkilotlar vakillariga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan cheksiz minnatdorchilik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Sizlarni, butun xalqimizni qutlug' ayyom – Konstitutsiya kuni bilan yana bir bor chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Barchangizga mustahkam sog'lik, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik va fayz-u baraka tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan
tantanali marosimdagi ma'ruza*

2019-yil 7-dekabr

HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI KUCHAYTIRISH – DOLZARB VAZIFAMIZDIR

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Keyingi uch yil davomida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini isloh qilish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qo'shinlarni boshqarish tizimiga zamonaviy usullarni joriy etish, askar va ofitserlarning jangovar tayyorgarligini oshirish, ularning xizmat sharoitini, oilalarining uy-joy va ijtimoiy ta'minotini yaxshilash borasida ulkan ishlar olib borilmoqda.

Birgina 2019-yilning o'zida mudofaa sohasida 7 ta qonun, 50 ta farmon va qarorlar, 20 dan ortiq dasturlar va «yo'l xaritalari» qabul qilingani ana shu masalalarni kompleks hal etishga davlat miqyosida qanchalik muhim ahamiyat berilayotganini ko'rsatadi.

Ayni vaqtda Qurolli Kuchlarimiz saflarida va butun jamiyatimizda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini, milliy ruhni kuchaytirish, dunyodagi eng ulug' va olijanob ish bo'lgan Vatan himoyachisi sifatida o'zining muqaddas yigitlik burchini ado etayotgan askar va ofitserlar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Tarixdan yaxshi ma'lumki, yer yuzida qaysi mamlakat o'z davlat mustaqilligi, chegaralari daxlsizligi, xalqining tinch va osoyishta hayotini himoya qilib, taraqqiyot borasidagi yuksak maqsad-muddaolariga erishmoqchi bo'lsa, avvalo, milliy armiyasini mustahkamlashga, uning hal qiluvchi kuchi bo'lgan jangovar tarkib, ya'ni, askar va ofitserlar tarbiyasiga birinchi darajali ahamiyat beradi.

Albatta, bunday tarbiya jarayonining yo'nalishlari, soha va tarmoqlari ko'p. Lekin, mening nazarimda, uning eng muhim yo'nalishi – bu ma'naviy-ma'rifiy tarbiyadir.

Agar jismoniy va jangovar tayyorgarlik orqali harbiy xizmatchilar jismonan toblanib, kuch-quvvatga to'lsa,

ma'naviy-ma'rifiy tarbiya orqali ularning qalbi, ruhi, irodasi mustahkamlanadi.

Biz qahramon ota-bobolarimiz, jasur harbiylarimiz haqida so'z yuritganda, «mard», «botir», «fidoyi», «matonatli», «qo'rqmas», «sheryurak», «bahodir», «pahlavon» degan so'zlarni alohida tilga olamiz. Har bir insonda ana shunday olijanob fazilatlarni shakllantirib, yosh yigitlarimizni Vatan uchun qalqon, haqiqiy mard maydon bo'lishga, kerak bo'lganda hatto o'z jonini qurbon qilishga undaydigan kuch – bu avvalo ma'naviy-ma'rifiy tarbiya emasmi?

Bunday tarbiyaning asosida o'zak masala bo'lib turadigan tushuncha – bu milliy ruhdir. **Milliy ruh insonda ona allasi, uning oq suti bilan birga shakllanadi, desak, to'g'ri bo'ladi.** Shuning uchun Qurolli Kuchlarimizda, umuman, butun ijtimoiy hayotimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda avvalo «ota-ona», «oila», «qadrdon qishloq», «qadrdon mahalla», «ona shahar», «ona Vatan» degan tushunchalarning mag'zini ochib berishga alohida e'tibor berish kerak.

Albatta, bu juda murakkab ish bo'lib, quruq so'zlar bilan bunday muqaddas tushunchalarning mohiyatini yoshlarimiz qalbiga yetkazib bo'lmaydi. Buning uchun, birinchi navbatda, ularni ana shunday ezgu qadriyatlar dunyosiga olib kirish kerak.

Keyingi paytda ma'naviy-ma'rifiy ishlarda aynan ana shu kerakli bo'g'in va nuqtani topib, ularni jonlantirishga, shu orqali harbiy xizmatchilarda milliy ruhni kuchaytirishga ahamiyat bera boshladik. Xususan, harbiylar va jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat targ'ibot guruhlari tomonidan mahallalar va ta'lim muassasalarida 9 mingdan ziyod profilaktik, harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari o'tkazildi.

Harbiy xizmatchilar ongiga Vatanga va harbiy burchga sadoqat tuyg'usini yanada chuqur singdirish maqsadida «Harbiy qasamyod» matni qayta ko'rib chiqildi. Mazmun va mohiyat jihatidan yangi bo'lgan, milliy o'zligimiz, shonli tariximiz va ajdodlarimizning

yuksak vatanparvarlik ruhini aks ettirgan «Vatanga qasamyod» matnini qabul qildik.

Barchangiz yaxshi xabardorsiz, bugungi kunda dunyoda, yon-atrofimizda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi tobora ortib bormoqda. Turli hududlarda qonli mojarolar, qurolli to'qnashuvlar yuz bermoqda, yangi ziddiyat o'choqlari yuzaga kelmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoda «tinchlik» degan so'z, «osoyishtalik» degan tushuncha g'oyat omonat bo'lib qolganiga, bu borada kechagi vaziyat, kechagi tahlil va prognozlar bugungi kunga to'g'ri kelmayotganiga hammamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Albatta, bizning Qurolli Kuchlarimiz faqat tinchlik maqsadlariga, Vatanimiz mudofaasiga xizmat qiladi. Lekin, bugungi keskin va tahlikali vaziyatda biz turli tahdidlarga munosib javob berishga doimo tayyor bo'lishimiz, O'zbekistonning tinch va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va qobiliyatini muntazam oshirib borishimiz zarur.

Hammangiz bilasiz, men o'tgan vaqt davomida ko'plab poligonlarni, harbiy qismlarni borib ko'rdim, harbiylar bilan suhbatlashdim, Qurolli Kuchlarimizning holatini atroflicha tahlil qildim. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, armiyamizda vatanparvarlik tarbiyasi, milliy ruhni yuksaltirish hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Harbiy xizmatchilarning qalbi va ongida milliy g'urur, ona yurtga sadoqat, vatanparvarlik va millatparvarlik tuyg'usini kuchaytirish, barcha yoshlarimizni shu asosda tarbiyalash borasida jiddiy tizimli kamchiliklar mavjud.

Mudofaa sohasidagi eng muhim omil – bu harbiy xizmatchilarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi, mening ortimda buyuk Vatanim, buyuk xalqim turibdi, ularning himoyasi menga ishonib topshirilgan, shu yo'lda jonimni berishga ham tayyorman, degan muqaddas e'tiqoddir.

O'zingiz o'ylang, Ikkinchi jahon urushida jasur ota-bobolarimiz fashizm ustidan g'alaba qozonish uchun jon olib, jon berganlarida avvalo nimadan, qanday qadriyatlardan kuch olgan edilar? Birinchi

navbatda ular, mo'tabar otam-onam, Vatanim, suyukli yorim, mushfiq va mehribon opa-singillarim menga umid va ishonch bilan qarab turibdi, men hech qachon ularni yov qo'lga berib qo'ymayman, yovuz dushmanni yo'q qilmaguncha ortimga qaytmayman, degan qalb da'vati bilan jangga kirganlar.

Biz o'tgan yillar mobaynida ma'naviy-ma'rifiy tarbiyadek o'ta muhim, nozik va hal qiluvchi masalaga yetarlicha ahamiyat qaratmadik. Ota-bobolarimizning ana shunday ulug' jasorat maktabini o'rgandik, lekin biryoqlama o'rgandik. Uning tarkibidan «vatanparvarlik», «milliy ruh» degan eng muhim omillarni olib tashlab o'rgandik.

Ruhsiz tana o'lik kabi bo'lganidek, milliy ruhsiz ham tarix shunchaki ma'lumot va axborotlar yig'indisidan iborat bo'lib qoladi. Inson qalbida milliy g'urur tuyg'usi, o'z xalqi va Vataniga mehr hissi uyg'onmasa, har qanday noyob ma'lumot ham uning qalbiga chuqur kirib bormaydi. Biz bunga aslo yo'l qo'ymasligimiz lozim.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida o'tgan davrda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida askar va ofitserlarimizning harbiy ta'lim va tarbiya sifatini yaxshilash, soha xizmatchilarining ma'naviy-intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qancha tadbirlar belgilagan edik. Jumladan, harbiy xizmatchilar qasamyod qabul qilishidan avval ularning O'zbekiston tarixi va «Temur tuzuklari» fanidan bilimlarini sinovdan o'tkazamiz, deb kelishib olgan edik. Lekin bu ishlarning samarasi hali-beri aniq ko'zga tashlanayotgani yo'q. Chunki bu borada olib borayotgan ishlarimizda aniq tizim yo'q, ta'sirchanlik yo'q, hayot bilan, uning o'tkir talablari bilan uzviy hamohanglik yo'q. Amalga oshirayotgan barcha ish va tadbirlarimiz ilm-fan yutuqlariga, ma'rifatga asoslanmagan.

Haqiqiy jasorat qachon paydo bo'ladi? Qachonki, insonning qalbi, yuragi yonsa, ruhi uyg'onsa. **Men istardimki, har bir o'zbek askari va ofitseri qalbida Alpomish, Shiroq, Farhod, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur Mirzo singari milliy qahramonlarimiz ruhi tug'yon urishi kerak.** Lekin biz bunga

qanday erishamiz? Farzandlarimiz «Alpomish» dostonini o'qimagan yoki baxshilarimiz og'zidan eshitmagan bo'lsa, bunga erishish mumkinmi o'zi? Boshqa qahramonlarimiz haqida ham ta'sirchan kitoblar, kinofilmlar, sahna asarlari orqali xabardor bo'lmasa, bunga erishish mumkinmi? Yo'q, albatta!

Xabaringiz bor, yaqinda buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligini keng nishonladik. Kuni kecha «oynayi jahon»da ko'rgan bo'lsalaringiz kerak, amerikalik Mark Edvard Riz degan tadqiqotchi «O'tkan kunlar» romanini 15 yil davomida o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilib, AQSHda nashr ettirdi. U menga o'z xati bilan birga ana shu kitobning bir nusxasini sovg'a qilib yuboribdi. O'zbek xalqini, uning qadriyatlarini yaxshi ko'rib qolgan bu olijanob inson o'z maktubida «O'tkan kunlar» romaniga Markaziy Osiyo va dunyoda o'xshashi yo'q asar, deb yuksak baho beradi. Ayniqsa, romanning milliy ruhiga qoyil qolganini alohida e'tirof etadi. Eng muhimi, bu roman uning taqdirida katta burilish yasaganini minnatdorlik bilan qayd etadi.

Bunday e'tirof barchamizga, o'zini o'zbek, o'zbekistonlik deb biladigan har bir insonga g'urur va iftixor bag'ishlashi kerak emasmi?

Afsuski, oramizda dunyo miqyosida shunday katta qiziqish uyg'otayotgan bu buyuk asarni o'qimagan odamlar, jumladan, harbiylarimiz ham yo'q emas. Kinosini ko'rib, romanning ma'nomazmuni, undagi qahramonlarning murakkab taqdiri, o'ykechinmalarini, eng asosiysi, bu asardagi milliy ruh, dard va iztirobni bilaman, degan odam adashadi. Kino – boshqa, kitob – butunlay boshqa olam.

O'zbek xalqining turmush tarzi, ma'naviy olamining o'ziga xos qomusi bo'lgan bunday milliy asarlarni askar va ofitserlarimiz albatta chuqur bilishlari zarur. Takror aytaman, masalan, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Usmon Nosir, Ibrohim Yusupov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf kabi ulug' shoirlarimiz ijodidan bexabar, loaqal ularning ikki-

uchta she'rini yod bilmagan harbiy xizmatchi chinakam Vatan himoyachisi bo'lishi mumkinmi? Axir, milliy adabiyotimiz, mumtoz san'atimiz biz uchun suv bilan havodek zarur bo'lgan ma'naviy kuch-qudrat manbayi-ku!

Biz armiyani zamonaviy texnika va qurol-yarog'lar bilan jihozlashimiz, harbiylarimizni moddiy jihatdan to'la ta'minlashimiz mumkin. Lekin, o'zingiz o'ylang, faqat shularning o'zi bilan biz kutgan, xalqimiz kutgan natijaga erisha olamizmi?

Yuksak vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'usini Vatan himoyachisi bo'lgan insonning hayotiy e'tiqodiga aylantirishimiz kerak. Shundagina bunday askar, bunday armiya har qanday og'ir sinovlarga, tahdid va xatarlarga bardosh bera oladi. Bu masalalar meni albatta qiynaydi. Ular sizlarni ham qiynashi kerak.

Shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk sarkardalarimizning oz sonli qo'shin bilan dushmanning katta lashkari ustidan g'alaba qozongani haqida misollar ko'p. Albatta, ularning harbiy salohiyati, jang maydonida qo'llagan taktika va strategiyalari – bu alohida mavzu. Lekin bu ulug' sarkardalarning o'z askarlari qalbiga chinakam vatanparvarlikni, jangovar ruhni singdira olgani biz uchun bugun ham ibratlidir.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning: **«Mardlik va shijoat sohibi bo'lgan, azmi qat'iy, hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzaldir»**, degan chuqur hikmatli so'zlari aynan harbiylar to'g'risida aytilgan, desak, xato bo'lmaydi.

Aziz do'stlar!

Xabaringiz bor, biz mamlakatimizda fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 75 yilligini munosib nishonlash bo'yicha qaror qabul qildik. Ochig'i, men shundan keyin tarixchilar, yozuvchi va shoirlar, jurnalistlarimiz, harbiy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari xalqimizning jang maydonlari va front ortida ko'rsatgan jasorati va matonati haqida, milliy qahramonlarimiz to'g'risida yangi maqolalar, kitob va risolalar, ko'rsatuv va

eshittirishlar yaratishlarini kutgan edim. Shu sana bahonasida yoshlarimizni mardlik va jasorat, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ishlarimiz yangi bosqichga ko'tariladi, deb o'ylagan edim. Afsuski, biz faqat 9-may sanasi yaqinlashganda bu mavzuni eslab qolamiz.

Hozirgi vaqtda Prezident Administratsiyasi tomonidan o'zbek xalqining g'alabaga qo'shgan ulkan hissasi haqida maxsus farmoyish asosida katta bir kitob-albom tayyorlanmoqda. Bu kitobga shu paytgacha ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan qanchadan qancha noyob ma'lumotlar kiritilmoqda. Lekin nega boshqalar jim? Holbuki, Ikkinchi jahon urushida ota-bobolarimiz ko'rsatgan jasorat haqida har qancha faxrlanib gapirsak, arziydi.

Birgina misol. **Abdusamat Taymetov degan birinchi o'zbek uchuvchisi** fashistlar Germaniyasining kapitulyatsiyasi, ya'ni, taslim bo'lishi haqidagi hujjatni samolyotda Berlindan Moskvaga olib kelganini bugun birov biladi, birov bilmaydi. Bu qahramon yurtdoshimiz haqida faqat Qurolli Kuchlar muzeyida qisqagina ma'lumot berilgan, xolos. Nima uchun yoshlarimiz, askarlarimiz qalbida milliy ruhni tarbiyalashga xizmat qiladigan mana shunday xalq qahramonlarining mardligi va jasoratini keng targ'ib etmaymiz? Nega ularni farzandlarimizga o'mak qilib ko'rsatmaymiz?

Ana shu qarorga binoan biz hozirgi vaqtda poytaxtimizning Olmazor tumanida muhtasham G'alaba bog'ini bunyod etmoqdamiz. Asosiy maqsadimiz – xalqimiz, ota-bobolarimizning fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga barcha tinchliksevar kuchlar qatorida qo'shgan beqiyos hissasini, ularning mardlik va matonatini abadiy muhrlab qo'yishdan iborat.

Nasib etsa, bu yil 9-may – G'alaba bayramini, Xotira va qadrlash kunini mana shu ulkan bog'da keng nishonlaymiz. Bu yangi majmua aholimiz, avvalo, yoshlarimizni Vatanga, ajdodlar jasoratiga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashda albatta ulkan ahamiyatga ega bo'ladi. Lekin buning uchun biz G'alaba bog'ida yil davomida qanday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, qanday tarbiyaviy

ishlarni amalga oshirish bo'yicha hozirdan boshlab aniq dastur va rejalarga ega bo'lishimiz kerak.

Shu borada yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Yuqorida tilga olingan qarorda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, o'sha og'ir yillarda front ortida mehnat qilgan keksa avlod vakillariga munosib hurmat-e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish vazifasi alohida belgilangan. Shuning uchun joylarda hududlarning rahbarlari tegishli vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari bilan birga bu muhim ishlarni faqat may oyida emas, balki butun yil davomida amalga oshirishlari kerak. Bunday savobli ishlar hayotimizda doimiy ezgu an'anaga aylanishi lozim. Axir, bizning bugungi tinch va osoyishta hayotimiz, musaffo osmonimiz uchun fidoyilik ko'rsatib kurashgan bunday insonlar barchamiz uchun g'animat. Ularni e'zozlash, holidan xabar olish, muammolarini hal qilish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash barchamizning odamiylik burchimiz bo'lishi lozim. Bu muhim ishda butun jamiyatimiz faol ishtirok etishi, u umumxalq harakatiga aylanishi kerak.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida ayniqsa ijodkor ziyolilarimiz, olimlar, madaniyat va matbuot xodimlari, ma'naviyat targ'ibotchilari bilan birga harbiy xizmatchilar, ofitser va generallarimiz yanada faol bo'lishlarini istardim.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Bugungi global makonda, qarama-qarshiliklar, inson, ayniqsa, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun kurash nihoyatda kuchaygan hozirgi sharoitda yosh avlod tarbiyasining o'rni va ahamiyati har qachongidan ham ortib borayotgani hech kimga sir emas. Siz bilan biz yashayotgan zamonning achchiq haqiqati shundan iboratki, katta hayot ostonasiga qadam qo'yayotgan yoshlarni agar sog'lom kuchlar to'g'ri yo'lga boshlamasa, g'arazli niyatlar bilan yurgan buzg'unchi kuchlar o'z ortidan ergashtirib ketadi.

Afsuski, biz jahondagi ana shunday keskin va murakkab sharoitni hisobga olib, milliy ruhni izchil tarbiyalab, kamolga yetkazish, shu orqali uni milliy g'oyani amalga oshirishning, barcha sohalar,

jumladan, harbiy hayotda ham yangi avlod kadrlarini, yangi qahramonlarni tarbiyalashning qudratli vositasiga aylantirish ustida samarali ish olib borayotganimiz yo'q. Dunyodagi raqobatga bardoshli, jahon maydonida o'z o'mimga ega bo'laman, degan har bir xalq shu masalalar haqida jiddiy o'ylaydi, bu borada amaliy choralarni ko'radi. Zarur choralarni ko'rmasa, hech shubhasiz, xalq va millat sifatida o'zligini boy beradi.

Biz so'nggi yillarda Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyatini yuksaltirish uchun uni harbiy xizmatga xos bo'lmagan barcha ishlardan ozod etdik. Xalqimizda «**Qars – ikki qo'ldan**», degan maqol bor. Shu ma'noda, armiya davlatimiz va xalqimizning bunday yuksak e'tiboriga qanday javob bermoqda, degan haqli savol tug'iladi.

Albatta, Qurolli Kuchlarimizning tezkor va ixcham, har qanday tahdidlarga munosib zarba berishga qodir bo'lgan jangovar kuchga aylanib borayotgani biz uchun o'ta muhim. Lekin, ayni paytda milliy armiyamiz xalqimizning ma'naviy hayotida, farzandlarimizning kamolotida ham munosib o'rin egallashi zarur.

Boshqacha aytganda, shavkatli Qurolli Kuchlarimiz faqat milliy ruhni ifoda etuvchi tuzilma bo'lib qolmasdan, uni butun jamiyatimiz, ayniqsa, yoshlarimizga singdiruvchi ham bo'lishlari shart. Harbiy libosdagi mard va jasur o'g'lonlarimizni, ularning mag'rur va shaxdam qadam tashlashlarini, jangovar texnikalarni mohirlik bilan boshqarishlarini, yurtimizga ko'z olaytirgan yovuz dushmanning adabini berishlarini ko'rganida, har bir yurtdoshimiz to'lqinlanib, «**Bu – mening armiyam, bu – mening posbonlarim**», deb, ko'ksi g'urur-iftixordan tog'dek ko'tarilishi kerak.

Mana bu haqiqiy milliy ruh timsoli bo'ladi! Mana bu chinakam kuch-qudrat manbayi bo'ladi! Shu asosda jamiyat, xalq birlashadi, yanada azm-u shijoatli, mard va matonatli bo'ladi.

Bugungi kunda milliy armiyamizning jamiyatimiz o'rtasida hurmat-e'tibori ortib bormoqda. Biz mana shunday yuksak obro' va nufuzga ega bo'lgan katta va ta'sirchan kuchdan aholi, ayniqsa, yoshlarimizning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etishda foydalanishimiz zarur.

Avvalo, yuksak bilim va dunyoqarashga ega bo'lgan ofitser va qo'mondonlarimiz o'zlarining mardligi va jasurligi, azm-u shijoati, el-yurt ishiga fidoyiligi bilan o'z qo'l ostidagi askar va serjantlarga namuna bo'lishi zarur. Shu bilan birga, ular o'zlari xizmat qiladigan okrug hududida, yashaydigan mahallasida, u yerdagi ta'lim, madaniyat va sport maskanlarida yoshlarga har tomonlama o'mak bo'lishlari kerak.

Harbiylarimiz orasida jahon maydonlarida katta g'alabalarni qo'lga kiritib kelayotgan mashhur sportchilarimiz ko'pchilikni tashkil etadi. Afsuski, harbiy sportchilarimizning yoshlar bilan aloqasi, ularning do'stona munosabati, o'zaro muloqotlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan.

Bugun xalqimiz, jamoatchiligimiz, mana, hokimlarimiz ham asta-sekin armiyaning ichiga kirib bormoqda, uning tashvish va quvonchlari bilan yashamoqda. Lekin armiya hali ham xalqning ichiga kirmasdan, bu bizga mumkinmi o'zi, deb, qandaydir tortinib turganga o'xshaydi.

Holbuki, armiya xalqning joni, g'urur-iftixori bo'lishi, butun kuch-qudratni el-yurtimizdan olishi shart. Boshqacha bo'lishi mumkin emas. Shundagina hech qanday yovuz kuch Qurolli Kuchlarimizni yengolmaydi.

Er yigitning er yigitga aytgan gapining ta'siri boshqacha bo'ladi. Harbiy xizmatchilar yoshlarimizga, kerak bo'lsa, ota bo'lib, kerak bo'lsa, do'st, tengdosh, sirdosh bo'lib, to'g'ri yo'lni ko'rsatsa, zarur paytda mardona tarbiya, amaliy ko'mak bersa, o'ylaymanki, buning samarasi juda yuqori bo'ladi.

Yoshlar tarbiyasida oilada otaning o'rni g'oyat muhim bo'lganidek, jamiyatda ham mard o'g'lonlarning ta'siri beqiyos ekanini har birimiz yaxshi anglab olishimizni istardim.

Biz bugun «**Armiya va xalq – bir tan-u bir jon**» degan olijanob g'oya asosida ish olib bormoqdamiz. Binobarin, armiya va xalq bir tan-u bir jon ekan, bir-birimizdan qandaydir begonasirab turish aslo yarashmaydi.

Oramizda butun hayotini ona Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilishga bag'ishlagan, bu yo'lda qanchadan qancha og'ir sinov va mushkul vaziyatlarga duch kelgan hamda ularni mardona yengib o'tgan Qurolli Kuchlarimiz faxriylari bor. Nima uchun ularning mana shunday katta va ta'sirchan tajribasidan yoshlarimiz tarbiyasida foydalanmayapmiz?

Bugun o'rinli bir savolni o'rta qo'yishga haqlimiz. Ya'ni, qaysi qo'mondon, qaysi ofitser nechta maktabga bordi, qancha ta'lim maskani harbiy qismlarga birlashtirildi, nechta adashgan yoshga e'tibor qaratib, ularni to'g'ri yo'lga qaytardi?

Afsuski, tegishli rahbar va mutasaddilar, qo'mondonlar bu masalalar bilan jiddiy shug'ullanmayapti. Shuning uchun ham yoshlar o'rtasida jinoyat sodir etish, giyohvandlik, ekstremistik oqimlarga qo'shib ketish, ota-onalarga, o'qituvchilarga bepisand munosabat kabi salbiy holatlar ko'payib bormoqda.

Yana bir bor aytaman, biz shu paytgacha yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimini zamonaviy ilmiy asosda yo'lga qo'ya olmadik va buni tan olishimiz kerak. Yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlari mavjud emas. Vaholanki, xorijiy mamlakatlarda allaqachon o'rganishimiz va joriy etishimiz zarur bo'lgan bunday ijobiy tajriba mavjud.

Yoshlarning harbiy qismlarga, harbiy xizmatchilarning ta'lim muassasalariga tashrif buyurishi bilan bog'liq tadbirlar, shuningdek, bolalar va o'smirlar o'rtasida harbiy-vatanparvarlik o'yinlari va musobaqalarini tashkil etishda yuzakilik, sustkashlikka yo'l qo'yilmoqda. Holbuki, bizda bu borada ijobiy namunalar ham bor. Qoraqalpog'istonda tajriba tariqasida yo'lga qo'yilgan ichki ishlar organlari xodimlarini harbiy qismlarda o'qitish va eng asosiysi, harbiylarimiz, ichki ishlar xodimlari hamda jamoatchilik vakillaridan iborat ishchi guruhlar tomonidan mahalla va ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, harbiy-vatanparvarlik tadbirlarini o'tkazish yaxshi samara berdi. Natijada jinoyatchilik sezilarli darajada kamaydi.

Ana shu tajriba Andijon, Namangan, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ham joriy etilgan bo'lib, uni mamlakatimizning boshqa hududlarida ham amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi hamda Milliy gvardiya tomonidan Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi respublika o'g'il va qiz bolalar o'quv-tarbiya muassasalarining tarbiyaviy va moddiy jihatdan otaliqqa olingani yana bir ijobiy holdir.

Biz uchun muhim bo'lgan yana bir muhim yo'nalishga to'xtalib o'tmoqchiman. Yoshlarni turli zararli diniy oqimlardan, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida kirib kelayotgan buzg'unchi va yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, to'g'ri yo'ldan adashgan fuqarolarni sog'lom turmush tarziga qaytarish maqsadida olib borilayotgan ishlar biz kutgan natijani bermayapti.

Meni doimo bir savol o'ylantiradi: harbiy qism atrofidagi mahallalarda yot g'oyalarga sig'inadigan kishilar bo'lsa, ularni komandirlar bilmasa yoki bunday holatlarga beparvo bo'lsa, unda qanday qilib xalqimiz xavfsizligini ta'minlash mumkin?

Barcha bo'g'indagi harbiy komandirlar shuni anglab yetishi kerakki, adashgan kimsalarni to'g'ri yo'lga qaytarish, ularni tarbiyalash bu faqatgina tegishli idoralarning ishi emas, balki barchamizning vazifamizdir. Generallik, ofitserlik formasini kiyib yurish – oson, lekin unga munosib bo'lish – bu juda mas'uliyatli, mashaqqatli vazifa.

Men hayotimizda o'zining necha bor isbotini topgan bir haqiqatni bugun yana eslatmoqchiman: «**O'z uyingizni, o'z bolangizni o'zingiz asrang!**». Bu shior, bu da'vat hech qachon kun tartibidan tushmasligi kerak.

Farzandlarimizni o'zimiz asramasak, o'zimiz avaylamasak, o'zimiz tarbiyalamasak, birov chetdan kelib bu ishni biz uchun bajarib bermaydi. Shu sababli har bir ofitser ta'sirchan shakl va usullardan foydalanib, adashgan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarishni harbiy xizmat kabi o'zining muhim burchi deb bilishi kerak.

Bundan keyin okrug qo'mondonlari va harbiy qism komandirlarining faoliyatiga, birinchi navbatda, ular tomonidan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va yot g'oyalardan himoya qilish yo'nalishida olib borayotgan ishlariga qarab baho beriladi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan barcha harbiy xizmatchilar – mard va jasur Vatan himoyachilari yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan to'g'ri xulosa chiqarib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarni chetdan kuzatuvchilar emas, balki bu ijtimoiy jarayonlarning faol ishtirokchisi bo'ladilar, nafaqat jangovar tayyorgarlik, balki ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ham ibrat namunasini ko'rsatadilar, deb ishonaman.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan
yig'ilishidagi nutqdan
2020-yil 10-yanvar*

MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH BIZ UCHUN UMUMMILLIY MAQSADGA, UMUMXALQ HARAKATIGA AYLANISHI ZARUR

Assalomu alaykum, hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Xabaringiz bor, yana sanoqli kunlardan keyin mamlakatimizda yangi o'quv yili boshlanadi. Ushbu muhim voqea arafasida umumta'lim maktablaridagi ahvol, sohada olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish masalalarini har tomonlama muhokama qilib, oldimizda turgan eng muhim vazifalarni belgilab olishimiz lozim.

Shuning uchun ham bugungi yig'ilishda nafaqat rahbar va mutasaddilar, balki ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tajribali, fidoyi va jonkuyar muallimlar, ziyolilar, mahalla faollari, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etayotgani bejiz emas.

Yaqin tariximizda Prezident rahbarligida hech qachon bunday yig'ilish o'tkazilmagan.

Bugungi muhokamani shunchaki oddiy bir majlis emas, balki Davlat rahbarining sizlarga, butun xalqimizga va yoshlarimizga murojaati, deb qabul qilishingizni istardim. Chunki maktab masalasi – bu kelajak masalasi, hayot-mamot masalasi. Uni davlat, Hukumat va hokimlarning yolg'iz o'zi hal qilolmaydi. Bu – butun jamiyatning ishiga aylanishi kerak.

Afsuski, o'tgan salkam 30 yil mobaynida biz bu masalaga yetarlicha e'tibor bermadik. Natijada nima bo'ldi? Maktabni barbod qildik, o'qituvchini ham yo'qotdik. Bolalarda o'qishga havas va intilish susaydi. Eng yomoni, maktablardagi ma'naviy-ma'rifiy muhit yo'qoldi.

O'qituvchilik kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketdi. Oqibatda maktabdan erkak o'qituvchilar ketib qoldi. O'qituvchilarning moddiy ahvoli, mehnat sharoiti haqida bosh qotirmadik. Ularni paxtaga, ko'cha supurishga, ularga xos bo'lmagan ishlarga jalb qilib, obro'e'tiborini tushirdik.

Ta'lim haqida pastdagi ahvolni o'rganmay, haqiqiy vaziyatni bilmay yarim-yuluq qabul qilgan dasturlarimiz ko'p hollarda chalachulpa bajarildi.

Yangi davr o'qituvchilarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalari, kreativ yondashuvlar haqida deyarli o'ylaganimiz yo'q.

Katta kuch va mablag' hisobidan barpo etilgan, lekin hayotda o'zini oqlamagan kollej tizimiga zo'r berib, maktabni butunlay esimizdan chiqarib qo'ydik. Holbuki, ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori – bu maktab emasmi? Maktabni maktab qiladigan kim? O'qituvchi emasmi?

Dunyodagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda barcha islohotlar maktabgacha ta'lim tizimidan, ya'ni bog'chadan, maktabdan, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. **Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.** O'tgan asr boshida jadid bobolarimiz shuning uchun ham maktab masalasini eng birinchi o'ringa qo'ygan edilar.

Buyuk ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning «Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir», degan so'zlarida qanday chuqur ma'no bor. Biz esa sirti yaltiroq, ichi qaltiroq kollejarimizga mahliyo bo'lib, shuncha vaqtni bekorga boy berdik.

Yaqin o'tmishda ham otalarimiz, akalarimiz, opa-singillarimiz juda hashamatli maktablarda o'qimagan. Lekin ularning bilimi, malakasi, g'ururi yuqori bo'lgan, el-yurt taqdiriga befarq bo'lmagan.

Afsuski, bugungi kunda bolaning qalbida ma'naviyat va ma'rifat cho'g'ini uyg'otadigan haqiqiy maktablar va o'qituvchilar nihoyatda kam.

Mana, Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi birinchi ixtisoslashtirilgan maktabga xalqaro maqom berdik. Chunki uning o'quvchilari matematika fani bo'yicha jahon miqyosiga chiqdi. Uning binosini, moddiy-texnik bazasini ko'rsangiz, boshqalardan oshib-toshib ketgan joyi yo'q. Lekin o'qituvchilari, direktori zo'r, o'qitish metodikasi zamonaviy, tarbiyaviy ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan.

Ming afsuski, maqtanib ko'rsatadigan bunday maktablarimiz va namunali o'qituvchilarimiz barmoq bilan sanarli. Qaysi viloyat, tuman va shahar hokimi o'zining falon sonli maktabini yoki fanlar bo'yicha biror-bir o'qituvchisini namuna qilib, g'urur bilan maqtana oladi? Ming afsuski, yo'q. Chunki hali hokimlar maktab va bola tarbiyasi masalasi bilan, to'g'risini aytadigan bo'lsak, umuman shug'ullanayotgani yo'q.

Bugun chet eldan qancha-qancha investitsiyalar olib kelyapmiz. Qancha-qancha yangi korxonalar quryapmiz. «Aqlli shaharlar», «Aqlli uylar» qurish rejasini tuzyapmiz. Atom elektr stansiyasi barpo etishni boshladik. Bularning hammasida ishlash uchun yuksak bilimli, xorijiy tillarni, zamonaviy texnologiyalarni chuqur egallagan yoshlar kerak. Agar maktablarimiz ahvoli shunday bo'lsa, qayerdan topamiz bunday kadrlarni?

Biz o'tgan davrda yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarimizdan xulosa qilib, ota-onalar, jamoatchilikning istak va talablarini inobatga olib, mamlakatimizda 11 yillik maktab ta'limi tizimini tikladik.

O'tgan davr mobaynida xalq ta'limi tizimini isloh etish bo'yicha Prezidentning 6 ta farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 21 ta qarori qabul qilindi. Maktablarning moddiy-texnik bazasini, sohaning kadrlar salohiyatini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilmoqda.

Yurtimizda ulug' allomalar – Mirzo Ulug'bek va Muso Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, atoqli adiblarimiz – Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ibroyim

Yusupov, Ibrat, Muhammad Yusuf, Halima Xudoyberdiyeva nomlari bilan atalgan ijod maktablari, «Temurbeklar maktabi», Prezident maktablari, xususiy maktablar singari mutlaqo yangicha mazmun va shaklga ega bo'lgan ta'lim muassasalari ham barpo etilmoqda.

Xususiy maktablarga litsenziya berish tartibi soddalashtirildi, ular tomonidan attestat berilishiga ruxsat etildi. Natijada bunday maktablar soni so'nggi 2 yilda 4 barobar ko'payib, 89 taga yetdi.

Shu o'rinda buyuk fransuz adibi Viktor Gyugoning «Maktab ochgan odam bamisoli qamoqxonani yopgandek bo'ladi», degan so'zlarini eslatmoqchiman. Bu nima degani? Maktab, ta'lim-tarbiya bor joyda bolalar yomon yo'lga kirmaydi, jinoyat sodir etmaydi, demak, qamoqxonaga zarurat qolmaydi, deyapti ulug' yozuvchi.

Men bu hikmatli so'zlarga qo'shimcha qilib, nafaqat maktab ochgan, balki maktabda fidoyi bo'lib ishlayotgan har bir o'qituvchi, har bir ustoz ham mana shunday sharafli maqomga munosib, deb aytmoqchiman.

Bugungi uchrashuvda ishtirok etayotgan hurmatli muallimlarimiz, jonkuyar maktab direktorlarini, soha faxriylarini biz el-yurtimizning tayanchi va suyanchi, deb bilamiz va sizlar kabi mo'tabar zotlar bilan doimo faxrlanamiz.

Biz bundan buyon ham maktablar tizimini rivojlantirish uchun mablag'ni ham, imkoniyatni ham aslo ayamaymiz.

So'nggi 3 yilda yurtimizda 157 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi.

O'tgan o'quv yilida maktablardagi o'quvchilar soni 5 million 822 ming nafarni, pedagoglar – 443 ming nafarni tashkil etgan.

Agar statistikani keltiradigan bo'lsak, maktab o'qituvchilarining 70 foizini ayollar tashkil etayotganiga guvoh bo'lamiz. Keyingi yillarda ta'lim-tarbiyada erkak o'qituvchilarning alohida o'rni va ta'sirini hisobga olib, ko'rilgan aniq chora-tadbirlar natijasida xalq ta'limi tizimiga qariyb 13 ming nafar erkak o'qituvchi qaytdi. Lekin bu hali juda ham kam.

Oxirgi 3 yilda o'qituvchilarning ish haqi o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Oliy tumanlardagi maktablarda ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag'batlantirish bo'yicha aniq mezonlar belgilandi. Natijada ularga 50 foizgacha qo'shimcha oylik ustamalar to'lanmoqda. Bu – mazkur hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o'qituvchini jalb etish imkonini berdi.

Mehnat faoliyatini davom ettirayotgan o'qituvchilarga pensiyani to'liq miqdorda to'lash tartibi belgilandi. Natijada pensiya yoshidagi minglab tajribali, jonkuyar o'qituvchilar tizimga qaytdi.

Olib borilayotgan islohotlar va ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, sohada tizimli muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, aksariyat pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablaridan ortda qolmoqda.

Tan olishimiz kerak – yilda bir marta O'qituvchi va murabbiylar kuni bayramini o'tkazib, bir guruh muallimlarga mukofot berib, ularni faqat ruhlantirish mumkin. Lekin, bu bilan ularni to'liq rag'batlantirayapmiz, deb o'ylamaslik kerak. Bu borada ularga yanada qulay shart-sharoit yaratish uchun ta'lim muassasalari binosi, jihozlanishi zamon talablariga har tomonlama mos bo'lishi lozim.

O'quv jarayoni zarur darslik va qo'llanmalar, informatsion texnologiyalar bilan to'liq ta'minlangan bo'lishi kerak.

Tabiiy savol tug'iladi – viloyat, shahar va tuman hokimlari bir oyda necha marotaba maktabga borib bolalar bilan uchrashuv o'tkazayapti? Yoki bo'layotgan o'zgarishlar, islohotlar to'g'risida yosh avlodga dars berayapti?

Afsuski, shu zalda o'tirgan viloyat hokimlari ham, joylardagi tuman va shahar hokimlari ham bu haqida hatto o'ylab ham ko'rmagan. Ular maktab masalasida nari borsa, yangi o'quv yili boshlanishidan avval bir-ikki majlis o'tkazish bilan cheklanadilar.

Nima uchun har kuni fermer bilan, klaster bilan yoki mana endi tadbirkorlar bilan ham uchrashadi-yu, maktabga borib, o'zining bolasi yoki nevarasining ustozidan yoki o'zi ta'lim-tarbiya olgan maskandan umuman xabar olmaydi? Chunki maktabni yuzinchi darajali masala deb, nazar-pisand qilmaydi. O'zicha o'ta bandligini bahona qilib, maktabga borishga vaqt topa olmaydi. Bu o'ta ma'naviyatsizlik emasmi?!

Bu kelajakka nisbatan mas'uliyatsizlikdan boshqa narsa emas. Men o'ylaymanki, bu – eng katta fojiamizdir.

Maktablarda «vazir soati», «tadbirkor va bankirlar sabog'i» kabi dars amaliyotlarini joriy qilish lozim. Ularda ijro organlari rahbarlari, salohiyatli tadbirkorlar, malakali bank xodimlari dars o'tishi kerak.

Shuningdek, diniy ulamolarimiz ham maktablarda ma'rifat, bag'rikenglik, odob va axloq ilmlarini, Imom Buxoriy, Termiziy, Moturidiy, Naqshband kabi ulug' ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rgatishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, jamiyatning tarbiyaga bo'lgan munosabatini butunlay o'zgartirmasdan turib, sohani tubdan takomillashtirish mumkin emas.

Biz Abdulla Avloniyning «**Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir**» degan so'zlarini ko'p bora esga olamiz. Biroq unga e'tibor qilish u yoqda tursin, ko'p hollarda bu da'vatning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib ham berolmaymiz.

Boshqacha aytganda, ushbu tizimning sifati bugungi va ertangi hayotimiz darajasini belgilashi kerak. Bu borada milliy ta'lim-tarbiya tizimini shakllantirishda bir omil borki, uni ro'yobga chiqarish uchun faqat istak, mablag', vaqtning o'zi kifoya emas.

U ham bo'lsa, tarbiyachi, o'qituvchi, ustoz omilidir. Agar uni to'liq yuzaga chiqarolmasak, barcha harakat va xarajatlarimizdan hech qanday samara bo'lmaydi.

Butun dunyo tan olgan ulug' mutafakkir bobolarimiz – bu Imom Buxoriy yoki Imom Termiziy bo'ladimi, Beruniy yoki Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy yoki Bobur Mirzo bo'ladimi – barcha-barchasi o'z vaqtida mohir, mehribon va talabchan ustozlar qo'lida ta'lim olganlar.

Xalqimizga xos ibratli bir xususiyat bor. Qaysi sohada bo'lmasin, kimdandir saboq olgan, ish o'rgangan inson o'z mustaqil faoliyatini boshlashdan oldin albatta ustozidan duoyi fotiha oladi.

Kimki ustoz duosini olsa, uning ishi albatta yurishadi, u kamolga erishadi. Shuning uchun ham siz, aziz o'qituvchilar, dunyodagi eng ezgu va olijanob kasb egalarisiz, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Nafaqat kelajak avlodning taqdiri, balki butun millatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri muhtaram muallimlarimizga bog'liq.

Ta'lim-tarbiya kabi muhim va strategik masalaga eskicha qarash, eskicha bilim va tizim bilan yondashish mutlaqo mumkin emas. Bu borada eng zamonaviy va ilg'or tizimni yaratmasak, oldimizda ko'ndalang turgan bironta muammoni yecholmaymiz.

Uchinchidan, biz ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish uchun «**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari**» degan tamoyilga asoslangan holda, milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqishimiz kerak.

Milliy g'oyani farzandlarimiz ongiga aynan bolalik davridan, bog'chadan va maktabdan boshlashimiz zarur. Buning uchun tarixni, ajdodlarimiz merosini, dunyo tajribasini, turli xalqlarning yutuq va kamchiliklarini atroflicha o'rganish kerak.

Shu ma'noda, «Besh tashabbus», «Obod qishloq», «Obod mahalla» singari yangi ijtimoiy harakatlar zamirida ham ta'lim-tarbiya, yuksak ma'naviyat kabi ezgu g'oyalarimiz mujassam.

Hokimlar shuni yaxshi tushunib olishlari kerak: «Besh tashabbus» joriy etilmagan maktabning kelajagi bo'lmaydi, bu maktabga yangilik, innovatsion g'oyalar, axborot texnologiyalari kirmaydi.

Mana, kitobxonlik masalasiga aholimiz, birinchi navbatda, yoshlarimizning munosabatini ijobiy tomonga o'zgartira olayapmiz. Demak, astoydil bel bog'lasak, qo'limizdan kelar ekan-ku!

To'rtinchidan, zamon talablaridan kelib chiqib, o'qitish uslublari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodini yaratish lozim.

Buning uchun ta'lim jarayonidagi uslub va yondashuvlar masalasida chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanishimiz, tarbiyada esa – milliy an'ana va urf-odatlarimizga suyanishimiz zarur.

Ta'lim standartlarini amalga oshirish bilan bir qatorda tarbiya standartlarini ham yaratishimiz kerak.

Bugungi kunda yurtimizda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ochilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad bitta – milliy ta'lim tizimida tanlov huquqini kengaytirish, raqobatni kuchaytirish va ta'limda yangicha yondashuvlarni keng joriy qilishdir.

Shu asosda biz milliy ta'lim tizimimizni yanada jonlantirishimiz mumkin.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Biz keyingi paytda, ming afsuski, «ma'naviyat» tushunchasining obro'yini tushirib yubordik. Ma'naviyatga go'yoki keraksiz narsadek munosabatda bo'ldik.

Bugun ko'pchilik yoshlar ongini iste'molchilik kayfiyati, Vatan, el-yurt taqdiriga beparvolik, «ommaviy madaniyat» ko'rinishlari egallab olmoqda.

O'zingiz ayting, o'z xalqining tarixini, ma'naviy va diniy qadriyatlarini hurmat qilmaydigan, ularni himoya qilishga qodir bo'lmagan odam vatanparvar va elparvar bo'lishi mumkinmi?

Mana, Islom sivilizatsiyasi markazini, hadis va ijod maktablarini tashkil etdik. Ulug' allomalarimiz merosini chuqur o'rganish, tarixiy-badiiy asarlar, filmlar yaratishga alohida e'tibor bermoqdamiz. Shuning uchun «O'zbekiston tarixi» telekanalini tashkil etdik. Bundan maqsad – tariximiz, merosimizni yosh

avlodlar qalbi va ongiga singdirish, farzandlarimizni milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdir.

Nega deganda, buyuk ajdodlarimiz o'zlarining ilmiy va ijodiy kashfiyotlari bilan dunyoga ustozlik qilishgan. Boshqalarga ergashmagan, balki boshqalarni o'z ortidan ergashtirgan. **Biz ham ergashuvchi emas, ergashtiruvchi kuchga ega xalq bo'lishimiz shart. Aks holda, taraqqiyot yo'lidan chekkaga chiqib, yana tanazzul botqog'iga botamiz. Ota-bobolarimiz erishgan marralarni osongina boy berib qo'yamiz.**

Bu ajdodlar ruhiga, kelajak avlodlarimizga xiyonat emasmi? Bu sohada bugun shoshilinch choralar ko'rmasak, ertaga kech bo'ladi. Shuning uchun, biz ta'lim-tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimiga alohida e'tibor berayapmiz.

Hozirgi vaqtda bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 40 foizdan oshdi. Ikki yarim yilda 1,5 barobar o'sishga erishdik. Bu – juda katta yutuq. Ayni vaqtda hali bu sohada qiladigan ishlarimiz nihoyatda ko'p.

Biz tarbiya masalasida 20–30 yil oldinni ko'zlab ish olib borishimiz kerak. Ya'ni, kelgusida hayot bizning oldimizga qanday o'tkir va keskin talablarni qo'yadi, qanday dolzarb muammolar yo'limizda paydo bo'lishi mumkin? Ularni bartaraf etish uchun bizga qanday kadrlar kerak bo'lishi haqida hozirdan o'ylashimiz zarur.

Joylarda maktablarning qurilishi, o'quv yiliga tayyorgarlik uchun hokimlar va sektor rahbarlari shaxsan mas'ul. Lekin, ularning ba'zilar bu masalaga yetarli e'tibor qaratmayapti. Shu sababli, Xalq ta'limi vaziri va tizim boshqaruv xodimlari, bunday tashkiliy ishlar bilan ovora bo'lib qolmoqda.

Holbuki, Xalq ta'limi vazirligi ijtimoiy hayotimizdagi, hukumatdagi nufuzi va ta'siriga ko'ra Moliya vazirligi bilan barobar bir mavqeda turishi kerak.

Vazirlik va uning bo'linmalari ta'lim-tarbiyaning mazmuni, o'quv dasturlari, uning sifati va samaradorligini oshirish, darslik va o'quv

qo'llanmalari bilan ta'minlash masalalariga jiddiy e'tibor qaratishi zarur.

Misol uchun, bugungi kunda respublikamiz bo'yicha 400 nomdagi 32 million nusxa darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr qilingan. Bu rejadagi ko'rsatkichning faqatgina 87,5 foizini tashkil etadi, xolos.

Bundan tashqari bu masalalar bilan bevosita shug'ullanishi lozim bo'lgan Respublika ta'lim markazi bor, Abdulla Avloniy nomidagi rahbar xodimlar malakasini oshirish instituti, viloyatlarda o'qituvchilar malakasini oshirish institutlari bor. Nizomiy nomidagi butun bir universitet, hududlarda 6 ta pedagogika institutlari mavjud.

Lekin bu tuzilmalar o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'qituvchilarning bilim va malakasini oshirish, darsliklar saviyasini yaxshilash uchun qanday amaliy ishlarni qilmoqda? Bunday salohiyatdan nima uchun unumli foydalanilmayapti?

Yana bir masala – hozirgi vaqtda ayrim maktablarda budget mablag'laridan noto'g'ri foydalanish, poraxo'rlik, tamagirlik ko'rinishlari uchrab turibdi. Bu haqiqatni afsus va nadomat bilan aytishga majburmiz.

Maktab tizimi bilan bog'liq g'oyat muhim masalalarni hal qilish uchun keng jamoatchilikning ishtiroki zarur. Bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kerak.

Afsuski, «Mahalla» va «Nuroni» kengashlari, xotin-qizlar qo'mitalari, deputatlar, Yoshlar ittifoqi, siyosiy partiyalar maktab muammolari bilan yaqindan va jiddiy shug'ullanayotgani yo'q. Holbuki, ularni yechish bo'yicha aynan shu tashkilotlar jonbozlik ko'rsatishi zarur. Ustozni kim ulug'lashi, el-yurtga kim tanitishi kerak? O'zini shu sohaga mas'ul deb biladigan barcha ziyolilarimiz emasmi?

Axir, dunyoda, yon-atrofimizda qanday keskin raqobat, g'oyaviy, mafkuraviy kurash ketmoqda! Shunday murakkab bir vaziyatda

haqiqiy ziyolining qo'l qovushtirib, tomoshabin bo'lib o'tirishga haqqi bormi?

Takror aytaman, el-yurt taqdiriga loqaydlik – bu sotqinlikdan ham yomon. Bunday salbiy illatlarga ayniqsa muqaddas ta'lim dargohlarida mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak.

Yuqorida aytilgan muammolarni kompleks hal qilish, xalq ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur, deb hisoblayman.

Birinchidan, biz yillar davomida to'plangan tizimli muammolarni bartaraf etish uchun joriy yilda Xalq ta'limini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini qabul qildik. Unda 48 ta maqsadli ko'rsatkichlarga erishish yuzasidan aniq mexanizmlarni belgilab oldik.

Masalan, 2030-yilga borib o'quvchilar bilimini baholash bo'yicha «PIZA» xalqaro dasturi reytingida jahondagi yetakchi 30 ta mamlakat qatoridan joy egallashni maqsad qilib qo'yganmiz. Barchamiz yaxshi tushunamizki, bu o'z-o'zidan bo'lmaydi.

Dastlabki sinovimiz 2021-yilga to'g'ri keladi. Aynan o'sha yili maktablarimiz o'quvchilarining bilimlari xalqaro ekspertlar tomonidan baholanadi. Biz bunga tayyormizmi?

Ikkinchidan, o'qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni har tomonlama kuchaytiradigan vaqt keldi.

Shu maqsadda «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning yangi tahririni ko'rib chiqib, qabul qilinishini tezlashtirish lozim.

Bir haqiqatni to'g'ri anglab olishimiz kerak – maktab o'qituvchisini moddiy rag'batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, hech qanday islohot haqida gapira olmaymiz.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi, Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi Xalq ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi doirasida ikki oy muddatda 2020-yilda xalq ta'limi xodimlari oylik ish haqini oshirish to'g'risida taklif kiritsin.

Bunda, mahalliy hokimliklar tomonidan olis qishloqlarda joylashgan maktablarga o'qituvchilarni jalb etishni yanada rag'batlantirish uchun ularga uy-joylar, avtotransport uchun kreditlar berish, uning moliyaviy manbalarini belgilash choralari nazarda tutilsin.

Uchinchidan, bugungi holat shundayki, oilada ota-ona o'z bilganicha, bog'cha va maktabda tarbiyachi va o'qituvchilar o'z bilganicha, aniq bir metodikaga tayanmagan holda ta'lim bermoqda. Natijada biz xorijiy tilni yaxshi biladigan, lekin tarbiyasi maromiga yetmagan yoshlarni voyaga yetkazyapmiz.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ta'limda o'zaro uzviy bog'langan yaxlit tizim mavjud emas. Maktabgacha ta'lim – maktab – oliy ta'limdagi o'quv dasturlari, fanlar va ta'lim-tarbiya mexanizmida o'zaro bog'liqlik yo'q, bir-biriga uyg'un emas. Ularning har biri alohida-alohida ajralib, bo'linib turibdi. Aslida barcha muammolar shu yerda yuzaga kelmoqda.

Shuning uchun «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini» ishlab chiqish zarur. Ushbu Konsepsiyada tarbiyaviy jarayonlarning uzluksizligini ta'minlash uchun barcha mas'ul idoralarning vazifalari aniq belgilab qo'yilishi zarur.

Bunda, Prezident Administratsiyasi – tarbiyaning g'oyaviy mohiyati va strategiyasi yo'nalishini belgilashga, Vazirlar Mahkamasini – strategiyaning ijrosini ta'minlash, amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilib borish va moliyalashtirish, mutasaddi vazirlik, idora va hokimliklar – belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishga mas'ul bo'lishlari lozim.

To'rtinchidan, xalq ta'limi tizimida o'quv jarayoniga mutlaqo yangi yondashuvlarni va metodik dasturlarni joriy etish lozim.

Misol uchun, direktorning ma'naviy-ma'rifiy masalalar bo'yicha o'rinbosari maktabdagi butun ma'naviy va tarbiyaviy ishlarga javobgar, lekin uning o'zi tarbiya metodikalaridan xabardormi?

Yoki bo'lmasa, bolalarni tarbiyalash ishlari sinf rahbarlari zimmasiga yuklatilgan, ular esa turli fanlardan tahsil olgan. Ular

qanday qilib tarbiya jarayonini tizimli tashkil etib berishi mumkin, degan haqli savol tug'iladi.

Maktabda bolalarga tarbiya berish maqsadida o'qitilayotgan «Milliy g'oya», «Odobnoma», «Dinlar tarixi», «Vatan tuyg'usi» kabi fanlarni birlashtirgan holda, **yagona «Tarbiya» fanini joriy qilishimiz kerak.**

Xalq ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim vazirligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi bir oy muddatda maktabda tarbiyaviy ishlarni tashkil etadigan yangi professional pedagog tarbiyachilar avlodini tayyorlash bo'yicha taklif kiritsin.

Fojia shundaki, pedagogika institutlari bu tizim bo'yicha domlalar tayyorlamayapti. Pedagoglikka moyilligi bo'lgan yoshlarni maqsadli tarbiyalab borish, ularni maktab davridan seleksiya qilish, keyinchalik oliy o'quv yurtlariga qamrab olish bo'yicha samarali mexanizmni joriy etish zarur.

Beshinchidan, maktablarni chinakam ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish uchun ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash lozim.

Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi bir oy muddatda barcha maktablarda yangi o'quv yilidan boshlab «Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'laylik» shiori ostida «Kitobxonlar klubi», «Yosh tarixchilar uyushmasi», «Teatr va raqs truppassi» singari ijodiy to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'ysin.

Oltinchidan, Vazirlar Mahkamasi, Xalq ta'limi vazirligi, Ma'naviyat va ma'rifat markazi bir oy muddatda maktablarga buyuk alloma, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish masalasini o'rganib, takliflar kiritsin.

Bu nima beradi? O'sha buyuk shaxslarning shonli tarixini chuqur o'rganib, namuna olish va targ'ib qilishga undaydi.

Yettinchidan, so'nggi yillarda maktab ta'limida iste'dodli va salohiyatli yoshlarni tanlab olish, ularni o'qitish va kelgusida mamlakatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shadigan yetuk mutaxassislar qilib tayyorlash uchun ijod maktablarini, Prezident maktablarini tashkil etyapmiz.

Ushbu maktablar faoliyatini yo'lga qo'yish, koordinatsiya qilish, ularning samaradorligini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida alohida tuzilma tashkil etish bo'yicha topshiriq berdim.

Mazkur tuzilma nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda, mamlakatimizning 20–30 yillik istiqbolli taraqqiyotini inobatga olib, «andoza» sifatida ta'lim tizimini rivojlantirish tendensiyalarini belgilashi zarur bo'ladi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Muborak hadislarda **«Ilm olgan ustozingga hamisha ta'zimda bo'l va odob bilan munosabat qil»**, deb muallimlarni ulug'lashga da'vat etilgan.

Haqiqatan ham, xalqimiz o'rtasida ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan. Lekin, afsuski, keyingi yillarda bu boradagi an'analarimiz ham tobora unutilmoqda.

Ayniqsa, ota-onalar tomonidan maktab o'qituvchisi faoliyatiga noo'rin aralashish, ularning dilini og'ritish, haqorat qilish holatlari ko'payib borayotgani hammamizni tashvishga solmoqda.

Vaholanki, o'qituvchi bolaga ko'z nuri va qalb qo'rini berib, ilm-ma'rifat o'rgatadi. Buning uchun rahmat o'rniga ota-onalardan dakki eshitsa, hattoki izza qilinsa, o'zingiz ayting, bunday muhitda ustozlarning hurmati qoladimi?

Ta'lim-tarbiya eng avvalo oiladan boshlanishi barchamizga yaxshi ma'lum. Bola oilada uyini, bog'cha va maktabda esa vatanini taniydi.

Shuning uchun biz oiladagi ta'lim-tarbiya haqida o'ta jiddiy bosh qotirishimiz lozim. **«Qars ikki qo'ldan chiqadi»**, deganlaridek,

o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida faol muloqot, samimiy ruhdagi munosabatlarni o'rnatishimiz kerak. Ota-onalar maktab o'qituvchisini qo'llab-quvvatlashi va farzand tarbiyasida ustozlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritishlari lozim.

Xalq ta'limi vazirligi, Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Respublika mahallalar kengashi, «Oila» ilmiy-amaliy markazi, «Nuroni» jamg'armasi bir oy muddatda «Oila – mahalla – maktab» hamkorlik tizimini kuchaytirish, jumladan, ota-onalarni o'z farzandi tarbiyasi bilan shug'ullanishiga qaratilgan ta'sirchan chora-tadbirlar dasturini tayyorlashi lozim.

Men muallimlarning jamiyatimizdagi obro'sini oshirish haqida ko'p o'ylayman. Chunki o'zim ko'p yillar oliygohda domla bo'lib ishlaganim uchun bu sohaning qanchalik qiyin va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman.

Albatta, bu borada moddiy qo'llab-quvvatlash muhim, lekin bu kasbning obro'sini faqat o'qituvchining o'zi fidokorona mehnati, o'z ustida tinimsiz ishlashi, boshqalarga o'mak bo'lishi bilan oshira oladi.

Biz endi jamiyatimizda o'qituvchilarni sizlab, ularning sha'ni va hurmatini boshimizga ko'taradigan, ularni tom ma'noda kelajak bunyodkorlari, deb ulug'laydigan muhitni yaratishimiz zarur.

Biz yosh paytimizda taniqli adib Parida Tursunning «O'qituvchi» degan romani bo'lardi. Men shu asarni juda qiziqib o'qiganman. Bosh qahramon – fidoyi muallim Elmurod obrazi meni hayajonga solgan.

Buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning «Birinchi muallim» qissasi ham yaxshi ko'rgan asarlarim qatoriga kiradi.

Lekin, savol tug'iladi – nima uchun barchamizga ta'lim-tarbiya berib, bizning kamol topishimiz uchun o'zini ayamadan fidoyilik ko'rsatgan mo'tabar zot – aziz o'qituvchi va ustozlar haqida bugun ana shunday asarlar, film va spektakllar yaratilmayapti?

Agar hozirgi maktablarimiz hayoti haqida bitta zo'r badiiy asar yoki film ishlansa, jamiyatning ong-u tafakkurini o'zgartirishga kuchli ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Shuning uchun hurmatli shoir-adiblarimiz, rejissor va aktyorlarimiz maktab mavzusida yaxshiyaxshi asarlar yaratishlarini istar edik.

Madaniyat vazirligi, «O'zbekkino» milliy agentligi, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi, Milliy teleradiokompaniya tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda maktab o'qituvchisining jamiyatdagi obro'-e'tiborini, ustozlarga hurmat-ehtirom hissini oshirish maqsadida yangi badiiy filmlar, spektakl, video va audio roliklarni yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilasin.

«Madaniyat va ma'rifat» telekanali o'qituvchi va ustozlar faoliyatini keng yoritadigan, har bir viloyat, shahar va tuman hokimi va o'rinbosarlarining ta'lim-tarbiya masalalari bo'yicha ishlarini xalqqa yetkazadigan telekanal bo'lishi kerak.

Nuroniylarimiz, yoshi ulug' keksalarimiz har uch-to'rt oyda bir marotaba maktabga borib, o'zlarining boy hayot yo'li va ibratli tajribasi, amaliy bilim va ko'nikmalarini yoshlarga o'rgatsa, bu har qanday saboqdan ko'ra foydaliroq bo'ladi.

Shiddat bilan o'zgarayotgan zamon oldimizga yangi, biz ilgari duch kelmagan muammolarni, juda o'tkir savollarni ko'ndalang qo'yimoqda. Ularga munosib javob topish va oqilona yechish uchun har jihatdan tayyor bo'lishimiz kerak.

Iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilib, tadbirkorlik va xususiy mulkka keng yo'l ochib, moddiy hayotimiz poydevorini mustahkamlayapmiz. Ayni vaqtda ma'naviyat va ma'rifat masalasini biz biron kun, biron soat esimizdan chiqarmasligimiz kerak.

Biz moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligi tamoyilini qattiq ushlaymiz kerak. Maktab bu borada hal qiluvchi asosiy bo'g'in bo'lib xizmat qilishi lozim.

Men buyuk shoirimiz Cho'loning she'riy satrlari bilan sizlarga, butun el-yurtimizga murojaat qilmoqchiman: **«Butun kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik».**

Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur.

Men ana shu ezgu maqsad yo'lida barchangizni bir yoqadan bosh chiqarib, belimizni mahkam bog'lab, vijdonan mehnat qilishga chaqiraman. Shundagina biz xalqimizning ezgu orzusi bo'lgan milliy g'oyamizni amalga oshirishga – milliy yuksalishga erisha olamiz.

*Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish,
pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi
nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini
yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan
videoselektor yig'ilishidagi nutq*

2019-yil 23-avgust

MILLIY O'ZLIGIMIZ VA MUSTAQIL DAVLATCHILIGIMIZ TIMSOLI

Assalomu alaykum, muhtaram yurtdoshlar!

Aziz do'stlar!

Avvalambor, mana shu quvonchli ayyomda barchangizni azim poytaxtimizning markazida barpo etilgan, kuni kecha ishga tushirilgan muhtasham va ulug'vor koshonada xush kayfiyatda ko'rib, qutlab turganimdan g'oyatda baxtiyorman.

Siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni tarixiy sana – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligi bilan samimiy muborakbod etaman.

Ma'lumki, O'zbekistonning zamonaviy qiyofasini yaqqol namoyon etadigan yangi bino va imoratlar bugun barcha shahar va viloyatlarimizda ko'plab qad ko'tarmoqda. Albatta, ularning orasida «Toshkent-Siti» ishbilarmonlik markazi alohida ajralib turadi.

Guvoh bo'lib turganingizdek, «Toshkent-Siti» markazi o'zining me'moriy qiyofasida shaharsozlik san'atining eng so'nggi yutuqlarini, arxitektura, muhandislik va dizaynerlik borasidagi noyob va ulkan salohiyatni yaqqol mujassam etadi.

Maydoni 80 gektardan iborat ushbu markazni qurishdan asosiy maqsad – zamonaviy, «aqli shahar» barpo etish, xalqaro, xorijiy va mahalliy bank-moliya tuzilmalari va investorlar uchun jonajon Vatanimiz, birinchi navbatda, go'zal poytaxtimiz jozibadorligini oshirishdan iborat.

Biz O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasini izchil amalga oshirayotganimizdan xalqimiz va xalqaro hamjamiyat yaxshi xabardor, albatta. «Toshkent-Siti» markazini barpo etish g'oyasi ham aynan o'sha strategiya bilan bir paytda tug'ilgan edi. O'zbekis-

ton tajribasida birinchi bo'lgan shunday katta miqyosdagi va noyob loyihani amalga oshirish uchun ko'p narsani yangitdan o'rganishimiz, tinimsiz izlanishga to'g'ri keldi.

Qurilish maydoni 1 million 600 ming kvadrat metrga teng bo'lgan yangi markazning 30 foizini uy-joylar, 30 foizini ofislar uchun binolar, yana 30 foizini savdo majmualari, 10 foizini mehmonxonalar fondi tashkil etadi.

Barchangiz ko'rib turibsiz, bugun bu hududda ulkan bunyodkorlik ishlari jadal davom etmoqda. Nasib etsa, 2021-yilda qurilish ishlari to'liq yakunlanib, ushbu markaz xalqimizga va poytaxtimiz mehmonlariga xizmat qilishni boshlaydi.

Qisqacha aytganda, «Toshkent-Siti» markazi O'zbekistonda qurilish va arxitektura sohasida taraqqiyotning yangi davri boshlangani, bu sohada biz ko'p narsaga qodir ekanimizni ko'rsatadi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston o'zining ochiq va konstruktiv siyosati bilan mintaqamizdagi yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylanib bormoqda. Jahondagi nufuzli xalqaro tashkilot va tuzilmalar, moliyaviy institutlar, ishbilarmon doiralar tomonidan O'zbekistonda qator tadbirlar, anjuman va uchrashuvlar o'tkazilmoqda. Tabiiyki, kelgusida bu jarayonlar yanada kuchayadi, O'zbekiston yana ko'plab yirik xalqaro sammitlar, forum va simpoziumlarga mezbonlik qiladi.

Shu ma'noda, ushbu muhtasham majmua nafaqat davlatimiz, balki xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yangi g'oya va tashabbuslar tug'iladigan, muhim tarixiy hujjatlar qabul qilinadigan maskanga aylanadi, deb ishonamiz.

Fursatdan foydalanib, mana shunday muazzam saroyning bunyodkorlariga – mohir me'mor va loyihachilarga, ishchi-muhandislarga, chet ellik mutaxassislarga, barcha ishtirokchilarga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorchilik bildiraman.

Hurmatli do'stlar!

Mamlakatimizda yaratilayotgan yangi tarix, yangi taraqqiyot davrining, xalqimiz bunyodkorlik salohiyatining amaliy ifodasi bo'lmish mana shu betakror majmuada birinchi bo'lib ona tilimizga –

davlat tiliga bag'ishlangan tantanali marosimni o'tkazayotganimiz bejiz emas.

Bugun ushbu muhtasham majmuaga dastlabki aziz mehmonlar sifatida tashrif buyurgan siz, qadrli yurtdoshlarimizni, muhtaram faxriylarimizni, ona tilimizning jonkuyari bo'lgan ziyolilarimizni, deputat va senatorlarimiz, faol yoshlarimizni, diplomatik korpus vakillarini chin qalbimdan tabriklash menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Bu muazzam koshona barchamizga, butun xalqimizga muborak bo'lsin! Xush kelibsiz, aziz do'stlar!

Qadrli vatandoshlar!

Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz tim-soli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir.

Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshit-sin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin.

Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar. Shu tilda buyuk madaniyat namunalarini, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar.

O'tmishda o'lkamizni bosib olgan turli yovuz kuchlar bizni avvalo o'z tilimizdan, tariximiz va madaniyatimizdan, din-u diyonatimizdan judo qilishga qayta-qayta urindilar. Ular el-yurtimiz boshiga qanday azob-uqubatlar, kulfat va musibatlar solgani tarixdan yaxshi ma'lum.

Ammo jasur va matonatli xalqimiz har qanday og'ir sinovlarda ham o'z ozodligi va istiqloli uchun mardona kurashdi. Bu yo'lda behisob qurbonlar berdi. Har qanday zulm va zo'rvonliklarga qaramasdan, o'z ona tilini – milliy g'ururini saqlab qoldi. Nafaqat saqlab qoldi,

balki uni har tomonlama rivojlantirib, bugungi avlodlarga bezavol yetkazib berdi.

Bu borada ma'naviy jasorat va fidoyilik ko'rsatgan buyuk arboblارimiz, adib va olimlarimiz, ulamolarimiz, ulug' san'atkorlarimizning xotirasini bugun hurmat va ehtirom bilan yod etamiz.

Ushbu qutlug' ayyomni bayram qilar ekanmiz, avvalo, 1989-yil 21-oktabr sanasini – «Davlat tili haqida»gi qonun qabul qilingan kunni eslashimiz o'rinlidir.

Yurtimizda mustabid tuzum hali o'z hukmini o'tkazib turgan g'oyat og'ir sharoitda xalqimizning taqdiri va kelajagini hal qiladigan bu qonunni qabul qilish biz uchun oson kechmagan edi.

Qonun loyihasi ikki marta umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi. Uning atrofida qanday qizg'in bahs va tortishuvlar bo'lib o'tganini, o'ylaymanki, ko'pchilik yurtdoshlarimiz juda yaxshi eslaydi. Shaxsan men ham o'shanda bu tarixiy jarayonlarning bevosita guvohi va ishtirokchisi bo'lganman.

Bu muhim hujjatning qabul qilinishida fidoyi va vatanparvar ziyolilarimiz, keng jamoatchilikning qat'iy shijoati hamda Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovning siyosiy irodasi katta o'rin tutdi.

O'zbek tili davlat tili sifatida xalqimizni birlashtiradigan, jamiyatimizni ulug' maqsadlar sari safarbar etadigan qudratli kuch bo'lib maydonga chiqdi. Ayni vaqtda u O'zbekistonning davlat mustaqilligi sari qo'yilgan birinchi dadil qadam edi.

Bu qonun xalqimizning o'z taqdirini o'zi belgilash yo'lidagi azm-u qarorining yorqin namoyoni bo'ldi. Oradan ikki yil o'tib, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi aynan ona tilimizda jahonga e'lon qilindi.

Mamlakatimizning Asosiy qonuni – Konstitutsiyamizning o'zbek tilida yaratilishi uning nufuzini yanada yuksaltirdi.

Yurtimiz bo'ylab va xalqaro maydonlarda ona tilimizda yangrayotgan Davlat madhiyasi ham qalblarimizda Vatan tuyg'usini jo'sh urdiradi.

O'zbek tili o'tgan yillar davomida mamlakatimizdagi yuzdan ortiq millat va elat vakillarini o'zaro bog'laydigan mehr-oqibat tiliga aylandi.

Bundan besh asr muqaddam hazrat Alisher Navoiy:

**Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam, –**

deb yozgan edi. Ya'ni, ul zot ona tili bayrog'ini baland ko'tarib, butun el-ulusni, yurtlarni shu bayroq ostida birlashtirdim, deb iftixor qilgan.

Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma'naviyatining mustahkam poydevoridir. Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, **«har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir».**

Shu ma'noda, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallashni maqsad qilib qo'ygan har qaysi davlat avvalo o'z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi.

Mustaqillik yillarida ona tilimizni tom ma'noda davlat tiliga aylantirish yo'lida katta chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu o'rinda bir fikrga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Hozirgi kunda Yer yuzida 7 mingdan ziyod til mavjud bo'lsa, ularning faqat 200 ga yaqini davlat tili yoki rasmiy til maqomiga ega. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o'zbek tiliga davlat tili maqomini huquqiy jihatdan muhrlab bergan mazkur qonunning xalqimiz hayotidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Bu tarixiy voqeadan so'ng lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish haqida yana bir muhim qonun qabul qilindi.

Hurmatli vatandoshlar!

Bugun jonajon O'zbekistonimiz **«Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari»** degan ustuvor g'oya asosida o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda. Barcha sohalar bilan birga davlat tilining jamiyatdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar qilinmoqda.

Hozirgi kunda o'zbek tili davlat tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda faol qo'llanmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda.

Davlatimiz tomonidan ma'naviy hayotimizni yanada rivojlantirish, jumladan, ta'lim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan o'nlab farmon va qarorlar o'zbek tili ravnaqiga bevosita xizmat qilmoqda.

Bu haqda gapirganda, keyingi yillarda ona tilimizda faoliyat yuritadigan yuzlab bog'chalar, maktablar, oliy o'quv yurtlari, yangi gazeta va jurnallar, tele-radio kanallar, nashriyotlar, madaniy-ma'rifiy muassasalar, kutubxonalar tashkil etilayotganini qayd etish lozim.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu yerda folklorshunoslik, dialektologiya, turkologiya, matnshunoslik kabi yo'nalishlar ochildi.

Bu borada yangi o'quv dasturlari yaratilayotgani, darslik va qo'llanmalar, risola va monografiyalar nashr etilayotgani, ilmiy anjumanlar, ommaviy axborot vositalarida o'zbek tilining buguni va istiqboli haqida amaliy taklif va tashabbuslar bildirilayotgani g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Xabaringiz bor, azim poytaxtimiz markazidagi Milliy bog' hududida Adiblar xiyoboni bunyod qilinmoqda. Bu go'zal maskanda barpo etilayotgan yodgorlik majmualari adabiyotimizning buyuk namoyandalari, o'zbek tilining chinakam jonkuyarlari xotirasiga bag'ishlangani ayniqsa e'tiborlidir.

Ona tilimiz va milliy adabiyotimizni ulug'lash, uning boy xazinasi, tarovati va nafosatini yosh avlodimizga yetkazish maqsadida yurtimizda atoqli shoir va adiblarimiz nomlaridagi ijod maktablarini tashkil etdik. Muhammad Rizo Ogahiy, Is'hoqxon Ibrat, Abdulla Qodiriy, Hamid Olimjon va Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla

Oripov, Ibroyim Yusupov, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablarida eng avvalo o'zbek tili va adabiyotini, badiiy ijod sirlarini chuqur o'rganish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Hozirgi vaqtda o'zbek tilida so'zlashuvchilar soni jahon miqyosida 50 million kishiga yaqinlashib qoldi. Bu ona tilimizning dunyodagi yirik tillardan biriga aylanib borayotganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora yuksalib borayotgan O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimiz ham katta hissa qo'shmoqda.

O'zbek tili Amerika Qo'shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Shvetsiya, Rossiya, Ukraina, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Afg'oniston, Ozarbayjon, Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston kabi davlatlarning 60 ga yaqin universiteti va 100 dan ziyod maktabida o'rganilmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan chet ellik olim va tadqiqotchilar soni yil sayin ko'paymoqda.

Shu borada mamlakatimizning xorijdagi elchixonalar va diplomatik vakolatxonalar qoshida «**O'zbek tilining do'stlari**» klublari tashkil etilayotganini biz har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz.

Fursatdan foydalanib, bugungi quvonchimizga sherik bo'layotgan chet davlatlarning muhtaram elchilariga, xalqaro tashkilotlar vakillariga ularning yurtlarida o'zbek tiliga ko'rsatilayotgan hurmat va e'tibor uchun tashakkur izhor etaman. Ayniqsa, O'zbekistondagi xizmat faoliyati davomida o'zbek tilini o'rganib, faol mu-loqot qilayotgan xorijiy diplomatlarga alohida minnatdorchilik bildirmoqchiman.

Sizlarga yaxshi ma'lum, yaqinda O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo bo'ldi. Bu, o'z navbatida, nafaqat o'zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, balki turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilining xalqaro maqomini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Kengash sammitida bildirgan tashabbuslarimiz, xususan, qardosh xalqlar adabiyotining eng sara namunalari mujassam

bo'lgan yuz jildlik «**Turkiy adabiyot xazinasi**» kitoblar turkumini a'zo davlatlarning ona tillarida nashr etish taklifimiz ijobiy qabul qilindi.

Aziz do'stlar!

Davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida bugun mamlakatimizda yana bir muhim qadam qo'ydik. Men bugun «**O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida**»gi farmonga imzo chekdim. Unga binoan «Davlat tili haqida»gi qonun qabul qilingan kunning ulkan tarixiy o'rni va ahamiyatidan kelib chiqqan holda, 21-oktabr sanasi yurtimizda «**O'zbek tili bayrami kuni**» deb belgilandi.

O'ylaymanki, o'zbek tili bayramining mamlakatimiz va xalqaro miqyosda keng nishonlanishi xalqimizning milliy ruhi va g'ururini yuksaltirish bilan birga, davlat tilini hayotimizda to'laqonli joriy etishga xizmat qiladi.

Ushbu farmonda ona tilimizning kelgusi taraqqiyotiga oid ko'plab masalalar qatorida **Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish bo'yicha alohida tuzilma** tashkil etilganini ham sizlarga ma'lum qilmoqchiman.

Bu tuzilma davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishini, sohaga oid muammolarni tahlil etib, bu borada yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Ayni paytda dunyoda ilm-fan va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib, mamlakatimizning xalqaro hamkorlik aloqalari tobora kengaymoqda. Natijada hayotimizga chetdan ko'plab yangi tushuncha, so'z va iboralar kirib kelmoqda.

Globalashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi.

To'g'risini aytish kerak, bu masalada ham oqsoqligimiz bor edi. Shu munosabat bilan farmonda yangi so'z va atamalarni rasmiy

iste'molga kiritish borasidagi ishlarni tartibga soladigan **Atamalar komissiyasini** tuzish masalasini ham nazarda tutdik.

Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir.

Davlat tiliga bo'lgan doimiy e'tibor va g'amxo'rlik mamlakatimizda bundan buyon ham izchil davom ettiriladi.

Qadrli yurtdoshlar!

Ma'lumki, Vatanimiz necha yuz yillar mobaynida buyuk sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Qadimdan diyorimizda xalqimiz bilan birga turli millat vakillari yelkadosh, ahil va hamjihat bo'lib, tinch va osoyishta muhitda yashab keladilar.

O'z tilini hurmat qilgan ma'rifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi. O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosati tufayli, hozirda yurtimizda yagona oila bo'lib yashayotgan 130 dan ziyod millat va elat vakillariga o'z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun hamma shart-sharoitlar yaratilmoqda. Toshkent shahri va joylarda faoliyat ko'rsatayotgan 140 ga yaqin milliy madaniy markaz ayni shu maqsadga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy hodisa sifatida e'tirof etilmoqda.

Dono xalqimiz «**Til bilgan – el biladi**», deydi. Bu borada buyuk bobolarimiz ibrat va namuna ko'rsatganlar. Xususan, Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy kabi ulug' ajdodlarimiz o'nlab tillarni puxta bilganlari uchun ham jahon ilmfanining yuksak cho'qqilarini zabt etganlar.

Bugungi kunda yurtimizdagi ta'lim maskanlarida ingliz, rus, nemis, fransuz, ispan, italyan, arab, fors, turk, xitoy, yapon, koreys, hind va urdu tillari chuqur o'qitilayotgani bu an'analar davom etayotganining yorqin ifodasidir.

Biz yoshlarimizning jahon tillarini egallashga bo'lgan ulkan qiziqish va intilishlarini har doim qo'llab-quvvatlaymiz.

Men bugun aziz bolalarimizga murojaat qilib, ulug' alloma, XX asr boshida olti tilli – o'zbek, arab, fors, hind, turk va rus tillarida lug'at tuzgan Is'hoqxon Ibratning mana bu hikmatli so'zlarini eslatmoqchiman: **«Bizning yoshlar albatta boshqa tilni bilish uchun sa'y-harakat qilsinlar, lekin avval o'z ona tilini ko'zlariga to'tiyo qilib, ehtirom ko'rsatsinlar. Zero, o'z tiliga sadoqat – bu vataniy ishdir».**

O'ylaymanki, bu so'zlarga ortiqcha izohning hojati yo'q.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va mavqeyini yanada oshirish bo'yicha oldimizda o'ta muhim va dolzarb vazifalar turibdi.

Avvalo, bundan o'ttiz yil muqaddam qabul qilingan «Davlat tili haqida»gi qonunni bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan har tomonlama chuqur tahlil qilib, takomillashtirish zarurati sezilmoqda.

Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq.

O'zbek tilining qo'llanish doirasini kengaytirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millatlarga mansub vatandoshlarimizning davlat tilini o'rganishlari uchun tegishli sharoit yaratib berish, yurtimizda va xorijda o'zbek tilini o'rgatadigan o'quv markazlarini ko'paytirish zarur.

Shu maqsadda yangi darsliklar, qiyosiy va turli sohalarga oid lug'atlar, ish yuritish va so'zlashuv qo'llanmalari nashr etish, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini takomillashtirish, bu tizimga to'liq o'tish bo'yicha hali ko'p ish qilishimiz kerak.

Shuningdek, o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar

samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog'imiz zarur. Bu ishlar uchun moliyaviy resurslar va mablag'larni aslo ayamasligimiz kerak.

O'zining bebaho asarlari bilan ona tilimizning qadrini va qaddini tiklagan buyuk mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiy hayoti va ijodining mukammal ensiklopediyasini yaratish ham oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Ayni paytda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz turli ma'lumotlarni asosan Internet va ijtimoiy tarmoqlardan olmoqda. Binobarin, ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak. Internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, o'zbek tilini keng targ'ib etish bo'yicha ishlarimizni kuchaytirishimiz lozim.

Davlat tili masalasi milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi zarur. Yosh avlod qalbiga ona tilimizni bolalikdan singdirish maqsadida ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tilini zamonaviy va innovatsion texnologiyalar asosida mukammal o'rgatishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Toki, bolalarimiz o'zbek tilida ravon o'qiydigan, ravon yozadigan va teran fikrlaydigan insonlar bo'lib yetishsin.

Jamiyatimizda til bilan bog'liq eng ko'p muhokama qilinayotgan, haqli e'tirozlarga sabab bo'layotgan mavzu – bu joy nomlarini belgilash masalasi, desak, xato bo'lmaydi.

Afsuski, jamoat joylarida, ko'chalarda, binolar peshtoqida toponimik belgilar, turli lavha va reklamalar ko'pincha xorijiy tillarda, ma'naviyatimizga yot mazmun va shakllarda aks ettirilmoqda. Bu davlat tili talablariga, milliy madaniyat va qadriyatlarimizga bepisandlikdan, umumiy savodxonlik darajasi esa tushib ketayotganidan dalolat beradi.

Shu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasi Atamalar komissiyasi bilan birgalikda ushbu masalalarni keng jamoatchilik ishtirokida

jiddiy o'rganib chiqishi va tartibga solishi zarur. Chunki ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu – barchamizning vatanparvarlik va ma'naviy saviyamizni yaqqol ko'rsatadigan o'ziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmasligi kerak.

Biz xalqimizning taqdiri, ertangi kuni haqida o'ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asl fazilatlarini, go'zal urf-odatlarimiz, betakror san'atimiz va adabiyotimizni, ona tilimizni ko'z qorachig'iday saqlashimiz zarur.

Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat, deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim.

Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

Muhtaram vatandoshlar!

Sizlarni va butun xalqimizni o'zbek tili bayrami bilan yana bir bor chin qalbimdan tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilalaringizga fayz-u baraka, baxt-u saodat tilayman.

O'zbek tili – ona tilimizning nufuzi, obro'-e'tibori yanada ziyoda bo'lsin!

Shunday bebaho boylik sohibi bo'lgan, uni hamisha asrab-avaylab kelayotgan aziz xalqimiz omon bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining
o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali
marosimdagi nutq*

2019-yil 21-oktabr

YANGI FIKR, YANGI G'UYAGA, INNOVATSIYAGA TAYANGAN DAVLATGINA YUKSAK TARAQQIYOTGA ERISHADI

Assalomu alaykum, hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!
Qadrli yoshlar!

Bugun sizlar bilan ulug' alloma bobomiz Muhammad Xorazmiy nomidagi ixtisoslashgan muhtasham maktabda ko'rishib turganimdan juda baxtiyorman.

Uchrashuvimiz aynan ushbu bilim dargohida o'tayotganida o'ziga xos ramziy ma'no bor.

Ahamiyat bergan bo'lsangiz, bu go'zal binoga qadam qo'yishi bilan har bir inson o'zida tabiiy bir jo'shqinlikni sezadi.

Men yoshlar bilan bo'ladigan har qanday uchrashuv va jonli muloqotlardan cheksiz kuch-quvvat va ko'tarinki ruh olaman.

Yodingizda bo'lsa, sizlar bilan tez-tez uchrashib, qilayotgan ishlarimiz haqida, kelgusi rejalarimiz haqida atroflicha maslahatlashib turishga kelishgan edik. To'g'risi, bunday samimiy va ochiq suhbatlarga ko'p rahbarlar odatda vaqt topa olmaydi. Ammo yoshlarning dilidagi maqsad va niyatlaridan xabardor bo'lish, ularni katta-katta ishlarga safarbar etish uchun ana shunday uchrashuvlar juda zarur.

Bizning bosh maqsadimiz – yangi O'zbekistonni barpo etishdan iborat. Ammo uni yoshlarsiz qurib bo'lmasligini ham yaxshi tushunamiz. O'sib kelayotgan yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularni el-yurtimizning fidoyi farzandlari etib tarbiyalash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Biz o'tgan uch yilda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash bo'yicha 43 ta qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarni qabul qildik. 70 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Ushbu yo'nalishdagi vakolatli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi tuzildi.

Yoshlarning yangi tashkiloti – O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilib, yurtimizda 30-iyun – Yoshlar kuni deb e'lon qilindi.

Bugungi kunda Ittifoqning 23 mingdan ziyod boshlang'ich tashkiloti mavjud bo'lib, 7 million 690 ming nafar yoshlarni birlashtirib kelmoqda.

Faol, iste'dodli va izlanuvchan yoshlarning 8 nafari joylarda hokim o'rinbosari etib tayinlandi. 700 ga yaqin yigit-qizlarimiz Ittifoq tizimida yuqori lavozimlarga ko'tarildi.

Davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida jonbozlik ko'rsatib, mamlakatimizning xalqaro obro'-e'tiborini yuksaltirishga hissa qo'shayotgan 84 nafar yigit-qiz «Mard o'g'lon» davlat mukofoti va «Kelajak bunyodkori» medali bilan taqdirlandi.

Ishonsa arziydigan, suyansa tog' bo'ladigan, jahon ayvonida mag'rur turadigan yoshlar bizga qanday katta kuch va qudrat bag'ishlashini bir tasavvur eting!

Biz «**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!**» degan ulug'vor g'oya yo'lidan ishonch bilan olg'a boryapmiz. Lekin barcha yoshlarimizni ham ana shu ezgu g'oya atrofida birlashtira olayapmizmi, degan haqli savol tug'iladi.

Afsuski, hozircha bunga ijobiy javob berishimiz juda qiyin, deb o'ylayman.

Barchamizga ma'lum, inson o'z taqdirini o'z qo'li, mehnati va qobiliyati, tinimsiz sa'y-harakati va sabr-toqati bilan yaratadi. Shu ma'noda, bugungi yoshlarimiz davrdan ortda qolmasligi, doimo zamondan bir qadam ilgari qadam tashlashi kerak.

Yaqinda bo'lib o'tgan parlament va mahalliy kengashlarga o'tkazilgan saylovlarda yoshlarimiz faol ishtirok etganini alohida ta'kidlashni istar edim.

Saylovchilarning 56 foizini yoshlar tashkil qilgan bo'lsa, ularning 2 milliondan ortig'i birinchi marta ovoz berish jarayonlarida qatnashdi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga 9 nafar yoshlar saylangan bo'lsa, mahalliy kengashlarda g'alaba qozonganlarning qariyb 10 foizini yoshlar tashkil etgani juda katta yutuqdir. Shunday emasmi?

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Bugun barcha sohalarda bilimli, siyosiy va ijtimoiy faol, xalq manfaatini o'z shaxsiy manfaatidan ustun qo'yadigan, halol va jonkuyar, yosh rahbarlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Biz dunyoqarashi keng, kreativ fikrlaydigan, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qila oladigan yoshlarni mas'uliyatli vazifalarga tayinlayapmiz. Ammo mamlakatimizda yosh rahbarlarni saralaydigan, ularning layoqatiga mos lavozimlarni taklif etadigan samarali mexanizm mavjud emas. Rahbarlik lavozimlariga har tomonlama munosib, tashabbuskor, menga tayanch va suyanch bo'la oladigan yoshlardan «**Vatan iftixorlari**» institutini joriy etsak, sizlar nima deysizlar?

Bu institutning asosiy vazifasi islohotlarimiz va katta rejalarimizni Vatanimiz yoshlariga yetkazish, joylardagi muammolarni olib chiqish va ularni hal qilishdan iborat.

Sizlarning orangizda «Men Sizning yoningizda turib, kamarbasta bo'laman!» deb ko'zi yonib turgan, jasoratli, iftixor qilsa arziydigan yigit-qizlar borligiga ishonaman!

Yetakchilikning, o'z ortidan ergashtirishning eng to'g'ri yo'li – bu shaxsiy o'rnak va namuna bo'lishdir. Shu nuqtayi nazardan «Vatan iftixorlari» mamlakatimizning barcha yoshlariga ibrat bo'lib, islohotlarni amalga oshirishda haqiqiy jonbozlik ko'rsatishiga ishonaman.

Bugungi kunda global maydonda kechayotgan tahlikali jarayonlarga nisbatan faqat mustaqil va qat'iy yondashuvga ega bo'lgan, ma'naviy va jismoniy barkamol yoshlarga qarshi tura oladi.

Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Fitrat «**Bu dunyo kurash maydonidir. Sog'lom tan, o'tkir aql va yaxshi axloq bu maydon qurolidir**», deb aytganlarida ming karra haq edilar.

Internet va yuqori texnologiyalar tufayli dunyoda madaniyatlar va davlatlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib bormoqda.

Hozir internet tarmoqlarida 60 mingdan ortiq buzg'unchilik, zo'ravonlik va axloqsizlikni, «ommaviy madaniyat»ni targ'ib etadigan saytlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ana shunday keskin va murakkab axborot xurujlari va xavf-xatarlarga biz qanday qarshi tura olamiz? Yoshlarga internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qanday ma'naviy va ruhiy ozuqa beryapmiz?

Afsuski, hech birimiz bunga ijobiy javob bera olmaymiz.

Yoshlarda yot g'oyalarga nisbatan ma'naviy immunitet shakllanmas ekan, «bu – yaxshi, bu – yomon» degan qat'iy fikr paydo bo'lmas ekan, mafkuraviy xatarlarga qarshi turish qiyin bo'ladi.

Meni jiddiy o'ylantiradigan yana bir muhim masala bor. Bu – yoshlarimizning xulq-atvori, yurish-turishi, ularning tarbiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Xalqimizda «**Yaxshi bola yurt tuzar, yomoni elni buzar**» degan ma'noli gap bor. Bugungi shiddatli o'zgarishlarni hammadan ko'proq his etadigan farzandlarimiz zamon talablariga uyg'un bo'lish bilan birga, o'zligini, milliy qadriyatlarini ham hech qachon unutmasligi kerak.

Biz nima uchun buyuk ajdodlarimizning boy tarixi va madaniyatini o'rganish, qutlug' qadamjolarini obod qilish ishlariga katta e'tibor qaratyapmiz?

Nima uchun Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro tadqiqot markazlarini ochdik? Nima cababdan Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etdik?

Bulardan ko'zlangan asosiy maqsadimiz shuki, yoshlarimiz qanday ulug' zotlarning avlodi ekanini har qadamda chuqur his etsin va faxrlansin, doimo ularga munosib bo'lsin.

Albatta, tarbiya o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun chuqur bilim, tinimsiz izlanish va mashaqqatli mehnat kerak.

Bugungi tarbiya bu – innovatsiya, yangicha ong, yangicha tafakkur va amaliy harakat, demakdir.

Yoshlar tarbiyasini to'g'ri va ilmiy asosda yo'lga qo'ymasdan turib, xotirjam bo'lishga hech kimning haqqi yo'q. Chunki, bu masala biz uchun hayot-mamot masalasidir. Buni chuqur anglagan holda yangi o'quv yilidan boshlab, barcha maktablarda alohida tarbiya darslari kiritilmoqda.

Bugun qalbimizga og'riq soladigan, menga hech tinchlik bermaydigan yana bir muammo haqida to'xtalib o'tmoqchiman.

Yosh oilalar o'rtasidagi ajralishlar masalasi kun sayin dolzarb tus olmoqda. Bu noxush holat asrlar davomida qaror topgan milliy qadriyatlarimizga, yuksak ma'naviyatimizga sira to'g'ri kelmaydi.

Misol uchun, 2019-yilning 11 oyi davomida mamlakatimizda 277 ming 420 ta nikoh qayd etilgan. Biroq 28 ming 755 ta oila, asosan yoshlar o'rtasida ajralishlar yuz bergani juda achinarlidir.

Bular shunchaki oddiy ko'rsatkichlar emas. Har bir raqam ortida qanchadan qancha oilalar fojiasi, ota-onalar iztirobi, tirik yetim bo'lib qolayotgan farzandlar taqdiri yotibdi.

«Oila – muqaddas» degan ezgu g'oya yo'qolib, azaliy qadriyatlarimiz zavol topib borar ekan, bu kabi ko'ngilsiz holatlarni kamaytirib bo'lmaydi.

Yoshlarning bunga qarshi o'z so'zi va pozitsiyasi, mustahkam ovozi bo'lishi kerak. O'zlarining tizimli va asoslangan fikr-mulohazasi bilan bu muammoning oldini olishlari lozim.

Xo'sh, biz bu holatga qarshi qanday aniq choralar ko'ryapmiz?

Xotin-qizlar qo'mitasi, «Oila» ilmiy markazi, «Mahalla» kengashi, «Nuroni» tashkiloti va Yoshlar ittifoqi oilaviy qo'ydi-chiqdilarni kamaytirish uchun qanday samarali choralar qo'llayapti?

Bu tashkilotlar o'rtasida amaliy hamkorlik mexanizmi va umumiy natijadorlik bormi o'zi? Mahalla raislari va xotin-qizlar qo'lida bu masala bo'yicha biror ilmiy asoslangan qo'llanma yoki tavsiya mavjudmi, degan savol tug'iladi.

Yurtimizning chekka qishloqlarida yoshlarni, ayniqsa, qizlarimizni qiynayotgan muammolar yechimi borasidagi biror jo'yali tashabbus ko'zga tashlanmayapti.

Shu ma'noda, men namunali yosh oilalarni, u shaharda yashaydimi yoki uzoq qishloqda yashaydimi, butun xalqimizga o'mak qilib ko'rsatishga qaratilgan «Yilning namunali yosh oilasi» respublika tanlovini 2020-yildan boshlab muntazam o'tkazishni taklif qilaman. Sizlar nima deysizlar?!

Bu ishlarda O'zbekiston yoshlar ittifoqi bilan birga Xotin-qizlar qo'mitasi, «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda hokimliklar faol ishtirok etishi zarur.

Shuningdek, yosh oilalar o'rtasida ajralishlarning oldini olish maqsadida Xotin-qizlar qo'mitasi, «Oila» markazi, Respublika mahallalar kengashi, «Nuroniylar» faxriylaridan iborat «Faxriylar ibrati» maslahat kengashi faoliyatini samarali yo'lga qo'yishni taklif etaman. Bu kengash mahallalardagi yarashtirish komissiyalari hal qila olmayotgan muammoni sudga chiqarishdan oldin yangi ta'sirchan bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

Kengash tarkibiga kiradigan yetakchi mutaxassislar, ko'pni ko'rgan, nuroniy otaxon va onaxonlarimiz, olijanob insonlar o'z tajribasini qo'llab, oilaviy ajralishlarga qarshi murosasiz kurashishlari kerak.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Ma'lumki, o'zbek tili jahondagi eng boy va qadimiy tillardan biri hisoblanadi. Ona tilimizning xalqimiz ma'naviy hayotidagi o'mini oshirish maqsadida shu yil 21-oktabrda alohida Farmon qabul qilindi. Ona tilimizga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasi «O'zbek tili bayrami kuni» deb e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti va Atamalar komissiyasi tashkil etildi.

Bu ishlarning barchasi tilimizga e'tiborni kuchaytirish, yoshlarimizni milliy an'analarga hurmat va sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan.

Bu borada yoshlarimizda nutq madaniyati va notiqlik mahoratini oshirish uchun Respublika yosh badiiy so'z ustalari tanlovini o'tkazish bugungi davr talabidir.

O'quvchilarning ma'naviy va ma'rifiy savodxonligini hamda o'z fikrini erkin va ravon ifodalash qobiliyatini kuchaytirish maqsadida insholar tanlovini o'tkazish kerak.

Shuningdek, mamlakatimizda o'zbek tili izohli lug'atining mukammal elektron bazasi haligacha yaratilmagan. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Fanlar akademiyasi mazkur masalaga doir aniq takliflarni ishlab chiqishi lozim.

Qadrli yoshlar!

Keyingi yillarda o'smirlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilik holatlarining oldini olish borasida salmoqli ishlar qilindi. Yoshlar ittifoqi hududiy kengashlarining kafolat xatiga asosan sudlarda birinchi marta jazo turini yengillashtirishga qaratilgan yangi mexanizm joriy etildi.

So'nggi ikki yilda adashib, xato yo'lga kirgan, qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lgan 620 nafar yoshga ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazo turlari tayinlandi.

Bu jamiyatimizda kechirimlilik, mehr-oqibat va o'zaro ishonch muhitini kuchaytirish yo'lida ulkan qadam bo'ldi.

Haftaning bir kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilandi. Lekin shuncha qilinayotgan ishlarga qaramasdan, afsuski, yoshlarning jinoyatga qo'l urishi kamaymayapti. Joriy yil 1-dekabrga qadar jinoyat sodir etgan 33 mingdan ziyod shaxsning 11 ming 500 nafari yoki 34,6 foizini yoshlar tashkil etgani ayniqsa tashvishlidir.

Ichki ishlar vazirligi, Bosh prokuratura, Yoshlar ittifoqi tegishli vazirlik, idora va hokimliklar bilan birgalikda quyidagi ustuvor masalalarga e'tibor qaratishi lozim.

Ikki yil muqaddam hududiy ichki ishlar organlarida yoshlar masalalari bo'yicha boshliq o'rinbosarlari lavozimlari joriy etilgan edi. Biroq biz kutgan natijalar hozircha bo'layotgani yo'q.

Ming afsuski, joylarda ushbu tuzilmalar, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya (raisi – hokimlar), Yoshlar masalalari bo'yicha hokim o'rinbosarlari, Yoshlar ittifoqi, Mahalla kengashlari yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosarlari o'rtasida yaxlit bir hamjihatlik shakllanmagan.

Shu munosabat bilan ikki oy muddatda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish, barcha davlat organlari va jamoatchilik vakillari bilan amaliy hamkorlikni keskin kuchaytirish bo'yicha qaror loyihasi tayyorlansin.

Bundan tashqari, bir oy muddatda yoshlar orasida salbiy illatlarning oldini olish maqsadida harbiy sport va vatanparvarlik tarbiyasining rolini oshirishga qaratilgan «Sog'lom bolalik» yillik dasturi ishlab chiqilsin va to'liq amalga oshirilsin.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora kuchaygan bir paytda yoshlar siyosati sohasidagi ishlarimizni mazmunan qayta ko'rib chiqishni hayotning o'zi talab qilmoqda.

Ana shu talabdan kelib chiqib, biz besh muhim tashabbusni ilgari surgan edik. Bu – yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashdek kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni o'z ichiga oladi. Besh muhim tashabbus dastlab Toshkent viloyatining Bo'ka tumani va poytaxtimizning Uchtepa tumanida tajriba sifatida joriy etildi.

Bu ishlarni xalqimiz katta quvonch va ishtiyoq bilan qarshi oldi. Uni milliy «**taraqqiyotning besh ildizi**», deb atamoqda. Yoshlar ittifoqi qoshida «5 tashabbus loyiha ofisi» faoliyati yo'lga qo'yildi. 42 ta tuman va shaharlarning 168 ta olis va og'ir ahvoldagi mahalla fuqarolar yig'inlarida bu tajriba muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Yoshlarni madaniyat va san'atga jalb etish yo'nalishida oxirgi yillarda e'tiborimizdan chetda qolayotgan baxshichilik va maqom

maktablari faoliyatini yo'lga qo'ydik. O'tgan yili Shahrisabzda Maqom, bu yil esa Termizda Baxshichilik, Qo'qonda Hunarmandchilik xalqaro festivallari o'tkazildi. Lekin unutilib borayotgan boy madaniy merosimiz va o'lmas san'atimizning boshqa turlariga yetarli e'tibor bera olayapmizmi? Bu borada yoshlarimizning qiziqish va intilishlarini puxta o'rganyapmizmi?

Shu o'rinda mamlakatimizda sirk, balet, teatr va estrada san'ati sohalarida Toshkenboyevlar, Zaripovlar, Hamroyevlar va Zokirovlar sulolalari o'ziga xos maktab yaratganini alohida e'tirof etishni istardim. Bu kabi sharafli va jahonga tarannum etsa bo'ladigan san'atimiz yutuqlarini albatta, yoshlarimizga chuqur o'rgatishimiz lozim.

O'sib kelayotgan yosh avlodning balet, opera va sirk san'atiga bo'lgan katta qiziqishini hisobga olib, bu sohalarni joylarda yanada rivojlantirish kerak.

Sportni ommalashtirish yo'nalishida 2019 – 2023-yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Olimpiya o'yinlari, jahon va Osiyo chempionatlari g'olibi bo'lgan 204 nafar sportchi tuman va shaharlarga biriktirildi.

Sohada boshlagan katta ishlarimizni davom ettirish uchun «**Sog'lom millat – sog'lom kelajak**» milliy strategiyasini ishlab chiqib, amalga oshirishni taklif qilaman.

Yuqori texnologiyalar taraqqiyotimizning ajralmas qismiga aylanmoqda. Toshkent shahrida axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarning birinchi Texnologik parki o'z faoliyatini boshladi. Birlashgan Arab Amirliklari hukumati bilan hamkorlikda «**Bir million o'zbek dasturchisi**» loyihasi ishga tushirildi.

Biroq, yoshlarni bu muhim yo'nalishga keng jalb etish, ularga zarur ko'nikma va bilimlarni yetkazish borasidagi ishlardan ko'nglimiz to'layotgani yo'q. Shu bois Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi mahalliy hokimliklar bilan birgalikda barcha tuman va shaharlarda

bittadan Raqamli texnologiyalar o'quv markazlarini tashkil etishi zarur.

Kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, «Ma'rifat karvoni» tadbirlari doirasida hududlardagi yoshlarimizga 3 milliondan ortiq kitoblar yetkazib berildi va bu ishlar davom etmoqda. «Yosh kitobxon» respublika tanlovining saralash bosqichlarida joriy yilda 1 million 200 mingdan ortiq yoshlar faol ishtirok etdi.

Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni tizimli tashkil etish maqsadida Yoshlar ittifoqi Yozuvchilar uyushmasi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi birgalikda 2020–2025-yillar uchun Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini ishlab chiqsin.

Yosh xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha ishlar barcha hududlarda ham birdek amalga oshirilmayapti.

Barcha darajadagi rahbarlarimizning eng asosiy vazifasi ayollar, ayniqsa, yosh qizlarimizni ijtimoiy hayotga keng jalb etish, ularning bandligini ta'minlash, zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatishdan iborat bo'lishi kerak.

Afsuski, beshta tashabbusni amalga oshirishda barcha shahar va tuman hokimlari ham tizimli ishni tashkil etgani yo'q. Ularning ishi samaradorligini baholash uchun barcha tuman va shahar hokimlari 2020-yil yanvar oyida qarorlar qabul qilib, mahalliy kengashlarda tasdiqlab, uning ijrosi bo'yicha har oyda Kengash oldida hisobot berib borishi kerak.

Bundan keyin hokimlar va ularning o'rinbosarlari ishiga ana shu tashabbuslar ijrosiga qarab baho beriladi.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

So'nggi yillarda yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, umumiy o'rta va oliy ta'limni isloh qilish borasida sezilarli qadamlar tashlandi. Xususan, maktabgacha ta'lim, o'rta ta'lim va oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsepsiyalar tasdiqlandi. Bundan tashqari, farzandlarimizni aniq

maqsad asosida tayyorlab borish, raqobatga qodir yetuk kadrlarni tarbiyalash uchun ixtisoslashgan maktablar tashkil etmoqdamiz. 2019-yilning o'zida Toshkent, Nukus, Namangan, Xiva shaharlarida Prezident maktablari, Qorako'l tumanida Xalqaro matematika maktabi, Toshkent shahrida Mirzo Ulug'bek nomidagi Astronomiya, bugun yig'ilishimiz o'tayotgan Muhammad Xorazmiy nomidagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari maktablarini tashkil etdik.

«Ijod maktabi» va «Temurbeklar maktabi» kabi yangi namunadagi ta'lim maskanlari uchun ham barcha sharoitlarni yaratib beryapmiz.

Xabaringiz bor, men yaqinda Yaponiyaga rasmiy tashrifim davomida jahonga mashhur Nagoya universitetida ham bo'ldim. Birgina shu universitetning o'zida olti nafar olim Nobel mukofotini olgani tahsinga sazovor.

Biz ilg'or yapon tajribasini o'zimizda keng qo'llash uchun Nagoya universiteti prezidenti Seichi Matsuoga Toshkent davlat texnika universitetining faxriy rektori maqomini berdik. Yaponiyadagi elchixonamizda tashqi siyosatimiz tarixida ilk bor innovatsiya va ta'lim bo'yicha maslahatchi-vakil lavozimini joriy etdik.

Men Yaponiyada ta'lim olayotgan navqiron yigit-qizlarimizning ko'zidagi ishonch, azm-u shijoatni ko'rib, juda xursand bo'ldim.

Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha biz boshlagan ulkan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan asosiy kuch aynan yoshlarimizdir.

So'nggi yillarda yoshlarni ilmiy va innovatsion faoliyatga keng jalb etish, yosh olim va tadbirkorlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirishga katta e'tibor bermoqdamiz. Shu maqsadlarda mutlaqo yangi tizim – Innovatsion rivojlanish vazirligi va Yoshlar akademiyasini tashkil etdik. Yoshlarga oliy ta'lim berishni kengaytirish uchun universitet va institutlar sonini 117 taga yetkazdik. Jumladan, yetakchi xorijiy oliy ta'lim muassasasi filiallari soni 21 taga yetdi.

Iqtidorli yoshlarni ilm-fanga yo'naltirish, nufuzli milliy va xalqaro olimpiadalarda yuqori natijalarni ta'minlash uchun maktab

fan olimpiadalari tizimi takomillashtirildi. 2018-yilda xalqaro fan olimpiadalarida O'zbekiston vakillari 4 ta medalni qo'lga kiritgan bo'lsa, 2019-yilda bu raqam 12 taga yetdi.

Xalqimizning ilmiy salohiyati va ilm-fan sohasidagi tarixiy an'analarini inobatga oladigan bo'lsak, hali oldimizda katta vazifalar turibdi. Bu borada olimlarimiz, mutasaddi rahbarlar, ziyolilarimiz bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat olib borishlari kerak, deb hisoblayman.

Ta'kidlash o'rinliki, o'tgan yili mamlakatimizda buyuk alloma Muhammad Xorazmiy nomidagi «Yosh matematiklar xalqaro olimpiadasi» muvaffaqiyatli o'tkazilgan edi. Ushbu tajriba asosida O'zbekistonda fizika bo'yicha – Ahmad Farg'oniy, kimyo fani bo'yicha – Abu Rayhon Beruniy, biologiya bo'yicha – Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo'yicha – Mirzo Ulug'bek nomlaridagi xalqaro fan olimpiadalarini o'tkazishni taklif etaman. Ushbu olimpiadalarni o'tkazishdan asosiy maqsad – bo'lajak Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Farg'oniylarni yetishtirishdan iborat.

Hurmatli do'stlar!

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, tadbirkorlikka o'rgatish, buning uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bu borada, yoshlarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun «Yoshlar – kelajagimiz», «Har bir oila – tadbirkor», «Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash» davlat dasturlari doirasida katta ishlar qilinmoqda. Xususan, yigit-qizlarning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun keyingi ikki yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 111 ming nafar yoshga 2 trillion 750 milliard so'm kreditlar ajratildi.

Birgina «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi doirasida 847 milliard so'm kreditlar ilk bor tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan yoshlarning 3 ming 300 ta loyihasini amalga oshirish uchun yo'naltirildi.

Shu bilan birga, «Besh tashabbus» doirasida qizlarimizning kasb ko'nikmalarini mustahkamlash, hayotda munosib o'rin egallashi,

ularni doimiy ish bilan band qilish maqsadida joriy yil 75 ta tumanda 111 ta tikuv-trikotaj majmuasi tashkil etilib, 35 ming nafar yoshlarimiz ishga joylashtirildi. Bundan tashqari, hududlarda 18 ta «Yosh tadbirkorlar» kovorking markazlari hamda 112 ta «Yoshlar mehnat guzari» foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, yoshlarni ish bilan ta'minlash maqsadida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi qoshida Toshkent shahrida namunali «Ishga marhamat» markazi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Xabaringiz bor, yoshlarni doimiy band qilish, ularni ish bilan ta'minlash dunyodagi barcha davlatlarda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda ham har yili kamida 600 mingdan ziyod bitiruvchilar mehnat bozoriga kirib kelmoqda. Lekin ularning aksariyati ish izlab yurgani bu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz hali yetarli emasligidan dalolatdir.

Shu o'rinda, haqli savol tug'iladi: ish izlab xorijga ketgan yoshlarimizning taqdiri haqida barcha darajadagi rahbarlar jiddiy bosh qotiryaptimi?

Afsuski, ayrim joylarda mutasaddilar yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash o'rniga, aksincha, ularga to'siq bo'lmoqda, ularning ishiga xalaqit qilmoqda.

Bu sohadagi ishlarimizning samarasini oshirish maqsadida Toshkent shahrida tashkil etilgan «Ishga marhamat» markazini namuna sifatida qolgan barcha hududlarda ham barpo etish choralari ko'rishimiz kerak. Bundan tashqari, butun dunyoda yoshlar orasida tobora ommalashib borayotgan tadbirkorlik faoliyatini innovatsion tarzda yo'lga qo'yish, yangi ishlanmalarni tijoratlashtirish, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan «startap» loyihalari salmog'ini oshirish lozim.

Innovatsion rivojlanish vazirligi Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan 2020-yilda 20 ta eng yaxshi «startap» loyihasini joriy etish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

Umuman olganda, bu kabi zamonaviy tadbirkorlik loyihalarini ommalashtirish, buning uchun tegishli sharoitlarni yaratishimiz zarur. Shuning uchun ilg'or davlatlar tajribasi asosida «Startap to'g'risida»gi qonun loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, 2020-yilda ham yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish maqsadida «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi doirasida qariyb 600 milliard so'm miqdoridagi kredit yoshlarning loyiha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltiriladi. Shuningdek, 2020-yilda 24 ming nafar qizni doimiy ish bilan ta'minlash maqsadida tumanlarda qo'shimcha 80 ta tikuvchilik majmuasi barpo etiladi.

Yangi hayotga qadam qo'yayotgan yoshlar, shuningdek, yosh oilalarning turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida qishloq va shaharlarda uy-joylar qurilishi bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yilda shahar va qishloqlarda aholiga, jumladan, yosh oilalarga 30 mingdan ortiq namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurilib, ularning qariyb 1 ming 900 tasi alohida o'rnak ko'rsatgan faol yoshlarga berilgan.

Kelgusi yilda ham qishloq va shahar joylarida 30 mingta uy-joy qurib foydalanishga topshiriladi. Shundan 658 tasi mamlakatimiz ijtimoiy hayotida faol qatnashib, alohida namuna ko'rsatayotgan yosh oilalar uchun ajratiladi. Birinchi marta bunday uylarning 3462 tasi xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarimiz uchun barpo etiladi.

Ta'kidlash kerak, 2020-yilda uy-joylarning 17 ming 750 tasi yangi tizimga muvofiq xususiy sektor tomonidan quriladi. Bu esa yoshlarni sifatli uy-joy bilan ta'minlash, uy-joylarni erkin tanlash, boshlang'ich badal to'lovlari uchun davlatdan kompensatsiya olish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Bugungi yig'ilishdagi asosiy masalalardan yana biri har bir viloyat, tuman, shahar hokimlarining va boshqa rahbarlarning yoshlar siyosati masalasiga e'tiborini oshirishdan iborat. Jumladan,

jamiyatda yoshlarning roli va obro'sini ko'tarish, ularga qulay sharoitlar yaratib berish, yoshlar tashkilotlari orqali yosh avlod muammolari ichiga chuqurroq kirish va ularni hal etish zarur.

Rahbarlar kelajagimiz bo'lmish yoshlar bilan doimiy muloqotda bo'lib, ularni eshitib, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashlari shart va zarur. Har bir hokim – u tuman yoki viloyat hokimi bo'ladimi, sektor rahbarlari bilan birgalikda yoshlar masalasini o'zi uchun ustuvor vazifa qilib olmas ekan, joylarda bu boradagi ishlarimizning natijasi samarali bo'lmaydi.

Yaxshi bilasizlar, har bir hududda Yoshlar bo'yicha kengashlarga hokimlar raislik qilmoqda. Avvalo, «Hokim va yoshlar» uchrashuvlari tajribasini davom ettirib, har haftaning bir kuni ni Yoshlar masalalarini yechish kuni, har 15 kunda ikki kun faqat yoshlar bilan ishlash kuni etib belgilanadi. Hokimlar va mutasaddi rahbarlar ularning muammolari bilan tanishib, har oyda bir marotaba mahalliy kengashlar sessiyalarida ularni muhokama qilishi, xalq vakillariga hisobot berishi kerak.

Bir so'z bilan aytganda, **yoshlar siyosati doimo e'tiborimiz markazida bo'lishi lozim.** Keyingi – 2020-yil davomida bu ishlarni puxta tajribadan o'tkazamiz. Va yil yakuniga borib rahbarlar faoliyatiga baho beramiz.

Shu o'rinda bu ishlarni yanada samarali tashkil qilish maqsadida joylarda Xalq qabulxonalarini 4 ta sektor rahbari tomonidan yoshlar bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni 100 foiz nazorat qiladi va muvofiqlashtirib boradi. Har bir sektor rahbari kamida 200 nafar yoshni yig'ib, uchrashuvlar o'tkazishi, ular bilan dildan suhbat qurishi zarur. Yoshlar yetakchilarini o'z qanotida olib yurib, ularning tajribasini oshirishi, muloqotga o'rgatishi kerak.

O'z o'rnida yoshlarning bandligi, uy-joy ta'minoti, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishi, ta'lim olishga va kasb o'rganishga bo'lgan talabini doimo o'rganib, yechim topishi kerak. Yoshlar murojaatlarini qayd etish va tahlilini yuritish masalalariga alohida

e'tibor berib, aniq choralar ko'rishi shart. Yangi tizim asosidagi uchrashuv va qabullar aholi zich yashaydigan shahar markazlarida, uzoq va chegara hududlarida o'tkazilishi ayniqsa samarali bo'ladi.

Xullas, yoshlar masalasiga hamma bir yoqadan bosh chiqarib, ishni hamjihatlikda tashkil etishi lozim.

Sizlar bilan o'tkazilgan avvalgi uchrashuvlarimizda yoshlarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh avlod orzu-niyatlariga mos jiddiy mavzularni olib chiqish masalasini jurnalistlar e'tiboriga tashlagan edik. Bu yo'nalishda bugungi kun qahramoni obrazini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunda, eng avvalo, yosh ijodkorlarga imkoniyat yaratishimiz zarur.

Albatta, zamondoshlar «brendi» – bugungi qahramon obrazi kim ekanini yoshlar yaxshi biladi.

«Yoshlar», «Mening yurtim» telekanallari, «Yoshlar» radiosi, «Yoshlar ovozi», «Yosh kuch», «Dugonalar» kabi bosma nashrlar, «Yoshlar nashriyot uyi» birlashib, barchasi yagona bir maqsadga xizmat qilishi kerak. Buning uchun ushbu ijodiy tashkilotlar negizida «Yoshlar media xoldingi»ni tashkil etish taklifini bildiraman. Bu g'oyani sizlar ham qo'llab-quvvatlaysizlar, degan umiddaman.

Hurmatli yig'ilish ishtirokchilari!

Xorijdagi yoshlar bilan tizimli ishlash maqsadida Yoshlar ittifoqi qoshida O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi tuzilgan edi. Hozirgacha Germaniya, Rossiya, Turkiya, Misr, Qozog'iston, Yaponiya, Xitoy, Belarus, Belgiya va Latviya davlatlarida bu tashkilotning vakolatxonalarini ochildi.

O'tgan yili Toshkent va Samarqand shaharlarida Markaziy Osiyo yoshlar forumi tashkil etildi. Shanxay hamkorlik tashkiloti Yoshlar kengashiga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilindik. 2020-yilda esa Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining Yoshlar ishlari bo'yicha kengashiga qo'shilamiz.

Ammo yoshlar siyosati yo'nalishidagi ishlarimizni tashkil etish maqsadida bundan keyin butunlay yangicha va samarali tizim yo'lga qo'yilishi kerak bo'ladi.

Bosh vazir – Yoshlar masalalari bo'yicha idoralararo kengash raisi yoshlar bandligini ta'minlash, ular o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ishlarga mas'ul bo'ladi, qilingan ishlar bo'yicha har chorakda axborot kiritib boradi.

Oliy Majlis Senati Raisi beshta muhim tashabbus bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi nazoratini qat'iy olib borishi va bu boradagi ishlarni samarali muvofiqlashtirishi lozim.

«**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari**» g'oyasi hayotiy qoidamizga, ayniqsa, yoshlarimizning kundalik hayot tarziga aylanmas ekan, kutilgan natijaga erisha olmaymiz. Shu sababli 5 ta muhim tashabbus ijrosi Senatning doimiy diqqat-e'tiborida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Senat o'z yig'ilishlarida hudud rahbarlarining hisobotlarini muntazam eshitib, muhokama qilib borishini tavsiya etamiz.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikeri yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishga bosh-qosh bo'ladi, deb ishonamiz.

Shu o'rinda yurtimizda yoshlar siyosatiga to'g'ridan to'g'ri mas'ul bo'lgan davlat organiga ehtiyoj borligi va bunday idorani tashkil etishning vaqti-soati kelganini alohida ta'kidlamoqchiman.

Germaniyada Oila, keksalar va yoshlar masalalari vazirligi, Fransiyada Yoshlar va sport vazirligi, Turkiyada Yoshlar va sport vazirligi, Singapurda Madaniyat, kommunikatsiya va yoshlar vazirligi, Rossiyada Federal yoshlar agentligi mazkur vazifani bajaradi.

Shu munosabat bilan bir oy muddatda rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasidan kelib chiqib, Yoshlar ittifoqi negizida Yoshlar ishlari agentligini tashkil etish, «Yoshlar – kelajagimiz» jamg'armasi samaradorligini oshirish bo'yicha taklif kiritilsin.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, bizga yoshlarga oid davlat siyosati sohasida alohida, yangi strategiya kerak. Shuni

hisobga olib, Vazirlar Mahkamasi mutasaddi idoralar bilan birga uch oy muddatda «O‘zbekiston yoshlari – 2025» konsepsiyasi loyihasini ishlab chiqib, kiritsin. Shuningdek, xalqaro mezonlarga asoslangan yoshlar siyosatini baholash milliy indeksini ishlab chiqib, amaliyotga joriy etsin.

Qadrli farzandlarim!

Bugun sizlar bilan mamlakatimiz yoshlari hayotiga doir eng muhim masalalar bo‘yicha atroflicha gaplashib oldik. Bildirilgan fikr-mulohazalarning barchasi yagona ezgu maqsad – yoshlarimiz hayotini yanada mazmunli, baxtli va farovon qilishga qaratilganini, o‘ylaymanki, hammamiz yaxshi anglab turibmiz.

O‘zbekiston yoshlari zamonaviy bilim va taraqqiyot cho‘qqilarini egallab, o‘z ma‘naviyati va tafakkuri bilan barchaga ibrat va namuna bo‘lishi kerak. Jonajon Vatanimiz ravnaqini o‘z hayotingizning bosh mazmuni, deb bilsangiz, sizlardan minnatdor bo‘laman.

Yoshlik inson umrining eng beg‘ubor, ulkan orzu-umidlar va imkoniyatlar davri ekanini yana bir bor his qilib, menga yelkadosh bo‘lib, belni mahkam bog‘lab harakat qilishingizga ishonaman.

So‘zimning yakunida kirib kelayotgan 2020-yil bilan barchangizni samimiy muborakbod etib, eng ezgu niyatlarimni bildiraman.

Yangi O‘zbekistonimizni birgalikda barpo etishda sizlarga, aziz bolalarim, ulkan kuch-g‘ayrat va shijoat, mustahkam sihat-salomatlik tilayman.

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga
oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashgan
Muhammad Xorazmiy nomidagi maktabda
yoshlar bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 27-dekabr

**EL-YURTIMIZNING MUSTAHKAM
IRODASI VA MATONATIGA TAYANIB,
SINOVLARDAN MUNOSIB O'TAMIZ**

2020-yilda butun dunyoda tarqalgan koronavirus pandemiyasi bizning mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. Lekin o'z vaqtida ko'rilgan qat'iy chora-tadbirlar tufayli yurtimizda o'ta xatarli kasallik keng yoyilib ketishiga yo'l qo'yilmadi.

Xitoyda mazkur kasallik aniqlanib, boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshlagan dastlabki kunlardan oq O'zbekistonda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlashga davlat miqyosida katta e'tibor qaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi farmoyishi asosida Respublika komissiyasi tuzilib, samarali faoliyati yo'lga qo'yildi. Mamlakatimizda kasallikka chalingan bemor aniqlangan birinchi kundan boshlab mavjud epidemiologik vaziyat qat'iy nazoratga olindi va doimiy tahlil qilib borildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 18-mart kuni koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq vaziyat bo'yicha xalqimizga murojaat qildi.

Quyida davlatimiz rahbarining koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash, bu murakkab davrda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish chora-tadbirlari, ushbu kasallikning xalqimiz turmush darajasiga salbiy ta'sirini kamaytirishga, shuningdek, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida yuz bergan tabiiy va texnogen ofatlarning oqibatlarini bartaraf etishga bag'ishlangan nutq va ma'ruzalaridan olingan eng muhim fikrlar e'tiboringizga havola qilinmoqda.

KORONAVIRUSGA QARSHI KURASH TARTIB-INTIZOM VA SABR-TOQATNI TALAB QILADI

Hurmatli do'stlar!

Bugungi yig'ilishimiz kun tartibiga o'tishdan oldin ayni paytda butun xalqaro hamjamiyatni va xalqimizni o'ylantirayotgan masalaga alohida to'xtalmoqchiman.

Hammangiz ko'rib turibsiz, mana, to'rt oy bo'ldiki, dunyoning 160 dan ortiq mamlakatida xavfli kasallik – koronavirus infeksiyasi tarqaldi.

Jahon miqyosida kasallanganlar soni 190 ming nafarga yetdi, ularning 81 ming nafardan ortig'i tuzaldi, 7,5 ming o'lim holati qayd etildi. Kasallik kengayib ketgani sababli, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti uni pandemiya deb e'lon qildi.

Ming afsuski, bu yuqumli kasallik mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi va bizga ham tashqaridan kirib keldi. Biz bu ofatning tarqab ketmasligi uchun hamma choralarni ko'rayapmiz.

Bugungi kunda respublikamizda virusga chalingan bemorlar soni 15 nafarga yetdi. Hozirda 6 mingga yaqin kishi karantinga olingan.

Topshirig'imga ko'ra, Bosh vazir rahbarligida Respublika komissiyasi tuzilgan. Har bir hududda hokimlar rahbarligida maxsus shtablar tashkil etilgan.

Epidemiologik vaziyat bo'yicha har soatlik va kunlik ma'lumot tahlil qilinib, tezkor choralar ko'rilmoqda.

Tibbiyot muassasalari favqulodda ish rejimiga o'tkazilib, ular dori-darmon, himoya va diagnostika vositalari bilan yetarli darajada ta'minlandi. Sihatgoh va oromgohlar karantin muassasalari sifatida moslashtirildi. Bularning barchasi uchun budjetdan zarur mablag'lar ajratildi.

Yurtimizda koronavirusga qarshi kurash ishlariga jalb etilgan qariyb 5,5 ming nafar tibbiyot xodimini moddiy va ma'naviy

qo'llab-quvvatlash maqsadida, ularning oylik maoshiga qo'shimcha 120 foiz ustama to'lanmoqda.

Odamlar gavjum joylarda, jumladan, ta'lim maskanlari, ko'ngilochar maskanlar, konsert zallari, masjidlarda ommaviy tadbirlarni cheklash choralari ko'rilmoqda.

16-martdan boshlab, barcha ta'lim dargohlaridagi 8 million 300 ming nafar farzandlarimizga ta'til e'lon qildik. 80 ming talaba markazlashgan holda yashash joylariga jo'natildi.

Ta'lim muassasalari faoliyati to'xtab turgan davrda tarbiyalanuvchilar va boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalariga yoki ularning o'rni bosuvchi shaxslarga zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

Aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida karantinga yopilgan muassasalar xodimlari, karantindagi fuqarolar va ularga qarovchilarning huquqlarini ta'minlash, ijtimoiy nafaqa oluvchilar sonini kamida 10 foizga yoki 60 mingtaga oshirish choralari ko'rilmoqda.

Xorijda xizmat safariga va boshqa yumush bilan ketgan yurtdoshlarimizni charter aviareyslari orqali Vatanimizga qaytarmoqdamiz.

Chegaralarda harakatlar cheklandi, ammo transportda yuk tashish to'xtatilgani yo'q. Mamlakatimizga kuniga ko'plab xorijiy va mahalliy yuk tashuvchilar kirmoqda va o'z navbatida, yurtimizdan chiqmoqda.

Biz epidemiya tarqalishining dastlabki bosqichida yurtimizga kasallikning ommaviy kirib kelishi va keng tarqalishining oldini olishga muvaffaq bo'ldik.

Afsuski, bu xatarli virus hech qanday chegara bilmas ekan. Ammo vaziyat to'liq nazoratimiz ostida ekanini yurtdoshlarimizga alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va yetakchi davlatlar bilan yaqin hamkorlikda ishlayapmiz.

Fursatdan foydalanib, fidoyilik va jonbozlik ko'rsatayotgan barcha tibbiyot xodimlariga va boshqa mutasaddilarga ham chuqur minnatdorlik izhor etmoqchiman.

Bugun xalqimizga murojaat qilib aytmoqchiman.

Bu hayotning ko'p og'ir sinovlarini va yaxshi-yomon kunlarini boshidan kechirgan el-yurtimiz hammasini to'g'ri tushunib, masalaga ongli yondashmoqda.

Muftiyat rahbarligida diniy ulamolar yurtimizga tinchlik-xotirjamlik, bemorlarga shifo tilab, duoyi fotihalar qilishmoqda.

Millati, tili va dinidan qat'i nazar, hammamiz yakdilmiz va ishonamizki, bu qiyinchiliklar albatta o'tib ketadi.

Buning uchun **birinchi navbatda** shifokorlar tavsiyalariga amal qilib, shaxsiy gigiyena va sanitariya qoidalariga har birimiz o'z oilamiz, bola-chaqalarimiz bilan uyimizda, ishxonamizda va boradigan joylarimizda qat'iy amal qilishimiz zarur.

Kasallikni yashirmasdan, o'z vaqtida murojaat qilish – uning ol-dini olishda eng samarali choradir.

Ikkinchidan. Oziq-ovqat va boshqa kundalik iste'mol mahsulotlarining narxi oshib ketmasligi uchun barcha choralar ko'rilmoqda. Davlat soliq qo'mitasi, Bosh prokuratura huzuridagi departament bu borada nazoratni kuchaytirmoqda.

Mamlakatimizda yetarli darajada zaxira mavjud, xavotir yoki vahimaga tushishga hech qanday asos yo'q.

Ammo ko'pga kelgan bu baloga qarshi hammamiz birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilishimiz lozim.

Barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, muhtaram nuroniylarimiz, mahalla va xotin-qizlar, yoshlar tashkilotlari faollari ommaviy axborot vositalari orqali xolis va haqqoniy, keng tushuntirish ishlarini kuchaytirishiga ishonaman.

Uchinchidan, majburiy ta'til paytida farzandlarimiz o'quv mashg'ulotlarini davom ettirishlari uchun O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda videodarslar turkumi yo'lga qo'yildi.

Teleradio kanallarimiz yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun tariximiz, boy madaniyatimizga oid ko'rsatuv va eshittirishlar, yoshlarimiz uchun foydali va qiziqarli badiiy dasturlar, kinofilmlarni ko'paytirishi lozim.

Hurmatli ota-onalarimiz, o'z farzandlarini jahon va milliy adabiyotimizning eng yaxshi namunalari bilan tanishtirishga harakat qilsalar, ayni muddao bo'lardi.

Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Hozirgi vaziyatda ayrim mas'uliyatsiz, haqiqiy holatdan bexabar va o'zini «piar» qilishni yaxshi ko'radigan odamlar turli mish-mish va uydirmalarni tarqatishga urinadi.

Shu munosabat bilan jamoatchiligimizdan iltimos qilaman: sarosima yoki vahima kayfiyatiga berilmaslik kerak. Matbuot va ijtimoiy tarmoqlarda noto'g'ri, asoslanmagan ma'lumotlar tarqalishiga yo'l qo'ymasligimiz zarur.

Bu masalani huquq-tartibot idoralari ham alohida nazoratga olishi lozim.

Aziz vatandoshlar!

Koronavirus pandemiyasining butun dunyo mamlakatlari qatori iqtisodiyotimizga salbiy ta'siri bo'lishi – bu ham tabiiy.

So'nggi ikki haftada jahon bozorida neftning narxi keskin (*bir barrel 60 dollardan qariyb 30 dollarga*) pasayib ketgani oqibatida, gaz eksportimiz tushumlari qisqarishi mumkin.

Xorijdagi asosiy savdo hamkorlarimizning milliy valutalari qadrsizlanishi ham valuta tushumini kamaytiradi. Xorijiy turistlar soni va tushum miqdori kamayishi mumkin. Bular albatta yalpi ichki mahsulot va eksport hajmiga ta'sir qilmasdan qolmaydi.

Bugungi sharoitda sanoat korxonalarini, tadbirkorlar va eksportyorlar bizdan aniq va samarali choralar kutmoqda. Shu bois iqtisodiyotda hisob-kitob qilinayotgan yo'qotishlar o'rmini qoplash uchun zaxira yaratish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hukumatning asosiy vazifasi bo'lishi zarur.

Bu boradagi ishlarni samarali tashkil etish maqsadida koronavirus pandemiyasi va global inqirozli hodisalarning iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida farmon qabul qildik. Hujjatga asosan, Inqirozga qarshi jamg'arma tuzilib, unda 10 trillion so'm shakllantiriladi.

Mening topshirig'imga ko'ra, Maxsus ishchi guruhi turizm, transport, farmatsevtika va yengil sanoat kabi sohalarga soliq ta'tillari berish, kreditlarni qaytarish muddatini kechiktirish, kechiktirilgan tashqi qarzdorlik uchun jarima qo'llamaslik tartibini joriy qilish choralari ko'rmoqda.

Bu jarayonda **avvalo**, moliya va xomashyo bozorida beqarorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik lozim.

Ikkinchidan, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda bozorlarda narx-navo o'sishining oldini olish zarur.

Uchinchidan, iqtisodiyotimizning bazaviy va hal qiluvchi tarmoqlari uzluksiz ishlashini saqlab qolish kerak. Buning uchun har bir tarmoq, korxonalar va hudud kesimida manzilli va aniq tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

To'rtinchidan, markazdan hududiy budjetlarni va aholimizni qo'llab-quvvatlash asosiy vazifalarimiz bo'lishi shart.

Butun xalqimiz aniq bilishi kerak. Biz koronavirusga qarshi kurash faoliyatini oshkoralik tamoyillari asosida olib boryapmiz. Jahon jamoatchiligini ham, xalqimizni ham vaqtida xabardor etib borayapmiz. Bu borada kerakli choralarni yanada kuchaytiramiz.

Bugun men ikki qo'shni davlat – Qozog'iston va Turkmaniston rahbarlari Qosim-Jomart Toqayev va Gurbanguli Berdimuhamedov bilan telefon orqali muloqot qilib, bu borada o'zaro hamkorlik va bir-birimizni qo'llab-quvvatlash bo'yicha barcha masalalarni keli-shib oldik.

Ko'pni ko'rgan xalqimiz yanada jipslashib, ahil va hamjihat bo'lib, bu murakkab sinovlarni ham yengib o'tadi, deb ishonaman.

Yana bir muhim masalaga barcha mutasaddilarning e'tiborini qaratmoqchiman.

Xabaringiz bor, so'nggi yillarda mamlakatimizda sanitariya-epidemiologiya masalasiga jiddiy ahamiyat bermoqdamiz. Hozirda yurtimizda 2 ta respublika darajasidagi shifoxona, 14 ta viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 216 ta hududiy sanitariya-

epidemiologiya muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Biroq, keyingi 25 yil davomida umuman e'tibor bermaganimiz uchun ular aksariyatining moddiy-texnika bazasi, ayniqsa, laboratoriyasi, tibbiy anjom va jihozlari achinarli holatga kelib qolgani ham ayni haqiqatdir.

Shu sababli, bugungi kunda respublika **sanitariya-epidemiologiya xizmatini tubdan isloh qilish** va samaradorligini oshirish bo'yicha ishchi guruhi tomonidan alohida qaror loyihasi tayyorlanmoqda.

Mazkur xizmatning asosiy faoliyati tibbiy va sanitar barqarorlik, jamoat salomatligini ta'minlash, kasalliklar profilaktikasi va sog'lom turmush tarzini tashkil etishga qaratiladi.

Buning uchun viloyat hokimlari joylardagi sanitariya-epidemiologiya muassasalarini birma-bir aylanib, laboratoriya-diagnostika, tibbiy vosita va jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi, kadrlar salohiyati, oylik maoshi kabi muammolarni chuqur o'rganishi va ichki moliyaviy imkoniyatlar asosida ularni yil oxiriga qadar bartaraf etish, zaxiralar shakllantirish bo'yicha alohida Dasturlar ishlab chiqib, bajarishi lozim.

Bosh vazir (Aripov) respublika darajasidagi va Toshkent shahridagi muassasalarni birma-bir joyiga chiqib o'rganish va zarur chora-tadbirlar qabul qilinishi hamda ijrosi uchun shaxsan mas'ul bo'ladi.

Asosiy masala: moddiy-texnik bazani mustahkamlash, kadrlarni o'qitish, ilm-fanni rivojlantirish, aholi salomatligi uchun mablag'ni ayamassligimiz zarur.

*Mahalla va oila masalalariga bag'ishlangan
videoselektor yig'ilishidagi nutqdan*

2020-yil 18-mart

SHIFOKORLARNING O'Z KASBIGA SADOQATI VA FIDOKORONA MEHNATI – HAQIQIY JASORAT NAMUNASI

Hurmatli vatandoshlar!

Bugungi kunda butun dunyo, insoniyat og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda. Koronavirus infeksiyasi 190 dan ziyod mamlakatga tarqalib, pandemiyaga aylandi. Kasallanganlar soni 450 mingdan, vafot etganlar 21 mingdan oshdi.

Afsuski, ushbu kasallik mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. Bugunga kelib virus bilan kasallanganlar soni 65 nafarni tashkil qilmoqda.

Shu sababli, Bosh vazir rahbarligida Respublika komissiyasi tuzilib, Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasi tashkil etildi.

Pandemiyaga qarshi kurashish va uning oqibatlarini yumshatish uchun jamg'armaga 10 trillion so'm miqdorida mablag' yo'naltirildi.

Bu ofatdan xalqimizni asrash bo'yicha mamlakat miqyosida ta'sirchan choralar ko'rilmoqda. Xususan, kasallik aniqlangan ilk kundanoq barcha ta'lim va diniy muassasalar faoliyati, xalqaro va ichki jamoat transportlari qatnovi to'xtatildi.

Odamlar gavjum bo'ladigan joylar, xususan, barcha buyum bozorlari, umumiy ovqatlanish shoxobchalari vaqtincha yopildi.

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha korxonalar va tashkilotlar xodimlariga ta'til berilib, masofaviy ishlashga o'tkazilmoqda.

Mamlakatning barcha tibbiyot muassasalari kuchaytirilgan ish rejimiga o'tkazilib, 11 ta tibbiyot muassasasi va 97 ta sihatgoh, oromgoh va yotoqxonalar karantinga ixtisoslashtirildi.

Ushbu virusli infeksiyani jilovlash, tarqalishining oldini olish hamda profilaktika qilish maqsadida uy sharoitida 80 mingga yaqin, statsionarda 12 ming nafar fuqaro karantinga olingan.

Pandemiyaga qarshi kurashish bo'yicha 100 ming atrofida tibbiyot xodimlari mobilizatsiya qilinib, ularga hokimiyatlar, ichki ishlar tizimi, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari yaqindan ko'maklashmoqda.

Shuningdek, xorijdagi fuqarolarimizni qaytarish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Dastlab ularni Xitoydan evakuatsiya qilgan bo'lsak, hozirda barcha davlatlardan olib kelinmoqda.

Xorijdagi hamma diplomatik vakolatxonalarimizda shtablar tashkil etilgan. Oxirgi 10 kun ichida 20 ta charter reyslar amalga oshirildi. Rossiya, Turkiya, Eron, Birlashgan Arab Amirliklari, Janubiy Koreya, Misr, Malayziya, Hindiston, Tailand, Indoneziya va Germaniyadan to'rt mingga yaqin fuqarolarimiz olib kelindi, qo'shni davlatlar bilan chegaralarimizdan 80 mingdan ortiq vatandoshlarimiz o'tkazildi hamda yurtimizda tashkil etilgan profilaktoriy, sanatoriy va boshqa shifo maskanlarida karantinga olindi.

Bundan tashqari, diplomatik missiyalarimiz Rossiya, Xitoy, Singapurdan ekspress-testlar, tibbiy anjomlar va gumanitar yuklarni olib kelish bo'yicha amaliy ishlarni bajarmoqda, ilg'or davlatlarning yetakchi va tajribali mutaxassislarini jalb etish bo'yicha sa'y-harakatlar kuchaytirildi.

Bir narsani aniq tushunib olish lozim. Bizda aniqlangan kasallar soni kam-ku, 100 taga ham yetmaydi, xavotirga o'rin yo'q, deb xotirjam bo'lish xiyonat hisoblanadi. Chunki, koronavirus menga yuqmaydi, deb befarq yurganlar nafaqat o'zining, balki ota-onasi, farzandlari, atrofida gilar, qolaversa, butun xalqimizning sog'lig'i va hayotini katta xavfga qo'yishini chuqur anglab yetishi kerak.

Davlat tomonidan ko'rilayotgan choralar odamlarimizning kasallikni yuqtirib olish ehtimolini imkon qadar chegaralash, virusli infeksiyaning tarqalishini jilovlashga qaratilgan.

Tibbiyot qanchalik rivojlangan bo'lmasin, davlat bunga qancha-qancha mablag' ajratmasin, odamlarimiz shifokorlar tavsiyasiga amal qilmasa, tartib-intizomli bo'lib, karantin qoidalariga rioya etmasa,

barcha ko'rayotgan choralarimiz, pandemiyaga qarshi kurashish uchun safarbar qilingan yuz minglab fidoyi insonlarning mehnati behuda ketishi mumkin.

Ayrim hudud rahbarlari hozirga qadar fuqarolarga murojaat bilan chiqish va yuzaga kelgan vaziyatni aholi o'rtasida tushuntirish choralarini ko'rmayapti. Mahalliy telekanallar, gazeta va jurnallarda, ijtimoiy tarmoqlarda ishlar lozim darajada tashkil etilmayapti.

Viloyat, shahar va tuman, 4 ta sektor rahbarlarining epidemiologik osoyishtalik uchun shaxsiy javobgar ekanligi haqida qat'iy ogohlantiraman. Sizlar koronavirus infeksiyasining tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, karantin rejimini buzishning barcha salbiy oqibatlarini aholiga tushuntirish bo'yicha tun-u kun ishlashingiz shart.

Mahalla fuqarolar yig'inlariga ham ko'p e'tirozlarim bor. Joylarda mahalla faollarining roli umuman sezilmayapti. Mahalla raislarining ko'z oldida ayrim fuqarolar ko'p odamlarni yig'ib, dabdabali marosim va tadbirlarni o'tkazishni davom ettirmoqda.

Misol uchun, Farg'ona viloyati Yozyovon tumani Beruniy mahallasida yashovchi ayol Umradan qaytib kelib, uyda karantinda bo'lish talablarini qo'pol ravishda buzib, ertasi kuni 120 nafar kishini chaqirib, dabdabali marosim o'tkazgan. Oqibatda uning 4 nafar oila a'zosi infeksiya yuqtirgani aniqlandi. Yana qancha odam kasallangani hali noma'lum.

Shu bois karantin qoidalarini buzganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish to'g'risida parlamentimiz qabul qilgan qonunni imzoladim. Ushbu qonunga asosan, bundan buyon karantin davrida atrofidagi insonlarning sog'lig'i va hayotini xavf ostiga qo'yganlar 10 yilgacha ozodlikdan mahrum etiladi.

Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Sanitariya-epidemiologiya nazorati inspeksiyasi qonun ustuvorligi va jazo muqarrarligini qat'iy ta'minlashi shart.

Ishonchim komil, oilasi, farzandlari, el-yurti tinchligi, sog'lig'ini hamma narsadan ustun qo'yadigan donishmand xalqimiz bunday holatga tushib qolishni hech qachon istamaydi.

Koronavirus pandemiyasi butun insoniyat uchun Yaratganning bergan bir sinovidir. Xalqimiz jipslashib, shifokorlarning barcha tavsiyasi, ko'rsatmalariga amal qilsalar, odamlarimiz karantin davrida hayotiy zaruratsiz o'z xonadonlarini tark etmasa, kasallikning ilk belgilari aniqlanganda, uni yashirmay shifokorlarga o'z vaqtida murojaat qilsalar, biz bu kasallikni, albatta, yengamiz!

Koronavirusga qarshi kurashishdagi o'ziga xos «jang maydoni»-da tibbiyot xodimlari birinchi zarbani qabul qilmoqdalar. Oddiy haqiqatni tan olish adolatdan bo'ladi. Kasallarga o'z vaqtida yordam berilsa, ular shifo topadi, kasalxonalarni tark etadi. Lekin, oxirgi kasal tuzalmaguncha tibbiyot xodimlari ish joyini tark etolmaydi.

Dunyo bo'ylab, xususan, mamlakatimizda shifokorlarning o'z kasbiga sadoqati, xalqimiz, ota-onalarimiz, farzandlarimiz sog'lig'i yo'lida tun-u kun qilayotgan mehnati barchamiz uchun jasorat namunasi bo'lmoqda.

Shu sababli, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qo'shayotgan ulkan hissalarini va fidokorona xizmatlarini e'tirof etgan holda, koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish ishlariga jalb etilgan tibbiyot, sanitar-epidemiologik va boshqa xodimlarni qo'shimcha ijtimoiy hamda moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida alohida qarorni imzoladim.

Karantin amal qiladigan muddatda koronavirusga chalingan bemorlar bilan muloqotga kirishadigan, zararlangan bemorlar joylashtirilgan obyektlarda faoliyat olib borayotgan shifokorlar, epidemiologlarga har 14 kunlik faoliyat davri uchun qo'shimcha 25 million so'm, hamshira va laborantlarga 15 million so'm, sanitar xodimlarga 10 million so'm va boshqa xodimlarga 5 million so'm rag'batlantirish to'lovlari beriladi.

Bundan tashqari, bemorlar bilan ishlash vaqtida koronavirus yuqtirib olgan tibbiyot xodimlariga 100 million so'm miqdorida alohida to'lov beriladi.

Har bir tibbiyot xodimiga alohida e'tibor qaratish, koronavirusdan zararlangan bemorlar bilan muloqotga kirishgan tibbiyot xodimlarini karantinga olish, ularga munosib sharoitlar yaratib berish zarur.

Hurmatli tibbiyot xodimlari, o'z hayoti va sog'lig'ini garovga qo'yib, pandemiya bilan kurashayotgan shifokorlar, hamshiralar, sanitar xodimlarga butun O'zbekiston xalqi nomidan cheksiz minnatdorlik bildiraman.

Mamlakatimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishni kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi murojaat

2020-yil 26-mart

XALQIMIZNING AQL-ZAKOVATI VA METIN IRODASIGA ISHONAMAN

Hurmatli vatandoshlar!

Bugungi kunda butun dunyo, insoniyat murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Mamlakatimizda epidemiologik vaziyatni jilovlash, aholi salomatligini har tomonlama himoya qilish uchun barcha choralar ko'rilmoqda.

Yurtimizga chetdan kirib kelgan koronavirus kasalligiga chalinganlar soni oshib bormoqda. Ming afsuski, ko'rsatilgan tibbiy yordamga qaramasdan, bemorlardan 2 nafari vafot etdi. Ularning oila a'zolari va yaqinlariga o'z nomimdan, butun xalqimiz nomidan chuqur ta'ziya bildirib, sabr-toqat va bardamlik tilayman.

Aziz yurtdoshlar!

Bugungi kunda mamlakatimizda 100 ming kishi karantinga olingan. Shuningdek, chet eldan salkam 13 ming fuqaro olib kelinib, ular ham to'la karantinga olindi. Toshkent viloyatida 10 ming kishini qabul qilishga mo'ljallangan karantin zonasi barpo etilmoqda. Uning dastlabki bir qismiga xorijdan kelgan 2 ming 200 dan ortiq fuqarolarimiz joylashtirildi.

Zangiota tumanida 10 ming o'rinli 2 ta virusologiya shifoxonasi qurilmoqda. Yaqin kunlarda ushbu shifo maskanlaridagi 2 mingta o'rin ishga tushiriladi. Hozirgi kungacha 245 mingta test, 700 mingga yaqin himoya vositalari olib kelinib, davolash muassasalariga yetkazildi. Bu ishlar yana davom ettirilmoqda.

Diagnostika, davolash, karantin ishlarini Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalari hamda ilg'or xorijiy tajribalarga tayanib amalga oshirmoqdamiz. Shuningdek, Janubiy Koreyadan

malakali shifokorlar kelib, bemorlarni davolashda qatnashmoqda. Yaqin kunlarda bir guruh xitoylik mutaxassislar ham yetib kelishi kutilmoqda. Bundan tashqari, vrachlarimiz xorijiy hamkasblari bilan muntazam videomuloqotda bo'lib, kundalik tajriba almashmoqda.

Ta'kidlash kerakki, amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlarimiz, albatta, o'z natijasini bermoqda. Kasallikka chalinganlarning 25 nafari to'liq sog'ayib, reabilitatsiyaga o'tkazildi.

Fursatdan foydalanib, bu kurashning oldingi saflarida chinakam jasorat va matonat ko'rsatayotgan jonkuyar va olijanob shifokorlarimizga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri tushunib, bizni faol qo'llab-quvvatlayotgan xalqimizga, aziz yurtdoshlarimga rahmat aytaman.

Shu bilan birga, qancha ogohlantirish va tushuntirish ishlariga qaramay, joylarda karantin qoidalari buzilayotganini afsus bilan aytish kerak.

Hozirgacha 22 mingdan ziyod ana shunday holat aniqlandi, 330 kishi karantin hududini tashlab ketgan. Karantin vaqtida ayrim mas'uliyatsiz shaxslar 24 ta turli ommaviy marosimlar o'tkazganini sira oqlab bo'lmaydi. Butun xalqimiz hayotiga xavf solayotgan bunday noma'qul ishlarga nisbatan keskin choralar ko'riladi.

Muhtaram vatandoshlar!

Ishontirib aytamanki, koronavirus tarqab ketmasligi uchun davlat barcha choralarni ko'radi. Ammo shu sinovli damlarda har bir o'zbekistonlik, har bir idora, jamoatchilik vakillari bir musht bo'lib harakat qilishimiz kerak. Kasallikni mahallamizga, uyimizga, oilamizga olib kirmaslik uchun eng avvalo o'zimiz mas'ulmiz.

Ayrim davlatlarda yuqori gigiyenaga asoslangan kundalik turmush tarzi, milliy urf-odatlar bu kasallikni yengishda juda muhim omil bo'lmoqda. Jumladan, aholisi zich, qo'shnilari bilan savdo aloqalari o'ta rivojlangan bo'lishiga qaramasdan, Yaponiya virusining keng tarqalishiga yo'l qo'ymadi.

Mutaxassislar «yapon fenomeni»ni ulardagi o'ziga xos salomlashish, shaxsiy masofani saqlash, tez-tez kiyim almashtirish,

yuz-qo'lni yuvish, to'la yuvinish, to'g'ri ovqatlanish, faol turmush tarzi va sport kabi 13 ta qoida va urf-odatlar saqlanib qolgani bilan asoslamoqdalar. Bu esa bizda ham azal-azaldan mavjud – qo'lni ko'ksiga qo'yib salomlashish, uyga mehmon kelganda qo'lga suv quyish, jamoat joylarida masofani ushlab, meva-sabzavotlarni ko'p iste'mol qilish kabi urflarimizni yanada mustahkamlashni taqozo etadi. Shuningdek, jamoat joylarida, mahalla va xonadonlarda dezinfeksiya ishlarini muntazam davom ettirish lozim. Barcha korxonalar va tashkilotlar har haftada o'z xodimlarini tizimli ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazib turishi zarur.

Hurmatli do'stlar!

Har qanday qiyinchilikka qaramasdan, o'z xizmat burchini vijdonan bajarayotgan aka-ukalarimiz, opa-singillarimiz, o'g'il-qizlarimiz fidoyiligini yuksak qadrlaymiz.

Aholi o'rtasida vahima va sarosima gaplar tarqalishiga aslo yo'l qo'ymaslik lozim. Nuroniy otalarimiz, munis onalarimiz o'z jonkuyarligi, sabr-bardoshi, ezgu duolari bilan barchaga ibrat bo'ladilar, deb ishonaman.

Men bugungi kunda uy sharoitida tahsil olayotgan talaba va o'quvchi yoshlarimizga murojaat qilmoqchiman: aziz farzandlarim, uyda vaqtingizni bekor o'tkazmang! Onlayn darslarni qunt bilan o'zlashtiring. Kitob o'qing, bilimingizni oshiring, badantarbiya va jismoniy mashqlarni bir kun ham qoldirmang.

Qadrli yurtdoshlar!

Mana, bahorning issiq kunlari ham boshlandi. Mavjud qiyinchilikka qaramasdan, hayot davom etmoqda. Fermer va dehqonlarimiz, tadbirkorlarimiz oldida o'ta muhim vazifalar turibdi.

Albatta, har birimiz kundalik yumushlarimizni xavfsizlik va sanitariya qoidalariga to'la amal qilgan holda davom ettirishimiz zarur. Chunki bugun yo'qotgan imkoniyatlarimizni ertaga tiklash qiyin bo'ladi, vaqtni esa orqaga qaytarib bo'lmaydi.

Pandemiyani to'xtatish uchun butun dunyo xalqlari qatori biz ham jiddiy izlanishdamiz. Odamlarimiz daromadlari kamayib ketmasligi

uchun, korxonalarimiz barqaror ishlashi uchun barcha rejalarni ko'ryapmiz.

19-mart kuni pandemiyaning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida farmon qabul qilgan edim. Hukumat va mahalliy hokimliklar joylarda bu chora-tadbirlarning ijrosini ta'minlamoqda. Men bugun mana shunday qiyin vaziyatda iqtisodiyotimizni, tadbirkorlarni faol qo'llab-quvvatlash uchun yana bir muhim farmonga imzo chekdim. Qanchalik murakkab bo'lmasin, budjetdan katta xarajatlarni talab etmasin, qo'shimcha choralarni ko'rishga qaror qildim.

Ushbu farmonga ko'ra quyidagi chora-tadbirlar ko'zda tutilmoqda:

Birinchidan, turistik va mehmonxona faoliyati bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar shu yil yakuniga qadar yer va mol-mulk soliqlarini to'lashdan ozod etiladi. Ularga ijtimoiy soliq stavkasi hozirgi 12 foizdan 1 foizga tushiriladi. Ushbu imtiyozdan sohada xizmat ko'rsatayotgan mingdan ortiq subyektlar foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, karantin davrida o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarga daromad solig'i va ijtimoiy soliqni hisoblash to'xtatiladi. Ushbu imtiyoz qariyb 150 ming yakka tartibdagi tadbirkorga katta ko'mak bo'ladi.

Uchinchidan, tushumi o'tgan oydagiga nisbatan 50 foizga kamaygan kichik biznes subyektlariga aylanmadan olinadigan soliq, yer solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy soliq va suv solig'ini to'lash muddati shu yil 1-oktabrga qadar kechiktiriladi. Tadbirkorlar bu imtiyozlardan soliq idorasini uydan turib xabardor qilishi mumkin.

To'rtinchidan, joriy yil 1-apreldan boshlab yuridik shaxslarning tabiiy gaz va elektr energiyasi uchun oldindan to'lov majburiyati amaldagi 100 foizdan 30 foizga tushiriladi.

Beshinchidan, Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan yordam berish ko'lami yanada kengaytiriladi.

Hozirgi kunda tadbirkor olgan kredit stavkasi 24 foizgacha bo'lganda uning 8 foizini jamg'arma qoplab berar edi. Endi kredit stavkasi 28 foizgacha bo'lganda ham uning 12 foizini davlat qoplaydi. Buning uchun tadbirkorlarning 3 trillion so'mlik kreditlari foizini qoplashga jamg'armadan qo'shimcha 400 milliard so'm yo'naltiriladi. Jamg'arma bir tadbirkorning faqatgina bitta loyihasiga kafillik berishi bo'yicha cheklov ham endi bekor qilinadi.

Intizomli va ishonchli tadbirkorlarga kreditning 75 foiziga jamg'arma kafillik beradi (bugungi kunda 50 foiz). Kafillik summasining yuqori chegarasi ham 8 milliard so'mdan 10 milliard so'mga oshiriladi.

Oltinchidan, qiyin ahvoldagi korxonalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va aholining 12 trillion so'mlik kredit majburiyati muddati uzaytiriladi. Shuningdek, bugun qishloqlarda ko'p ish joylarini tashkil etib, endi oyoqqa turayotgan paxta-to'qimachilik klasterlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha ham alohida qarorga imzo chekdim. Ularning 2019-yilda paxta yetishtirish uchun olgan kreditlarini qaytarish muddati 1-oktyabrgacha uzaytiriladi.

Yettinchidan, aholini, ayniqsa, uning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator choralar belgilanmoqda. Jumladan, shu yil yakuniga qadar un, o'simlik yog'i, go'sht va sut mahsulotlari, shakar, gigiyena vositalari kabi asosiy iste'mol tovarlarini import qilishda bojxona boji va aksiz solig'i undirilmaydi. Shuningdek, joriy yil mart-iyun oylarida muddati tugaydigan bolali oilalarga nafaqa, bola parvarishlash nafaqasi va moddiy yordamlarni to'lash uchun qo'shimcha murojaat va hujjatlar talab etilmaydi. Ular avtomatik tarzda 6 oydan 1 yilgacha uzaytiriladi. Ushbu davrda boshqa muhtoj oilalarga ham shunday nafaqalar tayinlash davom ettiriladi.

Bu choralar orqali yana 120 mingdan ziyod kam ta'minlangan oilalarni qamrab olamiz (hozirda 600 mingta).

Karantin davrida yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga 18 turdagi asosiy oziq-ovqat va gigiyena tovarlari bepul yetkazib beriladi.

Sakkizinchidan, karantin davrida uy sharoitida rivojlantirish mumkin bo'lgan faoliyat turlarini yanada qo'llab-quvvatlaymiz.

Misol uchun, mamlakatimizda 28 mingdan ziyod hunarmand faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga o'tgan yili 50 million dollar mablag' ajratildi, 12,5 mingta loyiha doirasida hunarmandlar 75 mingdan ortiq yangi shogirdlarni tayyorladi.

Ushbu soha uchun bu yil yana 50 million dollar mablag' yo'naltirilmoqda. Yaratilayotgan bunday shart-sharoitlar hunarmandlar uchun katta imkoniyatdir.

Hurmatli hunarmandlar! Sizlarning mehnatingiz, yangi-yangi tashabbuslaringiz hozirgi vaqtda aholi bandligini ta'minlashga, albatta, munosib hissa qo'shadi.

Tadbirkorlar, hunarmand va fermerlarimiz, korxonalar rahbarlari berilgan bu imtiyozlardan samarali foydalanishlari kerak. Eng asosiysi, joylarda nostandart yechimlarni izlab, ishlab chiqarish hajmlari va ish joylarini saqlab qolish, korxonalar faoliyatini davom ettirish zarur. Ushbu mezon asosida viloyat, tuman (shahar) sektor rahbarlari, iqtisodiy kompleks idoralari o'z ish rejalari va ishlash uslublarini qayta tuzib olishlari darkor. Ya'ni, har bir rahbar korxonalar, tadbirkorlarning muammosiga alohida yondashib, ularni hal qilishda «bevosita boshqaruv» rejimiga o'tishi kerak.

Aziz vatandoshlar, nuroniy otaxon va munis onaxonlar, qadrli farzandlarim!

Ko'pga kelgan va jahon ahli aziyat chekayotgan bu qiyin kunlar, albatta, o'tadi.

Bizning buyuk va tanti xalqimiz ko'p asrlik tarixida ne-ne baloqazolarni, urushlar va ocharchiliklarni mardonavor yengib o'tgan. Bu sinovdan ham munosib o'tib olishimizga qat'iy ishonaman.

Hammamiz yanada jipslashib, sabr-matonatli bo'lsak, shifokorlar tavsiyalariga to'liq amal qilsak, albatta, bu kasallikni tezroq yengib o'tamiz. Bu kurashda tibbiy choralar bilan birga yuksak tafakkur, qat'iy intizom, sabr-toqat va ulkan mas'uliyat ko'rsatishimiz lozim. Bu sifatlar bizning eng asosiy va eng ta'sirchan qurolimizga aylanishi shart.

Xalqimiz o'z tarixida qanday og'ir tabiiy ofatlarni ko'rgan bo'lmasin, Qodir Allohning marhamati bilan, o'zining kuch-qudrati, vazminligi va donishmandligi orqali ularning barchasini yengib o'tgan. Men ana shunday mard va matonatli, mehr-oqibatli xalqimizning aql-zakovatiga, uning metin irodasi va qat'iyatiga to'la ishonaman.

O'zbekistonda hech bir inson, hech bir oila davlatimiz va jamiyatimiz e'tibori va g'amxo'rlikidan chetda qolmaydi!

Yaratganning o'zi xalqimizni va butun insoniyatni bu ofatdan tezroq ozod qilsin, barchamizni o'z panohida asrasin!

*Koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan
inqirozga qarshi kurashish sharoitida
tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari
bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzadan*

2020-yil 3-aprel

ULUG' XALQ QUDRATI HAR QANDAY TO'SIQ VA G'OVLARNI YENGISHGA QODIR

Hurmatli videoselektor qatnashchilari!

Kun tartibidagi asosiy masalaga o'tishdan oldin mamlakatda koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Kundalik matbuotdan xabaringiz bor, butun dunyoda, jumladan respublikamizda ham kasallikka chalinganlar soni tobora ko'payib borayotgani, barchamizdan, butun xalqimizdan yanada hushyorlik va ogohlikni keskin kuchaytirishni, karantin bilan bog'liq joriy etilgan barcha tartib-qoidalariga so'zsiz va qat'iy amal qilishni talab etmoqda.

Albatta, barcha amalga oshirayotgan sa'y-harakatlarimiz hamda shifokorlarimizning qahramonona mehnatlari evaziga bugungacha ushbu kasallikka chalingan 100 nafar yurtdoshimiz to'liq tuzaldi.

Karantinga olingan 222 ming nafar kishidan 141 ming nafari undan chiqarildi.

Mavjud vaziyatdan kelib chiqib, Hukumat komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari quyidagi kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rishlari zarur.

Birinchidan, biz pandemiya bilan bog'liq jarayonlarning izidan quvib emas, balki uning barvaqt oldini olish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni va barcha resurslarimizni safarbar etishimiz zarur.

Ikkinchidan, mavjud vaziyatni har tomonlama chuqur tahlil qilib, bo'lajak xavf-xatarlarni, ular bilan bog'liq muammolarni oldindan prognoz qilishimiz va ularning yechimiga aniq reja va puxta choralarimiz bilan tayyor turishimiz zarur.

Uchinchidan, bu kasallikni yengish uchun barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikni yanada kuchaytirishimiz kerak.

Xitoy, Janubiy Koreya, Rossiya, Isroil, Buyuk Britaniya, Germaniya va Yaponiyaning yetakchi mutaxassisleri bilan bemorlarni davolash bo'yicha telemeditsina orqali olib borayotgan muloqotlarimizni boshqa ilg'or davlatlar bilan ham kengaytirishimiz, ularning tavsiyalarini o'zimizda faol joriy etishimiz shart.

Bugun Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining Yevropa mintaqaviy byurosi ekspertlari bilan o'tkazilgan video-konferensiya ham albatta, bemorlarimizni davolashda o'zining ijobiy natijasini beradi, deb qat'iy ishonaman.

To'rtinchidan, Respublika komissiyasi (Aripov) mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birga, joylardagi hokimlar, sektorlar rahbarlarining koronavirus tarqalishi oldini olish hamda uning iqtisodiyot va insonlar hayotiga salbiy ta'sirini imkon qadar cheklash uchun, mas'uliyatini yanada oshirish choralari kuchaytirishi kerak.

Ayniqsa, hokimlar va sektor rahbarlari aholining eng muhim hayotiy ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, narx-navoning oshib ketmasligiga erishish va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar samaradorligi uchun, shaxsan javob beradi.

Ayniqsa, ayni paytda kam ta'minlangan, ehtiyojmand va yordamga muhtoj oilalarga muruvvat va saxovat ko'rsatish, ularning holidan xabar olish, bu kabi ezgu tashabbuslarni ko'paytirish, joylardagi barcha mutasaddi rahbarlarning asosiy vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim.

Hurmatli do'stlar!

Ta'kidlash kerakki, pandemiya va karantin bilan bog'liq mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, xalqimiz tushkunlik va sarosimaga tushgani yo'q.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan biron-bir tizim to'xtab qolmadi. Biz vaziyatdan kelib chiqib, xalqimizning sog'lig'ini o'ylab, ishimizni boshqa shaklda tashkil etayapmiz. Aqliy mehnat, ta'lim-

tarbiya, bilan bog'liq faoliyat turlari masofadan turib, «onlayn» rejimida olib borilmoqda.

Shu bilan birga, rahbarlarga murojaat qilib shuni aytmoqchimanki, respublikamiz hududlarida qishloq xo'jaligida, sanoat va qurilish, iqtisodiyotning boshqa ustuvor tarmoqlarida, tadbirkorlik subyektlarida ishlarni samarali davom ettirishimiz kerak. Chunki kun kutib turmaydi, hayot davom etmoqda. Bugungi yo'qotilgan vaqt va imkoniyatlarni ertaga tiklab bo'lmaydi.

Bizning oldimizda 34 millionlik aziz xalqimizni boqish barobarida, qanchadan qancha yetishtirgan mahsulotlarimizni chetga eksport qilish vazifalari ham turibdi.

Albatta, biz yaxshi tushunamiz, uyda o'tirish oson ish emas, lekin biz ayni paytda xalqimizning sog'lig'ini va hayotini saqlab qolish uchun eng maqbul vosita sifatida shu tavsiyaga amal qilishga majburmiz.

Biz, karantinni qachon bekor qilishni xalqimiz bilan bamaslahat, har tomonlama chuqur o'ylab va tahlil qilib, albatta ko'rib chiqamiz.

Ko'pni ko'rgan, turli sinovlarda toblangan mard va matonatli xalqimiz bilan bu vaqtinchalik qiyinchiliklarni, biz albatta yengib o'tamiz.

Buyuk shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub, hammamiz g'urur bilan kuylaydigan Davlat madhiyamizda «Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon», degan chuqur ma'noli so'zlar bor.

Chindan ham mana shunday murakkab va sinovli damlarda xalqimizning ulug' qudrati, aql-zakovati va sabr-matonati bilan, mehr-oqibati va samimiyati bilan, biz ulug' va mehnatkash xalqimiz bilan ushbu og'ir sinovlarni ham albatta yengib o'tamiz.

Global inqiroz va pandemiya sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jaligi oldida turgan dolzarb vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqdan

2020-yil 14-aprel

«SAXOVAT VA KO'MAK» UMUMXALQ HARAKATI HAQIDA

Hurmatli selektor ishtirokchilari!

Bugungi yig'ilishimizda koronavirusga qarshi kurashni izchil davom ettirgan holda, sanoat, qurilish va infratuzilma tarmoqlari korxonalarining to'liq ishlashini ta'minlash masalalarini atroflicha muhokama qilib olishimiz kerak.

Respublikamizning qator hududlarida koronavirus infeksiyasi tarqalmagan yoki deyarli yo'q bo'lsa-da, ko'plab sanoat, qurilish va xizmat ko'rsatish korxonalari ishlamayapti. Ularning ishchi-xizmatchilari ham uyida bekor o'tiribdi, oilasini boqish uchun daromadsiz qolgan.

Masalan, koronavirus yuqtirganlar soni Navoiy viloyatida 2 nafar, Jizzaxda – 3 nafar, Qashqadaryoda – 6 nafar, Sirdaryoda – 7 nafarni tashkil etadi. Shunga qaramay, ushbu viloyatlarda ko'plab korxonalar o'z ishini to'xtatgan yoki to'liq quvvat bilan ishlamayapti. Bu holat hududlar iqtisodiyoti va ijtimoiy sohaga, oddiy qilib aytganda, aholi hayotiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Oxirgi bir haftada soliq tushumlari Navoiyda 11 milliard, Jizzaxda – 15 milliard, Qashqadaryoda – 22 milliard, Sirdaryoda – 12 milliard so'mga kamayib ketgani ham bu fikrni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Koronavirus deyarli tarqalmagan sharoitda korxonalar to'liq ishlamayotgani masalasi bo'yicha viloyatlar hokimlari nima deydi?

Ommaviy axborot vositalari orqali yaxshi xabardorsizlar – koronavirusdan ko'p zarar ko'rgan qator xorijiy davlatlar iqtisodiy hayot to'xtab qolmasligi uchun karantin cheklovlarini bosqichma-bosqich yengillashtirib bormoqda.

Biz esa ko'rgan choralarimiz natijasida ko'p hududlarimizni saqlab qoldik. Endi bundan samarali foydalanishimiz kerak.

Shu bois, koronavirus umuman aniqlanmagan yoki epidemiologik vaziyat yaxshilangan viloyat, tuman va shaharlarda karantin

cheklovlarini bosqichma-bosqich yumshatish bo'yicha qadamma-qadam bajariladigan harakatlar yo'riqnomasini 2 kun muddatda ishlab chiqish zarur.

Respublika komissiyasi tegishli vazirlik va viloyat hokimlarining takliflari asosida hududlarda karantin cheklovlarini yumshatish choralarini ko'rib borsin.

Faoliyati tiklanadigan obyektlar turiga qarab, ularda sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha talab va qoidalar ishlab chiqilishi hamda joylarga yetkazilib, keng tushuntirish ishlarini tashkil etish lozim.

Hokimlar mahalliy xalq deputatlari kengashlarida sanoat va boshqa soha korxonalarining pandemiyaga qarshi kurashish choralariga amal qilgan holda, ishlashlarini tashkil etish masalasini muhokama qilib, buni kafolatlash to'g'risida qaror qabul qilishlari kerak.

Oliy Majlisning har ikkala palatasi bu ishlarni alohida nazoratga olib, bunga mas'ul bo'lishlari zarur, deb o'ylayman.

Yana bir muhim masala – hozirgi sharoitda vaqtincha ishlamayotgan va yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni oziq-ovqat va dori-darmon bilan ta'minlash bo'yicha ishlar ko'lamini yanada kengaytirish kerak. Bu ishlar markazlashtirilgan tartibda, birinchi bosqichda Toshkent shahri va viloyat markazlarida tashkil etilgan edi.

Endi Respublika komissiyasi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hokimlar bilan birgalikda bir hafta muddatda tumanlar va shaharlar darajasida ham bu ishlarni tizimli yo'lga qo'yishi lozim.

Yana bir muhim masala, bu – hammamiz uchun og'ir kunlarda aholimizning barcha qatlamlarini, ayniqsa, ijtimoiy jihatdan qiynalgan qatlamni o'ylashimiz kerak.

Masalan, Andijon viloyatida kam ta'minlangan 240 ming aholi mavjud. Lekin, ulardan faqatgina 49 ming nafariga ijtimoiy nafaqalar ajratib beriladi. Qolganlari esa yetarli darajada ijtimoiy muhofaza qilinmagan. Jumladan, faqatgina Qo'rg'ontepa tumani bo'yicha

2 ming 368 ta ijtimoiy nafaqa oladiganlar mavjud. Lekin bu yetarli emas. Oxirgi oylarda ijtimoiy yordam so'rab, Qo'rg'ontepa tumani Xalq qabulxonasiga yana 474 ta oiladan murojaat tushgan.

Xuddi shuningdek, Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida 962 ta, Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida 429 ta oiladan Xalq qabulxonalariga murojaat bo'lgan.

O'z navbatida, birgina Qo'rg'ontepa tumanida hozirgi kunda 1 ming 257 ta tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritmoqda, qishloq xo'jalik klasteri hamda 4 ta yirik korxonalar bo'linmalari mavjud.

Umuman olganda, tahlillarni ko'radigan bo'lsak, hozirgi kunda respublika bo'yicha 2 million so'mgacha oylik maosh oluvchi 1 million 455 ming aholi mavjud. Shu jumladan, Andijon viloyatida 104 ming nafar. Ayni paytda, Andijon viloyatida 22 mingta xususiy korxonalar mavjud.

Hurmatli yig'ilish qatnashchilari!

Hozirgi pandemiya paytida albatta, ishsizlar, yordam va ko'makka muhtoj aholimiz soni o'sib borishi tabiiy jarayon. Butun dunyoda bo'lgani kabi bu murakkab tashvishlar bizni ham chetlab o'tayotgani yo'q.

Albatta, biz avvalo xalqimizni, shuningdek, iqtisodiyotimizni bu inqirozdan eson-omon olib o'tish uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rmoqdamiz. Lekin bu xalqaro muammo qancha davom etishini hech kim aniq bashorat qila olmayapti. Butun dunyo kasallikka qarshi kurash barobarida aholini boqish, ish joylarini saqlab qolish va iqtisodiyot keskin tanazzulga uchramasligi uchun bor sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

Biz ham bu borada har kuni, har soatda izlanishdamiz.

Albatta, xalqimizni boqish uchun ham, iqtisodiyotimizni qo'llab-quvvatlash uchun ham bizning zaxiralarimiz va imkoniyatlarimiz yetarli. Hech qanday xavotirga o'rin yo'q.

Shubhasiz, aholini rag'batlantirish uchun pul tarqatishdan oson yo'l yo'q. Lekin ertaga buning oqibati nimalarga olib kelishini hali biror-bir iqtisodchi bashorat qila olmayapti. Bu borada korrupsiya illati avj olish ehtimoli ham yuqori.

Shuning uchun biz xalqimizning tarixiy va ma'naviy qadriyatlarini, jumladan, mehr-saxovat, oqibat va himmat, o'zgalarga hamisha yordam qo'lini cho'zish, topganini o'zgalar bilan baham ko'rish kabi yuksak fazilatlarini inobatga olgan holda, «Saxovat va ko'mak» umumxalq harakatini e'lon qilsak, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu tashabbusni qo'llab-quvvatlaydi.

Xabaringiz bor, sanoqli kunlarda barchamiz uchun muqaddas bo'lgan Ramazon oyi ham kirib keladi. Ushbu oyda fuqarolarimiz ehtiyojmand va muhtoj oilalarga yordam ko'rsatishlari ham qarz, ham farzdir. Shuning uchun, ushbu muqaddas oyda har bir tadbirkor o'ziga xolis majburiyat olgan holda, o'zi faoliyat yuritayotgan hududda ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini faol qo'llab-quvvatlashi bo'yicha taklif kiritmoqchiman.

Ya'ni, Ramazon oyida va keyingi uch oyda amalga oshiriladigan ehsonlarimiz va xayriyalarni manzilli qilaylik, iftorliklarga sarflanadigan mablag'lar va oziq-ovqatlarni muhtojlarga yo'naltiraylik.

Imkoniyatidan kelib chiqib, qaysidir tadbirkor bir oyda 10 ta, boshqa biri esa 20 ta oilani ro'zg'origa ko'maklashishi mumkin. Shuningdek, tadbirkorlar muhtoj oilalar a'zolarini ishga jalb qilishi ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'z navbatida, davlat tomonidan shunday tadbirkorlarga bergan yordamlari uchun turli kompensatsiyalar qo'llash yo'llari ishlab chiqiladi.

Misol uchun, 10 ta oilaga ko'maklashgan tadbirkorga tegishli bank tomonidan kredit bo'yicha to'lovlar qo'shimcha ma'lum muddatga cho'zib beriladi. To'lanadigan soliq miqdorining ma'lum bir foizi bo'yicha qo'shimcha «ta'til» berilishi mumkin.

Agar yordam beruvchi inson fermer bo'lsa, qishloq xo'jaligi texnikasini lizing yoki kreditga sotib olsa, uning ham to'lov muddatlarini yana uzaytiramiz. O'g'itlar va yoqilg'i sotib olishda ham imtiyozlar taqdim etiladi.

Xuddi shunday agar tadbirkor 20 ta oilaga yordam ko'rsatsa, beriladigan imtiyozlar hajmi va muddatlari ham kattaroq bo'ladi. Ushbu jarayonda yirik korxonalar ham chetda qolmasligi kerak. Ularning joylardagi tarkibiy bo'linmalari ham faol qatnashishi lozim.

Bu jarayon byurokratiya va hech qanday to'sqinliksiz joylarda sifatli tashkil etilishi shart. Ya'ni, barcha ishlar tuman hokimi va sektor rahbarlari tomonidan to'liq tashkil etilishi zarur.

Barcha darajadagi hokimlar, sektor rahbarlari joylardagi Savdo-sanoat palatasi bo'limlari, banklar, ijtimoiy muhofaza qilish idoralari bilan birgalikda bir hafta muddatda ushbu tashabbusni amalga oshirish uchun tadbirkorlar bilan yaqindan ishlashni boshlasin.

Birorta tadbirkor yoki fermerni majburlamaymiz. Ularga og'irlik tushmasin. Ularga kredit ta'tili beriladi. Kerak bo'lsa, foizsiz. Yoqilg'ini, o'g'itni 15 foiz arzon qilib beramiz. Bankdan olgan kreditning muddatini cho'zib beramiz. U muruvvat ham qiladi, shu bilan birga ulug' ayyom kunlarida Xudoning oldida ham bag'rikeng bo'lib, yuzi yorug' bo'ladi. Lekin hamma xarajatni, hamma mas'uliyatni davlat o'z zimmasiga oladi. Tadbirkor qiynalgan oilalarga yordam berib, davlatimizga yordam beradi. Lekin ular 10 ta, 100 ta oilaga yordam bersin. Hozirgiday 1 kilo emas, kamida 15 kunga yetadigan oziq-ovqat bilan ta'minlashi kerak: 10 kilo go'sht, 1 qop kartoshka, shuncha guruch va hokazo.

Lekin birorta tadbirkorga ortiqcha xarajat tushmasligi kerak. Ular og'rinmasligi kerak. Ular kam ta'minlangan, muhtoj oilalarga yordam bersa, davlat ularga boshqa taraflama ko'maklashadi.

Qiynalgan va muhtoj oilalarning bittama-bitta ro'yxatini qilib, ularga moddiy yordam beribgina qolmasdan, kelajakda ularni ish bilan ham ta'minlaydi. Asosiysi shu. Ularni oylik bilan ta'minlaydi.

Har bir odam davlatimiz ko'magini sezishi kerak. Tadbirkor yoki fermer qancha ko'proq oilaga ko'mak bersa, davlatdan ham shuncha ko'proq imtiyoz va yordam oladi. Bu ishlarni korrupsiyasiz, har bir inson «bu mening eng mehribon vatandoshim, qo'shnim,

qarindoshim», deb qilishi kerak. Mehr bilan qilishi kerak. Hamma narsani davlat bo'yniga oladi.

Saxovat va ko'mak umumxalq harakatiga hissa qo'shganlarga hali alohida qarorlar bo'ladi, ularga minnatdorchilik, katta-katta mukofotlar bo'ladi.

Bizning xalqimiz juda bag'rikeng. Mana shu jarayonda xalqimiz jipsligini namoyon etib, ularning qaddini yanada ko'tarib olishimiz kerak. Bu harakatga yordam bergan odamlar aslida el-u yurtida ham barakali bo'lib, xalqimiz orasida obro' topadi.

Ishonamanki, «Saxovat va ko'mak» umumxalq harakati a'zolari haqida, ularning qilgan yaxshiliklari haqida gazeta, televideniye, radioda, internetda xalqimiz nomidan minnatdorchiliklar, materiallar e'lon qilib boriladi. Shoirlarimiz she'rlar yozadi. Kitoblar yoziladi. Mana shunday og'ir kunlarda saxovat va ko'mak harakatiga hissa qo'shgan barchani – shifokorlarni ham, saxovat ko'rsatgan bag'rikeng tadbirkorlarimizni ham, klasterlar, fermerlarimizni ham, katta-katta korxonalarini ham qo'shgan hissalarini batafsil yozamiz. Xalqimiz o'z qahramonlari haqida bilishi kerak. Bu tarixda qoladi.

Bugun biz ko'rinmas dushman bilan kurashayapmiz. Bu virus – bu dushman bizdan o'n karra aqlli va jaholatli. Bu inson umri bilan bog'liq bo'lgan hayot-mamot jangi, desak, buyam haqiqat bo'ladi. Bu xuddi Ikkinchi jahon urushidagidek urush, jang. Bunday hodisa qachon bo'lgan? Hech qachon bo'lmagan.

Koronavirus pandemiyasi ta'sirini yumshatish, aholi bandligini ta'minlash va iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolish borasida katta imkoniyatlarga ega bo'lgan «drayver» sohalardan biri – bu qurilish tarmog'i hisoblanadi.

Qurilish sohasi ko'plab sanoat tarmoqlari uchun ham talab yaratadi. Shuningdek, bu soha 1 million 375 ming nafar aholini ish bilan band qilishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, koronavirus pandemiyasi sababli qaytib kelib, uyida o'tirgan 500 ming nafardan ziyod mehnat migrantlarini ham ish bilan ta'minlash zarurati mavjud.

Shu sababli, karantin davrida qurilish hajmlari kamayishiga mutlaqo yo‘l qo‘ymaslik maqsadida, qurilish sohasiga qo‘shimcha 3,3 trillion so‘m mablag‘ ajratdik.

Karantin qoidalariga to‘liq rioya qilgan holda, barcha qurilishlarni davom ettirishga ruxsat beriladi, qurilish korxonalarini va qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarning obyektlarga borishi uchun to‘siqsiz harakatlanishiga sharoit yaratiladi.

Umuman olganda, uy-joy qurilishi bo‘ladimi yoki infratuzilma obyektlari bo‘ladimi, qurilish sohasi – bu yangi ish o‘rinlarini yaratish, bozorda talab va taklifni shakllantirish, pirovardida iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash uchun katta imkoniyat va zaxira hisoblanadi.

Tarmoq rahbarlari o‘zlariga yuklatilgan mas‘uliyatni chuqur his etib, ishlarni to‘g‘ri tashkil etsalar, albatta iqtisodiy inqirozdan imkon qadar kam yo‘qotishlar bilan chiqib ketamiz.

*Sanoat, qurilish va infratuzilma tarmoqlari
korxonalarining to‘liq ishlashini ta‘minlash
masalalari bo‘yicha videoselektor
yig‘ilishidagi ma‘ruzadan*

2020-yil 20-aprel

XALQIMIZNING OLIJANOBOB FAZILATLARI YANA BIR BOR SINOVDAN O'TMOQDA

Bugungi kunga qadar yuzlab yurtdoshlarimiz bu kasallikdan xalos bo'lib, reabilitatsiya rejimiga o'tkazilgani barchamizga, butun el-yurtimizga katta kuch beradi.

Yuzaga kelgan vaziyatni to'g'ri tushunib, karantin qoidalariga og'ishmay amal qilayotgan, ko'rilayotgan chora-tadbirlarni keng qo'llab-quvvatlayotgan barcha yurtdoshlarimizga yana bir marta rahmat aytaman.

Fursatdan foydalanib, kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan, haqiqiy qahramonlik ko'rsatib, ushbu kasallikka qarshi kurashayotgan jonkuyar shifokorlarimizga, ular bilan bir safda turib xizmat qilayotgan xorijiy vrachlarga, shuningdek, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar va Mudofaa vazirliklari hamda Milliy gvardiya xodimlariga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan yana bir bor minnatdorlik bildiraman.

Muhtaram do'stlar!

20-aprel kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida biz xalqaro va milliy talablarga to'liq amal qilgan holda, mamlakatimizda karantin rejimini bosqichma-bosqich yumshatish, shu asosda tezroq normal hayotga qaytish bo'yicha dastlabki chora-tadbirlarni belgilab olgan edik.

Bugungi kunda virusdan xoli hududlardagi bir qator sanoat korxonalarida, qurilish maydonlarida, fermer va klaster xo'jaliklarida, sanitariya-epidemiologik normalarga qat'iy amal qilgan holda, ishlar asta-sekin boshlandi.

Ayniqsa, «Ko'klamning har bir dami – g'animat!» degan da'vatni o'zlari uchun hayotiy shiorga aylantirib, dalalarimizda, tomorqalarda

ter to'kib, halol mehnat qilayotgan fidoyi dehqon va fermerlarimizga, klaster xo'jaliklari rahbarlari va ishchi-xizmatchilariga o'z rahmatimni aytaman.

Albatta, biz koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashni bir lahza ham to'xtatmaymiz. Bu odamlarimiz, aholimizning sog'ligi, hayoti bilan bog'liq o'ta muhim masala.

Ayni paytda biz 34 millionli xalqimizni oziq-ovqat va boshqa zarur mahsulotlar bilan kafolatlangan holda ta'minlash, fuqarolar daromadining pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, yordam va ko'makka muhtoj yurtdoshlarimizni qo'llab-quvvatlashdek g'oyat dolzarb vazifani ham kechiktirmasdan hal qilishimiz kerak. Buning uchun iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlari barqaror ishlashi shart. Ko'rinib turganidek, biz bir vaqtning o'zida qator murakkab vazifalarni yechishimiz zarur.

Hozirgi og'ir paytda aholimizning yordam va ko'makka muhtoj qatlamlarini aniq, manzilli asosda qo'llab-quvvatlash maqsadida «Saxovat va ko'mak» umumxalq harakatini yo'lga qo'yish haqidagi tashabbusni xalqimiz, jamoatchiligimiz ko'tarinki ruhda, qizg'in kutib olgani barchamizni, albatta, xursand qiladi. Bu masala bo'yicha muhtaram faxriylarimiz, olimlar, madaniyat va san'at arboblari, hurmatli ulamolarimiz, biznes hamjamiyati vakillari, yoshlarimiz tomonidan televideniye va gazetalarda, ijtimoiy tarmoqlarda bildirilayotgan fikrlar, samimiy munosabat bunday ezgu intilish xalqimizning yuragida, qalbida mujassam ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

Bu samimiy fikr-mulohazalar el boshiga ish tushgan qiyin damlarda bir-biriga yelkadosh bo'lish, bir-biriga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish kabi eng olijanob fazilatlar xalqimizning yuragida, qalbida azaldan mujassam bo'lganini, bugun ushbu intilishlar yanada kuchliroq jo'sh urayotganini namoyon etadi.

Shu ma'noda, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy bobomizning «**Saxovatli insonning boshiga jannat daraxtlari soya soladi**» degan so'zlarida chuqur hikmat bor, albatta.

Men ana shu tashabbusni chin dildan qo'llab-quvvatlab, bu savobli ishga munosib hissa qo'shayotgan barcha vatandoshlarimizga, saxovatli tadbirkorlarimizga muqaddas kitoblarimizda aytilgan «**Yaxshilikning mukofoti – faqat yaxshilikdir**», degan gapni yana bir bor eslatmoqchiman.

Albatta, ehtiyojmand, kam ta'minlangan insonlar va oilalarga mehr va hurmat bilan yordam qo'lini cho'zadigan barcha tadbirkorlar va fermerlarga, xo'jalik birlashmalari vakillariga, vazirlik, idora va tashkilotlarning ishchi-xodimlariga bu qilgan yaxshiliklari bir necha bor ziyoda bo'lib qaytadi.

Ta'kidlab aytaman: o'z navbatida, davlatimiz, jamiyatimiz saxovatpesha tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Ularga hech qanday og'irlik tushmaydi. Shu ma'noda, «Saxovat va ko'mak» umumxalq harakati davlatimiz va xalqimiz birligini, uning beqiyos qudratini yorqin namoyon etib, yangi tariximiz sahifalaridan mustahkam o'rin oladi, deb ishonaman.

Mana, jonajon Vatanimizga Ramazoni sharif kirib kelmoqda. Ushbu ulug' ayyom munosabati bilan nuroniy otaxon va onaxonlarimizni, qadrli aka-uka, opa-singillarimizni, iymon-e'tiqodli xalqimizni chin qalbidan muborakbod etaman.

Barchangizga tinchlik-omonlik, oilaviy xotirjamlik, baxt-u saodat yor bo'lishini tilayman.

Bugungi o'tkinchi qiyinchiliklarga qaramasdan, Ramazoni sharif har doimgidek xonadonlarimizga, dillarimizga quvonch, yurtimizga fayz-u baraka baxsh etadi, bir-birimizga bo'lgan mehr-oqibatimizni yanada ziyoda qiladi, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, uzoq-yaqin mamlakatlardagi mo'min-musulmon birodarlarimizni ham samimiy tabriklab, ularga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan tinchlik va farovonlik tilayman.

Hammamizga ayonki, Alloh taoloning marhamati bilan Ramazon oyida ezgu niyatlar ijobat bo'ladi.

Mana shu muborak oyda barchamiz tutgan ro'zalarimiz, qilayotgan duoyi fotihalarimiz, xayrli amallarimiz sharofati bilan barcha mamlakatlar qatori el-yurtimizni ham ushbu ofatdan tezroq xalos etishini Yaratgan Parvardigordan so'rab qolamiz.

*Aholi bandligi masalasiga bag'ishlab
o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi
avvalida koronavirus infeksiyasiga
qarshi kurash doirasidagi so'z*

2020-yil 22-aprel

HAMJIHATLIK VA MEHR-OQIBAT BILAN

Hurmatli selektor ishtirokchilari!

Kun tartibidagi asosiy masalalarga o'tishdan oldin, shuni aytmoqchimanki, «oynayi jahon»da ko'rgan bo'lsalaringiz kerak, men kecha Buxoro viloyatida bo'lib, yuzaga kelgan vaziyat bilan yaqindan tanishdim. Bu yerda yuz bergan tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha Respublika komissiyasi faol ish olib bormoqda. Bu ishlar uchun respublika budjetidan Buxoro viloyatiga 100 milliard so'm ajratildi.

Takror aytaman, bironta ham yurtdoshimizni, bironta ham oilani ushbu kutilmagan falokat qarshisida yolg'iz qoldirmaymiz, barcha zarur yordam albatta ko'rsatiladi.

* * *

Endi respublikadagi epidemiologik vaziyat va pandemiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarga to'xtalsak. Bugungi kunda respublikamiz bo'yicha ushbu kasallikka chalingan 1066 nafar yoki 55 foiz bemorlar to'liq sog'ayganini va oxirgi 5 kun ichida 505 nafar bemor sog'ayganini alohida qayd etmoqchiman. Qolgan 894 nafar bemorni ham davolash yuzasidan, o'zimizda amaliy yordam berayotgan 18 nafar xitoy, nemis, koreys vrachlar hamda telemeditsina orqali yetakchi xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilgan holda, barcha zarur choralar ko'rilmoqda.

Mamlakatimiz tibbiyot xodimlarining bugungi kunda kasallikka qarshi olib borayotgan mashaqqatli va o'ta mas'uliyatli mehnatini munosib qadrlash va rag'batlantirish uchun kuni kecha men yana bir muhim qarorni imzoladim. Unga ko'ra, sanitariya-epidemiologiya xizmatining qariyb 11 mingga yaqin barcha toifadagi tibbiyot xodimlarining ish haqi 2,5 baravarga oshirildi.

Umuman, karantin qoidalarini o'z vaqtida joriy etganimiz va xalqimiz unga sabr-toqat bilan amal qilayotgani sababli, ko'plab tuman va shaharlarda infeksiya tarqalishiga yo'l qo'yilmadi. Shu o'rinda ko'nglimdagi bir fikrni jamoatchiligimiz, xalqimizga ochiq aytmoqchiman. Mana, bir yarim oydan oshdi – el-yurtimiz «uyda qoling» degan da'vatga amal qilib, sabr-chidam ko'rsatib, karantin sharoitida yashamoqda. Oilam, bola-chaqam, deb tinib-tinchimaydigan, erta-yu kech g'ayrat bilan mehnat qiladigan xalqimiz uchun bunday majburiy holat albatta oson bo'layotgani yo'q. Minglab vatandoshlarimiz og'ir sinov kunlarida chinakam sabr-toqat va mas'uliyat, mehr-oqibat fazilatlarini namoyon etyaptilar. Buni jahon hamjamiyati ham tan olib, har tomonlama e'tirof etmoqda.

Bugungi fursatdan foydalanib, pandemiyaga qarshi kurashning oldingi saflarida chinakam qahramonlik ko'rsatayotgan barcha shifokorlarimizga, shu jumladan, tez yordam xizmati xodimlari va haydovchilariga yana bir bor chuqur minnatdorchilik bildiraman. Bu jarayonda o'zini ayamadan xizmat qilayotgan huquq-tartibot idoralari xodimlariga, mard va jasur harbiylarimizga, vazirlik va idoralar, hokimliklarning rahbarlari va xizmatchilariga samimiy tashakkur izhor etaman.

Muhtaram nuroniylarimiz va mahalla faollariga, saxovatli tadbirkorlarimizga, olimlarimiz, o'qituvchi va domlalar, ijodkor ziyolilarimiz, imom-xatiblarimizga chin dildan rahmat aytaman.

Hozirgi murakkab vaziyatda o'z professional burchini vijdonan bajarayotgan ommaviy axborot vositalari vakillariga, insonparvarlik namunasini ko'rsatib, ko'ngilli bo'lib volontyorlik harakatida faol qatnashayotgan fidoyi yoshlarimizga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan katta minnatdorchilik bildiraman.

Barchangizni Alloh taolo o'z panohida asrasin, oilangiz, farzandlaringiz, xalqimiz baxtiga doimo omon bo'ling!

Iloyo, barcha ezgu niyatlarimiz amalga oshsin!

Hurmatli do'stlar!

Respublikamizda sanitar-epidemiologik vaziyat asta-sekin barqarorlashib borayotganini hisobga olib, mutaxassislar bilan

maslahatlashgan holda, karantindan bosqichma-bosqich chiqish bo'yicha navbatdagi qadamlarni qo'yish vaqti keldi. Chunki hayot davom etmoqda. Biz ertangi kun haqida, el-yurtimizning kelajagi to'g'risida har daqiqa o'ylashimiz kerak.

Birinchidan, sanitariya-epidemiologik holatning ijobiy dinamikasi, ob-havo sharoiti va fuqarolarning ko'plab murojaatlarini inobatga olgan holda, shahar va tumanlardagi ko'pqavatli uylarning ichki hovli va hududlarida ota-onalar hamrohligida bolalarni sayr qildirishga ruxsat berish kerak. Bunda, albatta, xavfsizlik choralariga qat'iy amal qilish talab etiladi.

Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov) va Milliy gvardiya (R. Jo'rayev) ushbu topshiriqning ijrosini so'zsiz ta'minlash chorasini ko'rsin.

V. Mahmudov boshchiligidagi ishchi guruh Toshkent shahrida bu ishlarning namunali tashkil etilishini nazoratga olsin.

Ikkinchidan, pishib yetilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari nobud bo'lishining oldini olish maqsadida aholi talablaridan kelib chiqib, fermer va dehqonlarimiz tomonidan yetishtirilgan meva-sabzavot, poliz va ko'kat mahsulotlarini joylarga yetkazish va sotish uchun viloyatlararo va shaharlararo qatnovlarni amalga oshirishga ruxsat berish lozim.

Misol uchun, ilgari Farg'ona vodiysidan Qamchiq dovoni orqali poytaxtimiz va boshqa viloyatlarga katta hajmdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berilardi. Hozir esa dovondan o'tish yo'li yopib qo'yilgan. Yoki Samarqand viloyatidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va boshqa hududlarga ham ko'plab qishloq xo'jaligi mahsulotlari olib borilardi. Bu ishlar ham hozir to'xtab turibdi. Shuning uchun Bosh prokuror N. Yo'ldoshev boshchiligidagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash komissiyasiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini joylarga yetkazib berish bo'yicha 24 soat uzluksiz ishlaydigan tizim tashkil qilish topshiriladi.

Ichki ishlar vazirligi (Sobirov) dehqon va fermer xo'jaliklarining avtotransport vositalarini hududlararo postlarda kutib olish, ularni mahallalardagi savdo nuqtalariga tartib bilan kuzatib borishni ta'minlasin.

Davlat soliq qo'mitasi (B.Musayev), Bosh prokuratura (N.Yo'ldoshev), Ichki ishlar vazirligi (Bobojonov) sotish uchun olib kelinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini joylarda aholi talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, savdo maydonchalari va yarmarkalarga yo'naltirib borsin.

Uchinchidan, aholi orasida kasallikka chalinish dinamikasi pasayib borayotganini inobatga olib, fuqarolarimiz tomonidan shaxsiy avtotransportdan foydalanishga cheklovlarni ham sekin-asta yumshatish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Respublika komissiyasi (A.Aripov) tegishli cheklovlar o'rnatilgan hududlarda aholi tomonidan ertalab soat 7:00 dan 10:00 gacha hamda kechqurun 17:00 dan 20:00 gacha shaxsiy avtomashinalardan foydalanishga ruxsat berilishini ta'minlasin.

Bunda quyidagi qoidalar belgilansin.

Shaxsiy avtotransportdan, birinchi navbatda, fuqarolarimizning ish joyiga, tibbiyot muassasalariga borishi va uyiga qaytishi, iste'mol mahsulotlari, dori-darmon va tibbiy buyumlarni xarid qilishi uchun foydalanishi mumkin.

Maxsus ruxsatnomalarga (stikerlarga) ega va yetkazib berish xizmatini ko'rsatayotgan fuqarolar esa shaxsiy avtotransportda hech qanday cheklovsiz harakatlanishi mumkin.

Ichki ishlar xodimlari bu masalaga oqilona yondashib, vaziyatdan kelib chiqqan holda, to'g'ri qarorlar qabul qilishiga, fuqarolarimizga qonuniy asosda, shu bilan birga, madaniyat va odob bilan munosabatda bo'lishlariga ishonaman.

Shu bilan birga, hurmatli olimlarimizga, ilmiy tadqiqot institutlari xodimlariga, professor-o'qituvchilarimizga sanitariya-gigiyena normalarini ta'minlagan holda, o'z laboratoriya va kafedralarida kundalik ishlarini davom ettirishga ijozat berish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Ular ilmiy va o'quv jarayonlarini tashkil etishga asta-sekin tayyorgarlik ko'rib borishlari lozim.

Xudo xohlasa, vaziyatimiz yaxshilanib, ijobiy tomonga o'zgarib borishi bilan, 10-maydan keyin biz karantin rejimini bosqichma-bosqich yumshatishga qaratilgan ishlarimizni yanada dadilroq davom

ettiramiz. Lekin takror va takror aytaman: hamma joyda sanitariya talablariga amal qilishga birinchi darajali masala, deb qarashimiz kerak.

Mamlakatimizda pandemiyaga qarshi kurashish borasida o'tgan vaqt mobaynida muhim tajriba orttirildi.

Endi ana shu tajribadan yuqumli kasalliklarning oldini olish va ularga qarshi kurashish, sanitariya-gigiyena qoidalariga qat'iy amal qilish hamda tibbiy madaniyatni oshirish yo'lida samarali foydalanishimiz zarur.

Ta'kidlab aytaman, agar bu talablarga barchamiz qat'iy amal qilmasak, shuncha qilgan ishlarimiz, ko'rgan chora-tadbirlarimiz zoye ketishi mumkin.

Eng asosiysi, har birimizning sog'lig'imiz o'zimizga va ayni vaqtda butun xalqimizning sog'lig'i har birimizga, bizning ong-u tafakkurimiz, tartib-intizom va sabr-bardoshimizga bog'liq ekanini, barchamiz hech qachon unutmashimiz shart.

Hurmatli selektor qatnashchilari!

20-apreldagi selektor yig'ilishida virusdan xoli tuman (shahar)larda karantin qoidalariga qat'iy amal qilgan holda, korxonalar faoliyatini tiklash bo'yicha topshiriq berilgan edi.

Yana bir bor takrorlayman, birinchi navbatda, shoshilmasdan, puxta o'ylab, karantin qoidalariga to'liq amal qiladigan korxonalar ishini tiklash lozim. Bu borada Namangan viloyatida faoliyatini to'xtatgan yoki past quvvatda ishlayotgan 10 mingdan ziyod korxonadan 2 ming 854 tasining ishini tiklash bo'yicha qaror qabul qilingan. Yana 851 tasining ishlashiga ruxsat berish masalasi o'rganilmoqda.

Xorazm viloyatida 3 ming 350 ta ishlamayotgan korxonadan 448 tasining faoliyati tiklanadi, 409 tasi bo'yicha o'rganish o'tkazilmoqda.

Jizzax viloyatida ish quvvatini pasaytirgan 6 mingdan ziyod korxonadan 534 tasining faoliyatini tiklash bo'yicha qaror qabul qilingan, 332 tasiga ruxsat berish masalasi ko'rib chiqilmoqda.

Toshkent viloyatida ish hajmi keskin pasayib ketgan 14 mingta korxonadan 5 ming 399 tasining faoliyatini tiklash bo'yicha qaror qabul qilingan, 2 ming 833 tasi bo'yicha o'rganish davom etmoqda.

Bugun hokimlar va sektor rahbarlari o'z hisobotida korxonalar faoliyatini tiklash bo'yicha ishlarni qanday tashkil etgani va ularda karantin qoidalari to'liq bajarilishini shaxsan kafolatlashi to'g'risida axborot berishi kerak.

Navbatdagi muhim masala – kam ta'minlangan va karantin sababli ishsiz qolgan aholini nomma-nom aniqlab, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash ishlari joylarda qanday tashkil etilmoqda?

Shu munosabat bilan hokimlar va sektor rahbarlari har bir xonadon bo'yicha ochilgan «oilaviy daftar»larga bu oilalarning qanday muammolari aniqlangani, ularni qachon va qanday hal etish to'g'risida tegishli ma'lumotlar kiritib borishlari zarur.

Ma'lumki, iqtisodiyot o'sishini va aholi bandligini ta'minlashning eng muhim yo'nalishi – investitsiya loyihalarini amalga oshirish va yangi korxonalarni ishga tushirish hisoblanadi.

Endi karantin sababli qurilishlar to'xtab qoldi, degan bahona ketmaydi.

20-apreldagi selektorda qurilish sohasidagi ishlarni davom ettirish bo'yicha aniq topshiriqlar berildi.

Hokimlar Investitsiya va hududiy dasturlarga kiritilgan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini alohida nazoratga olib, yuzaga kelayotgan barcha muammolarni hal etishda yordam berishlari kerak bo'ladi.

Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash va narx-navo barqarorligini saqlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi avvalida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash borasidagi so'z

2020-yil 29-aprel

OFAT VA MATONAT

Hurmatli selektor ishtirokchilari!

Avvalo, bugungi kunda eng dolzarb masala bo'lgan koronavirus pandemiyasi haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Butun insoniyat koronavirus bilan birga, iqtisodiy inqirozga ham qarshi kurashayotganini hammamiz ko'rib, kuzatib turibmiz. Jahonda murakkab vaziyatdan chiqish uchun karantin choralarini asta-sekin yumshatayotgan davlatlar soni ko'payib bormoqda. Yaratganga shukurki, bugun O'zbekistonda epidemiologik vaziyat kundan kunga tobora barqarorlashib boryapti. Har kuni kasallikka chalinganlarga nisbatan, sog'aygan bemorlar soni ko'paymoqda. Karantinga yangi olinganlarga nisbatan, ancha ko'p odam karantindan chiqarilmoqda. Natijada bugungi kunda koronavirus yuqtirgan 2 ming 204 nafar bemordan 1 ming 454 nafari yoki 66 foizi to'la sog'aydi.

Karantindagi aholining 83 foizi o'z uyiga qaytdi. Ya'ni, ijobiy dinamika kuchayib bormoqda.

Shifoxonalarda qolayotgan 740 nafar bemorni davolash, salomatligini tiklab, oilasi bag'riga qaytarish uchun barcha zarur choralar ko'rilmogda. Bu ishlar osonlikcha bo'layotgani yo'q. Hozirga qadar bunga Inqirozga qarshi kurashish jamg'armasidan 2 trillion 250 milliard so'm sarfladik va 500 million dollar xalqaro moliya institutlaridan jalb qildik.

Bugungi kunda butun dunyoda hech kim pandemiya yana qancha davom etishini bilmayapti. Shu sababli qanchalik qiyin bo'lmasin, xalqimiz bilan birga pandemiya sharoitida, barcha talablarga amal qilgan holda, ishlash va yashashga o'rganishimiz kerak.

Hozir epidemiologik vaziyat ijobiy tomonga o'zgarganidan foydalanib, biz iqtisodiyotimizda karantin rejimini asta-sekin yumshatmasak bo'lmaydi. Chunki bu tartib iqtisodiyotimiz rivojiga va aholimiz hayotiga juda katta salbiy ta'sir qilmoqda. Bu borada

xalqimizga, ayniqsa, fermer va tadbirkorlarga qulaylik yaratish uchun karantin talablarini yumshatish bo'yicha dastlabki qadamlarni qo'ydik. Ushbu ishlarni davom ettirish maqsadida, barcha hududlar rahbarlarining yozma takliflarini oldik va ular asosida karantindan bosqichma-bosqich chiqish mexanizmlarini bugungi yig'ilishda sizlar bilan muhokama qilib olamiz.

Aziz do'stlar!

Bu yil insoniyat uchun, shu jumladan, biz uchun ham juda og'ir keldi. Keyingi bir haftaning o'zida xalqimiz ketma-ket kutilmagan sinovlarga duch keldi. 27-aprel kechasi Buxoro viloyatida, ayniqsa, Olot va Qorako'l tumanlarida yuz bergan og'ir tabiiy ofatdan yaxshi xabardorsizlar. Bu ofat viloyat bo'yicha 38 mingdan ziyod aholi xonadonlari, 847 ta ijtimoiy soha obyektlariga, ekin maydonlariga zarar yetkazdi. Qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va infratuzilma sohalariga ham jiddiy talafot yetdi.

Biz tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha, barcha zarur choralarni ko'ryapmiz. Hukumat komissiyasi tun-u kun ishlamoqda. Bugungacha 70 foiz ijtimoiy obyektlar, 20 foiz aholi xonadonlarining tomi yopildi. Shuningdek, 5 ming kilometr elektr tarmoqlari, 1 ming 100 ta transformator ta'mirlanib, 286 ming aholining elektr ta'minoti tiklandi. Yakka tartibdagi uy-joylar ham ta'mirlanmoqda.

Afsuski, boshimizga kelgan sinovlar shu bilan tugagani yo'q.

Xabaringiz bor, Sirdaryo viloyatidagi «Sardoba» suv omborida sodir bo'lgan favqulodda vaziyat tufayli Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlaridagi 24 ta mahalladan 90 mingga yaqin fuqaro, zudlik bilan xavfsiz hududga evakuatsiya qilindi. Ularning barchasiga birinchi darajali zarur sharoitlar yaratilib, ular oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlanmoqda.

Suv toshishi oqibatlarini bartaraf etish va sabablarini o'rganish bo'yicha Hukumat komissiyasi ishlamoqda. Zarar yetgan uy-joylarni tiklash va ta'mirlash, aholini o'zining tiklangan uyiga qaytarish va ro'zg'origa yordam berish, infratuzilmani qaytadan tiklash, aholi salomatligini himoya qilish bo'yicha barcha masalalar hal qilinmaguncha Sirdaryoga biriktirilgan hamma rahbarlar,

kuchaytirilgan safarbarlik rejimida ishlaydi. Bu hududlardagi odamlarning hayotini nafaqat oldingi holatiga qaytarish, balki uni yanada yaxshilash kerak. Ularga yangi uy-joylar, ijtimoiy obyektlar, yangi ish o'rinlari barpo etib berishimiz shart, deb hisoblayman.

Bugungi kunda qator mahallalarda keng qamrovli tozalash-tiklash ishlari amalga oshirilib, natijada 53 mingdan ziyod aholi o'z uylariga qaytishi yoki yaqin qarindoshlari uyiga ko'chib o'tishi ta'minlandi.

Takror aytaman, davlatimiz, jamiyatimiz hech kimni bunday kutilmagan falokatlar qarshisida yolg'iz va e'tiborsiz qoldirmaydi.

Aholimiz hayotini saqlab qolish va evakuatsiya qilishda Favqulodda vaziyatlar, Ichki ishlar va Mudofaa vazirliklari, Milliy gvardiya xizmatchilari muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda ular avariya va tiklash ishlariga keng jalb etilgan.

Afsuski, hozirgacha 4 nafar fuqarolarimizning tabiiy ofat oqibatida halok bo'lgani, 1 nafari bedarak yo'qolgani aniqlandi. Jumladan, aholini xabardor qilish va qutqaruv ishlarini olib borish jarayonida Milliy gvardiyaning 2 nafar xodimini kuchli suv oqimi olib ketgan. Ular o'z jonini fido qilib, yuzlab-minglab insonlar hayotini saqlab qolishdi.

Halok bo'lganlarning yaqinlari va oila a'zolariga o'zimning chuqur hamdardligimni bildiraman.

Yigitlarimizning jasorati barcha kasbdoshlari va yoshlar uchun Vatanga, xalqimizga sodiqlik va fidokorona xizmat qilishning namunasi bo'lib qoladi.

Albatta, Buxoro va Sirdaryodagi ofatlar Yaratganning bizga yuborgan sinovi. Bunga sabr qilishimiz, qattiq mehnat bilan, birgalikda yorug' yuz bilan o'tishimiz kerak. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, xalqimiz bu sinovlar oldida o'zini yo'qotib qo'ymaganini alohida ta'kidlamoqchiman.

Mana, «oynayi jahon» orqali ko'ryapsizlar, xalqimiz yanada birlashib, o'zining mehr-oqibati, bag'rikengligi, buyuk saxovatini har kuni, har daqiqada namoyon etmoqda. Buni Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlaridan ko'chirilgan fuqarolarning 81 foizini

Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlari aholisi, ixtiyoriy ravishda o'z xonadonlariga joylashtirgani ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Boshqa viloyatlar, vazirlik, kompaniya va uyushmalar, aholimiz tomonidan qisqa vaqtda Buxoro va Sirdaryoga yordam berish uchun katta miqdordagi homiylik mablag'lari o'tkazildi, qurilish materiallari, oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va ro'zg'or buyumlari yuborildi.

Fursatdan foydalanib, jabr ko'rganlarga yordam ko'rsatayotgan bag'rikeng, saxovatpesha va hamdard xalqimizga yana bir bor o'zimning samimiy minnatdorchiligimni izhor etaman.

Xalqimiz bir narsadan ko'ngli to'q bo'lishi, hech qanday ortiqcha gap-so'zlarga va mish-mishlarga o'rin bo'lmasligi kerak.

Mening topshirig'imga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan suv toshqini bilan bog'liq voqea yuzasidan obyektiv, xolis va keng qamrovli tergov harakatlari boshlangan. Xalqimizni ishontirib aytaman, tergov yakunlari bo'yicha barcha aybdorlar kim bo'lishi va egallab turgan lavozimidan qat'i nazar, qonun oldida javob beradi.

Bu suv toshqini biz uchun achchiq saboq bo'ldi. Shu sababli suv ombori masalasida biz xalqaro ekspertlarni jalb etgan holda, to'g'onning barcha dambalarini chuqur ekspertizadan o'tkazamiz. Faqat shundan keyingina yakuniy xulosaga kelamiz. Shuningdek, mening topshirig'imga ko'ra, hozirgi kunda tegishli davlat organlari tomonidan kuchli yog'ingarchilik sababli eroziya yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha gidroinshootlar, to'g'onlar va GESlarda tekshiruv ishlari olib borilmoqda.

Afsuski, Sardobadagi ofat natijasida, biz bilan chegaradosh bo'lgan yon qo'shnimiz – Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyati Maqtaral tumanining ayrim aholi punktlarini ham suv bosdi.

Biz Qozog'iston Prezidenti, hurmatli Qosim-Jomart Toqayev bilan telefon orqali bu masalani o'zaro tushunish va ochiqlik ruhida atroflicha muhokama qilib oldik. Kuni kecha Turkiston viloyati hokimi Umirzoq Shukeyev boshchiligidagi delegatsiya voqea joyida bo'lib, vaziyatni har tomonlama chuqur o'rgandi.

Biz qardosh qozoq xalqi bilan azal-azaldan bir daryodan suv ichib, o'zaro quda-anda bo'lib, et bilan timoqdek yaqin bo'lib yashaganmiz. Quvonchli kunlarda ham, sinovli damlarda ham hamisha bir-birimizga yelkadosh bo'lib, qo'llab-quvvatlab kelganmiz. Ushbu kutilmagan texnogen ofat – nafaqat aholimizga, balki qo'shni qozoq birodarlarimizga ham ortiqcha tashvish va ziyon yetkazganidan judayam xijolatdamiz. Ularning aholi yashash joylari va ekin maydonlari zarar ko'rganidan albatta biz juda afsusdamiz.

Hukumatimiz, tegishli vazirlik va idoralar, mahalliy hokimliklar, boshqa mutasaddi va mutaxassislar qozog'istonlik hamkasblari bilan birgalikda, tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha albatta yaqindan hamkorlik qiladi.

Biz qozog'istonlik birodarlarimizga tabiiy ofat oqibatlarini bartaraf etishda kerakli yordam berishga ham tayyor ekanimizni bildirdik.

Ishonchim komil, biz boshimizga tushgan bu og'irliklarni ham xalqimiz bilan birgalikda, o'zaro hamjihatlikda bir tan-u bir jon bo'lib, albatta yengib o'tamiz.

*Koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash
hamda Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida
yuz bergan favqulodda hodisalar bo'yicha
o'tkazilgan videoselektordagi nutqdan*

2020-yil 5-may

The text on this page is extremely faint and illegible. It appears to be a list or a series of entries, possibly related to a historical or scientific record. The text is arranged in several columns and rows, but the individual words and phrases cannot be discerned. The overall appearance is that of a scanned document with very low contrast or significant fading.

**DO‘STONA AMALIY HAMKORLIK –
BARQAROR RIVOJLANISH
KAFOLATI**

KONSTRUKTIV TASHQI SIYOSAT O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHINI TASHKIL ETADI

Muhtaram favqulodda va muxtor elchilar!

Xonimlar va janoblar!

Sizlarni O‘zbekiston Respublikasida elchi sifatida ish boshlaganingiz bilan samimiy tabriklayman.

Bugungi ishonch yorliqlarini topshirish marosimida ishtirok etayotgan Siz, muhtaram elchilarni chin qalbimdan qutlayman! Zimmangizdagi mas’uliyatli va sharafli vazifani bajarishda barchangizga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman!

Biz O‘zbekistonda o‘tgan uch yilda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, sarmoyaviy, gumanitar va madaniy yo‘nalishlarda, umuman, hamma soha va tarmoqlarda, keng ko‘lamli islohotlarni, demokratik o‘zgarishlarni jadal amalga oshirmoqdamiz.

Mamlakatimizni 2017–2021-yillarda rivojlantirish bo‘yicha «Harakatlar strategiyasi»da belgilangan ustuvor maqsad va vazifalar doirasida bu yilni «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili» deb e‘lon qildik.

Innovatsion texnologiya va yondashuvlar asosida zamonaviy sanoat korxonalarini va infratuzilma barpo etilmoqda. Respublikamiz hududlarida «Obod qishloq», «Obod mahalla», «Har bir oila tadbirkor» kabi davlat dasturlari izchil olib borilmoqda.

Bank, moliya, soliq va boshqa sohalarda juda katta islohotlarni davom ettiryapmiz. O‘tgan uch yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritilgan sarmoyalar hajmi 2 barobarga, to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalari salkam 5 marotaba, eksport hajmi esa 1,6 barobarga o‘tdi.

Hurmatli elchilar!

O'zbekiston o'z taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida ochiq, o'zaro hurmat, tenglik va manfaatdorlik, yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosat olib bormoqda.

Ana shunday konstruktiv va pragmatik siyosat natijasida xalqaro maydonda O'zbekistonning har tomonlama ishonchli va mas'uliyatli hamkor sifatida mutlaqo yangi qiyofasi shakllanmoqda. Jahonning barcha qit'alaridagi sheriklarimiz bilan munosabatlarni salohiyatimizga mos yuqori bosqichga ko'tarmoqdamiz.

Birinchi navbatda Markaziy Osiyo davlatlari bilan strategik sheriklik va yaqin birodarlik ruhidagi yangi siyosiy muhit qaror topdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik va Islom hamkorlik tashkilotlari kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan aloqalarimiz faollashmoqda.

Mamlakatimizga turistlar oqimi keskin oshmoqda. Dunyoning ko'plab davlatlari fuqarolariga vizani bekor qildik va tartiblarni soddalashtirdik. Natijada yil boshidan buyon respublikamizga besh millionga yaqin sayyohlar tashrif buyurdi.

Sizlar kuni kecha qadimiy Qo'qon shahrida Xalqaro hunarmandchilik festivalida bevosita ishtirok etib, uning betakror shukuhi va tarovatidan bahramand bo'ldingiz. Bu kabi tadbirlar yurtimizning ko'hna tarixi, boy madaniyati va turizm salohiyatini dunyoga tarannum etmoqda.

Muhtaram elchilar!

Siz vakillari bo'lgan davlatlar bilan o'zaro yaqin hamkorlik aloqalarini har tomonlama mustahkamlash tashqi siyosatimizda muhim o'rin tutadi. Shu bois munosabatlarimizning hozirgi holati va istiqbollari haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman.

Afg'oniston Islom Respublikasi elchisi Ahmad Xolid Elmiy Janobi Oliylari!

O'zbek va afg'on xalqlarini ko'p asrlik umumiy tarix, muqaddas Islom dini va madaniy-ma'naviy mushtaraklik, yaxshi qo'shnichilik va azaliy birodarlik rishtalari chambarchas bog'lab turadi.

Biz Afg'onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash borasida muhim davlat, yaqin qo'shnimiz sifatida e'tirof etamiz.

Afg'oniston Prezidenti Ashraf G'ani Janobi Oliylari bilan muntazam uchrashuv va muloqotlarimiz aloqalarimiz rivojiga ulkan turtki bag'ishlamoqda.

Yaqinda Bosh vazirimiz ilk marotaba Afg'oniston zaminiga – Mozori Sharifga tashrif buyurdi va u yerda birinchi O'zbekiston savdo ko'rgazmasi samarali o'tkazildi.

Istiqbolda o'zaro savdo aylanmasi hajmini 1 milliard dollarga yetkazish, yangi qo'shma dasturlarni amalga oshirish uchun barcha imkoniyatlarga egamiz.

Biz mintaqaviy ahamiyatga ega bo'lgan energetika, transport, logistika va kommunikatsiya, ta'lim sohalaridagi yirik loyihalarni tezlashtirishdan manfaatdormiz.

Mohir diplomat Ahmad Xolid Elmiy Janobi Oliylari, o'zbek-afg'on munosabatlarini kengaytirish yo'lidagi faoliyatingizda katta yutuq va omadlar tilayman!

Hindiston Respublikasi elchisi Santosh Ja Janobi Oliylari!

Biz Hindistonni nafaqat Janubiy Osiyo mintaqasi va Osiyo qit'asida, balki butun dunyoda ulkan salohiyat hamda kuch-qudratga, boy madaniy va tarixiy merosga ega davlat, deb bilamiz.

Hindiston – O'zbekistonning xalqaro maydondagi yirik hamda vaqt sinovlaridan o'tgan strategik sheriklaridan biridir.

O'tgan yili kuzda Hindiston zaminiga tarixiy davlat tashrifimiz hamda shu yil yanvar oyida «Jo'shqin Gujarat» xalqaro sammiti chog'idagi sermahsul uchrashuvlar munosabatlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi.

Prezident Ram Nath Kovind va Bosh vazir Narendra Modi Janobi Oliylari bilan o'tgan samarali muzokaralar hamkorligimiz rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

Birgalikdagi tashabbusimiz bilan Hindiston va Markaziy Osiyo tashqi ishlar vazirlarining ilk yig'ilishini shu yil Samarqandda muvaffaqiyatli o'tkazdik.

Mamlakatimizda Amiti va Sharda universitetlari o'z filiallarini ochdi, IT-park, «Andijon-farm» erkin iqtisodiy zonasi, Hindiston tadbirkorlikni rivojlantirish instituti markazi tashkil etildi.

Hurmatli Santosh Ja Janobi Oliylari!

O'zingizning diplomatik bilim va uzoq yillik hayotiy tajribangizni ishga solib, ikki tomonlama aloqalarimizni yuqori bosqichga olib chiqasiz, deb ishonaman. Bu yo'lda Sizga yangi zafarlar yor bo'lishini tilayman!

Buyuk Britaniya elchisi Timoti Torlot Janobi Oliylari!

Buyuk Britaniya dunyoda yuksak siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo'lgan davlat, O'zbekistonning nafaqat Yevropada, balki jahon miqyosidagi muhim sheriklaridan biridir.

So'nggi yillarda davlatlarimiz o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, moliyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalarda ko'p qirrali munosabatlar jadal rivojlanib borayotganini alohida qayd etmoqchiman.

Hozirgi kunda Britaniyaning dunyoga mashhur va yetakchi kompaniyalari bilan neft-gaz va kimyo, geologiya, yuqori texnologiyalar, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, sog'liqni saqlash hamda ta'lim sohasida bir qator loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Biz Toshkentda Xalqaro moliya markazini tashkil etish rejasiga alohida e'tibor qaratyapmiz.

Shu o'rinda poytaxtimiz va hududlarimizda mutlaqo yangi ta'lim tizimi – Prezident maktablarini yaratish jarayonida Kembrij universiteti bilan yo'lga qo'yilgan amaliy hamkorlikni yuqori baholaymiz.

Hurmatli elchi Timoti Torlot janoblari!

Sizning salkam qirq yillik kasbiy mahoratingiz va chuqur bilimlaringiz, hech shubhasiz, davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yanada faollashtirishga xizmat qiladi.

Boshlangan elchilik faoliyatingiz sermahsul bo'lishini tilab qolaman!

Yaponiya elchisi Yoshinori Fujiyama Janobi Oliylari!

Qadimiy tarix va noyob madaniyat, yuksak iqtisodiy, industrial va intellektual salohiyatga ega Yaponiya bizning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi strategik sherigimizdir.

Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlamoqchiman – davlatlarimiz o'rtasidagi do'stlik va har tomonlama hamkorlik tobora faollashib bormoqda.

Elektr va yoqilg'i energetikasi, tog'-kon, avtomobil sanoati, transport, aloqa va telekommunikatsiya, infratuzilmalarni modernizatsiya qilish, fan-ta'lim, turizm va boshqa ustuvor yo'nalishlar bo'yicha ilg'or yapon kompaniya va banklari bilan hamkorligimiz chuqurlashmoqda.

Birgina misol – o'tgan yili o'zaro savdo hajmi to'rt marotaba ortdi va munosabatlarimiz tarixida eng yuqori natijalarga erishildi.

O'zbekistonga ko'rsatib kelayotgan moliyaviy-texnik ko'magi uchun Yaponiya Hukumati va Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligiga alohida minnatdorchilik izhor etaman.

Hech shubhasiz, joriy yilning dekabr oyida Yaponiyaga bo'lajak ilk davlat tashrifimiz, Imperator Naruxito A'lo Hazratlari va Bosh vazir Sindzo Abe Janobi Oliylari bilan muloqotlarimiz ikki tomonlama samarali aloqalarni va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tarishga xizmat qiladi.

Hurmatli Yoshinori Fujiyama Janobi Oliylari!

Sizning diplomatiya sohasida, Hukumat va Parlamentdagi ko'p yillik tajribangiz elchilik faoliyatingiz uchun mustahkam zamin yaratishiga ishonchim komil. Bu borada Sizga ulkan omadlar tilayman!

Fransiya Respublikasi elchisi Izabel Servoz-Galluchchi Xonim Oliyolari!

Biz Fransiyani jahondagi qudratli, obro'li va ulkan salohiyatga ega davlatlardan biri, Yevropadagi ishonchli va muhim hamkorimiz sifatida e'tirof etamiz.

Bundan bir yil muqaddam Fransiyaga rasmiy tashrifimiz chog'ida Prezident Emmanuel Makron Janobi Oliylari bilan ochiq va do'stona muloqotlarimiz keng qamrovli sherikligimizga yangi mazmun va shiddat bag'ishladi.

Biz Fransiyaning yetakchi kompaniyalari bilan geologiya-razvedka va istiqbolli konlarni o'zlashtirish, quyosh energetikasi, kommunal va ichimlik suvi ta'minoti, turizm klasterlarini barpo etish kabi ustuvor loyihalar bo'yicha faol hamkorlik qilmoqdamiz. Fransiya taraqqiyot agentligining mamlakatimizdagi samarali faoliyatini alohida qayd etmoqchiman.

San'at, madaniyat, ilm-fan, sog'liqni saqlash sohalarida hamkorligimizni yanada kengaytirishdan manfaatdormiz.

Hurmatli Xonim Oliyalar!

O'zaro aloqalarimizni mustahkamlashga munosib hissa qo'shasiz, deb ishonaman. Bu yo'lda Sizga kuch-g'ayrat va ulkan zafarlar tilayman!

Hurmatli diplomatik vakolatxonalar rahbarlari!

So'zimning yakunida, O'zbekistondagi elchilik faoliyatingiz samarali va unumli bo'lishi uchun sizlarga barcha zarur sharoitlarni yaratib berishimizni ta'kidlamoqchiman.

O'z navbatida, sizlar ham viloyat, shahar va tumanlarimizga borib, yangi loyihalar va tashabbuslar bilan amaliy hamkorligimizni yuqori darajaga ko'tarishga o'z hissangizni qo'shasiz, deb ishonaman.

Bu boradagi faoliyatingizda O'zbekiston Prezidenti Administratsiyasi, Hukumati, Tashqi ishlar vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, hokimlar har tomonlama yordam va ko'mak ko'rsatadi.

Sizlarni go'zal diyorimizda yana bir bor samimiy qutlab, diplomatik faoliyatingizda ulkan yutuqlar, xonadonlaringizga tinchlik va osoyishtalik, oilaviy baxt-saodat tilashga ijozat etgaysizlar.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasiga
tayinlangan Favqulodda va muxtor elchilaridan
ishonch yorliqlarini qabul qilib olish
marosimidagi nutq*

2019-yil 20-sentabr

MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI TAYYORLASH – DOLZARB VAZIFA

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Siz, muhtaram hamkasblarni yana bir bor qutlashga hamda bizga ko'rsatilgan an'anaviy iliq mehmondo'stlik va ushbu Sammit yuksak darajada tashkil etilgani uchun Turkmaniston Prezidenti, hurmatli Gurbanguli Myaliguliyevichga samimiy minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

2020-yilda Hamdo'stlikka O'zbekiston Respublikasi raislik qilishi to'g'risidagi qarorni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun tashakkur bildiram.

Tor doiradagi uchrashuvda ta'kidlaganimdek, MDH doirasida ko'p tomonlama hamkorlikni izchil kengaytirish va uning samaradorligini oshirish mamlakatimiz raisligining ustuvor yo'nalishi bo'ladi.

Biz Hamdo'stlikni yanada rivojlantirish bo'yicha yangi Konsepsiya tez fursatda qabul qilinishi hamda qabul qilingan qarorlar «Yo'l xaritasi» asosida tizimli bajarilishini ta'minlash tarafdorimiz.

Shuningdek, bizning nazarimizda, asosiy e'tiborni 2030-yilga qadar bo'lgan davrda MDHni iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini tayyorlashga qaratishimiz zarur. Biz quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida ahamiyat qaratmoqchimiz:

Birinchi. Erkin savdo hududining to'laqonli faoliyat yuritishini ta'minlash;

Ikkinchi. Ishlab chiqarish kooperatsiyasini kengaytirish va uchinchi mamlakatlar bozorlarini birgalikda o'zlashtirish;

Uchinchi. Agrar tarmoqda, energetika va telekommunikatsiya sohalaridagi hamkorlikning o'zaro manfaatli shakllarini rivojlantirish;

To'rtinchi. Innovatsiya, fan va ta'lim dasturlarini amalga oshirish. Transport va tranzit yo'laklarini rivojlantirishning o'n yillik davrga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishni taklif etamiz.

2030-yilgacha **Hududlararo va chegaraoldi hamkorlik konsepsiyasini** ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega.

Kelgusi yilda biz O'zbekistonda MDHning hududlararo birinchi forumini o'tkazish niyatidamiz.

Ishbilarmonlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekistonda MDH Savdo-sanoat palatalari rahbarlari kengashi majlisini o'tkazish hamda uning shafeligida Hamdo'stlikning ishbilarmonlik tashabbuslari haftaligini tashkil etishga tayyormiz.

O'ylaymizki, ushbu yo'nalishlar Hamdo'stlik mamlakatlarida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning chinakam «drayveri» bo'ladi.

Xavfsizlik sohasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va maxsus xizmatlar o'rtasida yaqin o'zaro hamkorlikni ta'minlashni ustuvor vazifa, deb hisoblaymiz.

Biz kelgusi yil bahor oyida Toshkentda MDH makonida axborot xavfsizligini ta'minlash, yangi xatar va tahdidlarga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xalqaro ekspertlar forumini tashkil etish haqida taklif kiritdik.

Madaniy-gumanitar hamkorlik xususida so'z yuritganda, biz mamlakatlarimizning yutuq va muvaffaqiyatlari, Hamdo'stlikning tashkil topishi va rivojlanish tarixidagi muhim voqealarga bag'ishlangan hujjatli filmlar turkumini birgalikda tayyorlash tashabbusini ilgari surdik.

Bu, o'ylaymanki, MDH tashkil topgan yubiley sanasiga barchamiz uchun yaxshi bir sovg'a bo'ladi.

Hamdo'stlikka Raisligimiz davrida 1941–1945-yillarda Ulug' Vatan urushida qozonilgan G'alabaning yetmish besh yilligini nishonlash tadbirlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Bizning nazarimizda tarixiy xotira va umumiy o'tmishimizga chuqur hurmat tuyg'usiga tayangan holda, birgalikdagi sa'y-harakatlarni Hamdo'stlik mamlakatlari xalqlari o'rtasida tinchlik, o'zaro anglashuv va do'stlik ruhini yanada mustahkamlashga qaratishimiz lozim.

Hurmatli davlat rahbarlari!

Fursatdan foydalanib, Sergey Nikolayevich Lebedevni MDH Ijroiya qo'mitasi raisi lavozimidagi vakolatlari muddati uzaytirilgani bilan tabriklayman va uning ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.

*Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida
MDH davlat rahbarlari kengashida
so'zlangan nutq*

2019-yil 11-oktabr

O'ZBEKISTON – TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK KENGASHINING TENG HUQUQLI A'ZOSI

Hurmatli Ilhom Haydarovich!

Muhtaram davlat va hukumat rahbarlari, qadrli do'stlar!

Avvalambor, bugungi anjuman yuqori darajada tashkil etilgani va bizga ko'rsatilayotgan samimiy mehmondo'stlik uchun Ozarbayjon xalqi va shaxsan Prezident Ilhom Aliyev Janobi Oliylariga chuqur minnatdorchilik izhor etaman.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sooronboy Jeenbekov Janobi Oliylarini so'nggi bir yil mobaynida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga muvaffaqiyatli raislik qilgani bilan tabriklayman.

Hamkasblarimning fikrlariga qo'shilgan holda, Turkiy Kengash asoschisi va uning rivojlanishida ulkan rol o'ynagan Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti, Elboshi, hurmatli Nursulton Abishevich Nazarboyevni Kengashning Faxriy raisi etib saylanganini to'la qo'llab-quvvatlayman.

Fursatdan foydalanib, atoqli davlat va siyosat arbobi, muhtaram oqsoqolimiz Nursulton Abishevichni – «Turkiy dunyoning oliy ordeni»ga sazovor bo'lgani bilan chin qalbimdan tabriklab, sihat-salomatlik, yangi muvaffaqiyatlar tilashga ijozat bergaysizlar.

Hurmatli do'stlar!

Turkiy Kengashning 10 yillik sanasini bugun ushbu tuzilmaga asos solingan go'zal Ozarbayjon zaminida nishonlab turganimizda chuqur ramziy ma'no bor.

Bu kun biz uchun ham katta tarixiy voqeadir. Chunki O'zbekiston Turkiy Kengashga to'laqonli a'zo bo'ldi.

Aziz hamkasblar!

Mamlakatimizning Kengashga a'zoliği, o'rni va ahamiyati haqida bildirgan samimiy fikrlaringiz uchun sizlarga tashakkur izhor qilaman.

O'zbekistonning tashkilotga a'zo bo'lishi, hech shubhasiz, tabiiy va tarixiy jarayonlar ifodasidir.

Yurtimiz zaminida umumiy tariximizning shonli sahifalari bitilgan, jahon ilm-fani va madaniyatiga unutilmas hissa qo'shgan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi mutafakkirlar, muqaddas dinimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband singari buyuk allomalar, turkiy dunyoni qalam bilan birlashtirgan Alisher Navoiy singari ulug' shoirlar yashab o'tgan.

Ular nafaqat o'zbek xalqi, balki barchamizning faxrimiz va iftixorimizdir. Va bu ma'naviy boylikni birgalikda o'rganish, uni kelgusi avlodlarga yetkazish barchamizning burchimizdir.

Eng muhimi, Turkiy Kengashga a'zolik xalqimizning tub manfaatlariga to'la javob beradi. Bugungi kunda o'rtamizda nafaqat madaniy-ma'naviy aloqalar, balki savdo-iqtisodiy munosabatlar ham yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Oxirgi uch yilda davlatlarimizning o'zaro savdo hajmi salkam ikki barobarga oshdi, mingdan ortiq yangi qo'shma shirkatlar ochildi. Transport qatnovlari kengaymoqda, vizasiz tartib asosida turistlar oqimi tobora ko'paymoqda, xalqlarimizning qardoshlik rishtalari mustahkamlanmoqda.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha quyidagi takliflarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Birinchidan. «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish» uchrashuvimizning asosiy mavzusi etib belgilangani barcha a'zo davlatlar, jumladan, O'zbekiston uchun muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

So'nggi uch yilda mamlakatimizda xususiy mulk va tadbirkorlikka strategik soha sifatida ustuvor e'tibor berilishi natijasida mazkur tarmoqning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 59 foizni tashkil etmoqda.

Biz kelajagimizni aynan tadbirkorlik orqali ko'ramiz. Ushbu sohaning rivoji o'z navbatida, yangi transport-kommunikatsiya tarmoqlari, logistika markazlari, minglab ish o'rinlarini tashkil etish imkonini beradi.

Shu maqsadda tadbirkorlarimiz o'rtasida to'g'ridan to'g'ri va ishonchli aloqalarni o'rnatish uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berishni ustuvor vazifamiz, deb bilamiz.

Yaqinda Toshkentda samarali o'tkazilgan, 500 dan ortiq tadbirkorlar ishtirok etgan Turkiy tilli davlatlar Ishbilarmonlar kengashi biznes-forumi aynan shu maqsadga qaratilgan.

Bu borada biz qo'shma texnoparklar, startap innovatsiya kompaniyalari va venchur jamg'armalari tashkil etishni taklif qilamiz. Qo'shma investitsiya jamg'armasi va Turkiy davlatlar savdo uylarini birgalikda barpo etishga tayyormiz.

Ikkinchidan. Bugungi kunda Kengashga a'zo mamlakatlar aholisining 40 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etmoqda. Iste'dodli va bilimli yoshlarimizni tadbirkorlikka keng jalb etish muhim ahamiyatga ega.

Shu maqsadda Turkiy Kengash doirasida Yosh tadbirkorlar forumini ta'sis qilishni va uning birinchi yig'ilishini kelgusi yil O'zbekistonda o'tkazishni taklif qilamiz.

Uchinchidan. Mintaqalarimizda yirik transport-kommunikatsiya loyihalarini amalga oshirish Markaziy Osiyo – Turkiya transport yo'lagi orqali Yevropa, Xitoy va Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish uchun salmoqli imkoniyatlar yaratadi. Bu yo'nalishda «Boku – Tbilisi – Kars» yangi temiryo'lining salohiyatidan unumli foydalanishimiz zarur.

Tranzit va logistika markazlarini barpo etishda Oqtov, Turkmanboshi, Alyat, Samsun va Mersin portlarining zamonaviy infratuzilmasini ishga solish hamda tashqi savdo yuklarini tashishda Turkiy Kengashga a'zo mamlakatlar uchun o'zaro kelishilgan chegirma va imtiyozlarni qo'llash masalalarini mutasaddi tashkilotlarimiz ko'rib chiqishlarini taklif etamiz.

To'rtinchidan. Sayyohlik sohasidagi hamkorligimizni jadal-
lashtirish zarur. Oxirgi uch yilda Kengashga a'zo davlatlardan yurtimizga kelgan sayyohlar soni salkam ikki barobarga o'sgani biz-
ni juda quvontiradi.

Biz Tashkilotning o'tgan yili ishlab chiqilgan «Zamonaviy Ipak yo'li» sayyohlik dasturida faol ishtirok etishga tayyormiz. 2020-yilda ko'hna Xiva shahri «Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti» deb e'lon qilinishi qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga, abadiy do'stligimizni mustahkamlashga albatta katta hissa qo'shadi.

Muhtaram anjuman qatnashchilari!

O'zaro munosabatlarimizni yanada kuchaytirishda madaniy-
gumanitar aloqalarni muhim omil, deb bilamiz.

Turkiy dunyoning Yunus Emro, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Maxtumdali, Abay, To'qtag'ul kabi buyuk namoyandalarining nomlarini barchamiz katta hurmat bilan tilga olamiz.

Ana shunday bebaho merosni umumiy ma'naviy boyligi-
mizga aylantirish maqsadida biz «Turkiy adabiyot xazinasini»
deb nomlangan, Kengashga a'zo davlatlar adabiyotining eng
sara namunalaridan iborat yuz jildlik kitoblar turkumini har bir
mamlakatning ona tilida nashr etishni taklif qilamiz.

Biz Tashkilot qoshidagi Xalqaro turkiy akademiyaga a'zo
bo'lib kirishga tayyormiz. Shu bilan birga, Kengashga a'zo
mamlakatlarning zamonaviy adabiyot va san'at, tarix va
me'morchilik sohasida ulkan yutuqlarga erishgan ijodkorlarini

rag'batlantirish maqsadida Xalqaro Turksoy mukofotini ta'sis etishni taklif etamiz.

Hurmatli do'stlar!

Turkiy Kengashga raislik Ozarbayjon Respublikasiga o'tishi munosabati bilan muhtaram Ilhom Haydarovichni qutlab, ushbu mas'uliyatli va sharaflı vazifani ado etishda kuch-g'ayrat va muvaffaqiyatlar tilaymiz.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida
Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashining
yettinchi sammitida so'zlangan nutq*

2019-yil 15-oktabr

INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK YO‘LIDAGI YANGI IMKONIYATLAR

Turkiy Kengashning 7-sammiti ishtirokchilari, turkiy dunyo hamjamiyatini muhim sana – Turkiy davlatlar hamkorligi kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxichevan bitimi qabul qilinganining 10 yilligi bilan tabriklash menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Ushbu muhim hujjatning imzolanishi mustahkam tarixiy aloqalar, til, madaniyat va ma‘naviy qadriyatlar mushtarakligiga asoslangan turkiy davlatlarning samarali hamkorligida yangi davrni boshlab berdi.

Bugun Turkiy Kengash a‘zo-davlatlar o‘rtasida muloqot va kooperatsiyani kengaytirish va mustahkamlash, jahon miqyosida ularning manfaatlarini samarali himoya qilish uchun nufuzli xalqaro platforma hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi katta turkiy oilaning uzviy bo‘lagi sifatida turkiy tilli davlatlar bilan munosabatlarni rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratmoqda.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq O‘zbekiston turkiy dunyo hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlangan «Turkiston – umumiy uyimiz» degan tashabbusni ilgari surdi. Mamlakatimiz turkiy tilli mamlakatlar davlat rahbarlarining ilk sammitlarida faol ishtirok etdi.

1996-yil 21-oktabr kuni Toshkent shahrida turkiy tilli davlatlar rahbarlarining tarixiy – to‘rtinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. U turkiy tilli davlatlar hamkorligini rivojlantirishda muhim davrni boshlab berdi va ma‘lum ma‘noda zamonaviy Turk Kengashini tuzishga asos bo‘ldi. O‘shanda Toshkent deklaratsiyasini imzolar ekan, davlatlar rahbarlari o‘zaro maslahatlashuvlarni muntazam o‘tkazish zarurligini qayd etib, turkiy tilli davlatlar rahbarlari uchrashuvlari Kotibiyatini tashkil qilishga kelishib oldi. Bu muhim institut roppa-rosa 10 yil avval Turk Kengashining Naxichevan bitimiga muvofiq ta‘sis etilgan

Hamkorlik kengashining zamonaviy Kotibiyati faoliyatida o'z ifodasini topdi.

Joriy yilda O'zbekiston rasman Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga Naxichevan bitimiga qo'shilish haqidagi ariza bilan rasman murojaat qildi. Mazkur murojaat Tashkilotga a'zo barcha davlatlar tomonidan iliq qarshi olindi, buning uchun ularga chuqur minnatdorlik izhor qilamiz. G'oyat qisqa fursatda – qariyb bir ish kunida ijobiy javob berildi.

2019-yil 14-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning Naxichevan bitimiga qo'shilish to'g'risidagi farmoni imzolandi. Shu kunning o'zidayoq uni ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Kengash Kotibiyati va depozitariysiga O'zbekiston Naxichevan bitimiga qo'shilishi to'g'risida hujjat yuborildi.

Ishonamanki, O'zbekistonning Turkiy Kengashga a'zo bo'lishi turkiy dunyoga integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi va hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Turkiy Kengash a'zo mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalarini mustahkamlashga intilayotgani ayni damda g'oyat muhim.

O'zbekiston Kengashga a'zo barcha davlatlar bilan nafaqat ikki tomonlama, balki qator xalqaro tuzilmalar doirasida ham ko'plab sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlik qilish borasida katta tajribaga ega.

Turkiy Kengash faoliyati doirasidagi davlatlararo munosabatlar-ning ijobiy tendensiyalari biz uchun bugungi kunda nafaqat Turkiy Kengash, balki BMT, YXHT, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Afg'oniston bo'yicha «Istanbul jarayoni – Osiyo yuragi» kabi xalqaro tuzilma va mexanizmlar bilan o'zaro aloqalar doirasida ham hamkorlikni yanada kengaytirishning yangi istiqbollari ochmoqda.

Kengash maslahatlashuv davlatlararo munosabatlarni muvo-
fiqlashtiruvchi mexanizm va Markaziy Osiyo, Kavkaz, O'rta Sharq
va Yevropada teng huquqli, o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni

ilgari surish vositasi sifatida ulkan imkoniyatlarga ega. Mening nazarimda, a'zo davlatlar o'rtasida biror-bir muammo yoki kelishmovchilik yo'qligi Kengashning eng muhim afzalligi hisoblanadi. Uning barcha a'zolari Turkiy Kengash faoliyati xalqaro va mintaqaviy kun tartibiga oid dolzarb masalalar bo'yicha mushtarak yoki yaqin yakdil qarash va pozitsiyalarga amal qiladi. Demak, iqtisodiyot, investitsiyalar, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar, muqobil energetika va ekologiya, transport va kommunikatsiyalar, turizm, ilm-fan, ta'lim va tibbiyot kabi ustuvor sohalarda faol hamkorlik qilish uchun hech qanday to'siq yo'q.

Turkiy Kengash davlatlari o'rtasidagi har tomonlama hamkorlikning amaldagi darajasi bizni g'oyat ruhlantiradi. Ayni paytda uning haqiqiy salohiyati ancha yuqori. Bizda yanada yuksak natijalarga erishish uchun barcha zarur imkoniyatlar, eng asosiysi, qat'iy siyosiy iroda bor. Bu esa, shubhasiz, xalqlarimiz manfaatlariga to'la javob beradi.

Shu ma'noda, O'zbekiston hamkorlikning muhim jihatlari va yo'nalishlarini belgilab oldi. Biz ularni faol qo'llab-quvvatlashga tayyormiz.

Bu, birinchi navbatda, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni kengaytirish bilan bog'liq. Bugungi kunda mazkur yo'nalish hamkorlikning lokomotivi bo'lishi darkor, chunki u xalqlarimiz farovonligining asosidir. Bunda mamlakatlarimiz yetakchi sanoat korxonalarini, investitsiya kompaniyalarini, bank-moliya institutlari va tadbirkorlari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, shuningdek, mintaqalararo samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

Transport va tranzit sohalaridagi yaqin kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishdan manfaatdormiz. Integratsiyalashgan transport aloqasi tarmog'ini tashkil qilish dunyoning asosiy va mintaq bozorlariga chiqish imkonini beradi. Bu yerda so'z, avvalo, Shimol-Janub va Sharq-G'arb xalqaro transport yo'laklari, Markaziy Osiyo mintaqasini Xitoy, Shimoli-Sharqiy va Janubiy Osiyo, Yaqin

Sharq va Yevropa mamlakatlari bilan bog'lovchi avtomobil, temiryo'l va havo yo'llari haqida bormoqda.

Shu maqsadda mintaqada transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha strategik jihatdan muhim qator loyihalar amalga oshirilgan. «Andijon – O'sh – Irkeshtom – Qoshg'ar» avtomobil yo'lagingining rivojlanishi, shuningdek, «Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston» temiryo'li qurilishi boshlanishi bilan yanada ulkan imkoniyatlar ochilmoqda.

Barcha sohalarga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiyalarni joriy qilish har qanday davlatning raqobatbardoshligi va barqaror taraqqiyotini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun **Turkiy Kengash mamlakatlarini innovatsion rivojlantirishni biz ustuvor vazifa deb hisoblaymiz.**

Shu munosabat bilan biz kelajak texnologiyalarini o'zlashtirish bo'yicha dastur va loyihalarni ilgari surish maqsadida innovatsion rivojlanishga mas'ul idoralar, ilmiy tadqiqot markazlari va venchur kompaniyalari o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishni taklif etamiz.

Ma'lumki, turkiy tilli mamlakatlar xalqlari butun insoniyatning boyligi hisoblangan o'ziga xos bebaho madaniy-tarixiy va ma'naviy merosga ega. Mamlakatlarimizda turkiy va islom sivilizatsiyasining tarixiy yodgorliklari, buyuk olimlar, shoir va mutafakkirlar, rassomlarning merosi asrab-avaylanadi. Bu bebaho boyluk butun insoniyat mulki bo'lib, undan butun dunyo bahramand bo'lishi kerak. **Ziyorat turizmini faol rivojlantirish** bunga xizmat qiladi. Turizm industriyasi iqtisodiyotning tarkibiy qismi sifatida mamlakatlar va xalqlarni yaqinlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Bugunimiz va kelajagimiz istiqbolini belgilar ekanmiz, biz, shubhasiz, xalqlarimizning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, boy tarixi va madaniyati, ularning ko'p asrlik do'stligi, yaxshi qo'shnichilik va o'zaro anglashuv an'analari tayanamiz. **Madaniy-gumanitar hamkorlik davlatlar o'rtasidagi munosabatlar muhitini shakllantiradi, insonlarni birlashtiradi.**

Qozog'istonda O'zbekiston yilining va O'zbekistonda Qozog'iston yilining o'tkazilishi, O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmaniston madaniyat kunlari va qo'shma do'stlik konsertlari, festivallari, ko'rgazmalari, shuningdek, insonlar qalbida iliq tuyg'ularni jo'sh urdirgan ko'plab boshqa qo'shma tadbirlar tashkil qilinishi bundan yorqin dalolatdir. Bu Turkiy Kengashning barcha mamlakatlari uchun yaxshi an'anaga aylanishi va, shubhasiz, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va o'zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonchim komil.

Biz inson kapitalini rivojlantirish sohasida o'zaro hamkorlik qilish uchun katta salohiyatga egamiz. Tajriba almashish, qo'shma ta'lim, ilmiy va madaniy loyihalar, yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha istiqbolli dasturlarni amalga oshirish Turkiy Kengashning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmog'i darkor.

Dunyoda globallashev, beqarorlik va qarama-qarshilik kuchayib borayotgan sharoitda aynan yaqin va o'zaro manfaatli hamkorlik **barqaror rivojlanish va taraqqiyotga erishish, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.** Fikrimcha, terrorizm, ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik, narkotrafik, odam va qurol savdosiga qarshi kurashish bo'yicha Turkiy Kengash mamlakatlari huquqni muhofaza qilish organlari sa'y-harakatini muvofiqlashtirish turkiy tilli davlatlar ko'pqirrali hamkorligining asosiy jihatlaridan biriga aylanmog'i darkor.

Bugungi kunda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi yangi, yanada jadal va mas'uliyatli taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda. Bu qardosh mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi izchil va har tomonlama hamkorlikni mustahkamlashni talab etadi.

Turkiy tilli davlatlarning siyosiy irodasi, ochiq va konstruktiv siyosati, davlatlar rahbarlarining muntazam uchrashuvlari tufayli mintaqada o'zaro ishonch muhiti yuzaga kelmoqda. Bu jarayonda O'zbekiston ham faol ishtirok etmoqda.

Turkiy xalqlarning buyuk namoyandasi, qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov mamlakatimizning tarixdagi roli haqida gapirar

ekan, «Vizantiya slavyan davlatlari taqdirida qanday rol o'ynagan bo'lsa, o'zbek xalqi turkiy tilli mamlakatlar taqdirida xuddi shunday rol o'ynagan», deb ta'kidlagan edi.

Bugun ham tarixiy taraqqiyotning yangi va ayni damda murakkab bosqichida O'zbekiston Respublikasi turkiy tilli davlatlar o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash va kengaytirishga munosib hissa qo'shishga tayyor.

Turkiy tilli davlatlar xalqlarini Turkiy Kengashning 10 yilligi bilan yana bir bor chin qalbidan muborakbod etib, ularga tinchlik, omonlik va farovonlik tilayman.

*Turkiy Kengashning 10 yillik yubileyi
sanasi munosabati bilan Turkiyaning
«Hurriyet Daily» gazetasida chop
etilgan maqola*

2019-yil 15-oktabr

MARKAZIY OSIYO – YAGONA O‘TMISH, UMUMIY KELAJAK

Hurmatli delegatsiyalar rahbarlari!

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Avvalo, siz, muhtaram do‘stlarimni – Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilari va delegatsiyalar a‘zolarini chin qalbidan qutlayman.

Ushbu Maslahat uchrashuvining o‘tkazilishi manfaatlarimizning o‘zaro mushtarakligi, mintaqaviy taraqqiyotning eng dolzarb masalalari bo‘yicha ochiq muloqot va birgalikda qarorlar qabul qilishga tayyor ekanimizni yana bir bor yaqqol tasdiqlaydi.

Biz hozirgina tor doirada o‘tkazgan muzokaralarda hamkorligimizning bugungi holati va istiqbollarni atroflicha muhokama qildik va mamlakatlarimiz o‘rtasida o‘zaro ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash zarurligi haqida yakdil fikrga keldik.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo geostrategik joylashuviga ko‘ra, ming yillar davomida jahon miqyosidagi jarayonlar markazida bo‘lib kelgan.

Bizning mintaqamiz doimo o‘zining boy madaniy-tarixiy merosi bilan Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog‘laydigan noyob ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan.

Ushbu qutlug‘ zaminda dunyo sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk gumanist olimlar, mutafakkir va shoirlar yashab ijod qilgan. Bu yerda ulkan tabiiy zaxiralar, katta insoniy salohiyat mavjud.

Bugungi kunda ham Markaziy Osiyoda dunyoning raqobatdosh qudratli davlatlarining manfaatlari o‘zaro kesishib keladi.

Bizga bevosita yaqin bo'lgan hududlarda mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka ta'sir etadigan yirik beqarorlik o'choqlari mavjud.

Bizning oldimizda murakkab savollar turibdi: Markaziy Osiyo qanchalik izchil va barqaror rivojlanadi? Bizning mamlakatlarimiz qanday yangi xavf-xatar va tahdidlarga duch kelishi mumkin? Biz, umumiy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, mintaqaviy hamkorligimizni bundan keyin qanday olib boramiz?

Bugun biz ana shunday muhim hayotiy savollarga birgalikda javob topishimiz kerak.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Mintaqaning har bir davlati Markaziy Osiyoning barqarorligi va ravnaqini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Siyosiy iroda va amaliy qadamlarimiz tufayli biz hamkorlikning yanada yuqori bosqichiga ko'tarilmoqdamiz.

Bizning hamjihatligimiz va faol sa'y-harakatlarimiz ko'pqirrali mintaqaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Biz qisqa muddatda birgalikda real tarzda oldinga siljishga erishdik.

Xususan, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi so'nggi yillarda 2 barobar, qo'shma korxonalar soni 4 marta o'sdi.

Biz sheriklarimiz bilan birgalikda chegaralarimizda huquqiy rasmiylashtirish ishlarini yakunlash arafasida turibmiz. Oltmishga yaqin o'tish punktlarining to'laqonli faoliyatini ta'minlab, vizalarni bekor qildik.

Ishbilarmonlik va hududlararo aloqalar, transport qatnovlari, madaniy-gumanitar almashuvlar kengayib bormoqda.

O'tgan yili O'zbekistonda birinchi Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi hamda mamlakatlarimizning Bosh vazirlari o'rinbosarlari darajasida Ishchi guruhning dastlabki uchrashuvi bo'lib o'tdi.

O'n yillik tanaffusdan so'ng 2018-yilda Turkmanistonda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mamlakatlarimizning BMT Xavfsizlik Kengashida Afg'oniston bo'yicha muzokaralarning olib borilgani, Markaziy Osiyoda radiatsiya xavfsizligini ta'minlash, «Barqaror rivojlanish uchun suv»

harakatlarining xalqaro o'n yilligi, Energetik xartiyaning Ashxobod deklaratsiyasi qabul qilingani, Markaziy Osiyo bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari va shu kabi boshqa ko'plab keng e'tirof etilgan xalqaro tashabbuslari yaxshi ma'lum.

Bularning barchasida barqaror bir tendensiya – davlatlarimizning mustaqil roli va umumiy kelajak uchun mas'uliyati kuchayib borayotgani namoyon bo'lmoqda.

Shuni mamnuniyat bilan qayd etmoqchimanki, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy va global masalalar bo'yicha tobora ko'proq umumiy pozitsiyadan turib fikr bildirmoqda.

Bizning mintaqadagi o'zaro yaqinlashuvimiz va hamkorlikni kengaytirishimiz – bu zamon talab qilayotgan va orqaga qaytmaydigan jarayon ekanini ta'kidlamoqchiman. U qat'iy siyosiy tanlovga asoslangan bo'lib, chuqur tarixiy omillarga ega va kimningdir manfaatlariga qarshi qaratilgan emas.

Bu borada, birlik va jipslikni mustahkamlagan holda, biz izchil va barqaror rivojlanib borayotgan mintaqamizning, demakki, istiqbolli va ishonchli xalqaro sherikning shakllanishiga hissa qo'shmoqdamiz.

Natijada dunyoda Markaziy Osiyoga e'tibor izchil ortib bormoqda, bizning birgalikda ilgari surayotgan tashabbuslarimizni qo'llab-quvvatlashga yetakchi davlatlar va xalqaro moliya tuzilmalarining qiziqishi tobora kuchaymoqda.

Shu munosabat bilan mintaqa mamlakatlarining xorijiy sheriklar bilan turli formatlarda yaqin va tizimli muloqotini va Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda boshqa xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar doirasida o'zaro hamkorlikni davom ettirish muhim, deb hisoblayman.

Muhtaram delegatsiya rahbarlari va a'zolari!

Kengayib borayotgan mintaqaviy sheriklikning ustuvor yo'nalishlari haqida gapirganda, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Birinchi. Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya va energetika sohalaridagi vazifalarni amalga oshirishga bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etish muhimdir. Bular butun mintaqaning jadal taraqqiyoti va raqobatbardoshligini ta'minlashning ustuvor vazifalaridir.

Bu borada Markaziy Osiyo investitsiya forumi va mamlakatlarimiz savdo-sanoat palatalarining ilk yig'ilishini o'tkazish, Transport-kommunikatsiyalar bo'yicha mintaqaviy kengashni tashkil etishni tezlashtirishni taklif etamiz.

«Bir sayohat bilan – butun mintaqqa bo'ylab» tamoyili asosida qo'shma dasturlarni ilgari surish uchun Xalqaro turizm konferensiyasini tashkil etishni taklif etamiz.

Ikkinchi. Bosh vazir o'rinbosarlari va tashqi ishlar vazirlarining ko'p tomonlama uchrashuvlarini muntazam tashkil qilish bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlari Parlamentlararo do'stlik guruhini ta'sis etishni taklif qilamiz.

Uchinchi. «Markaziy Osiyo – yagona o'tmish, umumiy kelajak» shiori ostida madaniy-gumanitar almashuv platformasining yaratilishi barcha xalqlarimiz manfaatlariga javob beradi, deb o'ylayman.

Sizlarning qo'llab-quvvatlashingiz bilan ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarida erishgan salmoqli yutuqlari uchun Markaziy Osiyo mukofotini ta'sis etish, shuningdek, universitetlar forumlari va mintaqaviy sport o'yinlarini tashkil etish taklif qilinmoqda.

Har yili Navro'z bayrami arafasida navbati bilan har bir mamlakatda Markaziy Osiyo madaniyat kunlarini o'tkazishni muhim, deb hisoblaymiz. Bularning barchasi qardosh xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

To'rtinchi. Mintaqaning murakkab suv va ekologik muammolarini hal qilish va yechish o'zaro muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni talab qiladi.

Innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, «yashil iqtisodiyot» tamoyillarini tatbiq etish, cho'llanishning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish va boshqa kompleks chora-tadbirlarni qabul qi-

lish maqsadida BMT shafeligidagi Orolbo‘yi mintaqasi uchun Trast fondi imkoniyatlarini samarali ishga solish muhim, deb hisoblaymiz.

Suv resurslaridan birgalikda foydalanishning dolzarb masalalarini hal qilishning barcha uchun maqbul yechimini izlashni davom ettirish lozim.

Beshinchi. Eng muhim ustuvor vazifa – mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta‘minlashdan iborat.

Zamonaviy tahdid va xavf-xatarlarga keng miqyosda qarshi turish uchun mamlakatlarimizning huquqni muhofaza qiluvchi idoralari va maxsus xizmatlarining operativ hamkorlik qilishi bo‘yicha ishchi mexanizmlarni yaratish tarafdorimiz.

Afg‘oniston bizning mintaqamizning uzviy bir qismidir. Ushbu mamlakatga tinchlik va taraqqiyot yo‘liga qat‘iy qadam qo‘yishi uchun yordam berish barchamizning umumiy manfaatlarimizga to‘liq mos keladi.

Muammoni siyosiy yo‘l bilan hal qilish borasidagi asosiy tamoyillarga amal qilish zarur, deb hisoblaymiz. Avvalambor, bu – zo‘ravonlikdan voz kechish, o‘t ochishni to‘xtatish, muloqot va murosaga tayyorlikni namoyon etishdan iborat.

Bundan tashqari, Afg‘onistonda muhim infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, ushbu mamlakatni mintaqaviy savdo-iqtisodiy aloqalarga faol jalb etishga qaratilgan muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish o‘ta muhimdir.

Hurmatli do‘stlar!

Bugun shuni ishonch bilan aytishim mumkinki, **bizning mamlakatlarimiz o‘rtasida deyarli barcha asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘p tomonlama munosabatlarning yangi tizimi barpo etilmoqda.**

Ushbu ijobiy va shiddatli jarayonning negizida xalqlarimizning o‘zaro intilishi va manfaatlarining mushtarakligi mujassamdir.

Ishonchim komilki, bugun belgilab olingan barcha ustuvor vazifalar kelgusida Markaziy Osiyoda hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha bizning yagona qarashimizda o'z aksini topishi kerak.

Biz o'zaro hamkorligimizning asosiy maqsad va tamoyillarini kelishib olishimiz, inson, kapital, tovar va xizmatlarning harakati, shuningdek, keng ko'lamli madaniy-gumanitar almashuvlar uchun qulay sharoitlar yaratib berishimiz lozim.

Umid qilamanki, bugun Toshkentda bo'lib o'tgan Maslahat uchrashuvi munosabatlarimizda yangi sahifa ochib, Markaziy Osiyoda do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va sheriklikni mustahkamlashning amaliy mexanizmlarini yo'lga qo'yish va shakllantirishga xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining
Maslahat uchrashuvida so'zlangan nutq*

2019-yil 29-noyabr

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARINING MASLAHAT UCHRASHUVI YAKUNLARI BO'YICHA BRIFINGDAGI BAYONOT

Hurmatli ommaviy axborot vositalari vakillari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, sizlarni, bugun Toshkent shahrida o'tkazilayotgan tarixiy anjumanni – Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvini yoritish maqsadida to'plangan ommaviy axborot vositalari vakillarini samimiy qutlashdan mamnunman.

Ushbu formatdagi doimiy muloqotlarni o'tkazish tashabbusi hurmatli hamkasblarim – mintaqa yetakchilarining faol qo'llab-quvvatlashi bilan amalga oshmoqda.

Shu munosabat bilan 1998-yili Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari sammitining tarixiy ahamiyatini hamda 2018-yilda Nur-Sulton shahridagi Maslahat uchrashuvining samarali natijalarini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman.

Bugungi samimiy muzokaralarimiz ham an'anaviy do'stlik va o'zaro anglashuv ruhida o'tdi.

Uchrashuvlar Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining mintaqada ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini yanada mustahkamlashga bo'lgan intilishi va qat'iy siyosiy irodasining yaqqol ifodasi bo'ldi.

Biz o'zaro hamkorlikning dolzarb masalalarini atroflicha muhokama qildik. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalarni har tomonlama kengaytirish yo'lida butunlay hamfikr ekanimizni yana bir bor tasdiqladik.

Uchrashuv dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar bo'yicha bizning qarash va yondashuvlarimiz o'zaro juda yaqin ekanini namoyish etdi.

Mintaqaning mavjud ulkan iqtisodiy salohiyatidan foydalangan holda, ustuvor sohalarda muloqot va sheriklikni rivojlantirishga kelishib oldik.

Biz davlatlarimiz o'rtasidagi savdo to'siqlarini bartaraf etish, sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiramiz.

Energetika infratuzilmalarini modernizatsiya qilish va mintaqaning tranzit imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yirik loyihalarni ro'yobga chiqarish niyatidamiz.

Iqtisodiy va transport koridorlarining samarali mintaqaviy tizimini yaratish borasida faol hamkorligimiz bundan keyin ham davom etadi.

Suv resurslaridan birgalikda foydalanish, iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yumshatish, ekologik xatarlarga qarshi kurashish masalalari bo'yicha ham batafsil fikr almashdik.

Biz innovatsion texnologiyalarni jalb qilish, «yashil iqtisodiyot» prinsiplarini joriy etish, cho'llanishning oldini olish orqali Orolbo'yi muammolarini yechishdagi sa'y-harakatlarimizni muvofiqlashtirib boramiz.

Mamlakatlarimiz mintaqalari o'rtasida faol muloqotni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ilm-fan, ta'lim, turizm, madaniyat va sport sohalarida qo'shma tadbirlarni muntazam o'tkazib borishga kelishib oldik.

Biz Markaziy Osiyo xalqlarini birlashtirib turadigan umumiy qadriyat va an'analarni asrab-avaylash, keng targ'ib qilish bo'yicha qo'shma dasturlarni amalga oshirishdan manfaatdor ekanimizni bayon etdik.

Muzokaralar chog'ida mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash uchun ko'p tomonlama hamkorlik masalalariga

ayniqsa jiddiy e'tibor qaratildi. Jumladan, huquqni muhofaza qilish organlari va maxsus xizmatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

Biz Afg'oniston mojarosini tinch yo'l bilan hal etish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarni faollashtirish tarafdorimiz. Birodar afg'on xalqiga amaliy yordam ko'rsatishni, yon qo'shnimiz bo'lgan ushbu mamlakatda bevosita ular ishtirokida qo'shma infratuzilma loyihalarini va mintaqaviy tashabbuslarni ilgari surishni bundan keyin ham jadal davom ettiramiz.

Bu chora-tadbirlar Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, tinchlik jarayonlarini ta'minlash, iqtisodiyotni qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishiga ishonamiz.

Mintaqamiz davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi formatidagi har yil o'tkaziladigan sammitlar g'oyatda muhim ekanini barchamiz qat'iy ma'qulladik. Uchrashuvlarimiz hamkorligimizning eng dolzarb masalalarini ochiqlik va o'zaro ishonch asosida muhokama qilish uchun samarali muloqot maydoni bo'lishini yana bir bor tasdiqladi.

Sammit yakunida munosabatlarimiz natijadorligiga xizmat qiladigan muhim hujjatlar qabul qilindi.

Bu o'rinda, avvalo, Qo'shma bayonot haqida to'xtalishni istar edim. Mazkur hujjat bizning mintaqaviy hamkorligimizni har tomonlama chuqurlashtirish, do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi umumiy siyosiy irodamizni yana bir bor tasdiqladi.

Biz Maslahat uchrashuvlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish Reglamentini ma'qulladik. Ushbu hujjat sammitlarga puxta hozirlik ko'rish, ularni tizimli ravishda o'tkazish, kelishilgan va o'zaro manfaatli qarorlar qabul qilishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Biz Turkmaniston Prezidentining taklifini to'la qo'llab-quvvatladik va oqsoqolimiz, Qozog'iston Respublikasining Birinchi Prezidenti – Elboshi Nursulton Abishevich Nazarboyevni

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Maslahat uchrashuvining faxriy raisi etib sayladik.

E'tiboringizni muhim bir masalaga qaratmoqchiman. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi formati qandaydir yangi mintaqaviy tashkilot tuzish haqida gapirishga asos bo'la olmaydi.

Hurmatli jurnalistlar!

Xonimlar va janoblar!

Markaziy Osiyo – asrlar davomida qondosh xalqlar tinch va totuv yashab kelayotgan jahondagi kam sonli mintaqalardan biridir.

Bizni mushtarak tarix va madaniyat, yagona muqaddas din, o'xshash mentalitet, ma'naviy-axloqiy qadriyat va an'analar hamda ajralmas do'stlik chambarchas bog'lab turadi.

Bularning barchasi xalqlarimiz farovonligi va ravnaqi yo'lida Markaziy Osiyo davlatlari salohiyatini birlashtirishga qaratilgan o'zaro manfaatli hamkorligimiz uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

So'zimning yakunida shuni aytishni istardimki, biz oliy darajadagi mintaqaviy muloqotni rivojlantirishning sifat jihatidan mutlaqo yangi bosqichiga ko'tarildik.

Hech shubhasiz, birgalikdagi intilishlarimiz bilan oldimizda turgan barcha maqsadlarga albatta erishamiz. Markaziy Osiyo-ni xavfsiz va barqaror taraqqiyot mintaqasiga, ko'pqirrali sheriklik makoniga aylantiramiz.

Biz navbatdagi Maslahat uchrashuvimizni kelgusi yili Qirg'izistonning go'zal Bishkek shahrida o'tkazishga kelishib oldik.

E'tiborlaringiz uchun rahmat.

*Toshkent shahri,
2019-yil 29-noyabr*

O'ZBEKISTON – YAPONIYA: XALQLAR VA MADANIYATLAR MULOQOTI

Buyuk ipak yo'li turli madaniyat va sivilizatsiyalar hamkorligini ta'minlagan noyob hodisa sifatida tarixdan o'rin egalladi. Jug'rofiy jihatdan bir-biridan uzoqda joylashgan mamlakatlar va xalqlar ushbu yo'l tarmoqlari orqali o'zaro bog'landi. Qit'alararo o'tgan bu yo'l, bamisoli qon-tomir tizimi kabi, ularning ravnaq topishi uchun ko'maklashdi.

Osiyo qit'asining turli burchaklarida joylashgan O'zbekiston va Yaponiya ham tarixan ko'plab mushtarak jihatlarga ega. Biz turmush tarzimiz, an'ana va urf-odatlarimiz, madaniy-ma'naviy qadriyatlarimizdagi o'xshashliklarni qadrlaymiz.

Olis o'tmishda bugungi O'zbekistonning janubiy hududi eramizning dastlabki asrlarida o'z taraqqiyotining yuksak darajasiga ko'tarilgan qudratli Kushon podsholigining bir qismi hisoblangan. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz hududida Kushon sivilizatsiyasiga mansub 120 ga yaqin arxeologik va me'moriy obidalar mavjud. Kushon davlatining yirik savdo va madaniy markazlaridan biri bo'lgan Termiz shahri Qoratepa, Fayoztepa, Ayritom, Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxona-majmualari bilan ham mashhurdir. Bu yerdan VI asrda Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab, qo'shni mamlakatlar orqali buddaviylik ta'limoti Yaponiyaga kirib borgan va bu o'lkada eng ko'p tarqalgan dinga aylangan.

O'sha qadim zamonlarda bizning mintaqamiz va Kunchiqar yurt o'rtasida nafaqat tijorat mollari, balki axborot, bilim-ma'rifat va g'oyalar bilan ham jadal almashuv jarayoni kechgan. Masalan, Nara prefekturasining Ikaruga shahrida joylashgan Xoryudzi buddaviylar

ibodatxonasidagi sugʻd bitiklari tushirilgan qadimiy osori atiqalar, bugungi kunga qadar Oʻzbekistonda maʼlum-u mashhur boʻlgan milliy dastgohlar yordamida toʻqilgan matolar – aynan shundan dalolat beradi.

Bizning mamlakatimiz, uning tarixi va madaniyatiga Yaponiyada yuksak hurmat-ehtirom bilan munosabatda boʻlib kelayotgani uchun yapon xalqidan behad minnatdormiz.

Buyuk ipak yoʻlining qadimiy anʼanalarini tiklashga munosib hissa qoʻshgan ajoyib yapon gumanist rassomi, Toshkentning faxriy fuqarosi Ikuo Xirayama xotirasini biz hamisha qalbimizda saqlaymiz. U aynan Oʻzbekiston ushbu qitʼalararo yoʻlning tarixiy va maʼnaviy markazi ekanini eʼtirof etib, «Agar Yaponiya buddaviylik madaniyatining sharqiy diyori boʻlsa, uning gʻarbiy oʻlkasi koʻhna Oʻzbekiston zaminidir», deb taʼkidlagan edi. Bu buyuk insonning tashabbusi bilan Toshkentda «Xalqaro madaniyat karvonsaroyi» tashkil etildi va uning nomi poytaxtimiz tarixidan ham munosib joy egalladi.

Oʻzbek xalqining tarixiy va madaniy merosini oʻrganishga Otani Kodzuy, Siratori Kurakiti, Ikeda Daysaku, Mano Eydzi, Tanabe Katsumi singari yirik yapon olimlari va madaniyat arboblari ulkan hissa qoʻshdilar.

Biz buyuk oʻzbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy xotirasiga Tokio shahrida Yaponiya hukumati va yapon doʻstlarimizning saʼy-harakatlari bilan oʻrnatilgan yodgorlik uchun ulardan minnatdormiz. Bu haykal xalqlarimiz oʻrtasidagi azaliy doʻstlik va hurmat-ehtiromning yorqin ifodasiga aylandi.

Atoqli etnograf, tarixchi va arxeolog olim, professor Kato Kyudzo nomini biz doimo iliq xotiralar bilan yod etamiz. Bu fi-doyi inson ilk bor yurtimizga 1960-yillarda, taniqli yapon yozuvchisi, bizning mintaqamiz samimiy mehr bilan tarannum etilgan «Gʻarbiy oʻlka haqidagi qaydlar» asarining muallifi Inoue Yasusi bilan birga tashrif buyurgan edi. Kato Kyudzo chorak asr davomida Surxondaryo viloyatining qadimiy Dalvarzintepa qoʻrgʻoni oʻrnida

O'zbekiston – Yaponiya qo'shma ekspeditsiyasining rahbarlaridan biri sifatida ish olib bordi. Mazkur ekspeditsiya faoliyati natijasida 1991-yilda ikki mamlakat mutaxassislarining hamkorlikdagi ilk ilmiy asari – «Janubiy O'zbekiston durdonalari» fundamental katalogi nashr qilindi. Shuningdek, professor Kato bizning taniqli olimlarimiz – L. Albaum, E. Rtveladze, Sh. Pidayev va boshqa ko'plab mualliflarning asarlarini yapon tiliga tarjima qilib, O'zbekiston tarixini ommalashtirishga hissa qo'shdi. Mamlakatimizda arxeologiya fanini rivojlantirish borasidagi ulkan xizmatlari, shuningdek, O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi do'stlik va madaniy hamkorlik rishtalarini mustahkamlashga qo'shgan hissasi uchun Kato Kyudzo O'zbekiston Respublikasining yuksak davlat mukofoti – «Do'stlik» ordeni bilan taqdirlandi. Surxondaryo viloyatida O'zbekistonning sodiq do'sti bo'lgan bu ajoyib insonning nomi bilan ataladigan ko'cha va maktab bor.

Biz olis o'tmishda O'zbekiston hududida yaratilgan, bugungi kunda Yaponiya muzeylarida saqlanayotgan san'at namunalarini o'rganishga alohida qiziqish bildirayotgan yapon olimlaridan ham minnatdormiz. Ularning orasida qadimgi Baqtriyaning osori atiqalari, mashhur Amudaryo xazinasiga mansub tilla buyumlar, ilk o'rta asrlarga oid nodir sug'd topilmalari alohida o'rin tutadi.

E'tiboringizga havola etilayotgan «O'zbekiston madaniy merosi jahon to'plamlarida» loyihasi doirasida tayyorlangan «Markaziy Osiyo madaniy merosi Yaponiya muzeylarida» kitob-albomi ana shu noyob kolleksiyalarga bag'ishlangan. Ushbu nashrdan joy olgan qimmatli tarixiy ma'lumotlar, nodir yodgorliklarning fotosuratlari bizning madaniyatlarimizni bog'laydigan jihatlar ko'pligini ko'rsatadi. Tarixning ana shunday durdonalari tufayli mintaqamiz madaniyati Yaponiya orollari aholisi uchun yanada yaqinroq va tushunarliroq bo'ladi, deb ishonaman. Ushbu ajoyib kitobni keng o'quvchilar ommasiga taqdim etish men uchun katta sharafdir.

Ta'kidlash joizki, Yaponiyada O'zbekistonga bo'lgan qiziqish yaponiyalik sayyohlar oqimining mamlakatimizning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlariga va ayniqsa, nafaqat islom, balki buddaviylik madaniyatining ham markazi bo'lgan Termizga intilishi tobora ortib borayotganida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Ishonchim komilki, Yaponiya va O'zbekistonning iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish borasidagi birgalikdagi sa'y-harakatlari xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalari va ko'pqirrali hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

*«Markaziy Osiyo madaniy merosi
Yaponiya muzeylarida» nomli kitob-albomga
yozilgan so'zboshi*

2019-yil 16-dekabr

YAPONIYANING ADABIY MO'JIZASI

Kunchiqar o'lka – Yaponiyada bugun yangi tong otmoqda. Yangi era – imperator Naruxito A'lo hazratlari davri boshlanmoqda. Ushbu mamlakatda qaror topgan siyosiy va ma'naviy tamoyillarga ko'ra, imperator – yapon xalqi va davlati birligining ramzi, yapon milliy tafakkuri va mentalitetining ko'zgusidir.

Bu qadim yurtda shakllangan azaliy an'anaga muvofiq, har bir imperatorlik erasi, ya'ni davri ma'lum bir ramziy nom bilan ataladi. Masalan, 1989–2019-yillarda hukmronlik qilgan, ayni paytda faxriy imperator – o'z vaqtida mustaqil O'zbekiston va Yaponiya davlatlari o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shgan Akixito A'lo hazratlarining davri «**Xeysey**» – «**Tinchlikka erishish**» erasi, deb atalgan bo'lsa, yangi imperator Naruxito A'lo hazratlarining erasi «**Reyva**», ya'ni «**Go'zal uyg'unlik**» degan ezgu nom bilan atalmoqda.

E'tiborli tomoni shundaki, «Reyva» iborasi yapon badiiy tafakkurining yuksak namunasi hisoblanadigan «**Man'yosyu**» dostonidan olingan. «**Adadsiz yaproqlar shodasi**» degan ma'noni anglatadigan ushbu mumtoz xalq eposi VIII asrning ikkinchi yarmida yaratilgan bo'lib, to'rt yuz yildan ziyod vaqt davomida to'plangan 4500 dan ortiq she'riy asarlarni qamrab oladi.

2019-yilning 22 oktabr kuni Yaponiya davlati tarixida muhim voqea sodir bo'ldi – imperator Naruxito A'lo hazratlarining rasmiy taxtga chiqish marosimi o'tkazildi.

Fursatdan foydalanib, men Yaponiya imperatori Naruxito A'lo hazratlariga, birodar yapon xalqiga o'zbek xalqi nomidan samimiy tabrik va ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Garchi mamlakatlarimiz bir-biridan olisda joylashgan bo'lsa-da, insonparvarlik va bag'rikenglik, milliy g'urur va vatanga sadoqat, mehnatsevarlik va halollik, ajdodlarga, oilaga, ota-onaga hurmat va ehtirom ko'rsatish, tabiat bilan uyg'un bo'lib yashash – qadim tarixga ega bo'lgan o'zbek va yapon xalqlariga xos olijanob fazilatlardir.

Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar tarixiga nazar tashlasak, bu munosabatlarning shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqalishiga guvoh bo'lamiz.

Bundan sakkiz asr muqaddam buyuk alloma Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devon-u lug'otit-turk» asarida kunchiqar mamlakatning nomini tilga olib, uni «**Jabarqa**» deb ataydi va ilk bor ushbu o'lkaning xaritada tasvirini bayon qilib o'tadi.

Ilmiy tadqiqotlar, jumladan, o'zbek-yapon arxeologik ekspeditsiyalari natijalari buddizm ta'limoti 6-asrda yurtimiz hududida mavjud bo'lgan qadimiy Kushon davlatidan Xitoy va Koreya orqali Yaponiya yarim orollarida tarqalganini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda topilgan budda ibodatxonalarining Yaponiyadagi ibodatxonalar bilan mushtarakligi ham shundan dalolat beradi.

Yaponiyaning Nara shahridagi Xoryudzi ibodatxonasi xazinasida saqlanayotgan, 8-asrda Samarqand va Toshkentda tayyorlangan osori atiqalar, 9–10-asrlarga oid ud musiqa asbobi, Afrosiyobdan topilgan, 12-asrga mansub nafis yapon chinni idishi ham o'zbek va yapon xalqlari o'rtasida qadimdan savdo-sotiq aloqalari mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

1880-yilda yapon diplomati Nisi Tokudziro Toshkent, Samarqand, Buxoro shaharlari va Farg'ona vodiysida bo'lib, «Turkiston sayohatnomasi» nomli kitob yaratgani, 19-asr oxiri – 20-asr boshlarida Yasumasa Fukusima, Zuicho Toshibana kabi tadqiqotchilarning o'lkamizga sayohat uyushtirgani yapon xalqining yurtimizga qiziqishi yuqori bo'lganidan dalolat beradi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida taqdir taqozosi bilan O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan 24 mingga yaqin yaponiyalik harbiylar tur-

li viloyatlardagi sanoat korxonalarida, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa sohalarda mehnat qilgan. Xususan, Toshkent shahridagi Alisher Navoiy nomidagi akademik katta teatr binosi qurilishida 600 ga yaqin yaponlar ishtirok etganini xalqimiz aslo unutmaydi.

Taqdirning og'ir sinovlarini boshidan kechirgan yapon xalqi vakillari haqida, o'zbek xalqining ularga ko'rsatgan mehr-oqibati va xayrixohligi haqida atoqli kinorejissor Malik Qayumov tomonidan hujjatli film yaratilgani, Yaponiyada «Navoiy teatri qurilishi haqida qaydlar», O'zbekistonda «Yaponlarga panoh bo'lgan yurt» nomli kitoblar chop etilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Mamlakatimizning bir qator shahar va viloyatlarida yapon harbiylari mangu orom topgan qabristonlar obod qilinib, yodgorlik obidalari bunyod etilganini qayd etish lozim.

1991-yilda Yaponiya birinchilardan bo'lib O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini tan olganini biz doimo minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bugungi kunda O'zbekiston Yaponiyaga ulkan siyosiy, iqtisodiy, intellektual va investitsion salohiyatga ega ishonchli sherik sifatida qaraydi. Yurtimizda yaponiyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatlarimizning parlamentlararo hamkorlik aloqalari, tashqi siyosat mahkamalari o'rtasidagi maslahatlashuvlar muntazamlik kasb etib bormoqda.

Bu haqda gapirganda, «Taraqqiyotga rasmiy yordam» (ODA) dasturi doirasida hamda Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) orqali respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarda qator loyihalar amalga oshirilayotganini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekiston bilan Yaponiyaning nufuzli ilmiy va ta'lim muassasalari o'rtasida aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 6 ta oliy ta'lim muassasasida yuzlab talabalar yapon tilini o'rganmoqdalar, Toshkent davlat

texnika universiteti qoshida O'zbek-yapon yoshlar innovatsiya markazi faoliyat ko'rsatmoqda. 2020–2021-o'quv yilidan boshlab respublikamizdagi 15 ta maktab yapon tilini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashmoqda.

Yaponiya bosh vaziri muhtaram Sindzo Abe janoblarining: **«Men nafaqat siyosat va iqtisodiyot borasidagi munosabatlarimizni rivojlantirish, balki turli sohalarda, jumladan, madaniyat va ilm-fan sohalarida ham O'zbekiston bilan do'stona aloqalarni mustahkamlash uchun bundan buyon ham butun imkoniyatlarimni ishga solishga tayyorman»**, degan so'zlarini biz xalqimizga bo'lgan yuksak hurmat-ehtirom ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Xalqlarimizning mushtarak ezgu maqsad va intilishlari tufayli Yaponiyada O'zbekiston madaniyati va kinosi kunlari, O'zbekistonda Yaponiya madaniyat kunlari muntazam tashkil etilmoqda. Kunchiqar yurt ijodkorlari mamlakatimizda o'tkazilayotgan xalqaro anjumanlarda faol qatnashib kelmoqda.

2015-yilda Samarqand shahrida o'tkazilgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida Yaponiyaning «Shamisen» guruhi birinchi o'rinni, 2019-yili Marg'ilon shahrida bo'lib o'tgan «Buyuk ipak yo'li» folklor musiqa festivalida «Csps Japan» jamoasi ikkinchi o'rinni qo'lga kiritgani ham o'zbek xalqi yapon san'atini yuksak qadrlashini ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonga kelayotgan yaponiyalik sayyohlar soni yildan yilga ortib bormoqda.

Toshkent shahrida bunyod etilgan, yapon xalqining milliy madaniyati va qadriyatlarini o'zida mujassam etgan «Yapon bog'i» poytaxtimiz aholisi va mehmonlarining sevimli maskanlaridan biriga aylangan, desak, xato bo'lmaydi.

2004-yili Tokioda buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy xotirasiga bag'ishlab muazzam haykal o'rnatildi. Biz bu muhim madaniy hodisani avvalo yapon xalqining O'zbekiston xalqiga,

o'zbek adabiyoti va san'atiga bo'lgan ulkan qiziqish va e'tiborining yorqin amaliy natijasi sifatida yuksak baholaymiz.

Yaponiyalik taniqli faylasuf va rassom Ikuo Xirayama o'z hayoti va ijodini yurtimiz tarixi va an'analarini o'rganishga bag'ishlaganini yaxshi bilamiz. O'zbekistonga ko'p marta tashrif buyurgan iste'dodli rassom o'z ijodida Samarqand, Buxoro kabi ko'hna shaharlarimizni, go'zal qishloqlarimizni, xuddi yapon xalqidek mehnatsevar yurtdoshlarimizni yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Bu hassos musavvir va olimning xotirasiga bag'ishlab O'zbekiston Badiiy akademiyasi qoshida Ikuo Xirayama nomidagi xalqaro madaniyat karvonsaroyi ochilgani o'zaro madaniy yaqinligimizning yana bir tasdig'idir.

O'zbek-yapon do'stlik aloqalarini rivojlantirishga qo'shgan munosib hissasi uchun Ikuo Xirayama O'zbekiston Badiiy akademiyasining faxriy xorijiy a'zosi etib saylangan. Professor Kyudzo Kato va Vaseda universiteti prezidenti Takayasi Okushima 2002-yilda O'zbekiston Respublikasining «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlangan.

Shu o'rinda atoqli arxeolog olim, Markaziy Osiyo tarixining noma'lum sahifalarini ochishga katta hissa qo'shgan tolmas tadqiqotchi, Termiz shahrining faxriy fuqarosi Kyudzo Kato xotirasini alohida ehtirom bilan yodga olib o'tishni istardim.

Shunday olimlar borki, ular o'z faoliyati bilan nafaqat bir mamlakat, balki dunyo xalqlari va madaniyatlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. Professor Kyudzo Kato, hech shubhasiz, ana shunday ajoyib inson edi.

Kyudzo Kato o'zbek olimlari bilan birgalikda ko'hna Dalvarzintepa va Qoratepa hududlarida arxeologik tadqiqotlar olib borib, buddizmning beshiklaridan bo'lgan qadimiy Surxon zaminini yapon xalqi uchun muqaddas ziyoratgoh sifatida yangidan kashf etdi.

«Men – yaponman, O‘zbekistonni ikkinchi ona Vatanim deb atayman, shu yurtning faxriy fuqarosi ekanimdan g‘ururlanaman», – deb ta’kidlagan olim qirq yilga yaqin vaqt davomida mamlakatimizda muhim ilmiy tadqiqotlar olib bordi.

Fidoyi olimning Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug‘ ajdodlarimizga oid nodir asarlarini mamnuniyat bilan esga olamiz.

Kato janoblari o‘zbek xalqini juda sevardi, O‘zbekistonning yaqin do‘sti edi. Umrining so‘nggi daqiqalarigacha mamlakatimizda bo‘lib, shu yurtda vafot etgan ulug‘ olimning nomi va xotirasi xalqimiz qalbida yashamoqda.

Jahon adabiyoti bo‘stonida alohida mavqe va maqomga ega bo‘lgan yapon adiblarining nomi va ijodi ham o‘zbek kitobxonlariga yaxshi tanish.

Xususan, Matsuo Basyo, Kobayasi Issa, Yasunari Kavabata, Kobo Abe, Ryunoske Akutagava, Akira Kumano, Xaruki Murakami singari ko‘plab mashhur shoir va yozuvchilarning asarlari, yapon folklori namunalari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, yurtimizda ko‘p ming nusxalarda nashr etilmoqda.

Yapon adabiyotining taniqli namoyandalaridan Yasusi Inouening «Samarqandga sayohat», Man Inouening «Toshkentda bir oqshom» tarixiy kitoblari o‘zbek ziyolilari uchun qadrli asarlardir.

Biz «O‘zbek tili» qo‘llanmasi, «O‘zbekcha so‘zlashuv», «O‘zbekcha-yaponcha lug‘at» kitoblarini tayyorlab, ko‘p ming nusxada nashr etgan Itaro Komatsu, buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarini yapon tiliga mahorat bilan tarjima qilib, teran ilmiy izohlar bilan nashr etgan Eyji Mano singari zahmatkash yapon olimlarining nomlarini ehtirom bilan tilga olamiz.

Mashhur vatandoshimiz Mahmud Zamaxshariyning «Muqadimat-ul adab» asarining Tokioda faksimil nashri amalga oshirishi, buyuk mutafakkir bobomiz Alisher Navoiyning, Abdurauf

Fitrat, Abdulla Qodiriy, Sharof Rashidov, Zulfiya, Ramz Bobojon singari ulkan adiblarimizning asarlari yapon tiliga tarjima qilinib, chop etilgani ikki xalq o'rtasidagi adabiy aloqalarning yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

Ayni paytda Cho'lpon, Oybek, Said Ahmad, Asqad Muxtor, Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari atoqli adiblarimiz yapon xalqining ibratli hayoti, o'lmas qadriyatlari, ezgu fazilatlari tarannum etilgan go'zal badiiy asarlar yaratganini alohida ta'kidlash joiz.

Ana shunday samarali madaniy hamkorlikning mantiqiy davomi sifatida bugun men muhtaram o'quvchilarimizga yapon xalqi qalbini, uning ruhi va qudratini teran ifoda etadigan, taniqli o'zbek ijodkorlari tomonidan tarjima qilingan «**Yapon she'riyati guldastasi**» nomli kitobni taqdim etish sharafiga muyassar bo'lganimdan mamnunman.

To'plamga mashhur «Man'yosyu» eposidan parchalar, shuningdek, yapon she'riyatining badiiy-falsafiy olamini o'zida mujassam etadigan Matsuo Basyo, Kikaku, Ryokan, Kobayasi Issa, Kagamo Siko, Gonso'y Ikenasi, Nadzivo Bantyo, Mukay Kyoray singari atoqli shoirlarning asarlaridan namunalar kiritilgan.

Bu she'rlarning mavzu ko'lami keng va rang-barang, ammo ularning barchasini pok sevgi-muhabbat, ezgulikka ishonch, ijtimoiy adolat, yovuzlikka nafrat kabi insoniy tuyg'ular birlashtirib turadi.

Bugungi kunda dunyoning har tomonlama rivojlangan, yetakchi davlatlaridan biri bo'lgan, eng zamonaviy texnologiyalar va ilmfan yutuqlari bilan barchani hayratga solayotgan Yaponiyaning turli sohalarda erishayotgan yuksak taraqqiyot darajasini kuzatar ekanmiz, beixtiyor «**yapon mo'jizasi**» degan ibora yodimizga kelishi tabiiy.

Albatta, hech bir nihol tap-taqir zaminda o'z-o'zidan unib chiqmaydi. Shu ma'noda, yapon mo'jizasining ildizlari o'z

xalqining necha ming yillar davomida shakllangan turmush tarzi, urf-odatlar va boy madaniy merosidan oziqlanadi, desak, adashmagan bo'lamiz.

Bu ko'hna merosning ajralmas qismi hisoblanadigan yapon she'riyati esa xalq ruhi va falsafasining, bugungi yapon madaniyati va sivilizatsiyasining rivojlanishiga asos bo'lgan buyuk bir adabiy mo'jizadir, desak, bu ham ayni haqiqat bo'ladi.

O'zining betakror milliy xususiyatlariga qaramasdan, dunyoning deyarli barcha tillariga tarjima qilingan, jahon adabiyot ixlosmandlarining havas va hayratini qozona olgan yapon she'riyatining mumtoz namunalari bizga kunchiqar yurt haqidagi tasavvurlarimizni kengaytirish, yapon xalqining hayoti, uning badiiy tafakkur tarzi bilan yanada yaqinroq tanishish imkonini beradi, deb o'ylayman.

Ishonchim komil, yurtimiz kitobxonlar jamoatchiligi mazkur badiiy majmuani o'zbek xalqining yaqin do'st va hamkor yapon xalqiga, uning buyuk adabiyoti va boy madaniyatiga, yorug' kelajagiga bo'lgan hurmati va ishonchining yorqin namunasi sifatida katta qiziqish va e'tibor bilan qabul qiladi.

*«Yapon she'riyati guldastasi»
kitobiga yozilgan so'zboshi*

2019-yil 16-dekabr

O‘ZBEKISTON O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIK UCHUN OCHIQR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiyaga rasmiy tashrifi doirasida ushbu mamlakatda chop etiladigan «Nikkei» gazetasiga intervyu berdi.

1876-yilda asos solingan, dunyodagi yirik moliyaviy nashrlardan biri bo‘lgan ushbu gazeta 3 milliondan ziyod nusxada chop etiladi. Quyida ushbu intervyuning tarjimasi berilmoqda.

– Muhtaram Prezident Janoblari, Siz Yaponiya bilan ikki tomonlama munosabatlar, ayniqsa, iqtisodiyot sohasidagi o‘zaro hamkorlikning bugungi holatini qanday baholaysiz?

– Yaponiya O‘zbekiston uchun doimo vaqt sinovidan o‘tgan, ishonchli va strategik sherik bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi.

Yaponiya hukumatining ko‘magida, «Rivojlanish uchun rasmiy yordam» dasturi doirasida mamlakatimizda qiymati 4 milliard dollardan ziyod bo‘lgan yirik loyihalar amalga oshirildi.

Iqtisodiy hamkorligimizning asosiy sohalari – bu elektr energetikasi, neft-gaz, neft-kimyoy va kimyoy tarmoqlari, mashinasozlik va turizm hisoblanadi.

Ishonamanki, bo‘lajak O‘zbekiston – Yaponiya sammiti doirasida erishilgan kelishuvlar ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda yangi davrni boshlab, sheriklik aloqalarimizning yangi yo‘nalishlarini belgilab beradi.

– Yaponiyaga tashrifingiz doirasida qanday ikki tomonlama hujjatlar imzolanishi ko‘zda tutilgan?

– Tashrif davomida Yaponiya yetakchi kompaniyalarining to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarini nazarda tutadigan bir qator shartnomalarni imzolashni rejalashtirganmiz.

Amalga oshirilishi belgilangan qo'shma investitsiyaviy loyihalarning umumiy qiymati 6 milliard dollardan ziyodni tashkil etadi.

Yirik va muhim ahamiyatga molik loyihalar orasida qiymati qariyb 2 milliard dollar bo'lgan Navoiy issiqlik elektr stansiyasining uchinchi va to'rtinchi bug'-gaz qurilmasini qurish bo'yicha ishlar davom ettirilishini alohida ta'kidlashni istardim. Yana bir muhim loyiha (qiymati 200 million dollar) meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, O'zbekistonda eksportga yo'naltirilgan zamonaviy qishloq xo'jaligi klasterlarini tashkil etishga qaratilgan.

– O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy salohiyati va jozibador jihatlarini nimalarda ko'rasiz?

– O'zbekistonda so'nggi yillarda investitsiya muhitining yaxshilanishi natijasida xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar soni 2 barobarga ortdi. Bugungi kunda ularning soni 10 mingni tashkil etmoqda.

Biz bu yil xorijiy investitsiyalarni uch barobar ko'p, ya'ni 7 milliard dollardan kam bo'lmagan miqdorda o'zlashtirishni mo'ljallab turibmiz.

O'zbekiston ulkan mineral-xomashyo resurslariga ega bo'lib, oltin, uran, mis, kaliy tuzlari, fosforitlar kabi foydali qazilmalar zaxiralari bo'yicha dunyodagi o'nta yetakchi davlat qatorida qayd etiladi. Biz birgalikda ilg'or yapon texnologiyalari yordamida ularni yanada chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashga erishishimiz mumkin.

– O'zbekiston bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor bo'lgan barcha davlatlar va kompaniyalarni qiziqtiradigan bir savol bilan murojaat qilishga ruxsat etsangiz: mamlakatda keng miqyosdagi islohotlar davom ettiriladimi, keyingi tarkibiy o'zgarishlar qanday bo'ladi?

– Ko'p yillar davomida to'planib qolgan muammolarni hal qilish, xalqaro maydonda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun 2017-yildan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasini

rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni boshladik. Iqtisodiyotni liberallashtirish ishlari va ma'muriy islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, milliy valutaning erkin konvertatsiyasi joriy etildi.

Biz raqobat va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, xususiy mulkni himoya qilishning qat'iy kafolatlari, mazkur sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, biznes va sarmoya muhitini yaxshilashga muhim ahamiyat qaratmoqdamiz. Bularning barchasi, jumladan, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishiga qaratilgan.

Biz xorijiy investorlarning qo'llab-quvvatlashidan umidvormiz. Hukumatimiz xorijiy investitsiyalarni imkon qadar himoya qilish va O'zbekistonga sarmoyalar oqimini kengaytirish maqsadida ishonchli rag'batlantirish omillarini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

Bugungi kunda O'zbekistondagi demokratik islohotlar ortga qaytmaydigan darajada muqarrar tus oldi, deb aytish uchun barcha asoslarimiz bor. Chunki, bu islohotlar bizning milliy manfaatlarimizga, xalqimizning orzu-intilishlariga mos keladi.

– 2016-yilda mamlakat Prezidenti lavozimiga saylanganingizdan so'ng Siz hokimiyatni demokratlashtirish va uning ochiqligini ta'minlash siyosatini amalga oshirishga kirishdingiz. Ushbu siyosat davom ettiriladimi va shu jihatdan qaraganda, bo'lajak parlament saylovlarining ahamiyati nimalardan iborat?

– Davlat rahbari sifatidagi faoliyatimning ilk kunlaridan boshlab jamiyatimiz hayotining barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatning yangilanishi va modernizatsiya qilinishiga birinchi darajali ahamiyat qaratib kelmoqdaman.

Bugungi kunda O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Shuni qayd etish kerakki, O'zbekiston viza rejimi eng liberal davlatlar ro'yxatida MDH hududida ikkinchi va Markaziy Osiyoda

birinchi o'rinda turadi. Hozirgi vaqtda bizning mamlakatimizga 86 ta davlat fuqarolari kirish vizasini olmasdan kelib-ketishi mumkin.

Bugun O'zbekiston aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Biz, albatta, yosh avlod haqida har tomonlama g'amxo'rlik qilamiz.

Bo'lajak parlament saylovlari milliy mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi yo'lidagi yana bir amaliy qadam bo'ladi.

– O'zbekiston tashqi siyosatda qanday tamoyillarga tayanadi?

– Bizning maqsadimiz – xalqaro maydonda, jumladan, jahon xo'jalik munosabatlarida munosib o'rin egallashtan iborat. O'z-o'zidan ravshanki, tashqi siyosatimizning bosh ustuvor yo'nalishi – Markaziy Osiyo mintaqasidir. So'nggi uch yil mobaynida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi siyosiy muhit shakllandi, o'zaro siyosiy ishonch sezilarli darajada ortdi, kooperatsion va gumanitar aloqalar faollashdi.

Mintaqamizda barqarorlikni ta'minlash qo'shni Afg'onistonda tinchlikka erishish bilan chambarchas bog'liqdir.

Yevroosiyoning transport-tranzit va ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan xalqaro tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaymiz, mintaqamiz orqali Sharqdan G'arbga va Shimoldan Janubga o'tadigan mavjud transport va iqtisodiy koridorlarni mustahkamlash va yangilarini yaratish tarafdorimiz.

Biz barcha sherik davlatlar – Rossiya, AQSH, Xitoy, Janubiy Koreya, Yevropa davlatlari va musulmon dunyosi mamlakatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada mustahkamlashdan manfaatdormiz.

*Yaponiyaning «Nikkei» gazetasi muxbiri
savollariga javoblar*

2019-yil 17-dekabr

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga birinchi rasmiy tashrifiga bag'ishlab «The Japan Times» gazetasi «Milliy siyosat va savdo munosabatlari barqaror rivojlanmoqda» deb nomlangan maxsus maqola chop etdi. Quyida ushbu maqolaning tarjimasi berilmoqda.

MILLIY SIYOSAT VA SAVDO MUNOSABATLARI BARQAROR RIVOJLANMOQDA

Shavkat Mirziyoyev Prezident etib saylanganidan buyon o'tgan so'nggi uch yil davomida ichki va tashqi siyosatda tub islohotlar jarayonini amalga oshirmoqda.

Ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan g'oya bu jarayonda asosiy yo'naltiruvchi kuch bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti inson huquqlari sohasidagi ahvolni yaxshilash, siyosiy mahbuslarni ozod qilish va diniy erkinliklarni ta'minlash borasida muhim chora-tadbirlarni amalga oshirdi.

Hukumat tomonidan kichik va o'rta xususiy korxonalarni rag'batlantirish uchun qator islohotlar o'tkazildi. Bundan tashqari, paxtachilik, meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish va chorvachilikka ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalari davlat tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida O'zbekistondagi investitsiya muhiti, uning jozibadorligi sezilarli darajada yaxshilandi, bu esa yirik va yetakchi xorijiy kompaniyalarni O'zbekiston bozoriga yanada faol kirib borishga undadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston tarixida ilk bor investitsiyalar-ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 38 foizdan ortganini ta'kidladi. Budget daromadlari qariyb 5,86 milliard dollarni tashkil etdi.

2017-yil sentabr oyidan boshlab O'zbekiston o'z milliy valutasining erkin konvertatsiya qilinishiga to'liq o'tdi. Xalqaro moliyaviy institutlar, Jahon banki, Xalqaro valuta jamg'armasi bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan sheriklik qayta tiklandi.

Jahon banki va Xalqaro moliyaviy korporatsiya tomonidan har yili tuziladigan «Biznes yuritish» hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingi ancha yaxshilandi – mamlakat 2012-yilgi 166-o'rindan 2017-yilda 76-o'ringa ko'tarildi.

Tashqi siyosat

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonda tashqi siyosat sezilarli darajada faollashdi, qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlarda konstruktiv va vazmin siyosat yuritish boshlandi. Tinch va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo O'zbekiston uchun eng muhim maqsad va tashqi siyosat sohasidagi asosiy ustuvor yo'nalishdir.

Birgalikdagi sa'y-harakatlar, avvalo, Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan siyosat tufayli mintaqada keyingi uch yilda siyosiy ishonch darajasi ancha ortdi. Qisqa vaqt davomida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishildi.

Joriy yil 28-noyabr kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining Maslahat uchrashuvi mintaqadagi barcha davlatlarning o'zaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi qat'iy intilishini yana bir bor tasdiqladi hamda mintaqaviy

shiriklikni kuchaytirish bilan bog'liq masalalarni atroflicha muhokama qilish imkonini berdi. Uchrashuvda savdo, iqtisodiyot, investitsiyalar, transport va tranzit, qishloq xo'jaligi, sanoat kooperatsiyasi, atrof-muhitni muhofaza qilish, energetika, suv resurslari, turizm, ilm-fan va madaniyat sohalarida hamkorlikni yanada taraqqiy ettirishning istiqbolli yo'nalishlari, shakl va mexanizmlari har tomonlama ko'rib chiqildi.

Bundan tashqari, Prezident Shavkat Mirziyoyev barcha manfaatdor davlatlar bilan o'zaro samarali hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan yo'lni belgilab berdi. O'zbekiston rahbari AQSH, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Fransiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlarga tashrif buyurib, o'zaro hamkorlikni sezilarli darajada faollashtirish uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladigan samarali muzokaralar olib bordi.

Turizm

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti etib saylanganidan so'ng milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan turizm salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonga kelayotgan xorijlik sayyohlar soni keyingi uch yil mobaynida muttasil ortib bormoqda. Istiqbolda – 2023-yilga borib O'zbekiston bu ko'rsatkichni 10 millionga yetkazishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

O'zbekiston ulkan turizm salohiyati va g'oyat boy madaniy-tarixiy merosga ega. Bu zaminda purviqor tog'lar bilan o'ralgan vodiylar va jazirama sahrolar, qadimiy me'moriy obidalari bilan mashhur tarixiy majmualar va zamonaviy megapolislar ajib bir tarzda uyg'unlashib ketgan. O'zbekistonda 11 ta milliy tabiiy bog'lar va davlat qo'riqxonalari, 12 ta maxsus qo'riqxona, 106 ta muzey, 37 ta teatr, 187 ta madaniyat va istirohat bog'i mavjud.

Mamlakatda 7400 ta madaniy meros obyektini asrab-avaylab saqlanmoqda. Ularning 209 tasi to'rtta shahar-muzeyda – «Xiva shahridagi Ichanqal'a», «Buxoro shahrining tarixiy markazi», «Shahrisabz shahrining tarixiy markazi» va «Samarqand – madaniyatlar chorrahasi» hududida joylashgan bo'lib, UNESCO Jahon madaniy merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan.

O'zbekiston bosqichma-bosqich 86 davlat fuqarolari uchun vizasiz tartibni joriy etdi, 77 davlat fuqarolari uchun viza berishning soddalashtirilgan tartibini qo'llamoqda, 54 mamlakat fuqarolari uchun esa, agar ular O'zbekiston hududi orqali tranzit tarzida o'tayotgan bo'lsa, soddalashtirilgan tartibda viza olish huquqi berilgan.

2018-yilda o'zbek milliy taomlari «National Geographic» jurnalining «Gastronomik turizm» nominatsiyasida birinchi o'rinni egalladi, O'zbekiston ko'plab xorijiy nashrlar, jumladan, «The New York Times», «The Guardian», «Lovely Planet» tomonidan sayohat uchun eng jozibador va qiziqarli yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston – Yaponiya munosabatlari

Yaponiya 1991-yil 28-dekabr kuni O'zbekiston mustaqilligini tan oldi. Diplomatik munosabatlar 1992-yil 26-yanvarda o'rnatildi. Ushbu munosabatlar 2002-yil 29-iyulda strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi.

Yaponiya O'zbekiston uchun vaqt sinovidan o'tgan ishonchli va muhim strategik sherikdir. O'zaro munosabatlar sur'ati tomonlarning manfaatli va teng huquqli hamkorlikni yanada faollashtirish va kengaytirishga tayyor ekanini ko'rsatmoqda. O'zbekiston xalqaro tashkilotlar doirasida BMTning turli tuzilmalariga ko'rsatilgan Yaponiya nomzodini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Tokioning tashabbusi bilan 2004-yilda mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish maqsadida tashkil etilgan «Markaziy

Osiyo + Yaponiya» muloqoti ikki tomonlama hamkorlikning muhim mexanizmidir.

O'zbekistonda 1999-yildan boshlab turli loyihalarni amalga oshirishga, ikki mamlakat ishbilarmon doiralari va jamoatchiligi o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yishga ko'maklashayotgan Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) va Yaponiya tashqi savdo tashkiloti (JETRO)ning mintaqaviy ofislari, shuningdek, O'zbekiston – Yaponiya markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Yaponiyaning moliyaviy-texnik ko'magi bilan O'zbekistonda sog'liqni saqlash, ta'lim, energetika, transport, telekommunikatsiyalar va boshqa yo'nalishlarda bir qator ijtimoiy ahamiyatga molik hamda infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirildi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda Iqtisodiy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Yaponiya va Yaponiya – O'zbekiston qo'mitalari katta rol o'ynamoqda. Qo'mitalarning 15-qo'shma majlisi 2019-yil iyul oyida Tokioda bo'lib o'tdi.

O'zbekistonda bugungi kunda Yaponiyaning Marubeni, Mitsubishi, JOGMEC, Toyota Tsusho, Itochu, Isuzu va boshqa yetakchi kompaniyalari faoliyat yuritmoqda.

Bu boradagi hamkorlikka «O'zavtosanoat» aksiyadorlik jamiyati va Yaponiyaning Isuzu kompaniyasi sherikligi misol bo'lib xizmat qiladi. Isuzu agregatlari bazasida O'zbekistonda qariyb 12 mingta avtobus va 17 mingdan ziyod yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillarining tabiiy gazda harakatlanadigan yangi modellarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Modellar qatorini yangilash, mahalliyashtirish darajasini chuqurlashtirish hamda Yaponiyaning ilg'or texnologiyalari va ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etishga katta ahamiyat berilmoqda.

Xalqlarimiz o'rtasidagi aloqalar ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, Buyuk ipak yo'li eng ravnaq topgan davrlarga borib taqaladi. Bu

hamkorlik nafaqat UNESCO Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimgi va hozirgi kunga qadar saqlanib kelayotgan shaharlar orqali savdo-sotiq bilan, balki boshqa qadimgi sivilizatsiya markazlari – Yaponiyaning Nara va Kioto kabi tarixiy shaharlari orqali madaniy va gumanitar almashinuvlar vositasida mustahkamlanib kelgan. Shu davrdan boshlab O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida bugungi kunda ham xalqlarimizning mushtarak mentalitetini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy aloqalar rivoj topdi. Yaponiyalik arxeolog olim Kyudzo Katoning tadqiqotlari tufayli O'zbekiston buddaviylik markazlaridan biri bo'lgani, ushbu ta'limot Yaponiyaga miloddan avvalgi II asrdan boshlab aynan bugungi O'zbekiston hududi orqali kirib kelgani isbotlandi.

1999-yilda «O'zbekiston – Yaponiya» do'stlik jamiyati ta'sis etildi, uning asosiy sheriklari «Yaponiya – O'zbekiston» do'stlik assotsiatsiyasi va «Fukusima – O'zbekiston» madaniy-iqtisodiy hamkorlik uyushmasidir. 2001-yilda Toshkentdagi «O'zekspomarkaz» milliy ko'rgazmalar majmuasi hududida Yapon bog'i ochildi. Bu yerda minglab sakura daraxtlari ekilgan bo'lib, ular gurkirab o'smoqda.

O'zbekistonda yapon filmlari, badiiy ko'rgazmalar, yaponiyalik san'atkorlarning konsert va spektakllarini namoyish etishni qamrab olgan madaniy tadbirlar dasturi yildan yilga kengayib bormoqda.

*Yaponiyaning «The Japan Times»
gazetasida bosilgan maqola*

2019-yil 18-dekabr

NAGOYA UNIVERSITETI – SINALGAN VA ISHONCHLI ILMIY HAMKORIMIZ

Muhtaram Matsuo janoblari!

Hurmatli professorlar va talabalar, universitet jamoasi!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, Nagoya universiteti prezidentining samimiy dil soʻzlari va ezgu tilaklari uchun chin qalbidan tashakkur izhor etaman.

Oʻylaymanki, mening Prezident sifatida mamlakatingizga ilk tashrifim haqida bildirilgan fikrlar, mana shunday eʼtibor, bir-birimizga hurmat, iliq munosabat haqiqatan ham Yaponiya va Oʻzbekiston oʻrtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, kelgusida katta natijalarga erishish yoʻlida ishonchli zamin yaratadi.

Biz Nagoya universitetini dunyodagi eng nufuzli ilm-fan va taʼlim maskanlaridan biri sifatida eʼtirof etamiz.

Nobel mukofoti sovrindorlari Ryoji Noyori, Osamu Simomura, Makoto Kobayasi, Tosixide Maskava, Isamu Akasaki, Xiroshi Amano va boshqa mashhur olimlarni yetishtirib bergan ushbu universitetning faxriy doktori degan yuksak sharafga munosib koʻrilganimdan gʻoyatda xursandman.

Bu unvonni men avvalo Oʻzbekiston xalqiga koʻrsatilgan ehtirom ifodasi, deb qabul qilaman va buning uchun Nagoya universiteti rahbariyatiga, uning ilmiy jamoasiga chuqur minnatdorchilik bildiraman.

Men Nagoya universitetining faxriy doktori sifatida Oʻzbekistonda uning ulkan ilmiy salohiyati va yutuqlarini keng targʻib va tashviq qilishga, taʼbir joiz boʻlsa, ushbu universitetning ishonchli vakili sifatida ish olib borishga harakat qilaman.

Butun jahonga mashhur Nagoya shahri haqida xalq orasida shunday ibora bor ekan: «Nagoya qal'asi bo'lmaganida Nagoya shahri ham bo'lmas edi». Men bunga qo'shimcha qilib: «Nagoya universitetisiz Nagoya shahrini ham tasavvur etib bo'lmaydi», degan bo'lardim.

Ma'lumki, mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlar ko'p asrlik tarixga ega. Yaponiyaning mashhur Nara shahri muzeyida sug'd yozuvida bitilgan yodgorliklar borligi buni yaqqol tasdiqlaydi.

Yapon arxeologi, marhum professor Kato tomonidan Kushon podshohligining dastlabki poytaxti bo'lgan O'zbekistondagi Dalvarzintepadan topilgan budda ibodatxonasi va qirqqa yaqin haykallar yapon va jahon ilmiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Shu o'rinda o'zbek va yapon xalqlarini o'xshash milliy va axloqiy qadriyatlar bilan birga ilm-fan va tafakkurga, kamolotga doimo intilib yashash kabi ezgu fazilatlar birlashtirib turishini e'tirof etmoqchiman.

Bizning ulug' bobolarimiz – algebra fani va «Algoritm» tushunchasining asoschisi Al-Xorazmiy, Yerning aylanasi uzunligi va radiusini ilk bor hisoblab chiqqan Al-Beruniy, tarixda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan, jahon tibbiyot fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Ibn Sino, noyob rasadxona va 1018 ta yulduzning joylashuvi aniq aks ettirilgan astronomik jadval yaratgan Mirzo Ulug'bek kabi buyuk o'zbek olimlarining ilmiy merosini, o'ylaymanki, sizlar yaxshi bilasizlar.

Qadrli do'stlar!

Biz O'zbekistonda bundan uch yil avval milliy taraqqiyotimizning yangi Harakatlar strategiyasini qabul qildik. Jamiyat hayotida har tomonlama ochiqlik va erkinlikni ta'minlash, mamlakatni modernizatsiya qilishga asoslangan ushbu Strategiya doirasida besh ustuvor yo'nalishda izchil islohotlarni amalga oshirmoqdamiz.

Bu jarayonda eng rivojlangan davlatlarning, xususan, ilg'or yapon tajribasidan unumli foydalanishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz.

Chunki Yaponiya bizning vaqt sinovidan o'tgan, o'zaro ishonch va hurmat tamoyillariga asoslangan strategik sherigimizdir.

Biz ushbu tashrifni o'zaro manfaatli va uzoq muddatli hamkorligimiz tarixida boshlanayotgan mutlaqo yangi davrning o'ziga xos ifodasi deb bilamiz.

Yaponiya O'zbekistonni xalqaro maydonda doimiy qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Ayni paytda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, ustuvor ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda yaqindan ko'maklashmoqda.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng 5 mingdan ziyod yoshlarimiz Yaponiya universitetlarini tamomlab, o'z bilim va tajribalarini Vatanimiz ravnaqi uchun safarbar etayotgani alohida e'tiborga loyiq.

Men ko'p yillar oliy ta'lim tizimida ishlagan inson sifatida bu sohaning sharafligi, shu bilan birga naqadar mashaqqatli va mas'uliyatli ekanini yaxshi bilaman.

Biz bugun uchrashib turgan Nagoya universiteti bilan O'zbekistonning hamkorligi 20 yildan ziyod tarixga ega. Sizning universitetingiz 2010-yilda Toshkent shahrida o'z vakolatxonasini ochganini biz yuksak baholaymiz. Hozirga qadar mazkur dargohda 400 dan ortiq o'zbekistonlik talaba va tadqiqotchilar tahsil olgani ayniqsa quvonarlidir.

Bugungi uchrashuvimizda Yaponiyada o'qiyotgan ko'plab yoshlarimizni ko'rib turganimdan xursandman. Sizlar o'z iste'dod va salohiyatingizni namoyon etishingiz uchun O'zbekistonda barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib beramiz. Men hozir sizlarni ko'rib, yuzingizdagi, chehrangizdagi o'zingizga bo'lgan ishonchingizni his qilib xursand bo'lib o'tiribman.

Sizlarga qarab, barchangiz chindan ham jonajon Vatanimizga munosib o'g'il-qizlar bo'lishingizga ishonch hosil qildim. Eng katta vazifangiz – vaqtingizni bekor o'tkazmasdan, a'lo o'qish, yuqori texnologiyalarni chuqur egallash, O'zbekiston va Yaponiya o'rtasida

do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlashga hissa qo'shishdan iboratdir. Shu yo'lda barchangizga yangi yutuq, baxt va omadlar tilayman.

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Globalashuv davrida jahonning ko'pgina taraqqiy etgan davlatlari «axborot jamiyati», «bilimlar iqtisodiyoti», «raqamli iqtisodiyot» yo'lini tanlaganiga guvohmiz.

Zamonaviy dunyoda inson kapitali, intellektual salohiyat, innovatsion g'oyalar, yuqori texnologiyalar jadal va barqaror taraqqiyotning fundamental asosini tashkil qilmoqda.

Bundan yarim asr muqaddam puxta o'ylangan, taraqqiyotning ilm-fanga asoslangan «yapon modeli» tufayli mamlakatingiz bugun barcha sohalarda yetakchi davlatlardan biriga aylandi.

Yaponiya fani sun'iy intellekt, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, robototexnika, kosmik tadqiqotlar, yadroviy tibbiyot, «yashil energetika» yo'nalishlaridagi ilmiy izlanishlar borasida olamshumul yutuqlarga erishmoqda. Xususan, mamlakatingizdan 28 nafar Nobel mukofoti sovrindori yetishib chiqqani ham bu fikrning yorqin isbotidir.

Hurmatli do'stlar!

Biz zamonaviy taraqqiyotning kaliti aynan ilm-fan va ta'limda ekanini chuqur anglab, inson kapitaliga investitsiya kiritishni davlat siyosati darajasiga ko'tardik.

O'tgan yili O'zbekistonni innovatsion rivojlantirish Strategiyasini qabul qildik. Biz innovatsiyalar sohasidagi ilg'or mamlakatlar qatoridan o'rin egallashni o'z oldimizga vazifa qilib qo'ydik.

Bugungi kunda 33 millionli yurtimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Kreativ fikrlaydigan, fanning muayyan sohasida chuqur bilimga ega, yuqori intellektual salohiyatli mutaxassislar tayyorlash ustuvor maqsadimiz hisoblanadi.

Bunga erishish uchun oxirgi uch yilda 36 ta yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib, institut va universitetlarimiz soni 116 taga yetkazildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda AQSH, Buyuk Britaniya, Rossiya, Italiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Singapur va boshqa davlatlar yetakchi oliy o'quv yurtlarining 22 ta filiali faoliyat ko'rsatmoqda.

Davlat ko'magida jahonning ilg'or ilmiy va ta'lim markazlarida yetuk mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish tizimli asosda yo'lga qo'yildi. Bu jarayonlarga munosib hissa qo'shib kelayotgan Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JAYKA) faoliyatini minnatdorlik bilan e'tirof etishni istar edim.

Yaponiya hukumatining tashabbusi – «Global-30» dasturi bo'yicha Nagoya universitetining Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mas'ul etib belgilangani g'oyatda samarali bo'lmoqda.

Biz Nagoya universitetining prezidenti, hurmatli Matsuo janoblarining yurtimizga bir necha marta tashrif buyurib, ilmiy hamkorligimizni rivojlantirish borasida qilayotgan katta xizmatlarini alohida qadrlaymiz. Ayniqsa, u kishining o'tgan yili Nobel mukofoti sovrindori, professor Noyori janoblari bilan birgalikda O'zbekistonga tashrifi mamlakatimiz ilmiy hayotida muhim voqea bo'ldi.

Xabaringiz bor, Nagoya universitetining muhtaram prezidenti Matsuo janoblarining O'zbekiston ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotganini e'tiborga olib, yaqinda Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy kengashi u kishini ushbu universitetning faxriy rektori etib sayladi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Yaponiyaning «Kadrlar tayyorlash» dasturi doirasida mamlakatimizning 300 dan ziyod yoshlari yurtimizda magistrlik va doktorlik ilmiy darajalarini olishga erishdilar. O'zbekiston – Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi orqali ham o'nlab yigit-qizlarimiz yapon universitetlarida malaka oshirmoqdalar.

Muhtaram do'stlar!

Albatta, O'zbekiston va Yaponiya hamkorligida amalga oshirilgan ishlarimiz e'tirofqa sazovor. Ayni vaqtda hali bu borada ishga

solinmagan imkoniyatlarimiz ham borligini ta'kidlash lozim. Shu munosabat bilan ayrim takliflarni bildirishga ijozat etgaysiz.

Birinchiidan, Nagoya universitetining tashabbusi bilan muntazam o'tkazib kelinayotgan Yaponiya – O'zbekiston universitetlari rektorlari an'anaviy konferensiyasi ilmiy hayotimizda katta rol o'ynamoqda. Biz ushbu hamkorlikni yanada kengaytirish maqsadida ilmiy-akademik almashuvlar va texnologiyalar transferi bo'yicha O'zbek-yapon qo'shma fondini tashkil etishni taklif etamiz.

Mazkur fond o'zaro ilmiy tadqiqotlarni, ikki mamlakat yosh olimlarining birgalikdagi ilmiy izlanishlarini moliyalashtirish, talabalar va professor-o'qituvchilar almashuvi bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu fond faoliyati O'zbekistonda ayni shunday yo'nalishda ish olib borayotgan «Iste'dod» fondining mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Dastlabki qadamlar sifatida biz har yili Nagoya universitetining 15 nafar professor-o'qituvchisini O'zbekistonda aziz mehmonlar sifatida qabul qilishga tayyor ekanimizni bildiraman. Ular o'z fan yo'nalishlari bo'yicha mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ma'ruzalar o'qib, amaliy mashg'ulotlar, mahorat darslari o'tkazib bersalar, biz nihoyatda minnatdor bo'lardik. Ayni vaqtda ana shunday almashuvlar dasturi asosida har yili mamlakatingizning 50 nafar talabayoshlarini 15 kun davomida O'zbekistonning tegishli oliy o'quv yurtlarida kutib olishga tayyormiz. O'ylaymanki, mana shu 50 nafar talabaning 50–60 foizi Nagoya universiteti talabalari bo'lsa, ayni muddao bo'lar edi.

Ishonchim komil, bunday loyihalar ikki tomonlama munosabatlarni yuqori bosqichga ko'tarishga katta hissa qo'shadi. Nega deganda, yoshlarimiz o'rtasidagi aloqalar mustahkam bo'lsa, do'stlik va hamkorligimiz albatta samarali va bardavom bo'ladi.

Ikkinchiidan, Nagoya universiteti va O'zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi hamkorligida mamlakatimiz Fanlar akademiyasi

qoshida nanotexnologiyalar asosida yangi materiallar yaratish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirishni taklif etaman.

Uchinchidan, o'zbek-yapon arxeologlari bilan birgalikda yurtimiz hududida joylashgan buddaviylik tarixi va madaniyatiga oid arxeologik yodgorliklarni ilmiy o'rganish ishlarini davom ettirishimiz zarur. Biz bu borada yaponiyalik do'stlarimiz bilan birga, Termiz davlat universiteti qoshida O'zbek-yapon ilmiy markazini tashkil etishdan manfaatdormiz.

Hurmatli uchrashuv qatnashchilari!

Biz yaqinda O'zbekistonning Yaponiyadagi elchixonasida ilmfan va innovatsiyalar bo'yicha maslahatchi-vakil lavozimini joriy etdik. Nega desangiz, men bu uchrashuvdan oldin hurmatli prezident Matsuo boshchiligidagi butun ilmiy jamoa, Nobel mukofoti laureatlari, prorektorlar, professorlar bilan ko'rishganimda ko'p-ko'p masalalarni kelishib oldik. Mana shu masalalarni amalga oshirish bo'yicha bizning maslahatchi-vakilimiz Nagoya universiteti bilan bevosita shug'ullanadi. Aytish mumkinki, u O'zbekiston Prezidentining Nagoya universitetidagi ishonchli vakili bo'ladi.

Vaqt o'tadi, bugungi tarixiy uchrashuvimiz natijalari ikki oliy o'quv yurti – Nagoya universiteti va Toshkent davlat texnika universiteti o'rtasidagi aloqalarga, eng asosiysi, O'zbekiston va Yaponiya o'rtasidagi munosabatlarimizga katta ijobiy ta'sirini ko'rsatadi, deb ishonaman.

Muhtaram do'stlar!

O'zbek xalqi Yaponiyaning qadimiy tarixi va boy madaniyatiga katta hurmat va qiziqish bilan qaraydi. Buning amaliy tasdig'i sifatida yaqinda mamlakatimizda «Yaponiya konstitutsiyasi», «Yapon she'riyati guldastasi», «Markaziy Osiyo madaniy merosi Yaponiya to'plamlarida», «O'zbekiston yaponiyalik qalbida» kabi bir qancha kitob va albomlar o'zbek va yapon tillarida chop etildi.

Ijozatingiz bilan, ushbu nashrlarni Nagoya universiteti kutubxonasiga taqdim etmoqchiman. O'ylaymanki, mana shu ki-

toblar sizning kutubxonangizdan joy olib, hamkorligimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi hamkorligimiz, bugungi bildirilgan fikrlar, katta-katta takliflarning natijasi sifatida ikki-uch yildan keyin tarjima qiladigan kitoblarimiz yanada ko'payadi, deb istak bildiraman.

Men boya uchrashuv paytida hurmatli Matsuo janoblariга aytdim: «Endi sizning jamoangiz faqat Nagoyada emas, balki Toshkentda ham katta ilmiy jamoa hisoblanadi, o'zbek olimlari, talabalari sizni rektor sifatida kutadi», deb u kishini O'zbekistonga tashrif buyurishga taklif qildim.

Muhtaram prezident Matsuo janoblari!

Hurmatli universitet ilmiy jamoasi!

So'zimning yakunida menga va xalqimizga ko'rsatgan yuksak hurmat va ehtiromingiz uchun o'z nomimdan, delegatsiyamiz nomidan yana bir bor minnatdorchilik bildirib, barchangizni O'zbekistonga taklif etaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Yaponiyadagi Nagoya universiteti
professor-o'qituvchilari va talabalari
bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 18-dekabr

DO'ST BOG'INING BULBULI

Azaldan tili, dini va dili bir bo'lgan, tarix sinovlarida toblangan o'zbek va turk xalqlarini teran tarixiy ildizlar, mushtarak ma'naviy qadriyat va an'analar, mustahkam hamkorlik rishtalari chambarchas bog'lab turadi.

Ikki xalq o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik tuyg'ularini yanada yuksaltirishda uzoq o'tmishdan buyon davom etib kelayotgan adabiy aloqalarning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Turkiyada Dada Qo'rqut nomi bilan mashhur bo'lgan adib, shayx va allomani hazrat Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida turk ulusi orasida keng shuhrat topgan avliyo sifatida ehtirom bilan qalamga oladi.

O'z navbatida, turkiyalik atoqli shoir va adabiyotshunos, jamoat va siyosat arbobi Fuad Ko'prulining: **«Turkiylar orasidan yetishib chiqqan yuzlab shoirlar butun turk dunyosini qalam bilan birlashtirgan Alisher Navoiy asarlaridan ta'sirlanib, undan ilhom olib ulg'ayishgan»**, degan e'tirofi adabiy hamkorligimizning nechog'li qadimiy va mustahkamligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda yurtimizda buyuk turk mutafakkiri Jaloliddin Rumiy yoki otashnafas shoir Yunus Emro nomini bilmaydigan, ularning barkamol asarlarini sevib mutolaa qilmaydigan kitobxonni topish qiyin, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Xususan, Sharq xalqlarining eng mashhur shoirlaridan bo'lgan Yunus Emro ijodi barcha turkiy xalqlar qatori o'zbek xalqi uchun ham g'oyat aziz va qadrlidir.

XIII asr o'rtalari – XIV asr boshlarida yashab ijod etgan Yunus Emro jahon adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadigan yuksak ma'rifatli shoir, ilohiy ishq va insoniy mehr-muhabbat kuychisidir.

Qur'on va hadis ilmlarini chuqur o'rgangan, o'z davrining yetuk tasavvuf olimi bo'lgan Yunus Emro xalqona va ravon she'rlari bilan insonlarni, turli millat va xalqlarni hamisha ma'rifatga, odamiylikka, yaxshilik va ezgulikka, mehr-muhabbatli bo'lishga chorladi. «**Do'st bog'ining bulbuliman**», deya do'stlik va hamjihatlik tuyg'ularini ulug'ladi.

Bu jihatdan shoirning: «**Biz dunyoga manmanlik uchun kelmadik. Biz sevgi uchun, boshqalarning mehrini qozonish, Alloh yaratgan jamiki narsalarga shafqat, muhabbat ko'rsatish uchun keldik**», degan fikrlari alohida ahamiyatga egadir.

Yunus Emro ijodidan namunalar O'zbekistonda muntazam nashr etib kelinishi, taniqli shoir va tarjimonlarimiz tomonidan o'zbek tiliga qayta-qayta o'girilishi bejiz emas. Chunki, uning manzumalari o'zbek baxshilarining termalariga, mashhur so'fiy shoirlarimiz Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy, shuningdek, xalqimiz orasida keng ommalashgan ulug' turkman shoiri Maxtumquli asarlariga ruhan va mazmunan yaqinligi bilan e'tiborni tortadi.

Xususan, Yunus Emro barcha turkiy xalqlarning tabarruk piri bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotining davomchisi sifatida olamga tanilganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Shu ma'noda, UNESCO qarori bilan xalqaro miqyosda 1993-yil – Xoja Ahmad Yassaviy yili, 1994-yil – Yunus Emro yili deb e'lon qilinishi ham ana shu ma'naviy silsiladan dalolat beradi.

O'sha vaqtda bu sanalar ko'plab mamlakatlarda keng nishonlangan, nufuzli xalqaro anjumanlar o'tkazilgan, ilmiy tadqiqotlar yaratilgan edi.

Ayni paytda, hazrat Yassaviy izdoshlarining, jumladan, Yunus Emroning turkiy xalqlar ma'naviyatiga ko'rsatgan hayotbaxsh

ta'sirini o'rganish borasida olimlarimiz oldida jiddiy vazifalar turibdi va biz bu yo'lda faol hamkorlik qilishimiz zarur.

Ma'lumki, butun dunyoda ulkan siyosiy, iqtisodiy va madaniy salohiyatga ega bo'lgan mamlakat sifatida tanilgan Turkiya Respublikasi O'zbekiston tashqi siyosatida alohida ahamiyatga ega davlat hisoblanadi. Turkiya O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan, shu tariqa Vatanimizning dunyo xaritasida yangi davlat sifatidagi e'tirofini boshlab bergan edi.

So'nggi yillarda xalqlarimiz o'rtasidagi qadimiy qardoshlik, o'zaro do'stlik va hamkorlik aloqalari tarixida mutlaqo yangi sahifa ochilib, ular yangicha ma'no-mazmun bilan boyib borayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Bu borada Turkiya Respublikasi Prezidenti muhtaram Rejep Tayyip Erdog'an Janobi Oliylarining ulkan hissasi borligini alohida ta'kidlashni istardim.

Bizning ko'ngillarimiz yaqin, niyatlarimiz mushtarak. Ikki qardosh davlat xalqaro maydonda ham, o'zaro aloqalarda ham bir-birini doimo qo'llab-quvvatlaydi.

Yirik xalqaro tuzilmalar, xususan, bugungi kunda O'zbekiston to'laqonli a'zo bo'lib kirgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi doirasida qaror topayotgan yangi munosabatlar qardosh xalqlarimiz hayotini yanada obod va farovon etishga ijobiy ta'sir ko'rsatishiga ishonchimiz komil.

Iqtisodiyot, investitsiya, innovatsiya, transport va kommunikatsiya, ilm-fan va ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm kabi sohalardagi hamkorligimiz, shuningdek, parlamentlararo do'stlik aloqalari muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik jadal rivojlanmoqda. O'zaro madaniyat kunlari yuqori saviyada o'tmoqda. Yurtimiz san'atkorlari Turkiyadagi do'stlik konsertlari, ko'rgazmalar, xalqaro teatr festivallarida faol qatnashmoqda.

Turkiya kinofilmlari va seriallari o'zbek tomoshabinlari orasida keng shuhrat qozongan.

Turk san'at ustalari O'zbekistonda o'tayotgan Xalqaro maqom san'ati anjumani, «Sharq taronalari», Xalqaro baxshichilik san'ati va Xalqaro hunarmandchilik festivallari kabi yirik madaniy tadbirlar, turli tanlovlar va konferensiyalarda muntazam ishtirok etmoqda.

Yurtimiz olimlari Turkiya tarixi va madaniyati, uning qadimiy va boy adabiyoti haqida ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik institutining turkiyshunoslik kafedrasida talabalar turk tili va adabiyotini chuqur o'rganmoqda.

Turk xalqi bizning Vatanimizni «ota yurt» deya e'zozlaydi. O'zbeklar turklarga «qardoshim» deya samimiy ehtirom ko'rsatadi. Bunday mehrga to'la izhorlarni eshitganimizda, Turkiyaning go'zal hududlarida Amir Temur, Toshkent, Samarqand nomlari bilan atalgan bog' va ko'chalar, mahalla va madaniyat markazlarini ko'rganimizda qalblarimizda o'zgacha his-tuyg'ular jo'sh uradi.

Samarqand va Istanbul, Buxoro va Ko'nyo, Xiva va Bursa singari shaharlarimiz o'rtasida birodarlik aloqalari yo'lga qo'yilgani xalqlarimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

O'ylaymanki, Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga a'zo davlatlarda «Turkiy adabiyot xazinasi» ruknida nashr etiladigan eng sara adabiyotlarimiz namunalaridan iborat 100 jildlik kitoblar turkumi madaniy hamkorligimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xalqlarimiz yuragida bezavol yashayotgan ulug' shoir Yunus Emroning o'zbek tilida nashr etilayotgan mazkur yangi kitobi ana shu xayrli ishimizning ilk samarasidir.

Men har gal Yunus Emro she'rlarini mutolaa qilar ekanman, bu aziz avliyoning axloqi naqadar go'zal, insonparvarligi naqadar samimiy, kamoli naqadar oliy ekanini ko'rib hayratga tushaman.

Albatta, ul zotni bunday ulug' sharafiga yetkazgan omil – pok
iymon-e'tiqod va chin islomiy ma'rifatdir.

Men bu haqiqatga shoiringing **«O'lmas ko'ngul»** nomli ushbu
kitobiga So'zboshi yozish jarayonida yana bir bor amin bo'lganim-
dan behad baxtiyorman.

*Turk mumtoz shoiri Yunus Emroning
«O'lmas ko'ngul» kitobiga yozilgan so'zboshi*

2020-yil 19-fevral

MADANIY HAMKORLIKNING YORQIN NAMUNASI

Azaliy qardoshlikka asoslangan O'zbekiston – Turkiya o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalari keyingi yillarda yangi bosqichga ko'tarilib, jadal rivojlanib borayotgani xalqlarimizning asriy orzu-intilishlari hamda tub manfaatlariga javob beradi. Bu borada Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an Janobi Oliylari bilan muntazamlik kasb etgan uchrashuv va muloqotlarimiz, erishilgan ikki tomonlama kelishuv va shartnomalar muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Tili va dini, tarixi va madaniyati o'zaro mushtarak xalqlarimiz o'rtasidagi yaqinlik va qardoshlik rishtalarini mustahkamlashda adabiy aloqalar azal-azaldan beqiyos o'rin tutib keladi.

Ayniqsa, o'zbek milliy davlatchiligi, ilm-fani, madaniyati, san'ati va adabiyoti yuksak bosqichga ko'tarilgan XV asrda xalqlarimiz o'rtasidagi adabiy aloqalar har tomonlama rivojlangani yaxshi ma'lum. Buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, Sharq Uyg'onish davrining yorqin namoyandasi Alisher Navoiy ana shu jarayonda hal qiluvchi o'rin tutgani tarixiy manbalardan yaxshi ayon.

Bu haqda so'z yuritganda, shuni alohida ta'kidlashni istardim: ildizi, tomiri bir, o'zaro qon-qardosh turkiy xalqlarni ruhan va ma'nan birlashtirish Alisher Navoiy ijodi va faoliyatining o'zak g'oyalari-dan birini tashkil etgan. Ulug' shoir bobomiz o'zining «Lison ut-tayr» dostonida ichki bir g'urur bilan yozgan mana bu she'riy satrlar ushbu fikrni isbotlaydi:

**Turk nazmida chu men tortib alam,
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.**

Qadimiy turkiy tilda barakali ijod qilib, uni adabiy til, madaniyat va saltanat tili darajasiga ko'targan, barcha asarlari umumbashariy gumanistik g'oyalar bilan sug'orilgan Alisher Navoiyni shuning uchun ham barcha turkiy xalqlar o'z shoiri sifatida alohida mehr bilan o'qib-o'rganadi va u bilan faxrlanadi.

So'nggi yillarda biz O'zbekistonda milliy ma'naviyatimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning Vatan va xalq oldidagi xizmatlari, bebaho ilmiy va ijodiy merosi bilan nafaqat xalqimizni, ayni vaqtda dunyo jamoatchiligini ham keng tanishtirishga alohida ahamiyat bermoqdamiz. Jumladan, Alisher Navoiy qalamiga mansub asarlarning Rossiya, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarning muzey va kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalarini o'rganish, ularning nusxalarini yurtimizga olib kelish, atroflicha tadqiq qilib, xalqimizga yetkazish borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash lozimki, Vatanimiz o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan bugungi kunda biz uchun buyuk tariximiz va madaniyatimizga oid yangi ilmiy tadqiqotlar har qachongidan ham muhim ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham biz jahondagi ilmiy-madaniy tashkilotlarni O'zbekiston madaniy merosini o'rganish, asrab-avaylash va targ'ib etish jarayonlariga keng jalb etib, dunyoning turli mamlakatlari-dagi shu yo'lda birga ishlash istagini bildirgan olimlarga har tomonlama yordam berishda davom etamiz.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan «**O'zbekiston madaniy merosi – jahon to'plamlarida**» loyihasi jahon ilmiy jamoatchiligini birlashtirishning yorqin namunasi bo'lib, uning doirasida xalqimiz madaniyatiga doir noyob kitoblar, albomlar nashr etiladi, hujjatli filmlar suratga olinadi.

Shunday kitob-albomlardan biri bugun siz, hurmatli o'quvchilar e'tiboriga havola qilinayotgan «**Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari**» to'plamidir.

Turk olimi Jahon Oqquyuji tomonidan berilgan ma'lumotga ko'ra, Turkiyada Alisher Navoiy asarlarining 100 dan ziyod qo'lyozmalari saqlanadi. Xususan, bu qadimiy va betakror o'lkada buyuk shoir bobomiz «Kulliyot»ining ikkita mo'tabar nusxasi mavjud.

Turkiy xalqlar asrlar mobaynida Alisher Navoiy asarlarini asl nusxada o'qib kelganlari ilmiy manbalarda ham qayd etilgan. Turk olimi Yusuf Chetindog': «Ayniqsa, XVI asr – umumturk olamida **«Navoiy asri» deb atalsa, aslo mubolag'a bo'lmaydi**», deb e'tirof etgani ham shundan dalolat beradi.

Chindan ham, turkiy adabiyot tarixi va taraqqiyotini Alisher Navoiyning boy va rang-barang ijodiy merosidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Bu fikrni taniqli turk olimi Fuod Ko'prulining quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: **«Alisher Navoiy faqatgina O'rta Osiyo turkiylarining, ya'ni o'zbek adabiyotining buyuk shoiri bo'libgina qolmagan, uning asarlari yuz yillar davomida turk dunyosining har tarafida, Onado'li va Rum elida, Ozarbayjonda, Eronda, Iroqda, Qrimda, Volga bo'ylarida, turkmanlar orasida, hattoki Hindistondagi turk saroylarida o'qib-o'rganib kelingan».**

Tarixiy kitoblar shundan dalolat beradiki, Alisher Navoiy asarlari Turkiyaga uning hayotligi davridayoq kirib borgan. Chunonchi, turk sultoni Boyazid Ikkinchi bilan shaxsan tanish bo'lgan Alisher Navoiy 1481-yilda unga 33 ta g'azalini yuboradi.

Turk sultoni ularni Bursaga – o'sha davrning mashhur shoiri Ahmad Poshoga yuborib, ushbu g'azallarga nazira yozishni so'raydi. G'azallar shoirda kuchli taassurot qoldiradi va ularning barchasiga nazira bog'laydi.

XV–XVI asrlarda 70 ga yaqin turk shoirlari Navoiydan ilhomlanib, uning she'rlariga naziralar yozganlari adabiy manbalarda keltirilgan. Jumladan, Saydi Ali Rais Kotibiy degan turk shoiri Alisher Navoiy ijodining chinakam muxlisi bo'lib, uning ko'plab

g'azallariga nazira yozgani uchun «Alisheri soniy» degan nom bilan shuhrat qozongan.

Ma'lumki, Alisher Navoiy besh dostonidan iborat yaxlit asar yaratib, turkiy adabiyotda «Xamsa» yozish an'anasini boshlab bergan. Turk adabiyotida Toshlijali Yahyo va Hamdi Chalabiy ana shu an'anani davom ettirib, «Xamsa» yaratganlar.

Alisher Navoiy timsoli turk xalq og'zaki ijodi namunalarida ham o'z aksini topgan. Buning tasdig'ini «Gul ila Alisher» nomli mashhur xalq dostoni misolida ko'rish mumkin.

Turkiyada Alisher Navoiy asarlarini turk tiliga tarjima qilish bo'yicha ham katta tajriba to'plangani bizni xursand qiladi. Masalan, ulug' ajdodimizning «Tarixi muluki Ajam» nomli tarixiy asari Fanoiy tomonidan turkchaga tarjima qilinib, 1792-yili Venada chop etilgan. XX asr boshida esa «Muhokamat ul-lug'atayn» asari turk tiliga o'girilgan.

Biz Turkiyada Alisher Navoiy hayoti va ijodi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borish, buyuk shoir asarlarini nashrga tayyorlash ishlari keng yo'lga qo'yilib, rejali asosda qator muhim tadqiqotlar amalga oshirib kelinayotganidan xabardormiz.

Turkiya matbuotida Alisher Navoiyga bag'ishlab yuzlab maqolalar e'lon qilingan. Dunyo olimlarining shoir haqidagi tadqiqotlari tarjima qilinib chop etilgan.

Mazkur kitob-albom Bosfor universiteti professori, O'rta asr qo'lyozma san'ati tarixi mutaxassisi Lale Uluch tomonidan o'rganilgan Turkiyaning to'rtta yirik ilmiy markazi: To'pqopi muzeyi kutubxonasi, Sulaymoniya kutubxonasi, Turk-islom san'ati muzeyi va Istanbul universiteti kutubxonasida yigirma jilddan iborat majmuada saqlanayotgan Alisher Navoiyning 17 ta qo'lyozmasi nusxalari haqidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olgani bilan ayniqsa e'tiborga sazovordir.

Shuning uchun ham bu muazzam to'plam shoir asarlarining Turkiyadagi eng mashhur qo'lyozmalari haqida keng ma'lumot

beradi. Ushbu qo‘lyozmalar asosan XV asr boshlariga mansub bo‘lib, shundan 13 tasi Alisher Navoiy yashagan davrga yaqinligi, ya‘ni, 1520 – 1540-yillar orasida ko‘chirilgani bilan katta ilmiy qimmat kasb etadi.

Mazkur kitob-albomning yana bir muhim jihati bor. U ikki mamlakat olimlari o‘zbek va turk adabiyotining mushtarak tarixiy ildizlari va aloqalari, bardavom an‘analari, adabiy ta‘sir va badiiy tarjima masalalari, matnshunoslik va manbashunoslik muammolari bo‘yicha birgalikda tadqiqotlar olib borishlari bugungi kunda qanchalik foydali va zarur ekanini ko‘rsatadi.

Imkoniyatdan foydalanib, buyuk alloma va mutafakkirlarimiz, jumladan, Alisher Navoiyning noyob qo‘lyozmalarini asrab-avaylab, o‘rganib va targ‘ib etib kelayotgan turkiyalik hurmatli olim va mutaxassislariga chuqur minnatdorlik bildiraman.

Biz Alisher Navoiyga bunday yuksak ehtiromni o‘zbek xalqiga, uning boy tarixi va madaniyatiga ehtirom namunasi, deb qabul qilamiz.

Ulug‘ ajdodimiz ijodiga mansub asarlarning mukammal nusxalari va ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish – navoiyshunoslikning muhim vazifalaridan biridir. Shoir asarlarining Turkiyadagi eng ishonchli qo‘lyozmalari haqida ma‘lumot beradigan mazkur kitob-albom bu yo‘ldagi dastlabki amaliy qadamdir.

O‘zbek va turk navoiyshunoslarining o‘zaro hamkorligi O‘zbekiston va Turkiyaning turli sohalardagi sheriklik aloqalarining uzviy bir qismi bo‘lib, kelgusida bu yo‘nalishda yanada katta loyihalar amalga oshiriladi, deb ishonaman.

*«Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari»
nomli kitob-albom uchun yozilgan so‘zboshi*

2020-yil 19-fevral

KITOB VA KUTUBXONALAR – INSONIYAT TAFAKKURINING BUYUK KASHFIYOTIDIR

Muhtaram Prezident Janobi Oliylari, aziz qardoshim!

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Avvalambor, mana shunday g'oyat muhim va shukuhli marosimga taklif qilganlari uchun Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an Janobi Oliylariga, muhtarama Emine Xonim Oliyalariga, qardosh turk xalqiga chin qalbimdan minnatdorchilik izhor etaman.

Muhtaram do'stlar!

Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbayi esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, desak, adashmagan bo'lamiz.

Barchangizni qadrlil birodarim Erdog'an Janobi Oliylarining tashabbusi va rahnamoligida barpo etilgan Turkiya Prezidenti devonining Xalq kutubxonasi bilan samimiy muborakbod etaman.

Qadimiy va zamonaviy me'morchilik an'analari, muhandislik san'atining eng so'nggi yutuqlarini, turk xalqining buyuk o'tmishi, bunyodkorlik salohiyati, boy ma'naviy olamini o'zida yorqin mujassam etgan bu mahobatli koshona har qanday yuksak tahsinga munosibdir.

Agar azim Anqara Turkiya mamlakatining toji bo'lsa, ushbu kutubxona ana shu tojga o'rnatilgan eng yorqin, eng go'zal gavharlardan biri bo'libdi.

Bu tengi yo'q ma'rifat qasri barchangizga, butun Turkiya xalqiga muborak bo'lsin.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Biz Turkiya Respublikasi O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olganini hamisha minnatdorlik bilan eslaymiz.

Bugungi kunda go'zal mamlakatingiz ulkan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy salohiyatga ega bo'lgan davlat sifatida dunyoda tobora ravnaq va shuhrat topib bormoqda.

Zamonamizning yirik davlat va siyosat arbobi Rejep Tayyip Erdog'an Janobi Oliylari rahbarligida Turkiya xalqi erishayotgan barcha yutuqlar zamirida, avvalambor, inson omiliga, ilm-ma'rifatga beqiyos e'tibor mujassam ekanini biz yaxshi bilamiz. Sizlarning bu boradagi noyob tajribangizni o'rganishga doimo intilamiz.

So'nggi yillarda ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi va xalqlarimizning qo'llab-quvvatlashi bilan do'stlik va hamkorligimiz tarixida mutlaqo yangi sahifa ochildi. Kecha bo'lib o'tgan Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi bu yo'ldagi yangi amaliy qadamdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashiga qo'shildi. Biz barcha a'zo mamlakatlar qatori Turkiya bilan munosabatlarimizni yangi bosqichga ko'tarish uchun faol harakat qilmoqdamiz. Davlatlarimiz o'rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, sarmoyaviy, transport va kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

Ilm-ma'rifat va kitobxonlik madaniyatiga bo'lgan katta qiziqish va e'tibor xalqlarimizni o'zaro yaqinlashtiradigan bebaho qadriyatdir.

Mamlakatimizda 2020-yilni «**Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili**» deb e'lon qilganimiz «**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari**» degan ulug'vor g'oyamizga to'la mos keladi.

Aziz qardoshlar!

Tarix sahifalariga nazar solsak, xalqlarimizning madaniy hamkorligi olis davrlardan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Rum elida tug'ilib kamolga yetgan Qozizoda Rumi buyuk davlat arbobi

va alloma Mirzo Ulug'bek rasadxonasining asoschilaridan biri bo'lganini biz iftixor bilan eslaymiz.

O'z navbatida, Mirzo Ulug'bekning sadoqatli shogirdi, mashhur astronom va matematik Ali Qushchi hayotining so'nggi yillarini Turkiyada o'tkazgani va bu yurtida aniq fanlar rivojiga beqiyos hissa qo'shganini ham barchamiz yaxshi bilamiz. Ali Qushchining nabirasi Mirim Chalabiy ham bobosi singari atoqli alloma bo'lib tanilgan va bunda turk ilmiy-ma'rifiy muhitining ulkan xizmatlari borligi shubhasiz.

O'zaro madaniy hamkorligimiz haqida so'z borganda, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning bu jarayonda g'oyat muhim o'rin tutganini ta'kidlash lozim. Tarixiy manbalar XV asrda turk hukmdori Boyazid Ikkinchining Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy bilan maktublar va elchilar orqali o'zaro muloqotda bo'lganidan guvohlik beradi.

Turkiyaning mashhur olim va adiblari Alisher Navoiyni turkiy dunyoning eng buyuk shoiri, turk tilining himoyachisi sifatida ulug'lab keladilar. Turkiya kitob fondlarida benazir shoirimiz asarlarining 100 dan ortiq qo'lyozmalari saqlanayotgani ham shundan dalolat beradi.

Alisher Navoiy bebaho ijodi bilan bugun ham turkiy xalqlarni ma'naviy jihatdan birlashtirishga xizmat qilib kelmoqda.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Xalqimiz tarixining og'ir va murakkab davri, ya'ni XX asr boshida jadid bobolarimiz Vatanimiz mustaqilligi yo'lida fidoyilik bilan kurashganlar. Bu borada ular turkiyalik ma'rifatparvarlar bilan faol hamkorlik qilganlari, bu diyorda ta'lim olib, yangi g'oya va qarashlarga ega bo'lganlarini yaxshi bilamiz.

O'sha yillarda Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So'fizoda, Said Ahroriy singari atoqli adib va arboblarning Turkiyada tahsil olganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Ibrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon kabi o'nlab ulug' vatandoshlarimiz turk madaniyati va adabiyoti ruhida tarbiya topganlar. Ming afsuski, ularning aksariyati mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lganlar.

Bugungi kunda biz O'zbekistonda jadidchilik harakatining noyob merosini chuqur o'rganish bo'yicha katta ishlarni boshladik. O'tgan yili mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligini keng miqyosda o'tkazdik. Bu yil mashhur jamoat arbobi, alloma va adib Mahmudxo'ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasini nishonlaymiz. Biz bu ajdodlarimizning ibratli hayoti va faoliyatini qancha ko'p o'rgansak, bizni o'ylantirayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz.

Ayni paytda o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari bilan bir qatorda zamonaviy shoir va yozuvchilarimizning asarlari ham Turkiyada muntazam nashr etilayotganini biz yuksak baholaymiz. Mamlakatingizning bir qator oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti o'qitilayotgani, Istanbulda buyuk bobomiz Abu Rayhon Beruniy nomidagi universitet faoliyat olib borayotgani bizni mamnun etadi.

Go'zal va betakror turk diyorida o'zbek xalqi tarixi va madaniyati bilan bog'liq o'nlab joy nomlari – mahalla va markazlar, takyalar yuz yillar davomida bezavol saqlanib kelmoqda. Bunday bag'rikenglik va do'stona munosabat uchun Turkiya rahbariyati va xalqiga yana bir bor tashakkur bildirishga ijozat bergaysiz.

Bizning yurtimizda ham turk adabiyoti va san'atiga qiziqish tobora ortib, ular ilmiy va ta'lim maskanlarida keng o'rganilmoqda. Mavlono Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Ahmad Posho, Saydi Ali Rais Kotibiy, Toshlijali Yahyo, Hamdi Chalabiy singari buyuk shoirlar ijodini xalqimiz sevib o'qiydi.

Shu bilan birga, zamonaviy turk adabiyoti, xalq dostonlari, antologiyalar o'zbek tilida nashr etilib, kitobxonlarimizning ma'naviy mulkiga aylanganini ta'kidlash lozim.

Aziz qardoshlar!

Biz ilm-ma'rifatni keng ma'noda tushunamiz. Shu sababli yurtimizda dunyoviy ta'lim dargohlari bilan birga diniy maktab va madrasalar, ilmiy-ma'rifiy markazlar tashkil etilmoqda. Xususan, Toshkent shahrida ko'p asrlik ma'rifat xazinasini o'zida

mujassam etadigan, fundamental tadqiqotlar olib boriladigan Islom sivilizatsiyasi markazini bunyod etmoqdamiz.

Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy nomlaridagi xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda boshqa fanlar qatori hadis, kalom, aqida, tasavvuf, fiqh ilmlari chuqur o'rganilmoqda.

Buxorodagi Mir Arab oliy madrasasi, Toshkent Islom ma'hadi, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi singari oliy o'quv yurtlarida yetuk malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Bu yil hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy, aqida ilmida maktab yaratgan allomalar – Abu Mansur Moturidiy va Abu Muin Nasafiya bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazish niyatidamiz. Shuningdek, ulug' alloma – nasli-nasabi turkiyalik bo'lgan Abduxoliq G'ijduvoni hazratlarining, Bahouddin Naqshband bobomizning tavallud ayyomlarini, Mir Arab madrasasining 500 yilligini ham yuqori saviyada o'tkazishni niyat qilganmiz.

2020-yil Buxoro shahri – Islom madaniyati poytaxti, Xiva shahri – Turkiy dunyo madaniyati poytaxti, deb e'lon qilindi. Shu munosabat bilan joriy yil davomida mamlakatimizda bir qator xalqaro anjumanlar tashkil etiladi. Turkiyalik muhtaram olim-u ulamolarimiz ushbu madaniy-ma'rifiy tadbirlarning aziz mehmonlari bo'ladilar, deb ishonaman.

Qadrli do'stlar!

Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod noyob qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Biroq, aytish kerakki, ularning aksariyati hamon o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Bu ma'naviy xazinani har tomonlama chuqur o'rganish va ommalashtirish oldimizda turgan muhim va sharafli vazifadir.

Fursatdan foydalanib, men O'zbekiston va Turkiya universitetlari, ilmiy tadqiqot muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishga da'vat etaman. Bu jarayonlarda Turkiyaning bugun ochilayotgan ushbu eng ulkan kutubxonasi va 150 yillik tarixga ega

bo'lgan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tashabbuskor bo'ladilar, deb umid qilaman.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Bugun Turkiyada katta shodiyona, ta'bir joiz bo'lsa, ma'naviyat va ma'rifat to'yi bo'lib o'tmoqda. Bizning xalqimizda «**To'yga to'yona bilan bormoq lozim**», degan hikmatli so'z bor. Shunga ko'ra, biz Turkiya Prezidenti devonining Xalq kutubxonasiga 350 dan ziyod turli mavzudagi kitoblarni keltirdik. Ularning orasida dunyoda o'ta noyob bo'lgan, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanayotgan «Usmon Mushafi»ning mohir xattotlarimiz tomondan ko'chirilgan nusxasi ham bor.

Butun islom olamining faxri bo'lmish mavlono Jaloliddin Rumi hazratlarining mashhur «Masnaviy» asari qo'lyozmasining faksimile nashrini siz, azizlarga taqdim etamiz.

Ma'lumki, buyuk alloma Abu Bakr ar-Roziyning «Kasalliklar tarixi» nomli asari butun dunyoda shuhrat qozongan. Bu kitobni XVIII asrda istanbullik tabib, shoir va xattot Muhammad Rafi' arabchadan turk tiliga tarjima qilib, o'z qo'li bilan ko'chirgan. Biz keltirgan kitoblar ichida ushbu qo'lyozmaning faksimile nusxasi ham bor.

Ayni vaqtda «Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari» nomli kitob-albom adabiy hamkorligimizning chuqur tarixiy ildizlaridan dalolat beradi.

Nafaqat Turkiya, balki butun musulmon olamining otas nafas shoiri bo'lgan Yunus Emroning «O'lmas ko'ngul» nomli yangi kitobi yaqinda mamlakatimizda o'zbek tilida nashr etildi. Men ushbu kitobga «So'zboshi» yozish sharafiga muyassar bo'lganimdan baxtiyorman.

Ijozatingiz bilan Yunus Emroning do'stlik haqidagi she'riy satrlarini keltirmoqchiman:

**Mening tilim – qush tilidur,
Mening qo'lim – do'st qo'lidur.**

**Men – bulbulman, do‘st – gulimdur,
Biling, gulim so‘lmas mening.**

Xabaringiz bor, O‘zbekiston Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashi doirasida «**Turkiy adabiyot xazinasi**» ruknida 100 jildlik kitoblar turkumini nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi. Ana shu ezgu tashabbusning ilk samarasi o‘laroq, Yunus Emroning ushbu asarini ham Prezident devoni Xalq kutubxonasiga taqdim etish menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Muhtaram Prezident Janobi Oliylari!

Aziz do‘stlar!

Sizlarni bugungi tantanali marosim bilan yana bir bor chin yurakdan qutlayman.

Bu muazzam kutubxona Turkiya xalqi, Turkiya yoshlari uchun, ilm-ma‘rifatni yuksak qadrlaydigan barcha insonlar uchun chinakam ma‘naviyat saroyiga aylanishini qodir Allohdan so‘rab qolaman.

E‘tiboringiz uchun tashakkur.

*Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni
Xalq kutubxonasining tantanali
ochilish marosimidagi nutq*

2020-yil 20-fevral

**TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK
KENGASHINING KORONAVIRUS PANDEMIYASIGA
QARSHI KURASHGA BAG'ISHLANGAN
NAVBATDAN TASHQARI SAMMITI
(VIDEOKONFERENSIYA)DAGI NUTQ**

Hurmatli Ilhom Haydarovich!

Muhtaram davlat va hukumat rahbarlari!

Hurmatli Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti Bosh direktori!

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, Turkiy Kengashning bugungi navbatdan tashqari sammitini tashkil etish tashabbusini ilgari surgan Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev Janobi Oliylariga samimiy minnatdorlik izhor etaman.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda katta tashvish va xavotir uyg'otayotgan koronavirus pandemiyasiga bag'ishlangan ushbu video muloqotimiz favqulodda muhim va dolzarb ahamiyatga ega.

Hurmatli hamkasblarim to'g'ri ta'kidlab o'tganlaridek, bu xatarli ofat, jahonning barcha mamlakatlari qatori, 160 milliondan ortiq aholiga ega bo'lgan davlatlarimizni ham chetlab o'tmadi. Va afsuski, bu kasallik tobora tarqalib bormoqda.

Bu pandemiya, o'zining ko'lami va miqyosiga ko'ra, mislsiz global inqirozga, butun bashariyat taqdiri va jahon iqtisodiyoti uchun g'oyat jiddiy sinovga aylandi.

Ma'lumki, turkiy xalqlarimiz o'zlarining ko'p asrlik tarixida turli og'ir sinovlar va murakkab damlarni boshidan kechirib, ularni hamjihatlik bilan mardonavor yengib o'tishgan.

Mazkur sammitimiz hozirgi jiddiy va tahlikali vaziyatda umumiy yondashuvlarni belgilab olish va sa'y-harakatlarimizni uyg'unlashtirish, hamkorlikda dolzarb muammolarni tezkorlik bilan yechishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Buning asosiy yoʻnalishlari:

– pandemiyaning keng tarqalishining oldini olish, odamlarning sogʻligʻi va hayotini himoya qilish boʻyicha taʼsirchan hamda keng qamrovli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

– ushbu xavf-xatarning davlatlarimizning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy taʼsirini kamaytirish;

– bu borada tizimli hamkorlikni yoʻlga qoʻyishdan iboratdir.

Aziz hamkasblar!

Oʻzbekistonda koronavirusga chalingan bemorlarni davolashda Janubiy Koreya, Xitoy, Rossiya, Isroil va Germaniyaning yuqori malakali shifokorlari bilan muntazam tajriba almashib, ularning eng ilgʻor amaliyoti telemeditsina orqali keng qoʻllanilmoqda.

Biz Oʻzbekistonda epidemiologik vaziyatni nazoratga olish maqsadida, xalqaro tajribadan kelib chiqib, barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirmoqdamiz.

Birinchidan, butun mamlakat miqyosida qatʼiy karantin tizimi joriy etildi.

Bu borada aholining masʼuliyatini oshirish maqsadida qisqa muddatda qonunchilikka tegishli oʻzgartirish kiritdik.

Ikkinchidan, koronavirusga qarshi kurashish uchun barcha viloyatlarimizda maxsus tibbiyot maskanlari va karantin hududlarini tashkil etdik.

Misol uchun, Toshkent viloyatida barcha shart-sharoitlarga ega boʻlgan maxsus karantin hududi ishga tushirildi. 20 ming oʻrinli bu kompleksning 10 ming kishiga moʻljallangan birinchi bosqichi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, 10 ming oʻrinli zamonaviy modul kasalxona shu oying oxiriga qadar qurib bitkaziladi. Ular zarur tibbiy uskuna va jihozlar bilan taʼminlanmoqda. Bu kasallikning oldini olish maqsadida ushbu tajriba boshqa hududlarda ham keng tatbiq etilmoqda.

Shu bilan birga, bu kurash maydonida birinchi zarbani oʻziga qabul qilayotgan, fidoyi va jonkuyar tibbiyot xodimlarini har

tomonlama rag'batlantirish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash kafolatlari kuchaytirildi.

Uchinchidan, kasallikni erta jilovlash maqsadida aholi o'rtasida ogohlantirish va keng tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

To'rtinchidan, ta'lim tizimi uzluksizligini ta'minlash uchun bu sohadagi barcha muassasalar o'z faoliyatini to'liq onlayn tarzda amalga oshirmoqda.

Beshinchidan, aholi oziq-ovqat, dori-darmon va zarur tibbiyot vositalari, boshqa hayotiy muhim ashyolar bilan muntazam ta'minlanmoqda.

Bu borada imkoniyatlari cheklangan, kam ta'minlangan va ko'makka muhtoj aholi qatlamlariga beg'araz manzilli yordam ko'rsatish tizimi shakllantirildi.

Mazkur jarayonda keng jamoatchilik, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik institutlari ham faol ishtirok etmoqda.

Oltinchidan, iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini to'la qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi.

Shu maqsadda Inqirozga qarshi kurash jamg'armasi tuzildi.

Biznes va tadbirkorlik subyektlariga bank kreditlari foizlarini hisoblashda «muzlatish tartibi» hamda «soliq ta'tillari» joriy etildi. Soliqlar va import bojlari kamaytirildi.

Keyingi masala – biz mamlakatimizda epidemiologik vaziyatni chuqur monitoring va prognoz qilish bo'yicha milliy tizimni joriy etmoqdamiz.

Hurmatli sammit ishtirokchilari!

Yuzaga kelgan qaltis vaziyat nafaqat milliy, balki mintaqaviy va xalqaro miqyosda zudlik bilan ta'sirchan chora-tadbirlar ko'rishni talab etmoqda. Shularni inobatga olgan holda, ijozatingiz bilan, quyidagi takliflarni bildirmoqchiman:

Birinchi. Turkiy Kengash doirasida doimiy faoliyat ko'rsatadigan qo'shma epidemiologik kuzatuv tizimini shakllantirish zarur.

Ikkinchi. Davlatlarimizning sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtasida o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishining oldini olish, diagnostika, davolash, epidemiologik holatni o'rganish va ilmiy izlanishlar bo'yicha ma'lumot va tajriba almashuvni keng yo'lga qo'yish lozim. Jumladan, hozirgi vaziyatdan kelib chiqqan holda, yetakchi mutaxassislarimiz ishtirokida tez kunlarda birinchi videokonferensiyani o'tkazishni taklif etaman.

Uchinchi. Turkiy Kengash kotibiyatida pandemiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus muvofiqlashtiruvchi guruhni tuzish lozim.

Ushbu guruh davlatlarimizda faoliyat yuritayotgan milliy shtablar bilan yaqin amaliy aloqalar o'rnatishi kerak.

Mamlakatlarimizda olib borilayotgan sa'y-harakatlarni tezkor yoritish, o'zaro tajriba almashish va undan keng foydalanish uchun alohida ma'lumotlar bazasini yaratish ham maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchi. Hozirgi g'oyat murakkab sharoitda qardosh xalqlarimizni zarur oziq-ovqat va meva-sabzavot, dori-darmon, tibbiyot mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash maqsadida yuk tashish va transport kommunikatsiyalaridan keng foydalanish, chegara punktlarida transport vositalarining o'zaro harakatlani-shiga amaliy yordam ko'rsatish zarur.

Transport va logistika sohalarida yuzaga kelayotgan muammolarni tezkor hal etish va samarali muvofiqlashtirish maqsadida transport vazirlarimizdan iborat Ishchi guruhini tashkil etish lozim.

Beshinchi. Koronavirus talafotlarini yumshatishda xalqaro tashkilotlar ko'magi juda muhimdir.

Bu borada Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining maqomi va vakolatlarini yanada oshirish, ushbu nufuzli tashkilot va Turkiy Kengash o'rtasida sheriklik aloqalarini o'rnatishni taklif etamiz.

Qadrli do'stlar!

Hammamizga ayonki, biron-bir davlat yakka holda ushbu pandemiya balosiga qarshi samarali kurash olib bora olmaydi.

Biz birdamlik, hamkorlik va o'zaro g'amxo'rlik tamoyillari asosida ish tutishimiz lozim. Biz birgalikda ko'p narsaga qodirmiz.

Shu munosabat bilan video muloqotimiz natijalari bo'yicha yakuniy deklaratsiya qabul qilinishini qo'llab-quvvatlayman.

Aziz hamkasblar!

Shunday murakkab vaziyatda mas'uliyatli faoliyatingizni ado etish uchun barchangizga Yaratgandan kuch-g'ayrat, mustahkam sihat-salomatlik, qardosh xalqlarimizga omonlik tilab qolaman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

2020-yil 10-aprel

The text on this page is extremely faint and illegible. It appears to be a multi-paragraph document, possibly a letter or a report, but the content cannot be discerned. The text is mirrored across the page, suggesting it may be bleed-through from the reverse side or a very low-quality scan of a document.

TABRIK VA QUTLOVLAR

O'ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Xalqimiz butun musulmon ummati bilan birgalikda katta shod-u xurramlik ila kutib olayotgan Qurbon hayiti bilan sizlarni, go'zal diyorimizdagi barcha mo'minlarni chin qalbimdan samimiy tabriklab, eng ezgu tilaklarimni bildiraman.

Asrlar davomida el-yurtimizning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin egallab, jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlab kelayotgan ushbu qutlug' bayram barchamizga muborak bo'lsin!

Mana shunday shukuhli va saodatli ayyomda hammamiz avvalo Alloh taboraka va taologa beadam shukronalar aytishimiz tabiiydir.

Siz, azizlarga yaxshi ma'lumki, O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy-diniy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish, e'tiqod erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, turli millat va elatlar o'rtasida totuvlik, ahillik va hamjihatlik muhiti tobora yuksalib bormoqda.

Ayniqsa, xalqimizning islom madaniyati va sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini mamlakatimiz va dunyo jamoatchiligiga yetkazish, tabarruk qadamjolarini obod qilib, ziyoratgohlarga aylantirish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish borasida boshlagan xayrli ishlarimiz ilm-u ma'rifatning qadriga yetadigan el-yurtimiz va xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

Fuqarolarimiz uchun yaratilgan yangi imkoniyat va sharoitlar tufayli ushbu mo'tabar va ulug' ayyom kunlarida Makkai mukarramada muqaddas haj amallarini ado etayotgan 7 mingdan

ziyod vatandoshlarimiz bugungi tinch-osoyishta, erkin hayot uchun Parvardigori olamga hamd-u sanolar aytib, yurtimizga ravnaq, xalqimizga xayr-baraka so‘rab, duoyi fotihalar qilishmoqda.

Hojilarimizning barchasini samimiy muborakbod etib, ularning ona diyorimizga sog‘-salomat qaytib kelishlarini tilaymiz. Ular o‘zlarining ibratli fazilatlarini, jamiyat hayotidagi faol ishtiroki bilan yosh avlodimizni el-yurtga sadoqatli va fidoyi, hidoyat yo‘lidan boradigan halol va pok insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo‘shadilar, deb ishonamiz.

Yaratganning ne‘matlari ziyoda bo‘layotgan va shukronalik hislari qalblarimizni nurafshon qilayotgan ushbu ayyomda uzoq va yaqin hududlarda joylashgan barcha musulmon mamlakatlarining xalqlarini, xorijiy do‘st va hamkorlarimizni qutlab, ularga tinchlik, bardavom taraqqiyot va farovonlik yor bo‘lishini tilaymiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Qurbon hayitining mamlakatimizda mustaqillik bayrami arafasida keng nishonlanishi xalqimizning ruhi va kayfiyatini yanada ko‘tarmoqda.

Ayni shu kunlarda el-yurtimizga xos bo‘lgan mehr-muruvvat, shafqat va saxovat tuyg‘ulari yaqqol namoyon bo‘lib, barchamizni ehtiyojmand, kam ta‘minlangan va boquvchisini yo‘qotgan oilalar, nogironlar, yolg‘iz keksalarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatish, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va qabristonlarni obod qilish kabi savobli ishlarga da‘vat etmoqda.

Bunday xayrli amallar mamlakatimizda ijtimoiy hayotning turli sohalarida ro‘yobga chiqarilayotgan, insonni aziz va mukarram deb bilishga, jamiyatimizda qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlarimizga har tomonlama uyg‘un va hamohangdir.

Biz ularning zamirida islom dinining insonparvarlik mohiyati va qudratini ko‘ramiz, buyuk ma‘naviy meros vorislari ekanimizdan haqli ravishda faxrlanamiz.

Hurmatli vatandoshlar!

Barchangizni Qurbon hayiti bayrami bilan yana bir bor chin yurakdan muborakbod etaman.

«Diling – Allohda, qo‘ling – mehnatda bo‘lsin», degan olijanob e’tiqod bilan yashayotgan xalqimiz doimo omon bo‘lsin!

Jonajon Vatanimiz, xonadonlarimizdan xotirjamlik, ahillik, fayz-u baraka hech qachon arimasin!

Ezgu intilish va ishlarimizda Yaratganning o‘zi hamisha madadkor bo‘lsin!

*Toshkent shahri,
2019-yil 11-avgust*

**«SHARQ TARONALARI»
XII XALQARO MUSIQA FESTIVALINING
OCHILISHIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI
MAROSIMDAGI SO'Z**

Assalomu alaykum!

Aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Hurmatli festival qatnashchilari!

Xonimlar va janoblar!

Bugun siz, azizlar bilan go'zal O'zbekiston diyorida, «Yer yuzining sayqali» deb nom olgan qadimiy va betakror Samarqand shahrida ko'rishib turganimdan baxtiyorman.

Barchangizni «Sharq taronalari» o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Mana, yigirma ikki yildirki, biz bu festivalni UNESCO rahnamoligida o'tkazib kelmoqdamiz.

Bugun ushbu tashkilotning Bosh direktori Odri Azule xonim yurtimizga shaxsan tashrif buyurib, anjumanimizga alohida fayz va ko'tarinki ruh bag'ishlagani uchun samimiy minnatdorchilik bildiraman. Shuningdek, tantanamizda qatnashayotgan faxriy mehmonlarimiz:

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Ijroiya qo'mitasi raisi Sergey Lebedevga, Rossiya Federatsiyasi Prezidentining madaniyat masalalari bo'yicha maslahatchisi Vladimir Tolstoyga, Qozog'iston Respublikasi madaniyat va sport vaziri Aqto'ti Raimqulovaga, Qirg'iziston Respublikasi madaniyat, axborot va turizm vaziri Azamat Jamanqulovga, Tojikiston Respublikasi madaniyat vaziri Shamsiddin Orumbekzodaga, Turkmaniston madaniyat vaziri Atageldi Shamuradovga, Bangladesh Xalq Respublikasi madaniyat

vaziri Muhammad Xolidga, Butan Qirolligi madaniyat va ichki ishlar vaziri Sherub Gyeltshenga, Polsha Respublikasi madaniyat va milliy meros vaziri o'rinbosari Pavel Levandovskiga, Buyuk Britaniya Parlamenti Lordlar Palatasi a'zosi Muhammad Iltof Shayxga, Belarus Respublikasi Milliy Majlisi senatori Yekaterina Dulovaga, Yaponiyaning Nara shahri meri Motonobu Nakagavaga, Koreya Respublikasi Andong shahri meri Kvon Yong Sega, Lal Bahodur Shastri instituti raisi, Hind-o'zbek do'stlik aloqalari kengashi prezidenti Anil Shastriga, xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi muhtaram elchilari va vakillariga, festivalimizni jahon miqyosida yoritish maqsadida yurtimizga kelgan ommaviy axborot vositalari xodimlariga chuqur tashakkur izhor etaman.

Bugungi anjumanimizga dunyoning barcha qit'alaridagi 75 ta davlatdan 340 nafar aziz mehmonimiz ishtirok etmoqda.

Biz ushbu taniqli madaniyat arboblari, mashhur ijodiy guruhlar va iste'dod sohiblarini san'atning chinakam fidoyilari, tinchlik va ezgulik elchilari sifatida hurmat qilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Xush kelibsiz, go'zal O'zbekistonimizga,

Xush kelibsiz, muazzam Samarqand shahriga!

Hurmatli festival ishtirokchilari!

Hammamizga yaxshi ma'lum, dunyoning ko'plab qit'a va mintaqalarida turli san'at va musiqa anjumanlari o'tkazib kelinadi.

«Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali ular orasida o'zining alohida o'rni, shuhrati va maqomi bilan ajralib turadi.

Ushbu festival sababli bugungi kunda afsonaviy Samarqandning uzoq o'tmishini aks ettiradigan munavvar koshonalari, muattar havosi bilan birga, bu muqaddas zamindan taralayotgan dilbar va maftunkor taronalar ham dunyo ahlini o'ziga chorlamoqda.

O'tgan salkam chorak asr davomida Samarqandning moviy gumbazlari, yulduzli osmoni ostida qanchadan qancha sehrli navolar, hayotbaxsh ohanglar yangradi.

Festival o'nlab mashhur xonanda va sozandalar, noyob yosh iste'dodlarni kashf qildi, ularning parvoziga qanot, kuch va ilhom bag'ishladi.

Eng muhimi, ushbu anjuman turli sivilizatsiyalar, xalqlar va millatlar o'rtasida o'ziga xos madaniy hamkorlik hamda muloqot maydoniga aylandi.

Biz bu festivalning zamirida ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy bobomizning, **olam ahli, hamisha bir-biringizga do'st bo'ling, Yer yuzini o'z mehnatingiz, iste'dodingiz bilan obod qiling**, degan mazmundagi o'lmas da'vati mujassam ekanini ko'ramiz.

Ayni paytda buyuk fransuz adibi Viktor Gyugoning «**Ezgulik va hamjihatlik – inson ma'naviy olamining quyoshidir**» degan hikmatli so'zlari mana shunday yuksak g'oyalar bilan uyg'un va hamohangdir.

Bu fikrlar bundan necha yuz yillar avval aytilgan bo'lsa-da, bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, bizning qalblarimizda, yuraklarimizda aks sado bermoqda.

Mana shu yuksak sahnaga – ko'rkam va muhtasham Registon maydoniga qadam qo'ygan har bir san'atkor, millati, tili va dinidan qat'i nazar, bashariyat farzandi sifatida dillarni dillarga, ellarni ellarga bog'laydi.

Buning uchun sizlarga chin yurakdan har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.

Imkoniyatdan foydalanib, bir masalaga munosabatimni bildirib o'tmoqchiman.

Barchangiz guvohsiz, shu kunlarda generativ musiqa, sun'iy intellekt haqidagi bahslar qizg'in tus olmoqda. Kelajak musiqasini endi faqat texnika yaratadi, degan bashoratlar ilgari surilmoqda.

Lekin hammamiz yaxshi bilamizki, har qanday mukammal texnika vositasi ham tirik inson nafasini, uning yurak nolalarini, jonli ovoz jozibasini, chinakam san'at o'rmini hech qachon bosolmaydi.

Haqiqiy san'atni, sof va boqiy musiqani faqat Parvardigori olamning marhamati bilan hazrati Inson yaratadi.

Sayyoramizda turli kelishmovchilik va qarama-qarshiliklar, urush va nizolar avj olgan tahlikali zamonda, odamzod tobora o'z dunyosiga o'ralib borayotgan bir sharoitda musiqa insonga

insonligini eslatib, uning qalbida kelajakka umid va ishonch uygʻotadi.

Musiqqa sanʼati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir.

Sanʼat bilan oshno boʻlgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland boʻladi.

Va men ishonaman, ular dunyoni maʼnaviy tanazzuldan qutqarishga qodir boʻlgan, oʻzaro ahillik va birdamlikni ulugʻlovchi avlod boʻlib maydonga chiqadi.

Shu maʼnoda, musiqa – hech narsa bilan oʻlchab, solishtirib boʻlmaydigan beqiyos ilohiy taʼsir kuchiga ega desak, ayni haqiqatni aytgan boʻlamiz.

Muhtaram mehmonlar!

Bugun biz mamlakatimizda milliy taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qoʻymoqdamiz.

Hayotimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan jadal oʻzgarish va yangilanishlar madaniyat va sanʼat sohasida ham izchil davom ettirilmoqda.

«Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida orttirgan tajribamizga tayangan holda, biz birinchi marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom sanʼati anjumanini, Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik sanʼati festivalini oʻtkazdik.

Sentabr oyida Qoʻqon shahrida Xalq amaliy sanʼati xalqaro festivalini oʻtkazishga katta tayyorgarlik koʻrmoqdamiz.

Ushbu anjumanlar UNESCO, AYSESKO, Xalqaro folklor sanʼati tashkiloti singari nufuzli tuzilmalar, sizlar kabi sanʼat jonkuyarlari tomonidan keng qoʻllab-quvvatlanayotgani uchun barchangizga rahmat aytmoqchiman.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yuzlab musiqa va sanʼat maktablari, akademik litseylar, oliy oʻquv yurtlari, koʻplab teatrlar, tasviriy sanʼat va konsert zallari faoliyat olib bormoqda.

Oʻylaymanki, sizlar ana shu ijod maskanlariga ham tashrif buyurib, yoshlarimiz uchun mahorat darslari boʻlib xizmat qiladigan uchrashuv va suhbatlar oʻtkazasiz.

Fursatdan foydalanib, barchangizga bir taklif bilan murojaat qilmoqchiman.

Agar sizlarda yurtimizdagi konservatoriya yoki o'quv yurtlarida yoshlarga saboq berish niyati tug'ilsa, sizlarni shaxsan o'zim qo'llab-quvvatlayman.

Muhtaram festival qatnashchilari!

San'atni, kuy-qo'shiqni sevadigan, ijod ahlini munosib qadrlaydigan el-yurtimiz ushbu anjumanni quvonch bilan kutib olmoqda.

Tubdan yangilanayotgan O'zbekiston bilan yaqindan tanishuv, mehnatkash va bag'rikeng xalqimiz bilan uchrashuv va muloqotlar Sizlarda, albatta, o'chmas taassurot qoldiradi, deb ishonaman.

Festival doirasida bo'lib o'tadigan **«Sharq xalqlari an'anaviy musiqa san'atini rivojlantirish istiqbollari»** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishiga ham omadlar tilayman.

Bu ajoyib nafosat bayramini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida fidokorona mehnat qilgan barcha insonlarga, mehmondo'st va olijanob Samarqand ahliga anjuman ishtirokchilari va butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorchilik izhor etaman.

Qadrli do'stlar!

Aziz mehmonlar!

Musiqa san'atiga sadoqatingiz, uni asrab-avaylash va rivojlantirish yo'lidagi mehnat-u mahoratingiz, ulkan hissangiz uchun barchangizga yana bir bor cheksiz ehtiromimni bildiraman.

Yangi ijodiy yutuqlar, millionlab muxlislarning olqishi va mehr-muhabbati sizlarga hamisha yor bo'lsin!

Jahonda tinchlik, xalqlar o'rtasidagi mustahkam do'stlik rishtalari barqaror bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Samarqand shahri,
2019-yil 26-avgust*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING YIGIRMA SAKKIZ YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, qadrli yurtdoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Mana shu quvonchli ayyomda siz, azizlarni, ko'pmillatli butun xalqimizni Mustaqillik bayrami bilan chin qalbimdan tabriklashga ijozat bergaysiz.

Bundan yigirma sakkiz yil oldin Birinchi Prezidentimiz, muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov xalqimiz va jahon hamjamiyatiga O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi.

O'tgan qisqa davrda jonajon O'zbekistonimiz mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı istiqlol yo'lini bosib o'tdi.

Bugun bir haqiqatni katta g'urur va iftixor bilan aytishga to'la asosimiz bor: mard va matonatli xalqimiz qanchalik qiyin va og'ir sinovlarga duch kelmasin, o'zining mustahkam irodasini namoyon etib, o'zi tanlab olgan mustaqillik yo'liga doimo sodiq bo'lib kelmoqda.

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga dadil qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini, qonun ustuvorligini ta'minlash asosida O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasi yaratilmoqda. Bu borada Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan «**Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari**» degan ustuvor g'oya biz uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarishni tushunamiz.

Davlatimiz, el-yurtimizning salohiyati va kuch-qudratiga tayanib, tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanib, biz o'z oldimizga qo'ygan ana shunday maqsadlar sari izchil qadam qo'ymoqdamiz.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Biz bugun qanday islohotlarni, qanday o'zgarishlar, qanday yangi loyihalarni amalga oshirayotgan bo'lmaylik, ularning barcha-barchasi yagona, ulug' bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, mana shu mehnatkash, zahmatkash, olijanob xalqimizni rozi qilish, hayotning barcha sinovlarini matonat bilan yengib yashayotgan vatandoshlarimizning ishonchini oqlash, og'irini yengil qilishdan iboratdir.

Lekin hammamiz yaxshi tushunamizki, bunday ulug' maqsadlarga o'z-o'zidan, quruq va balandparvoz gaplar bilan erishib bo'lmaydi. Bunday marralarga faqat tinimsiz, og'ir va fidokorona mehnat bilan erishiladi.

Shu maqsadda so'nggi yillarda davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq tizimini takomillashtirish, mamlakatimizning mudofaa qudratini mustahkamlash, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o'tish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiy mulk va tadbirkorlik uchun keng sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda.

Qishloq xo'jaligida tub islohotlar olib borilmoqda. Bu yilgi tabiat qiyinchiliklariga qaramasdan, mirishkor fermer va dehqonlarimiz mardona mehnat qilib, ko'plab sohalarda mo'l hosil yetishtirdilar.

Fursatdan foydalanib, barcha dehqon va fermerlar, dala mehnatkashlarini xalqimiz farovonligini ta'minlash yo'lida erishayotgan katta yutuqlari bilan samimiy tabriklashni o'z burchim, deb bilaman.

Aziz do'stlar!

Yurtimizda ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllanmoqda. Bu borada «Obod qishloq», «Obod mahalla», «Yoshlar – kelajagimiz», «Besh ijobiy tashabbus» kabi dasturlarimiz

aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida yuzlab tuman, shahar va qishloqlarning me'moriy qiyofasi tubdan yangilanmoqda.

Ilm-fan, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo'layotgan katta o'zgarishlar ham sizlarga yaxshi ma'lum.

Biz umumta'lim maktablarida 11 yillik tizimni tikladik. Maktab ta'limini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda oliy ta'lim sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Faqat keyingi uch yilda 35 ta yangi oliy o'quv yurti tashkil qilindi va ularning umumiy soni 112 taga yetdi. Bularning 13 tasi nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Sog'liqni saqlash sohasining moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini mustahkamlash doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Yurtimizda ko'plab yangi shifoxonalar, tibbiyot markazlari, oilaviy va xususiy klinikalar faoliyati yo'lga qo'yilmoqda.

Keyingi yillarda kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan insonlar, yoshlar, xotin-qizlar, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu borada Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi, Nogironligi bo'lgan insonlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etilganini qayd etish lozim.

Aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash biz uchun eng dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda. Bizning barcha iqtisodiy va ijtimoiy dasturlarimiz, yirik investitsiya loyihalarimiz, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarimizning markazida aynan shu muhim masala asosiy maqsad va vazifa bo'lib turibdi.

Uzoq vaqt davomida o'tkir muammo bo'lib kelgan aholini uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha ham yurtimizda yangi davr boshlandi, desak, xato bo'lmaydi.

Mamlakatimizning madaniy hayotida ham ulkan o'zgarishlar yuz bermoqda. Birinchi marta Shahrisabz shahrida Xalqaro maqom san'ati anjumani, Termiz shahrida Xalqaro baxshichilik san'ati festivali katta muvaffaqiyat bilan o'tkazildi. Kuni kecha Samarqand shahrida yuksak saviya va baland ruh bilan o'tkazilgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali betakror mumtoz san'atimizni yana bir marta dunyoga namoyon etdi. Sentabr oyida esa Qo'qon shahrida ilk bor Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazamiz.

Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni albatta yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani ma'naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Aziz do'stlar!

O'zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha mustaqil siyosatini qat'iy davom ettirmoqda va bu siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda mahbuslarni afv etish instituti joriy etildi. Keyingi uch yilda yetti marta afv e'lon qilindi. Natijada qilmishidan chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 4 mingga yaqin mahbus jazoni o'tash joylaridan ozod etildi.

Kuni kecha afv etish haqidagi yana bir farmonga imzo chekdim. Unga ko'ra jazo muddatini o'tayotgan 65 nafar fuqaro afv etildi.

Tasavvur qiling, o'z uyiga, yaqinlari bag'riga qaytayotgan bu insonlarning, ularning ota-onasi, farzandlarining quvonchi, xursandchiligini «oynayi jahon» orqali ko'rgan odam, bu haqiqatan ham ezgu va savobli ish ekaniga yana bir bor ishonch hosil qiladi.

Mustaqillik bayrami arafasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jasliq qo'rg'onidagi jazoni ijro etish koloniyasi yopilgani insonparvar siyosatning yana bir ifodasi bo'ldi.

Bu tarixiy qadam mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish vaqtinchalik kampaniya emas, balki davlat siyosati darajasidagi uzluksiz jarayon ekanini ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z fuqarolarining huquq va manfaatlarini, ular qayerda bo'lishidan qat'i nazar, himoya qilishga qodir mamlakat sifatida o'zini namoyon etmoqda.

Chet ellarda ishlayotgan va ta'lim olayotgan vatandoshlarimiz bilan aloqalar mustahkamlanib, ularning huquq va manfaatlari ta'minlanmoqda. O'zbekistonga qaytib, ish yoki o'qish faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan fuqarolarimiz uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Bu yil 156 nafar vatandoshimiz – asosan ayollar va bolalar jangovar harakatlar davom etayotgan Suriyadan qaytarib olib kelindi va ularning fuqarolik huquqlari tiklandi.

Albatta, kechirimli, mehr-oqibatli bo'lish xalqqa ham, Xudoga ham manzur bo'ladi. Mana shunday ezgu fazilatlar bizning bag'rikeng xalqimizni yanada ulug'laydi.

Hurmatli vatandoshlar!

Hozirgi vaqtda O'zbekiston tashqi siyosat sohasida ham faol va samarali faoliyat olib bormoqda. Uzoq va yaqindagi barcha davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarimiz tobora kengayib, rivojlanmoqda.

Avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatilib, o'zaro manfaatli aloqalar yo'lga qo'yilmoqda. Minglab oddiy odamlarning chegaralardan bemalol o'tishi, mintaqamiz bo'ylab erkin harakatlanishi, qarindosh-urug'lari bilan bordi-keldi qilishlari uchun barcha sharoit yaratildi.

O'zbekiston mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda, Afg'onistonda tinchlik o'rnatishga qaratilgan muloqotlarda faol ishtirok etmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirishda, yurtimizning do'stlari va hamkorlarini ko'paytirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Fursatdan foydalanib, mamlakatimizdagi demokratik islohotlarni qo'llab-quvvatlab, xayrixoh bo'lib kelayotgan, bugungi tantanada ishtirok etayotgan xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, xalqaro tashkilotlar vakillariga, chet ellik sheriklarimizga, O'zbekistonning barcha do'stlariga samimiy hurmat va minnatdorlik bildirishga ijozat etgaysiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Hayotimizda tinchlik-totuvlik, millatlar va dinlar o'rtasida do'stlik va hamjihatlik mustahkamlanib bormoqda. Biz buni barcha islohotlarimizning kafolati, eng muhim natijasi, deb bilamiz.

Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohotlarimiz, xalq bilan muloqot davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani tufayli jamiyatimizda ochiqlik va erkinlik muhiti tobora kuchayib bormoqda.

Odamlar tashabbus ko'rsatib, nafaqat o'z shaxsiy muammosi, balki ko'pchilikning dard-u tashvishlarini hal qilish uchun davlat idoralari bilan hamkorlikda ishlashga o'rganmoqda.

Bilasizlar, men mamlakatimiz bo'ylab juda ko'p safarlarda bo'laman. Joylarda, olis tuman, qishloq va ovullarda bo'lib, yangi-yangi iqtisodiy-ijtimoiy loyihalarni joriy etishga, odamlar nima bilan yashayapti, ularning ahvoli, kayfiyati qanday ekanini yaqindan bilishga, ularni qiynayotgan muammolarni yechish uchun yordam berishga intilaman.

Mana shunday ochiq, samimiy muloqotlar asosida bugun xalqimiz bilan ko'p-ko'p murakkab, muhim masalalarni birgalikda hal qilmoqdamiz. Va bu odamlarimiz qalbida kelajakka ishonch uyg'otib, ularni yangi, ulkan marralar sari ruhlantirmoqda. Hech shubhasiz, bu – bizning eng katta yutug'imizdir.

Shu ulug' ayyomda har qanday og'ir sinov va mashaqqatlarda ham Vatanimiz mustaqilligini asrab, uning barqaror taraqqiyotini ta'minlab kelayotgan mard va bag'rikeng xalqimizga halol va fidokorona mehnati, istiqlol g'oyalariga sadoqati uchun chuqur ta'zim qilaman.

Muhtaram vatandoshlar!

Albatta, hayot bor ekan, uning o'tkir talablari, muammolari bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Lekin har qanday muammoni oqilona hal qilish uchun, avvalo, birlik, hamjihatlik zarur.

Barchamizga, ayniqsa, rahbar va yetakchilarga chuqur bilim, aql-zakovat, sabr-toqat kerak. Shuning uchun **«Jaholatga qarshi – ma'rifat»** degan fikrda katta ma'no bor. Bu g'oya faqat diniy tarbiya bilan bog'liq ishlarda emas, balki hayotimizning barcha sohalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Har bir masalani ma'rifat asosida chuqur o'ylab, xalqqa hurmat bilan, takror va takror aytaman, odamlar fikrini inobatga olib, faqat qonun va adolat mezoniga tayangan holda hal etsak, el-yurtimiz bizdan albatta rozi bo'ladi.

Bugun zamon o'zgardi. Endi hammamiz erkinlik, ochiqlik, oshkoralik sharoitida ishlashga o'rganishimiz lozim. Barcha rivojlangan davlatlar, dunyo hamjamiyati shunday yashamoqda.

Davrning, hayotning keskin talablaridan orqada qolmaslik uchun barchamiz har kuni o'qib-o'rganishimiz, o'z ustimizda ishlashimiz, bilim va saviyamizni doimo oshirib borishimiz kerak.

Bizning tomirlarimizda ulug' ajdodlarimizning qoni oqmoqda. Buyuk bobolarimizning munosib izdoshlari va davomchilari bo'lish biz uchun ham qarz, ham farz, desam, o'ylaymanki, barchangiz bu fikrga qo'shilasiz.

O'z Vatanini, ona xalqini ravnaq toptirish uchun o'zini ayamadan mehnat qilish: bu – jasorat va mardlik, bu – ona yurtga muhabbat va sadoqat, bu – to'g'ri tarbiya va amaliy namuna demakdir.

Shu kunlarda o'zining fidokorona mehnati bilan mamlakatimiz rivojiga munosib hissa qo'shib, barchaga namuna bo'layotgan yurtdoshlarimizga markazda va joylarda davlatimizning yuksak unvonlari, orden va medallari tantanali ravishda topshirilmoqda.

El-yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilib, xalqimiz o'rtasida katta obro'-e'tibor topgan ana shunday vatandoshlarimizni o'z nomimdan, sizlarning nomingizdan samimiy tabriklab, ezgu tilaklarimizni bildirishga ruxsat etgaysiz.

Aziz do'stlar!

Bugun bir fikrni qat'iyat bilan ta'kidlashni zarur, deb bilaman: O'zbekistondagi demokratik jarayonlar endi orqaga qaytmaydigan, muqarrar tus oldi.

Biz mana shu yorug' kunlar uchun kurashib, jon fido etgan ota-bobolarimizning haqqi-hurmati, 33 millionlik xalqimizning haqqi-hurmati, bizga umid va ishonch ko'zi bilan boqib turgan bolalarimiz, nabiralarimizning haqqi-hurmati – mustaqillik va istiqlol yo'lidan hech qachon qaytmaymiz!

O'z maqsadlarimizga albatta yetamiz – kelajagi buyuk O'zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz!

Qadrli vatandoshlar!

Hammamizga yaxshi ma'lumki, oldimizda katta siyosiy voqea turibdi. Shu yil dekabr oyida mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga saylovlar bo'lib o'tadi.

Bu saylovlar milliy mustaqilligimizni yanada mustahkamlash, O'zbekistonni dunyodagi rivojlangan, demokratik davlatlar qatoriga ko'tarishda yana bir muhim amaliy qadam bo'ladi.

Bu saylovlar butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning orzu-intilishlarini ifoda etib, ular uchun yangi imkoniyatlar ochib beradi, deb ishonaman.

Bugungi kunda qancha-qancha bilimli, nufuzli xorijiy universitetlarda tahsil olgan, chet tillarni, zamonaviy boshqaruv usullarini yaxshi biladigan navqiron yoshlar hayotimizga kirib kelmoqda.

Ular bizning umidimiz, ertangi kunimiz. Shuning uchun yoshlarga keng yo'l ochib berish, ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlash, qobiliyat

va iste'dodini ro'yobga chiqarish, hayotda o'z o'rmini topishiga yordam berish, ularga mas'ul lavozimlarni ishonib topshirish bundan buyon ham doimo e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Aziz farzandlarimiz el-yurtimizning ana shunday yuksak e'tiboriga munosib bo'lib, o'z salohiyati bilan, milliy g'oyamizga sadoqati bilan O'zbekistonimizni butun dunyoga tarannum etishlariga ishonaman va bu yo'lda ularga baxt va omad tilayman.

Muhtaram vatandoshlarim!

Sizlarni O'zbekiston davlat mustaqilligining yigirma sakkiz yillik bayrami bilan yana bir bor chin dildan samimiy tabriklayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, yangi-yangi yutuqlar, oilaviy xotirjamlik yor bo'lsin, farzandlar, nabiralarning baxt-u kamolini ko'rish nasib etsin!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, jonajon O'zbekistonimiz omon bo'lsin!

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

2019-yil 31-avgust

BIRINCHI XALQARO HUNARMANDCHILIK FESTIVALINING TANTANALI OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQ

Hurmatli festival ishtirokchilari!

Muhtaram mehmonlar!

Xonimlar va janoblar!

Avvalo, sizlarni so‘lim va maftunkor Farg‘ona vodiysida, qadimiy va go‘zal Qo‘qon shahrida qutlashdan bag‘oyat mamnunman.

Barchangizni UNESCO rahnamoligida o‘tkazilayotgan birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilishi bilan chin qalbidan muborakbod etaman.

Fursatdan foydalanib, Jahon hunarmandlar kengashi prezidenti, hurmatli Rozi Grinlis xonimga anjumanimizda shaxsan ishtirok etayotgani uchun samimiy minnatdorlik bildirishga ruxsat etgaysiz.

Festivalimizga tashrif buyurgan Rossiya Federatsiyasi madaniyat vaziri Vladimir Medinskiyni, Qozog‘iston Respublikasi madaniyat va sport vaziri Aqto‘ti Raimqulovani, Turkmaniston madaniyat vaziri Atageldi Shamuradovni, Tojikiston Respublikasi madaniyat vaziri Shamsiddin Orumbekzodani, Ozarbayjon Respublikasi madaniyat vaziri Abulfas Garayevni, Qirg‘iziston Respublikasi madaniyat, axborot va turizm vaziri Azamat Jamanqulovni, Belarus Respublikasi madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari Natalya Karchevskayani, Armaniston Respublikasi ta‘lim, fan, madaniyat va sport vazirining o‘rinbosari Narina Xachaturyanni chin dildan qutlaymiz.

Bundan tashqari, Xitoy san‘at va hunarmandchilik uyushmasi prezidenti Xu Nianshaga, Hindistonning Xaryana shtati turizm vaziri o‘rinbosari Vijay Vardxanga, Malayziya xalq amaliy san‘atini rivojlantirish korporatsiyasi bosh direktori Enchik Ibragim bin Ismoilga, shuningdek, UNESCOning yuqori martabali vakillari hamda Jahon hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani,

Amerika va Afrika mintaqalari bo'yicha rahbarlariga samimiy minnatdorlik bildiramiz.

Davramizda xorijiy davlatlarning O'zbekistondagi muhtaram elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini ko'rib turganimizdan xursandmiz.

Festivalimizda dunyoning 78 ta davlatidan 370 dan ziyod mohir hunarmand, taniqli madaniyat arboblari, san'atshunos olimlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etmoqda.

Barchangizni chin yurakdan qutlab, O'zbekistonga, ushbu anjumanga bo'lgan katta hurmat va e'tiboringiz uchun tashakkur izhor etaman.

Hurmatli festival ishtirokchilari!

Ma'lumki, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan xalq amaliy san'ati dunyodagi har bir xalq hayotida, uning turmush tarzi va qadriyatlari rivojida alohida o'rin tutadi.

Insoniyatning ongli hayotida hunarmandchilikning paydo bo'lishi – bu sivilizatsiya sari tashlangan eng muhim tarixiy qadam, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Bashariyat faxri bo'lgan buyuk shaharlar, me'moriy obidalar, tarixiy va arxeologik yodgorliklar, minglab muzeylardagi nodir eksponatlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Hammamizga ayonki, xalq amaliy san'ati – bu avvalo, tabiat bilan uyg'un bo'lib, tabiatdan zavq va ilhom olib, betakror ijod namunasini yaratishdir.

O'zingiz tasavvur qiling, oddiy qora tuproqdan, bir bo'lak temir yoki yog'och parchasidan noyob va go'zal buyumlar yaratish, ta'bir joiz bo'lsa, ularga «jon-u til» bag'ishlash uchun hunarmandga nafaqat mashaqqatli qo'l mehnati, balki qalb harorati kerak. Nozik did va mahorat, sabr-toqat, eng muhimi, o'z kasbiga cheksiz mehr va sadoqat, fidoyilik kerak.

Shu bilan birga, chinakam hunar sohibi – u kulol bo'ladimi, kandakor yoki to'quvchi bo'ladimi, naqqosh yoki zargar bo'ladimi – o'z ishini a'lo darajada bajarish uchun juda ko'p ilmlardan, avvalo,

kimyo, biologiya, tibbiyot, fizika, geometriya, astronomiya, tarix, falsafa kabi fanlardan xabardor bo'lishi, ularni amalda qo'llay bilishi zarur.

Shu borada birgina misol keltirmoqchiman.

Butun dunyoga mashhur bo'lgan milliy kashtachilik san'atimiz, qadimiy so'zanalarimizdagi sirli, mo'jizali, ilohiy naqshlar, ranglar jilosi zamirida falakiyot ilmi, kosmogonik tasavvurlar mujassam ekani har qanday odamni ham hayratga soladi.

Xalqimiz azaldan o'z kasbining chinakam fidoyisi bo'lgan mohir hunarmandlarni «usta» va «ustazoda» degan nomlar bilan ulug'lab, e'zozlab keladi.

Shu o'rinda buyuk mutafakkir Bahouddin Naqshband bobomizning **«Hunar shunday tulporki, unga mingan kishi albatta hurmat-e'tibor topgay va saodat manziliga yetgay»**, degan hikmatli so'zlarini eslab o'tishni joiz, deb bilaman.

Kelgusi yili tavalludining 700 yilligi nishonlanadigan bu tabarruk zot nafaqat aziz-avliyo, avvalo, o'zlari ham yetuk hunarmand, ahli hunarning piri bo'lganlar. Bu ulug' siymoning **«Diling – Allohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin»** degan ezgu da'vatiga amal qilib, yurtimizdagi ming-ming hunarmandlar o'zlarining mashaqqatli, halol mehnati, insoniy fazilatlari bilan xalqimizga, yoshlarimizga ibrat va namuna bo'lib kelmoqdalar.

Ayni vaqtda bugungi globallashuv va yuksak texnologiyalar asrida xalq amaliy san'atiga shunchaki o'tmish yodgorligi sifatida bepisand qarash holatlari ham, afsuski, uchrab turibdi. Agar bu nodir san'atni davlat va jamiyat tomonidan keng qo'llab-quvvatlamas ekanmiz, ertaga kech bo'ladi – hunarmandlik sohasi bugungi davrning keskin raqobatiga bardosh berolmaydi.

Shu ma'noda, jahon xalq amaliy san'atini asrab-avaylash va rivojlantirish, bu bebaho boylikni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, bu yo'ldagi sa'y-harakat va imkoniyatlarimizni birlashtirishda mana shunday xalqaro anjumanlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

O'zbekistonda hunarmandlar mehnatini qadrlash, ularning samarali faoliyat yuritishlari uchun tegishli huquqiy asos, imkoniyat va imtiyozlar yaratib berilmoqda. Ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladigan, o'z saflarida minglab ustalarni birlashtirgan «Hunarmand» uyushmasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Buxorolik mashhur zardo'z Muyassar Temirova, samarqandlik ta'mirchi usta Mirumar Asadov, farg'onalik yog'och o'ymakori Abdug'ani Abdullayev kabi yurtdoshlarimiz mamlakatimizning eng oliy mukofoti – O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgani ushbu soha vakillarining sharaflari mehnatiga yuksak e'tibor ifodasidir.

Biz farzandlarimizni har tomonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning zamonaviy bilimlar bilan birga, xalq amaliy san'ati sirlarini ham puxta egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqdamiz. Respublikamiz poytaxti va joylarda ushbu yo'nalishda o'nlab festival va yarmarkalar, savdo ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda, yoshlar uchun hunarmandchilik maktablari tashkil etilmoqda. Eng muhimi, bu soha vakillari mamlakatimizda yangi ish o'rinlari yaratish, yoshlarni ijtimoiy mehnatga jalb etish, turizmni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.

Biz tariximiz, milliy o'zligimiz timsoli bo'lgan, qadimiy va boy an'analarga ega hunarmandchilik sohasini rivojlantirishga yanada katta e'tibor beramiz. Bu borada mazkur xalqaro festival davomida o'rta tashlanadigan amaliy fikr-mulohazalar, taklif va tavsiyalar, hech shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadrli do'stlar!

O'zbekistonda ilk bor o'tkazilayotgan Xalqaro hunarmandchilik festivali uchun aynan Qo'qon shahri tanlangani albatta, bejiz emas. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan bu qadimiy shahar haqli ravishda «oltin vodi» deb nom olgan go'zal Farg'ona vodiysining gavharidir.

Ikki ming yillik shonli tarixga, so'lim tabiatga ega, qancha-qancha buyuk voqealarga guvoh bo'lgan Qo'qandi latif milliy davlatchilik, ilm-u hunar, san'at va adabiyot ravnaqining yorqin timsolidir.

Ko'ha Farg'ona zamini jahon ilm-fani va madaniyatiga Ahmad Farg'oniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Amiriy va Nodirabegim, Jahon otin Uvaysiy, Mavlono Muqimiy, Zokirjon Furqat kabi o'nlab mutafakkir zotlarni, ulug' shoir va adiblarni, Qodirjon Haydarov singari mashhur hunar ustalarini yetkazib bergani bilan har qancha faxrlansak arziydi.

Birgina mana shu Farg'ona viloyatining o'zida milliy hunarmandchilikning qanday mashhur brendlari bor. Bu haqda gapirganda, Marg'ilonning kamalakdek tovlanadigan mashhur atlas va adraslarini, Rishtonning betakror kulolchilik san'atini, Qo'qonning yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik maktablarini, o'ylaymanki, ortiqcha ta'riflab o'tirishning hojati yo'q.

Bugungi kunda butun yurtimiz, butun Farg'ona viloyati kabi Qo'qon shahri, uning qiyofasi ham tubdan o'zgarib, har tomonlama obod bo'lib, mamlakatimizning yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylanmoqda.

Xabaringiz bor, ushbu festival arafasida shahar hayotida yana bir muhim voqea yuz berdi. Jahon hunarmandlar kengashi tomonidan Qo'qon shahriga «**Jahon hunarmandlari shahri**» degan yuksak unvon berildi. Ya'ni, Qo'qon shahri dunyo hunarmandchilik xaritasida ham munosib va mustahkam o'rin egalladi.

Qo'qon shahri Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida birinchi bo'lib ushbu ro'yxatga kiritilganini biz mamlakatimizda xalq amaliy san'atini rivojlantirishga qaratilgan ishlarimizga xalqaro miqyosda berilgan katta baho, deb qabul qilamiz.

Kuni kecha Jahon hunarmandlar kengashining Osiyo-Tinch okeani mintaqasi prezidenti Gada Hijobiy Kaddumiy xonim Qo'qon shahriga ana shu guvohnomani tantanali ravishda topshirdi.

Mana shu quvonchli ayyomda muhtaram Qo'qon ahlini, butun O'zbekiston hunarmandlarini ana shunday yuksak e'tirof bilan chin dildan tabriklayman.

Bunday ulkan e'tibor uchun Jahon hunarmandlar kengashi va uning prezidenti, hurmatli Rozi Grinlis xonimga o'z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishga ijozat bergaysiz.

Muhtaram yurtdoshlar!

Aziz mehmonlar!

Ushbu xalqaro festival nafaqat ko'pmillatli O'zbekiston xalqi, balki jahon hunarmandlari, butun dunyo ustalarining katta bayrami, desak, to'g'ri bo'ladi.

Bu – olis tarix va bugungi zamon nafasini, turli qadriyat va an'analarni o'zida yaqqol namoyon etadigan, mushtarak dillarni birlashtiradigan chinakam do'stlik va hamkorlik anjumanidir.

Aminmanki, dunyoda tinchlik va hamjihatlikni, go'zallik va nafosatni targ'ib etadigan bu festival jahon maydonida albatta o'zining munosib o'rnini topadi.

Barchangizni mehmondo'st va saxovatli O'zbekiston zaminida yana bir bor chin yurakdan qutlayman.

Ushbu anjumanni yuksak saviyada o'tkazish uchun sidqidildan xizmat qilgan barcha yurtdoshlarimizga, mehnatkash, oqko'ngil, bag'rikeng Farg'ona eliga, Qo'qon ahliga samimiy tashakkur bildiraman.

Festivalning barcha qatnashchilariga, muhtaram mehmonlarimizga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*Qo'qon shahri,
2019-yil 14-sentabr*

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA BAYRAM TABRIGI

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Avvalo, siz, azizlarni, ta'lim-tarbiya sohasida mehnat qilayotgan barcha pedagog xodimlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbidan tabriklab, eng ezgu tilaklarimni izhor etaman.

Ushbu qutlug' ayyomda barchamiz bizga ilm o'rgatgan, hayot sabog'ini bergan jonkuyar, fidoyi o'qituvchi va domlalarimizga chuqur hurmat bajo keltirib, chin dildan ta'zim qilamiz.

Haqiqatan ham, o'zining ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar mehnati, jasorati har qanday yuksak baholarga munosibdir.

Bu haqda fikr yuritar ekanmiz, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning: «**Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o'rgating**», degan so'zlari beixtiyor yodimizga tushadi.

Chindan ham, dunyo miqyosida raqobat yanada kuchayib boradigan, o'ta murakkab bir davrda yashaydigan bolalarimizni kelajakka tayyorlab, sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasi, o'qituvchi mehnatining tub mohiyatini tashkil etadi.

Ana shu o'tkir haqiqatni hisobga olib, biz ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tardik.

O'tgan qisqa davrda maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, maktab ta'limida 11 yillik tizimga o'tish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarni optimallashtirish, nodavlat ta'lim xizmati ko'rsatish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni amalga oshirdik.

Bugungi kunda sizlarning, butun el-yurtimizning qizg'in qo'llab-quvvatlashi bilan maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanib bormoqda.

Buyuk allomalarimiz, atoqli shoir va adiblarimiz nomi bilan ataladigan ijod va tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablar, «Temurbeklar maktablari», Prezident maktablari kabi mutlaqo yangi namunadagi zamonaviy va innovatsion ta'lim maskanlari ayni shu maqsadga xizmat qiladi.

Bu borada umumta'lim maktablari tizimini rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Buning tasdig'ini so'nggi ikki yilda 238 ta yangi maktab barpo etilganida ham ko'rish mumkin. Holbuki, 2010–2016-yillarda bu sohaga yetarli e'tibor berilmagani tufayli 99 ta maktab yopilgan edi.

Mazkur sohani rivojlantirish uchun ajratilayotgan budget mablag'lari hajmi ham ortib bormoqda. Jumladan, joriy yilda maktablarga 2017-yilga nisbatan 81 foizdan ziyod mablag' ajratildi.

Yurtimizda bog'cha, maktab va oliy ta'lim tizimida ishlayotgan tarbiyachilar, o'qituvchi va domlalar mehnatini munosib qadrlash, ularning ish haqini, jamiyatdagi nufuzini oshirish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda.

Soha rivojiga bo'lgan ana shunday e'tibor maktablarda o'quv-tarbiya jarayonlarini sifat jihatidan o'zgartirishga, o'qituvchilar tarkibini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Biz ta'lim-tarbiya masalasiga kompleks yondashgan holda, bog'cha ta'limi bilan birga oliy ta'lim tizimini ham uzviy rivojlantirishga alohida e'tibor bermoqdamiz.

Shu maqsadda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim hamda oliy ta'limni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi va shu asosda tub islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, keyingi ikki yilda mamlakatimizda 35 ta, jumladan, 13 ta xorijiy oliy o'quv yurti tashkil etildi. Yuzdan ortiq yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari hamda 94 ta magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi.

Ana shunday chora-tadbirlar natijasida yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi uch yil burungi 9 foizdan 20 foizga oshdi. Biz yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni 25 foizga yetkazishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli O'zbekiston yoshlari turli sohalarda o'z bilim va salohiyatini namoyon etib, Vatanimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etmoqda.

Kuni kecha Rossiyaning Yekaterinburg shahrida dunyoning 80 ga yaqin mamlakatidan mohir sportchilar ishtirok etgan boks bo'yicha jahon chempionatida milliy jamoamiz vakillari yuksak azm-u shijoat va mahorat namunasini ko'rsatib, birinchi o'rinni egallagani barchamizni quvontirib, g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bunday ulkan yutuqlarni biz avvalo sizlar kabi fidoyi ustoz-murabbiylarning fidokorona mehnati natijasi sifatida qabul qilamiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Barchamiz yaxshi tushunamizki, bugungi shiddatli zamon barcha sohalar qatorida ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish bo'yicha ham oldimizga g'oyat muhim va dolzarb vazifalarni qo'yimoqda.

Albatta, yoshlarimizning bilim olishlari uchun barcha sharoitlarni yaratish, o'quv binolarini qurish, ularni zamonaviy jihozlash mumkin. Lekin farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lim-tarbiya beradigan, yangicha, innovatsion fikrlaydigan muallim va o'qituvchilarni tayyorlash – bu eng og'ir vazifa bo'lib, juda katta mehnat va mas'uliyatni talab etadi.

Shu ma'noda, bugungi kun o'qituvchisi universal mutaxassis, ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi bo'lishi, ya'ni o'z ustida tinimsiz ishlashi, doimo izlanib yashashi kerak.

Eng muhimi, o'qituvchi chinakam vatanparvar inson bo'lishi zarur. Qalbida o'z kasbiga, Vatanga mehr va sadoqat kuchli bo'lgan o'qituvchigina haqiqiy vatanparvar shaxsni tarbiyalay oladi.

Bizning barcha sa'y-harakatlarimiz **«O'zbekistonda eng obro'li inson muallim bo'lishi kerak»** degan g'oyani amalga oshirishga qaratilmoqda. Buning uchun davlat va jamiyat tomonidan qancha mablag', resurs va imkoniyatlar zarur bo'lsa, barchasini safarbar etamiz.

Maktablarda xorijiy tillarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'rgatishni takomillashtirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish, yoshlarni ilm-fan sohasiga

jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirishimiz lozim.

Professional ta'lim sohasida bugungi mehnat bozori va xalqaro standartlarga to'la mos keladigan butunlay yangi tizimga o'tishni jadallashtirishimiz kerak.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, o'qitish sifati va pedagog xodimlarning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan «Zamonaviy maktab» davlat dasturini amalga oshirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Barchamizga ayonki, bugungi kunda yon-atrofimizda yoshlarning qalbi va ongini zaharlab, ularni to'g'ri yo'ldan og'dirishga qaratilgan xavf-xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida barchamiz birgalikda kurashmog'imiz, oila, maktab va mahalla hamkorligini mustahkamlashimiz zarur.

Ayniqsa, bu vazifa barcha bo'g'indagi rahbarlar, yoshlar, xotinqizlar, nuroniylar tashkilotlari, ijodkor ziyolilarimiz, diniy ulamolar, huquq-tartibot idoralari xodimlari, butun jamiyatimiz uchun vijdon ishiga aylanishi kerak.

Aziz va muhtaram ustozlar!

Bugun ta'lim-tarbiya sohasida, hurmatli o'qituvchi va murabbiylarimiz, farzandlarimiz hayotida yangi davr boshlanmoqda. Bu davrni yanada chuqur ma'no-mazmun bilan to'ldirib, milliy yuksalishga erishish faqat va faqat o'zimizga, shu yo'lda hamjihatlik bilan qattiq mehnat qilishimizga bog'liq.

Biz xalqimizning eng katta boyligini – millionlab farzandlarimiz, jondan aziz o'g'il-qizlarimizning taqdirini, O'zbekiston istiqbolini sizlarga ishonib topshirganmiz. Va bu vazifani mas'uliyat bilan ado etib kelayotgan sizlar kabi fidoyi insonlar, kelajak bunyodkorlariga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi.

Sizlarni O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, sharafli va mas'uliyatli faoliyatingizda katta muvaffaqiyatlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

2019-yil 28-sentabr

O'ZBEK O'G'LONLARI JASORATINING YORQIN NAMUNASI

Muhtaram do'stlar!

Hurmatli jahon chempionlari!

Qadrli ustoz va murabbiylar!

Avvalo, siz, aziz sportchilarimizni, hurmatli ustoz va murabbiylarni, butun xalqimizni boks bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasining tarixiy g'alabasi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Rossiyaning Yekaterinburg shahrida bo'lib o'tgan jahon chempionatida yuksak mardlik va matonat ko'rsatib, yurtimizga shunday buyuk g'alabani olib kelganingiz har qanday tahsin va tasannolarga munosibdir.

O'sha kunlari keksa-yu yosh – butun xalqimiz sizlarga zafar tilab, katta hayajon va qiziqish bilan o'z nigohini Yekaterinburg arenasiga qaratdi.

Elimiz ana shu ulkan ishonchni oqlagan sizdek jasur, vatanparvar avlod bilan haqli ravishda faxrlanadi.

Sizlar AQSH, Kuba, Rossiya, Qozog'iston, Angliya, Hindiston kabi boks bo'yicha yetakchi davlatlar vakillarini orqada qoldirib, yakuniy bosqichda birinchi o'ringa ko'tarildingiz.

Bu sizlarning nafaqat jismoniy, balki ruhiy va ma'naviy jihatdan ham yaxshi tayyorgarlik bilan maydonga chiqqaningiz natijasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Zero, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Pahlavon Mahmud kabi hech qachon kuragi yerga tegmagan buyuk ajdodlarimizga munosib o'g'lonlargina ana shunday ulug' zafarlarga qodir bo'la oladi.

Shuning uchun butun mamlakatimiz sizlarni cheksiz olqishlamoqda, butun dunyo sizlarga tan bermoqda.

Sizlar milliy sportimiz tarixida yangi va yorqin sahifa ochib, jonajon O'zbekistonimiz obro'-e'tiborini yuqori bosqichga ko'tardingiz.

Bugungi quvonchli va unutilmas kunda sizlardek pahlavon yigitlarni tarbiyalab, voyaga yetkazgan mehribon ota-onalaringiz, jonkuyar ustoz va murabbiylaringizga rahmat va tashakkurlar aytamiz.

Davramizda ana shunday jasur o'g'lonlarimizning ota-onalarini ko'rib turganimizdan g'oyat xursandmiz.

Sizlarga butun O'zbekiston xalqi katta havas, hurmat va ehtirom bilan qaramoqda.

Farzandlaringizga berilgan e'tirof bu – avvalo sizlarga berilgan yuksak e'tirofdir.

Sizlarning ko'pchiligingiz o'z hayotini yosh avlod tarbiyasiga bag'ishlagan o'qituvchilar, el-yurtimiz farovonligi yo'lida mehnat qilayotgan tadbirkorlar ekaningizni alohida ta'kidlashni istardim.

Sizlar mana shunday mard, mustahkam irodali, vatanparvar farzandlarni voyaga yetkazib, ko'pchilikka namuna ko'rsatdingiz.

Inson uchun dunyoda o'z farzandining kamolini ko'rishdan ortiq saodat yo'q. Men barchangizni ana shunday ulug' baxt bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Doimo sog'-omon bo'ling!

Hurmatli yurtdoshlar!

Dunyodagi 80 ga yaqin mamlakatdan eng kuchli charm qo'lqop ustalari ishtirok etgan, g'oyat keskin kurashlar ostida o'tgan xalqaro bellashuvda terma jamoamiz 3 ta oltin, 1 ta kumush va 1 ta bronza medalni qo'lga kiritgani ulkan jasorat va qahramonlik namunasidir.

Buning uchun zarur bo'lgan beqiyos kuch-g'ayrat, bilim va mahorat, mustahkam ishonch manbayi avvalo Vatanimiz, olijanob xalqimiz, uning shonli tarixi va boy ma'naviyati, desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Ana shunday buyuk kuchga tayanib, millionlab yoshlarimiz yurtimizni har tomonlama taraqqiy toptirish uchun zo‘r g‘ayrat va shijoat bilan maydonga chiqmoqda.

Ma‘lumki, 2016-yil Braziliyada bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarida ham bokschilarimiz hammani qoyil qoldirib, umumjamoa hisobida birinchi o‘rinni egallagan edilar.

Erishilgan bunday yutuqlar tasodifiy emasligini, O‘zbekiston tom ma‘noda boks mamlakatiga aylanib borayotganini sizlar butun dunyoga yaqqol namoyon etdingiz.

Bu g‘alaba «O‘zbekiston boks maktabi», «O‘zbekiston boks-chilari» degan so‘zlarni jahon sporti tarixiga oltin harflar bilan muhrlab qo‘ydi.

Endi O‘zbekiston bokschilarini, o‘zbek boks maktabini tan olgan ham tan oladi, tan olmagan ham tan oladi.

Endi «O‘zbekiston», «o‘zbekistonlik» desa, manaman degan bokschilar ham o‘ylab ringga tushadigan bo‘ladi.

Biz, jismoniy tarbiya va sportga, xususan, boks sohasiga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, yaratilayotgan zarur shart-sharoitlar ro‘yobini avvalo mana shunday yutuqlarda ko‘ramiz.

Mamlakatimizda zamonaviy ta‘lim-tarbiya maskanlari bilan birga, yangi-yangi sport maktablari va majmualari, stadionlar, suzish havzalari barpo etilayotgani, bolalarimiz qalbida sportga mehr uyg‘otishga alohida ahamiyat berilayotgani bu borada hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Ayniqsa, hurmatli ustoz va murabbiylar mehnati qadr topib, ularning nufuzi va maqomi oshib borayotgani yutuqlar garovi bo‘lmoqda.

«Yoshlar – kelajagimiz», «Besh ijobiy tashabbus», «Obod qishloq», «Obod mahalla», «Obod markaz» kabi dasturlarimizning barchasida farzandlarimizni barkamol etib tarbiyalashga, ularning sport bilan shug‘ullanishiga jiddiy e‘tibor berilmoqda.

Bu g'alabaniy yana bir muhim tomoni shundaki, u mamlakatimizda boshqa sport turlarining rivojiga ham qudratli turtki beradi.

O'z navbatida, yoshlarni barcha sohalarda marrani baland olib, doimo g'alaba sari intilib yashashga o'rgatadi.

Hurmatli do'stlar!

Terma jamoamiz qo'lga kiritgan olamshumul yutuqqa beqiyos hissa qo'shgan qahramonlarimiz haqida har qancha g'urur va iftixor bilan gapirsak, arziydi.

Shahobiddin Zoirov bir qator kuchli raqiblarni, xususan, finalda hindistonlik mashhur bokschini yengib, dastlabki oltin medalni qo'lga kiritgani barcha sportchi va murabbiylarimizning ruhini tog'day ko'tarib yubordi.

Yana bir polvon o'g'lonimiz Mirazizbek Mirzaxalilov finalda kubalik o'ta kuchli raqibni ikkinchi raunddayoq mag'lub etgani boks tarixida kamdan kam bo'ladigan natijadir.

Alpomishlar yurti – Surxondaryo farzandi, uchinchi oltin medal sohibi Bahodir Jalolov o'ta og'ir vaznda ham chempion, ham «turnirning eng yaxshi bokschisi» degan e'tirofqa sazovor bo'lgani respublikamizning dunyo miqyosidagi obro'-e'tiborini yanada oshirdi.

Yosh, iste'dodli bokschimiz Dilshodbek Ro'zmetov bunday nufuzli musobaqada ilk bora ishtirok etganiga qaramasdan, kumush medalni qo'lga kiritgani – buyam juda katta natija.

Bronza medalga sazovor bo'lgan Bobo-Usmon Botirov ham jahon chempionatida ilk marta qatnashib, faxrli natijaga erishgani uning ulkan qobiliyati va porloq kelajagidan dalolat beradi.

O'zbekistonda ishqibozlar har bir o'yinni diqqat bilan kuzatib bordi.

Sizlar raqiblaringizga qarshi faol ishlab, ringda bir soniya ham to'xtamasdan, qayta-qayta kuchli zarbalarni berib, xato qilmasdan va yaxshi himoyalaniib, janglarning eng oxirigacha qizg'in kurash olib bordingiz.

Har bir raundni yuqori tezlik va shiddat, texnik mahorat va ustunlik bilan o'tkazdingiz.

Bu barcha muxlislarni, shaxsan mening ham yuragimni juda to'lqinlantirib, cheksiz quvontirdi.

Bu yutuqlar – bizning milliy g'ururimiz, iftixorimiz, o'zbek o'g'lonlarining botirligi, jasurligi va mislsiz jasoratining yorqin ifodasidir.

Bilagida kuchi va yuragida o'ti bor, qalbida ona Vataniga muhabbati va millatining or-nomusini olib yurgan siz kabi alp yigitlar yurtimizning shuhrati, shavkat-u shonini butun dunyoga ko'tardingiz.

Ushbu g'alabani ta'minlashda murabbiylar tarkibi, Boks federatsiyasining salmoqli hissasi borligini ta'kidlab o'tmoqchiman.

Kuchli va yengilmas jamoani tayyorlash uchun chinakam fi-doyilik ko'rsatgan, to'g'ri taktika tanlagan va puxta mashg'ulot-lar olib borgan Marat Qurbonov, Rahmatjon Ro'zioxunov, To'lqin Qilichev, Istam Kabinov, Bahodir Erkayev, Farrux Qilichev kabi mashhur murabbiylarni chin yurakdan qutlaymiz.

Fursatdan foydalanib, sizlarni, sizlar orqali butun mamlakatimiz o'qituvchi va murabbiylarini qutlug' kasb bayrami bilan yana bir bor chin qalbimdan muborakbod etaman.

Qadrli do'stlar!

Sizlar ushbu musobaqada eng yuqori shohsupadan o'rin olib, kelgusi yil Yaponiyada o'tadigan Olimpiya o'yinlari uchun mustahkam poydevor yaratdingiz.

Jadal rivojlanayotgan, ochiq va demokratik mamlakatimiz o'zining sport sohasidagi yangi qiyofasini namoyish etishi uchun bu Olimpiada juda katta imkoniyatdir.

Buni hammamiz chuqur tushunib, unga jiddiy tayyorgarlik ko'rishimiz shart.

Albatta, sportchilarning jismoniy shayligi, professional mahorati va tajribasi juda muhim.

Lekin eng zarur jihati bu – Olimpiya jamoamizning ruhiy tayyorgarligi.

Sportchining o'ziga ishonchi qanchalik kuchli bo'lsa, natijasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

Shu yil 4-sentabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida sizlar bilan bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida atroflicha gaplashib olgandik.

Biz bu Olimpiadada munosib ishtirok etish uchun 100 ta litsenziyani qo'lga kiritish vazifasini qo'ygan edik.

Hozirgacha bor-yo'g'i 5 ta sport turi bo'yicha 8 ta litsenziyaga ega bo'ldik.

Shuning uchun yana bir bor aytaman, Tokioda bo'ladigan yozgi Olimpiadaga tayyorgarlik ishlari bizni mutlaqo qoniqtirmaydi.

Albatta, so'nggi paytda sport federatsiyalari va hokimliklar Olimpiya terma jamoasini shakllantirish va sportchilar uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha ishlarni ancha kuchaytirdi.

Lekin bu yetarli emas, qiladigan ishlarimiz hali ko'p.

Olimpiada o'yinlari bu – har to'rt yilda bir marta o'tadigan, mamlakatni butun dunyoga mashhur qiladigan katta va noyob imkoniyat ekanini barchamiz tushunib olishimiz kerak.

Biz har bir imkoniyatdan samarali foydalanib, tayyorgarlikni har tomonlama kuchaytirishimiz shart.

O'ylaymanki, mamlakatimiz bokschilarining katta g'alabasini ko'rib, barchamiz «Bo'lar ekan-ku!», «O'zbekiston sportini dunyoga tanitish mumkin ekan-ku!» degan kayfiyat bilan yashamoqdamiz.

Sizlar bundan keyin ham o'zbek boks maktabining shonli an'analarini munosib davom ettirib, sayyoramizning eng nufuzli musobaqalarida bayrog'imizni baland ko'tarasizlar, deb ishonaman.

Biz endi boksni har bir oiladan, maktabdan, mahalladan, tumanlar-u viloyatlardan shug'ullanadigan sharoit va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha alohida konsepsiya ishlab chiqamiz.

Boksni umummilliy sport turiga aylantirish bo'yicha alohida dastur va chora-tadbirlarni qabul qilamiz.

Ana shu yutuqlardan ruhlangan boshqa sport federatsiyalarimiz ham o'z faoliyatini albatta Boks federatsiyasi darajasiga olib chiqadi, deb ishonaman.

Aziz do'stlar!

Xabaringiz bor, g'olib va sovrindor bokschilarimiz hamda ularning murabbiylari davlatimizning yuksak faxriy unvon va medallari bilan mukofotlandilar.

Bu mukofotlar sizlarning mehnatingiz, iste'dod va mahoratingizga xalqimiz va Vatanimiz tomonidan berilgan eng oliy bahodir.

Aminmanki, bu mukofotlar sizlarga yangi kuch-g'ayrat va shiddat bag'ishlaydi, yanada yuqori cho'qqilarni zabt etishga da'vat etadi.

Qadrli farzandlarim!

Muhtaram ustoz va murabbiylar!

Ulug' maqsadlarga erishish yo'lida sizlarga sihat-salomatlik va muvaffaqiyatlar, shaxsiy hayotda esa oilaviy baxt va omad yor bo'lishini tilayman.

Yana bir marta sizlarga katta rahmat!

*Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida
bo'lib o'tgan boks bo'yicha jahon chempionatida yuksak
natijalarga erishgan sportchi va murabbiylarga
mukofotlarni topshirish marosimidagi nutq*

2019-yil 30-sentabr

«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AKSIYADORLIK JAMIYATI JAMOASIGA

Qadrli do'stlar!

Siz, azizlarni O'zbekiston rangli metallurgiya sanoatining yetakchisi – Olmaliq kon-metallurgiya kombinati tashkil topganining qutlug' 70 yillik sanasi munosabati bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Kombinat tarixi respublikamizda rangli, nodir va qimmatbaho metallarni qazib olish hamda ularni qayta ishlashga qaratilgan mutlaqo yangi tarmoqning yaratilishi hamda yirik ishlab chiqarish quvvatlari va zamonaviy Olmaliq shahrining paydo bo'lishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu tarix zamirida shonli an'analarni munosib davom ettirayotgan, butun bilim va tajribasi, mahorati, qalb qo'rini o'z ishiga baxshida etib, fidokorona mehnat qilayotgan ming-minglab odamlarning juda katta mashaqqatli xizmatlari mujassam.

Korxonaning bunyod etilishi mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlari uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan mineral boyliklarni keng ko'lamda o'zlashtirishga yo'l ochib berdi.

Sizlarga ma'lumki, bugungi kunda yurtimiz taraqqiyotining yangi bosqichida biz sanoat va iqtisodiy salohiyatimizni har tomonlama rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz.

Kombinat misolida oladigan bo'lsak, bu borada o'tgan yili qabul qilingan «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» aksiyadorlik jamiyati ishlab chiqarish quvvatlarini rekonstruksiya qilish va barqarorlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror korxonada faoliyati uchun katta imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Ushbu ulkan majmuaning ko'pmillatli va ahil jamoasi respublikamizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy islohotlar jarayonida, butun mamlakatimizni, milliy

iqtisodiyotimizni tubdan modernizatsiya qilishda faol ishtirok etayotganini barchamiz yaxshi bilamiz va cheksiz qadrlaymiz.

Hech shubhasiz, Vatanimizning kuch-qudrati o'sishida, O'zbekistonda qazib olinayotgan qimmatbaho va rangli metallarning yuksak sifati butun dunyoda alohida e'tirof etilishida iqtisodiyotimizning lokomotivi hisoblangan kombinatning 35 minglik jamoasi salmoqli hissa qo'shib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda majmua tomonidan Toshkent, Jizzax, Namangan va Surxondaryo viloyatlaridagi qimmatbaho va rangli metallar eng ilg'or texnologiyalar asosida, yetakchi xorijiy kompaniyalar hamkorligida jadal o'zlashtirilmoqda, xaridorgir mahsulotlar hajmi oshirilib, ularning 70 foizdan ortig'i eksport qilinmoqda.

Jahon bozoridagi keskin raqobat sharoitida ishlab chiqarishning o'sishi va samaradorligini ta'minlash maqsadida kombinatning uzoq muddatli modernizatsiya dasturi ishlab chiqildi.

Ayni paytda yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yirik investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilayotgani ayniqsa e'tiborga loyiq. Xususan, «Angren» erkin iqtisodiy zonasida barpo etilgan Angren quvur zavodi, Jizzax viloyatida sement zavodi foydalanishga topshirildi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari hududida eng yirik – bir yilda 60 million tonna rudani qayta ishlash salohiyatiga ega bo'lgan mis boyitish fabrikasi va boshqa zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarining qurilishi boshlandi.

Eng muhimi, olib borilayotgan jadal va tizimli bunyodkorlik ishlari natijasida mahalliy aholi uchun minglab qo'shimcha ish o'rinlari yaratilmoqda.

Yaqin yillarda kombinatni modernizatsiya qilish dasturi doirasida 2023-yilga kelib ishlab chiqarish hajmining 2,5 barobarga o'sishini ta'minlovchi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish rejalashtirilmoqda.

Barchamiz yaxshi bilamizki, ishlab chiqarishni tubdan yangilash va ilmiy texnologiyalarni joriy etish masalalari yuqori malakali kadrlarni talab qiladi. Shu bois, belgilangan vazifalar ijrosini to'liq

ta'minlashga qodir bo'lgan zamonaviy va yetuk mutaxassislarni tayyorlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Olmaliqda faoliyat yuritayotgan Toshkent davlat texnika universitetining filiali, shuningdek, o'tgan yili tashkil etilgan Rossiya Federatsiyasining Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti Moskva po'lat va qotishmalar instituti filiali ushbu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Korxonaning barcha ishchi-xodimlar uchun munosib hayot va mehnat sharoitlarini, ularga hamma qulayliklarni yaratib berish borasidagi ijobiy tajribasini alohida ta'kidlash lozim.

Bugun bu yerda zamonaviy uylar, madaniyat va sport maskanlari, ravon ko'chalar, ko'rkam va fayzli go'shalar, bir so'z bilan aytganda, zarur infratuzilmalar bunyod etilmoqda. Bu beqiyos rag'bat va e'tiborning yaqqol misolini – yildan yilga rivojlanib, xorijiy mehmonlar va investorlar uchun jozibador bo'lib borayotgan Olmaliq shahrining obod va farovon qiyofasida ham ko'rish mumkin.

Hurmatli do'stlar!

Bugungi shiddatli davrning o'zi butun xalqimiz qatori kombinat jamoasi oldiga ham milliy iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan muhim va strategik vazifalarni qo'ymoqda.

Majmua bazasida yuqori texnologik va qo'shimcha qiymatga ega xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, bu yo'lda yurtimizning tabiiy, mehnat va intellektual resurslaridan to'laqonli foydalanish masalalari g'oyatda dolzarb bo'lib turibdi.

Ishonchim komilki, kombinatning yuksak kasbiy mahoratga, boy bilim va malakaga ega mehnatkashlari bu muhim hamda dasturilamal vazifalarni sharaf va matonat bilan uddalaydilar.

Ushbu ayyom munosabati bilan sizlarni yana bir bor samimiy muborakbod etib, barchangizga mustahkam sog'lik, baxt-saodat, jonajon O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida olib borayotgan bunyodkorona mehnatingizda yangi zafarlar tilayman.

2019-yil 24-oktabr

O‘ZBEKISTON SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARIGA

Muhtaram do‘stlar!

Hurmatli tibbiyot xodimlari!

Avvalo, inson sog‘lig‘ini asrash va mustahkamlashdek olijanob ishga o‘z hayotini bag‘ishlagan siz, azizlarni mamlakatimizda keng nishonlanayotgan Tibbiyot xodimlari kuni munosabati bilan chin qalbimdan tabriklayman.

Biz sizlarning timsolingizda xalq salomatligi yo‘lida o‘z halovatidan kechib, kunni tunga ulab, fidokorona mehnat qilayotgan sharaflı kasb egalarini ko‘ramiz.

Mashhur yunon tabibi Gippokratning «**Tabobat barcha ilm-u san’atlar ichida eng buyuk ilm va san’atdir**», degan so‘zlari mashaqqatli va ezgu faoliyatingizga berilgan haqqoniy bahodir.

Qadrli yurtdoshlar!

O‘z aholisining sog‘lig‘ini muhofaza qilish – har qaysi davlat va jamiyat uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega dolzarb masala sanaladi.

Yurtimiz hududida qadimdan ko‘plab shifo maskanlari, tibbiy madrasalar faoliyat yuritgani, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz yaratgan bebaho asarlar, ularning dori-darmon tayyorlash va davolash usullari butun jahonda mashhur bo‘lgani ajdodlarimizning bu soha rivojiga qanday katta e‘tibor qaratganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda tub yangilanishlarni avvalo ijtimoiy hayotimizning eng muhim yo‘nalishlari bo‘lmish tinchlik va osoyishtalikni saqlash hamda aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilishdan boshlaganimiz bejiz emas.

Chunki, tinchlik va sog'liq – bu har bir inson, butun aholimiz uchun hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydigan buyuk ne'matdir. Faqat sog'lom inson va sog'lom xalq mislsiz ishlarga qodirligini hammamiz yaxshi anglaymiz.

O'tgan davrda sog'liqni saqlash tizimida erishilgan ijobiy natijalar bilan birga, yechimini kutayotgan kamchilik va muammolar ham mavjudligi hech kimga sir emas. Shu sababli, keyingi uch yil davomida yurtimizda fuqarolar murojaatlari, fikr-mulohaza va takliflari atroflicha o'rganilib, tibbiyot tarmog'ini chuqur isloh qilish bo'yicha 170 dan ziyod huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmon asosida 2019–2025-yillarda Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda tegishli dastur tasdiqlandi.

Bularning barchasi birlamchi tibbiy sanitariya hamda shoshilinch va tez yordam bo'g'inidan tortib, yuqori tuzilmalarigacha ish faoliyatini tashkil etishda asosiy e'tiborni inson omiliga yo'naltirish, tibbiy xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatini xalqaro mezonlar darajasiga yetkazish borasida yangi imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Ma'lumki, kasallikni davolashdan ko'ra, uning oldini olish oila uchun ham, davlat uchun ham samarali va foydalidir. Shu bois mamlakatimizda profilaktik tibbiyot rivojiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Ayni paytda, tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatishni yaxshilash maqsadida yurtimizda 817 ta qishloq vrachlik punkti, 798 ta qishloq va 178 ta shahar oilaviy poliklinikalarida ayollar maslahatxonalar, qizlar salomatligi xonalari, ijtimoiy dorixonalar, kun-u tun ishlaydigan tez tibbiy yordam shoxobchalari tashkil etildi hamda 5 ta tor soha mutaxassislarining faoliyati yo'lga qo'yildi.

Jismoniy shaxslar eng ko'p murojaat qiladigan shoshilinch va tez yordam yo'nalishida markazlashgan yaxlit tizim yaratildi. Tez yordam brigadalarining soni 818 tadan 1666 taga yetkazildi va ular aholi yashaydigan hududlarga yaqinlashtirildi. Avtotransport

parkini yangilash uchun 1500 dan ortiq «Tez yordam» mashinalari xarid qilindi.

Yana bir asosiy yoʻnalish – reproduktiv salomatlikni, onalik va bolalikni muhofaza qilish boʻyicha milliy dasturlar amalga oshirilmoqda. Hududlarimizdagi bolalar davolash muassasalarida ilgari mavjud boʻlmagan neonatal xirurgiya, kardioxirurgiya, invaziv xirurgiya, qizlar ginekologiyasi kabi yangi boʻlimlarda murakkab davolash amaliyotlari oʻtkazilmoqda.

Bunday ulugʻvor oʻzgarishlar yurtimizda xotin-qizlar sogʻligʻini mustahkamlash, onalar va goʻdaklar oʻlimining keskin kamayishida muhim omil boʻlmoqda.

Shuningdek, patronaj xizmati mutlaqo yangicha asosda yoʻlga qoʻyildi. Ayniqsa, yolgʻiz, keksa, nogironligi boʻlgan, surunkali kasalliklarga chalingan shaxslarni, boʻlajak onalar va bolalarni patronaj xizmatlari bilan toʻliq qamrab olish borasida beqiyos ishlar amalga oshirilmoqda. Hamshiralarning uyma-uy yurib, har bir shaxsning salomatligini puxta oʻrganishlari tufayli kasalliklarning oldini olish, oilalarda tibbiy madaniyatni yuksaltirish borasida salmoqli yutuqlarga erishilmoqda.

Maʼlumki, ixtisoslashgan tibbiyot muassasalari asosan poytaxtda joylashgan boʻlib, kishilar davolanish maqsadida viloyatlardan uzoq yoʻl bosib kelishga majbur edi.

Keyingi vaqtda joylarda qoʻshimcha muassasalar barpo etilishi hisobiga allergologiya, onkologiya, nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi, nevrologiya va insult, travmatologiya va ortopediya, neyroxirurgiya kabi yoʻnalishlarga ixtisoslashgan markazlar soni 16 taga yetkazildi. Hududlarda 310 ta ixtisoslashgan boʻlimlar, respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarining 14 ta filiali ochildi.

Nafaqat poytaxtimiz, balki Namangan, Xorazm, Fargʻona, Buxoro, Qashqadaryo va boshqa viloyatlarda kardiojarrohlikka oid eng murakkab amaliyotlar, yetakchi markazlarimizda buyrak va jigar, oʻzak hujayra transplantatsiyalari muvaffaqiyatli bajarilayotganini alohida taʼkidlash oʻrinlidir.

Tarmoqda xususiy sektor ulushini oshirish, davlat-xususiy sheriklik hamda institutsional va huquqiy mexanizmlarning yaratilishi, ularga keng imtiyozlar taqdim etilayotgani natijasida bu yo'nalishdagi shifoxonalar soni 5300 dan oshdi.

Shuningdek, qisqa vaqt ichida AQSH, Rossiya, Xitoy, Germaniya, Hindiston, Turkiya, Janubiy Koreya, Isroil kabi xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda 100 dan ortiq zamonaviy xususiy klinikalar ish boshladi.

Ayni paytda, mamlakatimizda 7 ta oliy tibbiy ta'lim dargohi va ularning 4 ta filiali, shuningdek, xorijdagi nufuzli tibbiy-ilmiy muassasalar hamkorligida tashkil etilgan 22 ta xalqaro fakultet sohaga malakali va yetuk mutaxassislarni yetishtirib bermoqda.

Respublikamiz farmatsevtika sanoati ham izchil rivojlanib, arzon va sifatli dori vositalarini kafolatlangan tarzda yetkazib berish, ularga narx belgilashning ta'sirchan shakllari ishlab chiqilmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish hajmi bir necha barobarga oshirilishi islohotlar natijadorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Masalan, 2017-yilda sohaga 7,1 trillion so'm yo'naltirilgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 12,1 trillion so'mga yetdi. Bu o'tgan yillarga qaraganda 1,6 barobar ko'p demakdir. Dori-darmonlar va tibbiy buyumlar xarid qilish hamda tibbiyot obyektlarini qurish-ta'mirlash ishlariga ajratilayotgan mablag'lar hajmi ham 3 barobarga ortdi.

So'nggi uch yilda 1300 dan ortiq davolash muassasasida qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilib, ular 2019-yilning o'zida 100 million AQSH dollari miqdoridagi zamonaviy va yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Davlatimiz tomonidan shifokorlarning zalvorli mehnatini munosib qadrlash, ularning ish va turmush sharoitlarini yaxshilash, zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlash, moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirishga jiddiy yondashilmoqda. Bu kabi har tomonlama qo'llab-quvvatlash ishlari bundan keyin ham izchil davom ettiriladi.

Muhtaram yurtdoshlar!

Mazkur tarmoqda boshlagan islohotlarimizni jadal davom ettirish, tibbiy xizmatning sifatini oshirish, sohaga innovatsiyalar hamda eng so'nggi yangiliklarni joriy etish eng avvalo soha mutasaddilari, olim va shifokorlar, hamshiralar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Majburiy tibbiy sug'urtalash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish, tibbiy ta'lim va ilm-fanni yuqori bosqichga ko'tarish singari juda muhim vazifalar oldimizda turibdi.

Hech shubhasiz, sidqidildan va jonbozlik bilan mehnat qilib kelayotgan siz, fidoyi yurtdoshlarimiz butun salohiyat va tajribangiz, kuch va g'ayratingizni safarbar etib, ana shunday ulkan va mas'uliyatli vazifalarni sharaf bilan ado etishga qodirsiz.

Barchamiz bir haqiqatni esdan chiqarmasligimiz lozim: tibbiyot xodimlari – salomatligimiz posbonlaridir. Sizlar o'zingizning boy bilim va mahoratingiz, ilg'or malaka va ko'nikma, beg'araz xizmatingiz, kasbingizga mehr va sadoqatingiz bilan xalqimizning ishonchini yanada chuqurroq qozonasiz, deb ishonaman.

Qadrli tibbiyot xodimlari!

Sizlarni qutlug' kasb bayramingiz bilan yana bir bor samimiy muborakbod etib, barchangizga sihat-salomatlik, ulkan zafarlar, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga fayz-u baraka yor bo'lishini tilayman.

2019-yil 9-noyabr

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARIGA

Qadrli vatandoshlar!

Muhtaram dehqon va fermerlar!

Avvalo, barchangizni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni qutlug' ayyom – Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etaman.

Hammamizga yaxshi ayonki, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng qadimiy, hech qachon o'z o'rni va ahamiyatini yo'qotmaydigan tayanch tarmoqlaridan biridir.

Ana shunday muhim sohaning zalvorli yukini o'z yelkasida ko'tarib kelayotgan mirishkor dehqon va fermerlar, zahmatkash chorvador va pillakorlar, mohir suvchi va irrigatorlar, o'z ishining haqiqiy ustasi bo'lgan mexanizator va agronomlar, jonkuyar olim va mutaxassislarni dunyodagi eng olijanob kasb egalaridir, desak, ayni haqiqat bo'ladi.

Chindan ham, buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, har erta bahorda yerga urug' qadab, rizq yo'lini ochadigan, xonadonlarimizdagi to'kinlik va fayz-u baraka sababchisi bo'lgan sizdek fidoyi insonlarga har qancha tasannolar aytsak arziydi.

Ushbu bayram munosabati bilan sizlarni qutlar ekanmiz, bu yilgi mashaqqatli mehnatingiz, erishilgan natijalar va oldimizda turgan rejalar haqida atroflicha to'xtalishimiz tabiiydir.

Avvalo sayyoramizdagi global iqlim o'zgarishlari hamda mintaqamizdagi ekologik muammolar oqibatida qishloq xo'jaligida har yili ilgari ko'rilmagan yangi-yangi sinov va qiyinchiliklar paydo bo'layotganini qayd etish lozim.

Lekin, ko'pni ko'rgan, doimo yer bilan tillashib, dardlashib yashaydigan dehqon va fermerlarimiz ana shunday murakkab

sharoitda ham omilkorlik bilan, boy bilim va tajribasi, ilm-fan yutuqlarini ishga solib, mo'1 hosil yetishtirishga muvaffaq bo'lmoqdalar.

Joriy yilda sizlarning peshona teringiz bilan 7 million 130 ming tonna g'alla, 2 million 845 ming tonna paxta, 19 ming 600 tonna pilla, 21 million tonna meva-sabzavot, 400 ming tonna sholi, 2 million 600 ming tonna go'sht va 11 million tonna sut mahsulotlari, 8,1 milliard dona tuxum olingani bu fikrni yaqqol tasdiqlab turibdi.

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish dolzarb masala bo'lib borayotgani sir emas.

Shuning uchun ham biz iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat ekinlari yetishtirishga alohida e'tibor bermoqdamiz.

Bu haqda so'z yuritganda, keyingi to'rt yilda hosildorligi past bo'lgan 300 ming gektar paxta va g'alla maydonlari o'rniga meva-sabzavot va ozuqa ekinlarini yetishtirish yo'lga qo'yilib, jumladan, 32 ming gektar yerda intensiv bog'lar, 15 ming gektarda tokzorlar, 2 ming gektarda zamonaviy issiqxonalar barpo etilgani, 114 ming gektarda sabzavot va kartoshka, 72 ming gektarda dukkakli va moyli ekinlar, 52 ming gektarda ozuqa ekinlari yetishtirilayotganini ta'kidlash lozim.

Bugungi kunda yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda bozor tamoyillarini, fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini jadal joriy etish, ekologik toza va eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlar daromadini ko'paytirish borasida olib borayotgan tizimli islohotlarimiz sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Natijada bu yil qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan jami 217 trillion 700 milliard so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 12 foiz ko'p foyda olindi.

Yerni haqiqiy egasiga berish, ayniqsa, mahsulot yetishtirishdan tortib, uni sotishgacha bo'lgan agrobiznesning yaxlit zanjirini o'z

ichiga qamrab olgan klaster modelini va kooperatsiya tizimini to'liq yaratishga jiddiy ahamiyat qaratilmoqda.

Joriy mavsumda paxta hosilining 73 foizi paxta-to'qimachilik klasterlari hissasiga to'g'ri kelgani, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Andijon, Xorazm, Namangan, Toshkent, Buxoro viloyatlarida erishilgan yuksak marralar bu tizimning qanchalik samarali ekanini amalda isbotlamoqda.

Shuningdek, Yozyovon, Qo'shtepa, Rishton, Toshloq, Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Paxtaobod, Amudaryo, Beruniy, Ellikqal'a, Xiva, Xonqa, Yangibozor, Mingbuloq, Pop, Chust, Quyichirchiq, Chinoz, Oqqo'rg'on, Qorako'l, Olot, Vobkent, Do'stlik, Narpay kabi o'nlab tumanlarda ushbu tizim asosida paxtadan mo'l hosil yetishtirildi.

Shularning barchasini hisobga olib, biz keyingi yildan boshlab paxta yetishtirishni to'liq – 100 foiz klaster usuliga o'tkazishga qaror qildik. Shu bilan birga, g'allachilik, meva-sabzavotchilik, parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va pillachilik klasterlarini tashkil qilish ishlarini izchil davom ettiramiz.

Birinchi marta boshoqli don ekinlaridan yuqori hosil yetishtirishni rag'batlantirish tizimi joriy etilgani o'zining ulkan ijobiy samarasini berdi. Andijon, Farg'ona, Qashqadaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlarida hosildorlik gektariga 65–67 sentnerga yetgani ana shunday yangicha yondashuvning mahsuli bo'ldi.

Eng muhimi, 3 million 800 ming tonna g'alla dehqon va fermerlar ixtiyorida qoldirilgani ushbu mavsumning asosiy natijasi, desak, to'g'ri bo'ladi.

So'nggi yillarda meva-sabzavotchilikda amalga oshirilayotgan islohotlar ham o'z natijasini bermoqda. Bu yil 1,3 milliard AQSH dollari qiymatidagi 1,5 million tonna meva-sabzavot eksport qilingani, hech shubhasiz, tarmoq rivojida salmoqli o'rin tutadi.

Dehqon va fermerlarimizni yillar davomida o'ylantirib kelayotgan masala – bu yetishtirilgan meva-sabzavot mahsulotlarini nobud va isrof bo'lishiga yo'l qo'ymasdan, sifatli qayta ishlab, ichki va tashqi bozorlarga yetkazib berish bilan bog'liq.

Joriy yilda bu masalaga alohida e'tibor qaratilib, 1 trillion 37 milliard so'm investitsiya mablag'lari jalb etildi. Buning hisobiga 254 ming tonna quvvatga ega bo'lgan 180 ta meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va logistika markazlari barpo etildi. Bu orqali 54 ming qo'shimcha ish o'mi yaratildi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda meva-sabzavot mahsulotlarining 3,5 million tonnasi qayta ishlanib, 350 million dollarlik tayyor mahsulot chetga sotilmoqda.

Biz kelgusi yilda meva-sabzavot mahsulotlarining eksportini 2,5 milliard dollarga, yaqin uch yilda esa 5 milliard dollarga yetkazishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Buning uchun Ispaniya, Niderlandiya, Polsha, Gretsiya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Vyetnam, Indoneziya kabi davlatlarning eng ilg'or tajribalari keng qo'llanilmoqda.

Qimmatbaho xomashyo bo'lgan ipak yetishtirishning yangicha tizimi yo'lga qo'yilishi natijasida bu yil birinchi marta pilladan yiliga to'rt marta hosil olishga erishdik. Endigi vazifa – bu muvaffaqiyatli tajribani keng qo'llashdan iborat.

Keyingi yillarda chorvachilikni isloh qilish, jumladan, sohaning boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish borasida bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Shu tariqa respublika, viloyat, tuman va fermer xo'jaliklari bo'yicha chorvachilik sohasida vertikal boshqaruv tizimi yaratildi.

Respublikamizda sut va go'sht ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mingdan ziyod yirik chorvachilik komplekslari ishga tushirildi. Yakunlanayotgan yilda esa bu yo'nalishda 1,2 trillion so'mlik 600 ta loyiha amalga oshirildi. Chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay bo'lgan Ohangaron, Taxtako'pir, Qo'ng'iroq, Bo'zatov, Mo'ynoq tumanlari shu sohaga ixtisoslashtirildi va klaster usulida rivojlanishi yo'lga qo'yildi.

Oxirgi 20 yilda e'tibordan ancha chetda qolib ketgan baliqchilik tarmog'iga alohida e'tibor qaratishimiz natijasida bu yil 580 ming gektar tabiiy va 28 ming gektar sun'iy ko'llarda 200 ming tonna baliq yetishtirildi.

Yana bir ustuvor yo'nalish – asalarichilikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan O'zbekiston asalarichilar uyushmasiga 14 mingdan ortiq tadbirkor a'zo bo'lib kirdi va joriy yilda 19 ming tonna asal yetishtirildi.

Irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarining barcha xarajatlari to'liq davlat budjeti hisobidan qoplanayotgani dehqon va fermerlarimiz uchun katta madad bo'lib, ekinlardan mo'l hosil olish imkonini bermoqda.

Ekin maydonlarini suv bilan kafolatli ta'minlash maqsadida bu yil davlat budjetidan 1 trillion 328 milliard so'm yoki 2018-yilga nisbatan 1,8 marta, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun esa 645 milliard so'm yoki 1,2 barobar ko'p mablag' ajratildi. Bundan tashqari, yil oxirigacha xalqaro moliya institutlarining 126,8 million dollar yoki 2018-yilga nisbatan qariyb 3 barobardan ziyod kreditlari o'zlashtiriladi.

Jonajon O'zbekistonimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarish vazifasi va jahonda oziq-ovqat mahsulotlariga talab oshib borayotgani agrar sohani tubdan isloh qilishni, unga bozor mexanizmlari, ayniqsa, innovatsion va tejamkor texnologiyalarni, investitsiyalarni keng jalb qilishni taqozo etmoqda.

Shundan kelib chiqib, bu yil qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish Konsepsiyasi va sohani kelgusi 10 yillikda rivojlantirish bo'yicha Strategiyani qabul qildik.

Qo'lga kiritilgan yutuqlar haqida gapirganda, siz, mirishkor fermer va dehqonlar, soha xodimlarining sidqidil va fidokorona mehnatingizni, butun umrini qishloq xo'jaligi rivojiga bag'ishlagan minglab aziz vatandoshlarimizning nomlarini faxr ila tilga olamiz.

Shu o'rinda 11 mingdan ziyod fermer xo'jaligi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tomonidan boshqarilayotgani, 5 ming 600 ta fermer xo'jaliklariga xotin-qizlarimiz rahbarlik qilayotganini ta'kidlashni istardim. Bu bizning qishloq xo'jaligi sohasidagi ulkan boyligimiz, oltin fondimiz, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Kelgusida sohani barqaror rivojlantirishga qaratilgan kompleks dasturlarni tatbiq etish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda

mahsulot yetishtirish turlari va eksport hajmlari ortishini ta'minlash ustuvor maqsadlarimiz bo'lib qolaveradi.

Tuproq unumdorligini saqlash va oshirish, sohani zarur texnikalar bilan ta'minlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini yaxshilash, ilg'or bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash faoliyatini takomillashtirishga e'tiborni yanada kuchaytiramiz.

Mavsum oxirlab, yil yakunlari sarhisob qilinayotgan mana shu ayyomda sizlarga, barcha qishloq ahliga olijanob mehnatingiz uchun yana bir bor chuqur minnatdorlik bildiraman.

Hayot sinovlarida toblangan, mard va matonatli fermerlarimiz, barcha qishloq xo'jalik xodimlari bundan buyon ham xalqimiz farovonligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdek g'oyat mas'uliyatli vazifani ado etishda butun kuch-g'ayrat va imkoniyatlarini safarbar etadilar, deb ishonaman.

Muhtaram dehqon va fermerlar!

Qishloq xo'jaligi sohasida halol va fidokorona mehnat qilayotgan aziz va qadrlı yurtdoshlar!

Sizlarni yana bir bor ushbu shukuhli va fayzli bayram bilan chin qalbimdan tabriklab, eng ezgu va samimiy tilaklarimni izhor etaman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt-saodat, mas'uliyatli va sharaflı mehnat faoliyatingizda ulkan zafarlar, xonadonlaringizga qut-baraka va xotirjamlik hamisha yor bo'lishini tilayman.

2019-yil 6-dekabr

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Aziz vatandoshlar!

Mana shu quvonchli lahzalarda siz, azizlarni, ko'pmillatli butun xalqimizni Yangi yil bayrami bilan chin qalbidan muborakbod etaman! Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt tilayman!

O'tib borayotgan yil mamlakatimiz uchun unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Turli qiyinchilik va sinovlarni ham boshimizdan kechirdik.

Xalqimizning fidokorona mehnati bilan «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da ulkan yutuqlarga erishdik. Mamlakatimiz salohiyati va raqobatbardoshligini oshirish yo'lida yangi qadamlar qo'yildi.

Iqtisodiyotimizning yetakchi soha va tarmoqlari jadal rivojlanmoqda. Yuqori texnologiyalarga asoslangan zamonaviy korxonalar, yangi transport tizimlari ishga tushirilmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimiz, murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, mo'l hosil yetishtirdilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochildi.

Yil davomida hududlarda aholi, ayniqsa, yoshlarimiz, xotin-qizlar uchun ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi.

Davlat dasturlari asosida shahar va qishloqlarimiz, yurtimiz qiyofasi butunlay o'zgarmoqda.

2019-yilda ming-minglab yurtdoshlarimiz, jumladan, kam ta'minlangan oilalar shinam uy-joylarga ega bo'ldilar.

Ilm-fan, ta'lim va tarbiya sohasida tub burilish davri boshlandi.

Yangi-yangi bog'cha va maktablar, oliy o'quv yurtlari, yetakchi xorijiy universitetlarning filiallari, shifoxonalar, madaniyat va sport maskanlari bunyod etilmoqda.

Eng muhimi, odamlarimizning hayot darajasi, Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usi, ertangi kunga ishonchi tobora kuchaymoqda.

Jamiyatimizda demokratiya tamoyillari, ochiqlik va erkinlik muhiti chuqur qaror topmoqda.

Kuni kecha Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar buni yaqqol tasdiqladi. Saylovlar O'zbekiston demokratik taraqqiyot yo'lidan ortga qaytmasligini yana bir bor isbotladi.

Mustaqilligimiz, osoyishta hayotimiz kafolati bo'lgan Qurolli Kuchlarimizning jangovar salohiyati mustahkamlanmoqda.

Tinchliksevar va amaliy tashqi siyosat olib borayotgan davlatimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori ortib bormoqda.

Muxtasar aytganda, 2019-yil yangi O'zbekiston tarixida har tomonlama yorqin iz qoldirmoqda.

Hurmatli yurtdoshlar!

Biz milliy yuksalishning muhim bosqichiga qadam qo'ymoqdamiz.

2020-yilda ham iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda keng ko'lamli islohotlarimizni faol davom ettiramiz.

Xususiy mulk, tadbirkorlik va biznes uchun yanada qulay muhit yaratishga, yangi ish o'rinlari tashkil etishga alohida ahamiyat qaratamiz. Ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, aholi real daromadlarini ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Odamlarimizning yashash sharoitini, kommunal-maishiy xizmat sifatini yaxshilash, arzon va qulay uy-joylar qurish bo'yicha boshlagan ishlarimizni yanada kengaytiramiz.

Farzandlarimizga munosib ta'lim va tarbiya berishga, ularning qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishga barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Aholi salomatligini mustahkamlash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan ishlarimiz yangi bosqichga ko'tariladi.

Nuroniylarimiz, munis opa-singillarimizga e'tibor va g'amxo'rlikni yanada kuchaytiramiz.

Ijtimoiy himoya va ko'makka muhtoj yurtdoshlarimizni doimiy qo'llab-quvvatlashga birinchi darajali ahamiyat beramiz.

Tinchlik va barqarorlikni, jamiyatimizda o'zaro hurmat va ahillikni mustahkamlash asosiy vazifamiz bo'lib qoladi.

Bu borada dunyo hamjamiyati, avvalo, yon qo'shnilarimiz bilan samarali hamkorlikni har tomonlama kuchaytiramiz.

Aziz yurtdoshlarim, qadrdonlarim!

2020-yil har bir oila, har qaysi xonadonga qut-baraka, baxt va omad olib kelsin!

Barcha ezgu maqsadlarimiz ro'yobga chiqsin!

Jonajon O'zbekistonimiz gullab-yashnasin!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

2019-yil 31-dekabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING
28 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI
KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Qadrli yurtdoshlar!

O‘z hayotini Vatanni himoya qilishdek eng ulug‘ va olijanob ishga bag‘ishlagan siz, azizlarni, butun xalqimizni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug‘ ayyomda barchamiz avvalo o‘z jangovar postida doimo hushyor va sergak turib, yurtimiz sarhadlarini ko‘z qorachig‘idek asrab kelayotgan mard va jasur, sodiq o‘g‘lonlarimizni, fidoyi ota-bobolarimizni, haqiqiy vatanparvar insonlarni sharaflab, ularning sha’niga eng ezgu tilaklarimizni izhor etamiz.

Ana shunday botir va jonkuyar farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan hurmatli ota-onalarga, harbiy xizmatchilarimizga o‘z muqaddas burchini ado etishda hamisha tog‘dek tayanch bo‘lib kelayotgan ularning oila a‘zolariga chuqur minnatdorchilik bildiramiz.

Armiyamizning kuch-qudrati harbiy xizmatchilar bilan butun jamiyatimizning birligi va hamjihatligida, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mana shunday buyuk ma‘naviy qudrat manbayi bor ekan, hech qanday yovuz kuch O‘zbekiston mustaqilligiga, tinch va osuda hayotimizga raxna sololmaydi, bizni demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan ortga qaytara olmaydi.

Muhtaram do'stlar!

Vatanimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch, erkin va farovon hayotining mustahkam kafolati bo'lgan O'zbekiston Qurolli Kuchlari o'tgan 28 yilda g'oyat murakkab va ayni paytda shonli shakllanish yo'lini bosib o'tdi.

Ayniqsa, keyingi yillarda olib borilayotgan tub islohotlar natijasida milliy armiyamiz har qanday xavf-xatarga munosib zarba bera oladigan qudratli, tezkor va samarali kuchga aylanib bormoqda.

Mintaqamizda ochiqlik va milliy manfaatlarni o'zaro hisobga olish tamoyillariga asoslangan yangi siyosatni amalga oshirish doirasida Qurolli Kuchlarimiz Markaziy Osiyoning barcha mamlakatlaridagi hamkasblari bilan yaqin sheriklik aloqalarini o'rnatdi va mustahkamlamoqda. So'nggi yillarda biz bir qator qo'shma o'quv mashg'ulotlarini birgalikda o'tkazdik. Shuningdek, yuqori darajadagi harbiy delegatsiyalarning tashriflarini tashkil etdik, tezkor va jangovar tayyorgarlik borasida tajriba almashdik.

Bizning tobora kuchayib borayotgan bunday hamkorligimiz bugungi kunda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni, Markaziy Osiyo deb atalmish umumiy uyimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda.

Dunyodagi eng yuksak standartlar darajasida tashkil etilgan uzluksiz harbiy ta'lim tizimi izchil rivojlanmoqda. Hozirgi paytda yangitdan tuzilgan, mohiyat e'tibori bilan noyob bo'lgan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti mamlakatimizning zamonaviy oliy ta'lim muassasalari qatoridan munosib joy egalladi.

Shu bilan birga, boshqaruvning tezkor-strategik bo'g'inida xizmat qiladigan ofitser kadrlarni tayyorlaydigan yangi fakultet tashkil etildi, Qurolli Kuchlar akademiyasida qo'shimcha ta'lim infratuzilmalari foydalanishga topshirildi. Maxsus vazifalarni bajaradigan bo'linmalar uchun harbiy xizmatchilar tayyorlaydigan o'quv markazini tashkil etish jarayoni nihoyasiga yetkazilmoqda. Milliy gvardiyaning Harbiy-texnik instituti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha katta ishlar olib borilmoqda.

Jangovar tayyorgarlikning modernizatsiya qilingan, moslashuvchan tizimini joriy etish bilan uyg'un holda, Qurolli Kuchlarning yangi tashkiliy tuzilmaga o'tkazilishi milliy armiyamizning jangovar tayyorgarligi va jangovar qobiliyatini bir necha barobar oshirdi.

Bugungi kunda bizning harbiylarimiz o'zlarining professional tayyorgarlik darajasi bo'yicha jahondagi yetakchi mamlakatlar armiyalarining harbiy xizmatchilaridan aslo qolishmasligini so'zda emas, amalda isbotlamoqda. Xalqaro harbiy o'quv musobaqalarida, armiyalar o'rtasidagi va sport bellashuvlarida O'zbekiston vakillari o'zlarining mahorati, ruhan baquvvatligi, g'alabaga bo'lgan irodasini namoyon etmoqda, buyuk ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini yaqqol ko'rsatmoqda.

Hech shubhasiz, bularning barchasi butun O'zbekiston xalqida, ayniqsa, yoshlarimizda milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, Vatan himoyachisidek sharafli kasbga hurmat-ehtirom hissini uyg'otmoqda.

Milliy armiyamizni qurol-yarog' va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlashga qodir bo'lgan mudofaa-sanoat kompleksimizni yanada rivojlantirish bo'yicha vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinmoqda.

Chirchiq aviatsiya ta'mirlash zavodi va jangovar o'q-dorilar ishlab chiqaradigan korxonaning modernizatsiya qilingani va texnik qayta jihozlangani bunga yaqqol misol bo'la oladi, ularda qayta tashkil etilgan ilmiy-texnik salohiyat esa mazkur tarmoqlarda ilmiy-ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirishning asosiga aylanib bormoqda.

Iqtisodiyotning to'laqonli mudofaa sektorini shakllantirish bo'yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz yaqin istiqbolda nafaqat milliy armiyamizni qurol-yarog' va texnika bilan ta'minlash, balki qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, shuningdek, mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish imkonini ham beradi.

Xalq va armiya o'rtasida ishonchli ko'priikka aylangan harbiy-ma'muriy sektorlar faoliyatida muayyan yutuqlar ko'zga tashlanmoqda. Ushbu sektorlar tashkil etilganidan buyon «Xalq

va armiya – bir tan-u bir jondir» degan shior ostida harbiy infratuzilmalarni modernizatsiya qilish va to'planib qolgan ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi.

Harbiy shaharchalar zamonaviy qiyofaga ega bo'ldi, moddiy ta'minot xizmatlari sohasiga outsorsing tizimi joriy etildi. O'tgan uch yil davomida **8 mingdan** ziyod harbiy xizmatchilar oilalarini qulay va shinam kvartiralar bilan ta'minlash uchun **275 ta** ko'pqavatli uy-joy barpo etildi, harbiy xizmatchilarning ayollari uchun qariyb **600 ta** yangi ish o'rni yaratildi, **1 ming 900 nafar** harbiy pensioner ishga joylashtirildi.

Armiyamiz unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik va ona yurtga muhabbat, milliy qadriyat va an'analarimizga hurmat, shonli tariximizni chuqur bilish ruhida tarbiyalash borasidagi ishlarga faol kirishganini alohida qayd etishni istardim. «Vatanparvar» va «Faxriylar» singari tashkilotlar, shuningdek, Mudofaa vazirligi qoshidagi Jamoatchilik kengashi yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni yanada kuchaytirish hamda ularda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bo'yicha g'oyat zarur bo'lgan ishlarni birgalikda davom ettiradi, deb ishonaman.

Shu o'rinda Qurolli Kuchlar faoliyati ustidan fuqarolik nazoratini kuchaytirish zarurligini ta'kidlamoqchiman. Bugungi kunda mamlakatimiz parlamenti o'zining kengaytirilgan vakolatlari doirasida «Mudofaa doktrinasi to'g'risida»gi qonun va mudofaa sohasidagi boshqa huquqiy hujjatlar ijrosini nazorat qilmoqda. O'tgan yili Oliy Majlis Senati tomonidan Qurolli Kuchlarning qurilishi va rivojlantirishi, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tashiga doir dolzarb masalalar yuzasidan harbiylashgan vazirlik va idoralar rahbarlarining ma'ruzalari bir necha bor eshitilganini ta'kidlash lozim.

Qadrli yurtdoshlar!

Jahondagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani bizdan xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tomonlama tahlil va prognoz qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi

va barqarorligini ta'minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko'rishni talab etmoqda.

Davlat chegaralarini qo'riqlash va himoya qilish tizimini yanada mustahkamlash, qo'shinlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, jangovar tayyorgarlikni tashkil etish samaradorligini oshirish, Qurolli Kuchlarni eng yangi qurol-yarog' va texnikalar bilan ta'minlash, mamlakatimiz mudofaa-sanoat kompleksini rivojlantirish bo'yicha faol olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonlariga ilg'or xorijiy tajribalarni, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga, shuningdek, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari hamda Qurolli Kuchlar faxriylarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilishga bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz.

Hurmatli do'stlar!

Vatanimizning mard va jasur himoyachilari!

Ushbu qutlug' bayram kunlarida hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan G'alabaning 75 yilligini nishonlash arafasida o'z hayoti evaziga dunyo xalqlarining ozodligi va erkinligini saqlab qolishga erishgan g'olib ajdodlarimizga yuksak hurmat va e'tibor ko'rsatish qanchalik muhim ekanini barchamiz har qachongidan ham chuqur his etib, bu borada katta amaliy ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Siz, hurmatli harbiy xizmatchilarga – askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylariga Vatanimizga sidqidildan xizmat qilishdek sharaflı vazifani ado etishda mustahkam sog'lik, ulkan muvaffaqiyatlar, kuch-g'ayrat, oilalaringizga esa yangi – 2020-yilda fayz-baraka va baxt-saodat yor bo'lishini tilayman.

2020-yil 14-yanvar

«YANGI O‘ZBEKISTON» GAZETASI JAMOASIGA

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda mamlakatimizdagi barcha jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari xodimlarini «Yangi O‘zbekiston» gazetasining ilk soni bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu ijtimoiy-siyosiy nashr o‘z oldiga qanchalik ulkan maqsad va rejalar qo‘ygani uning nomidan ham yaqqol ko‘rinib turibdi.

Haqiqatan ham, bugun O‘zbekiston o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi, yanada yuksak bosqichiga qadam qo‘ymoqda.

Harakatlar strategiyasi asosida davlat va jamiyat qurilishini tubdan takomillashtirish, oshkoralik, qonun va adolat ustuvorligini ta‘minlash, iqtisodiyotni liberallashtirish, ijtimoiy sohani har tomonlama rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, shuningdek, o‘zaro manfaatli, ochiq va amaliy sheriklik ruhidagi tashqi siyosat olib borish kabi yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan salmoqli ishlarimiz, mohiyat e‘tibori bilan Vatanimizning butunlay yangicha qiyofasini yaratishga xizmat qilayotgani barchamizga yaxshi ma‘lum.

Ana shunday ulug‘vor va tarixiy o‘zgarishlarning o‘ziga xos ko‘zgusi bo‘lib maydonga chiqayotgan gazeta yurtimizdagi demokratik islohotlar, hududlardagi beqiyos bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlarining ahamiyati hamda natijalarini xolis va haqqoniy yoritishga, aholi vakillari va jamoatchilik fikrini shakllantirishga, mavjud muammo va kamchiliklarni tahliliy materiallar orqali dadil ko‘tarib chiqib, axborot makonida munosib o‘rin egallashiga ishonchim komil.

Globalashuv va mafkuraviy kurashlar shiddatli ko‘rinish olgan hozirgi murakkab davrda yangi shakl va mazmunda chop etila

boshlagan «Yangi O‘zbekiston» gazetasi sahifalaridan har bir vatandoshimiz eng zarur ma’lumotlarni olishi, shu bilan birga, o‘zini o‘ylantirayotgan savollarga to‘liq javob topishi, bugungi zamon nafasini chuqur his etishi ko‘zlagan maqsadlarimizga hamohang bo‘lur edi.

Buning uchun tahririyat jamoasi hayotdan doimo bir qadam oldinda yurishi, respublikamizda va xalqaro maydonda ro‘y berayotgan eng dolzarb voqea va mavzularni zamonaviy ijodiy uslub va ilg‘or yondashuvlar orqali o‘z mushtariylariga tezkor tarzda yetkaza olishi, bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning chinakam ma’naviy-ma’rifiy hamrohiga aylanishi zarur.

Ana shunday mas’uliyatli va zalvorli vazifani sidqidildan va fidoyilik bilan ado etishda «Yangi O‘zbekiston» gazetasi o‘z nomiga munosib hamda milliy matbuotimiz uchun o‘mak va namuna bo‘ladi, deb qat’iy ishonaman.

Jamiyatimizda fikr va qarashlar rang-barangligi, so‘z va axborot erkinligini ta’minlash, ma’naviyat va ma’rifat targ‘iboti borasidagi g‘oyatda sharafli yo‘lda tahririyat jamoasiga ulkan muvaffaqiyatlar va ijodiy faollik doimo yor bo‘lishini tilab qolaman.

2020-yil 24-yanvar

MUNIS ONALARIMIZ, MEHRIBON OPA-SINGILLARIMIZ – HAYOTIMIZ GULTOJI

Assalomu alaykum, muhtarama onaxonlar!

Munis opa-singillar!

Dilbar qizlarim!

Avvalo, sizlarni, butun O‘zbekiston xotin-qizlarini go‘zallik va nafosat ayyomi – 8-mart bayrami bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Barchangizga o‘zimning eng ezgu va samimiy tilaklarimni bildirib, doimo oilangiz va yaqinlaringiz, el-yurtimiz ardog‘ida bo‘lish baxtini tilayman.

Aziz yurtdoshlar!

Yer yuzida ongli hayot paydo bo‘libdiki, odamzod muqaddas Ona siymosini, ayol zotini ulug‘lab, sharaflab keladi.

Onalarimiz sharofati bilan Vatanimiz tuprog‘i jannat bog‘laridek go‘zal va mo‘tabardir. Onalar duosidan yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, ishimizda unum, hayotimizda baraka bor.

Ma‘lumki, muqaddas Qur‘oni karimning eng katta suralaridan biri – «Niso», ya‘ni, «Ayollar» deb ataladi. Alloh taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo‘lishga da‘vat etadi va bu ilohiy so‘zlar zamirida albatta teran hikmat mujassam.

Bir haqiqat ayonki, har qanday xalqning ma‘naviy darajasini avvalo shu yurt ayollarining ma‘naviy saviyasi belgilaydi.

Buyuk siymolarning hayotiga nazar tashlasak, ularning shaxs sifatida kamol topishida mehribon onalari, dono rafiqalari g‘oyat muhim rol o‘ynagani ayon bo‘ladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni

himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlari yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Bugun siz, azizlarning chehrangizda xursandchilik, shukronalik ifodasini ko'rib, ana shunday ishlarimiz natijasini oz bo'lsa-da, his etmoqdamiz. Va biz mana shu to'g'ri yo'lni davom ettirish, uning samarasini yanada oshirish uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Qadrli opa-singillar!

Bugungi kunda keng ko'lamli demokratik islohotlarimiz natijasida ayollarimizning siyosiy-ijtimoiy jarayonlardagi ishtiroki tobora kuchayib bormoqda. Buni o'tgan yil dekabr oyida mamlakatimiz parlamenti va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tgan saylovlar yana bir bor tasdiqladi.

Saylovlar natijasiga ko'ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Senatda va mahalliy kengashlarda 25 foizdan oshdi.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti ayol deputatlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi. Holbuki, – shunga e'tibor berishingizni so'rayman – bundan 5 yil avval biz bu borada 128-o'rinda edik.

Hozirgi vaqtda davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 ming 380 nafardan ziyod xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda.

Muhtarama ayollarimizdan 16 nafari Vatanimizning eng oliy mukofoti – «O'zbekiston Qahramoni» unvoniga sazovor bo'lgani barchamizni quvontiradi. Xotin-qizlarimiz o'rtasida fan doktorlari, professor va akademiklar, «Xalq o'qituvchisi», «Xalq shoiri», «Xalq artisti» unvonlariga sazovor bo'lgan yuzlab opa-singillarimiz borligi – bu bizning faxrimiz.

Biz hozirgi kunda ishlab chiqarish, ta'lim-tarbiya, tibbiyot, ilm-fan, madaniyat va sport sohalari rivojida ham ayollarimizning munosib hissasi borligini yuksak baholaymiz.

Barchangiz xabardorsiz, milliy parlamentimiz tarixida birinchi marta ayol kishi – hurmatli Tanzila Kamalovna Narbayeva Senat Raisi lavozimiga saylandi.

Yurtimizda ayol rahbarlar – vazirlar, hokimlar, ishlab chiqarish birlashmalari, bank va kompaniyalar raislari, huquq-tartibot idoralarida, Qurolli Kuchlarimiz tarkibida mas'ul vazifalarda xizmat qilayotgan opa-singillarimiz soni ortib bormoqda.

Yaqinda tashabbuskor va tashkilotchi ayollarimizning munosib vakillari g'oyat mas'uliyatli vazifaga – tuman va shahar hokimi lavozimlariga tayinlandilar. Jumladan, Andijon viloyatining Bo'ston tumaniga – Sadbarxon Mamitova, Buxoro viloyatining Olot tumaniga – Nargiza Ne'matova, Namangan viloyatining To'raqo'rg'on tumaniga – Zulayho Mahkamova, Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahriga – Gavhar Alimova, Sirdaryo viloyatining Boyovut tumaniga – Dilfuza O'rolova, Qashqadaryo viloyatining Qarshi tumaniga – Mahsuda Mustafoyeva birinchi rahbar etib tasdiqlandilar.

El-yurtimizning katta ishonchini qozongan bu opa-singillarimiz bugungi anjumanda ishtirok etmoqdalar. Ularning barchasini samimiy tabriklab, ishlariga yutuq va omadlar tilashga ijozat bergaysiz.

Mamlakatimizda o'z faoliyati, ezgu ishlari bilan ko'pchilikka ibrat va namuna bo'layotgan xotin-qizlarimiz ko'payib borayotgani barchamizni xursand qiladi. Shular qatorida Farg'ona viloyati, Rishton shahrida yashaydigan tadbirkor ayol Izrabu Usmonova haj ziyoratiga atab yillar davomida yig'ib kelgan mablag'ini moddiy sharoiti og'ir mahalladoshlariga beg'araz yordam sifatida hadya qilgani matbuotda keng yoritildi.

Sirdaryo viloyati, Sayhunobod tumani, «O'zbekiston» mahallasida Gavhar Husanova degan faol singlimiz bor. Ayni vaqtda u tuman kengashining deputati etib saylangan. Gavharning

qaynonasi Gulbahor aya o'qituvchilik faoliyati davomida minglab kitoblar to'plagan ekan. Gavhar Husanova ularning yoniga yana ko'p adabiyotlarni qo'shib, qishloq ahli uchun o'z hisobidan «Mumtoz» deb nomlangan katta kutubxona barpo etgani tahsinga loyiq.

Yaqinda ommaviy axborot vositalari orqali iste'dodli yosh olimi Aziza Shonazarovanning Amerika Qo'shma Shtatlaridagi nufuzli Kolumbiya universitetining professori etib tayinlangani haqida xushxabar tarqaldi.

Poytaxtimizning Qoraqamish dahasida voyaga yetib, Toshkent sharqshunoslik institutida, keyinchalik Polsha va AQSHdagi mashhur universitetlarda ta'lim olgan Azizaxon 32 yoshida tarix va dinshunoslik yo'nalishida fan doktori bo'lgani, 500 ta talabgor orasida konkursda g'olib chiqib, ana shunday yuksak ilmiy darajaga erishgani olqishga sazovordir.

Bu singlimizning ayni vaqtda yaxshi oila bekasi va ona ekani, arab, fors, turk, rus, ingliz, fransuz, nemis, polyak tillarida erkin muloqot qilishi, erishayotgan yuksak natijalari mamlakatimiz yoshlari uchun chinakam ibrat namunasi bo'ladi, deb ishonaman.

Azizaxon o'z xursandchiligini yurtdoshlari bilan baham ko'rish uchun olis yo'l bosib, AQSHdan O'zbekistonga yetib keldi. Kelinglar, yosh olimamizni samimiy tabriklab, unga yanada ulkan yutuqlar tilaylik.

Ayni vaqtda bugungi tantanali marosimda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan Xitoy Xalq Respublikasining Favqulodda va Muxtor elchisi Szyan Yan, Misr Arab Respublikasining Favqulodda va Muxtor elchisi Amani al-Itr, Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi doimiy koordinatori Xelena Freyzer va Taraqqiyot dasturining doimiy vakili Matilda Dimovska, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti vakolatxonasining rahbari Lian Kuppens, Xalqaro Qizil xoch qo'mitasining mintaqaviy vakolatxonasi rahbari Sangita Kyonig, Osiyo taraqqiyot bankining doimiy vakolatxonasi rahbari Sintiya Malvichini xonimlarni ko'rib turganimizdan benihoya mamnunmiz.

Mamlakatimiz bilan samarali hamkorlikni rivojlantirishga munosib hissa qo'shayotgan ana shu hurmatli mehmonlarimizni Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan tabriklab, ezgu tilaklarimizni bildirishga ruxsat bergaysiz.

Qadrli anjuman qatnashchilari!

Yurtimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning og'irini yengil qilish maqsadida o'tgan yili salmoqli ishlar bajarildi. Jumladan, ayollarimiz uchun jami 170 mingga yaqin ish o'rni yaratildi. Tijorat banklari va Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lari hisobidan 172 mingdan ortiq opa-singillarimizga 4,9 trillion so'm kreditlar ajratildi.

Respublikamizning barcha hududlarida Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari tashkil etildi. Bugungi kunda ular tomonidan 28 mingga yaqin opa-singillarimizga tadbirkorlik, hunarmandlik, kasbga qayta tayyorlash, bandlikni ta'minlash yuzasidan amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Shuningdek, besh muhim tashabbus doirasida 21 ming 500 nafar qizlarimiz qisqa muddatli kasb-hunar kurslarida o'qitildi.

Ana shunday imkoniyatlar tufayli tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ygan ayollar soni bir yilda qariyb 45 ming nafarga ko'payib, ular tomonidan minglab yangi ish o'rinlari barpo etilmoqda.

Mamlakatimizda jamiyat negizi bo'lgan oila institutini, ijtimoiy-ma'naviy muhitni mustahkamlash bo'yicha ham e'tiborga loyiq ishlar olib borilmoqda. Jumladan, xonadonlardagi o'zaro kelishmovchilik va nizolarni bartaraf etish, oilaviy ajrimlar sonini kamaytirish bo'yicha davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan keng qamrovli ishlar bajarilmoqda. Ularni ijobiy baholagan holda, bu yutuqlar birinchi qadamlar ekanini, hali bu sohada qiladigan ishlarimiz juda ko'pligini ham ta'kidlash lozim.

Albatta, hayot degan narsa sinov va mashaqqatlarsiz bo'lmaydi. Lekin arzimagan qiyinchilikka ham sabr qilmasdan, muqaddas oila qo'rg'onini buzish, ajrimlarga yo'l qo'yishni barchamiz milliy urf-odatlarimizga, mehr-oqibatli, andishali xalqimizga mutlaqo

yarashmaydigan holat, deb baholashimiz zarur. Nega deganda, agarki bironta oilada notinch vaziyat hukmron bo'lsa, o'zaro nizolar tufayli begunoh bolalar tirik yetimga aylanadigan bo'lsa, yordam va ko'makka muhtoj insonlar o'z holiga tashlab qo'yilsa, bunday holatga qarshi hammamiz birgalikda kurashishimiz kerak.

Hozirgi vaqtda ayollarga sifatli tibbiy yordam ko'rsatish, ularning salomatligini mustahkamlashga doir dasturlarimiz o'zining dastlabki samarasini bera boshladi. Xususan, onalik va bolalikni himoya qilishga qaratilgan ishlar tufayli 2019-yilda onalar va go'daklar o'limi sezilarli ravishda kamaygani ham shundan dalolat beradi.

Xotin-qizlarning murojaatlari bilan ishlash bo'yicha ham muntazam ish olib borilmoqda. Shu maqsadda 2019-yili 141 ming 500 dan ortiq opa-singillarimiz turli mas'ul idoralar xodimlari tomonidan qabul qilinib, ular ko'targan muammolarning aksariyat qismi ijobiy hal etilganini aytish zarur.

O'tgan davrda yurtimizdagi 197 ta tumanda zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Bugungi kunda bilib-bilmay jinoyat ko'chasiga kirib qolgan ayollarga nisbatan kechirimli bo'lish, ularni sog'lom hayotga qaytarishda xotin-qizlar tashkilotlari faol ishtirok etmoqda. Buning natijasida 261 nafar xotin-qizlar ushbu tashkilotlarning kafilligi asosida sud zalidan ozod qilingani xalqimizga xos insonparvarlik namunasidir.

Ana shunday xayrli ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida men kuni kecha Xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan yana bir muhim tarixiy farmonga imzo chekdim. Ushbu hujjatga muvofiq, ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 83 nafar xotin-qizlar afv etildi. Ular bayram arafasida o'z oilasi, yaqinlari, farzandlari bag'riga qaytish imkoniga ega bo'ldi.

Ana shu afv etilgan ayollarning ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari, sog'lom turmush kechirib, jamiyatda

munosib o‘rin topishlari uchun ularga ko‘mak berish bo‘yicha mas‘ul idoralar tomonidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda barcha davlat va nodavlat tashkilotlari, keng jamoatchilik ham faol ishtirok etadi, deb ishonaman.

Muhtaram yurtdoshlar!

Barchangizga ma‘lumki, yanvar oyida Oliy Majlisga yo‘llangan Murojaatnomada xalqimiz, jumladan, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini yanada samarali ta‘minlash bo‘yicha ko‘pgina dolzarb vazifalarni belgilab oldik. Hozirgi vaqtda ularni amalga oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlashga oid davlat siyosati samarasini oshirish bo‘yicha Prezidentning maxsus farmoni va qarori qabul qilinganidan xabaringiz bor.

Oila, xotin-qizlar va keksalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikni kuchaytirish maqsadida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi.

Hech kimga sir emas, ilgari mahalla va xotin-qizlar idoralariga nisbatan talablar ko‘p edi. Lekin, afsuski, buning uchun ularda imkoniyat va vakolatlar yetarli emas edi.

Bugungi kunda xotin-qizlar manfaatlarini oila, mahalla va jamiyat manfaatlaridan ajratgan holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Ana shu masalalarni kompleks hal etish, bu borada davlat siyosatini yanada yuqori bosqichga ko‘tarish – yangi vazirlikning asosiy vazifasi etib belgilandi.

Mahallalarning mamlakatimiz hayotidagi katta o‘rni va ahamiyatini e‘tiborga olib, **22-mart sanasini yurtimizda – Mahalla tizimi xodimlari kuni** deb e‘lon qildik. Nasib etsa, bu yangi bayramni birinchi bor shu yil Navro‘z kunlarida sizlar bilan birgalikda keng nishonlaymiz.

Qadrli do‘stlar!

Har bir ota-ona o‘z farzandining sog‘lom va barkamol bo‘lib, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini o‘rganib, jamiyatda munosib o‘rin egallashini astoydil istaydi. Ayni shu ezgu maqsadlarga erishish uchun mamlakatimiz ta‘lim va tarbiya tizimida misli ko‘rilmagan

islohotlar amalga oshirilayotgani sizlarga yaxshi ma'lum. Jumladan, joriy yilda ta'lim-tarbiyaning poydevori bo'lgan bolalar bog'chalari sonini keskin oshirish bo'yicha keng qamrovli amaliy ishlar olib borilmoqda.

Qiyoslash uchun bir misolga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Agar o'tgan yilning birinchi choragida yurtimizda jami 9 ming 700 tadan ortiq bog'cha bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ularning soni 14 ming 50 tani tashkil etmoqda, ya'ni bir yilda 4 ming 350 taga ortdi.

Ana shunday sa'y-harakatlarimiz bilan bu yil bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasini hozirgi 54 foizdan 60 foizga yetkazamiz. Natijada bog'cha tarbiyasini olayotgan farzandlarimizning soni bir yilda 400 mingtaga ko'payib, jami 1 million 800 ming nafarga yetadi.

Bu sohada biz albatta katta ish qildik. Ammo bu raqamlar hali bizni qoniqtirmaydi. Nega deganda, biz bu masalada marrani baland olganmiz. Buning zamirida juda katta ma'no, maqsad bor. Chunki bog'cha tarbiyasi nafaqat bolaning o'ziga, balki uning ota-onasiga ham, qolaversa, butun jamiyat hayotiga ham kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolasi bog'chada, munosib sharoitda tarbiya topayotganini ko'rgan ayol kishi albatta xotirjam kayfiyatda, shukronalik bilan yashaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda maktab ta'limini rivojlantirish umumxalq harakatiga aylanib bormoqda. Shu kunlarda «**Zamonaviy maktab**» dasturi ishlab chiqilmoqda. Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash bo'yicha ham katta ishlarni boshladik.

Bu borada biz ta'limning barcha bosqichlarida qiz bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Buyuk allomalarimiz, atoqli adiblarimiz nomlaridagi maktablar, Prezident maktablari barcha yoshlarimiz qatori ilm-fan va san'atga intiluvchi qizlarimiz uchun ham keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

Albatta, yosh qizlarimizni asrab-avaylash, ularga to'g'ri tarbiya berish, mustaqil hayotga tayyorlash, xalqimizga munosib farzandlar etib kamolga yetkazish uchun davlat va jamiyat o'z zimmasidagi

barcha ishlarni bajaradi. Lekin bu o'ta muhim vazifani ado etishda oilaning, mehribon buvilarimiz, munis onalarimiz, mahalladagi kayvoni ayollarning o'rni va ta'sirini hech kim bosolmaydi.

Shu o'rinda ruxsatingiz bilan, mashhur shoirimiz Muhammad Yusufning ikki qator she'rini o'qib bermoqchiman:

**Qiz bor uyning fayzi bo'lak, deydilar,
Jannat yo'li – qiz bor yo'lak, deydilar.**

Qarang, qanday ma'noli, qanday haqqoniy so'zlar!

Shu munosabat bilan bugungi davramizda ishtirok etayotgan va meni eshitib turgan muhtarama opa-singillarimizga murojaat qilib aytmoqchiman: kelajagimizning baxt-u iqboli bo'lgan qizlarimizni eng go'zal fazilatlar, bilim va odob sohibalari etib tarbiyalashni o'z e'tiboringizga, o'z mas'uliyatingizga olsangiz, davlatimiz ham, xalqimiz ham sizlardan cheksiz minnatdor bo'ladi.

Bu borada yangi tashkil etilgan Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, ko'pni ko'rgan nuroniylarimiz, xotin-qizlar faollari, hurmatli muallima va murabbiyalar, O'zbekistonning barcha jonkuyar ayollari ushbu tashabbusni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, yosh qizlarimizga munosib ta'lim va tarbiya berishdek g'oyat mashaqqatli, ammo olijanob va savobli ishga ulkan hissalarini qo'shadilar, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, men bugun bir taklif bilan Sizlarga murojaat qilmoqchiman: mana shu ezgu ishlarimizga kamarbasta bo'lib, yosh qizlarimizga ustozlik qilib, ularga ta'lim-tarbiya beradigan haqiqiy murabbiylarni rag'batlantirish maqsadida kelgusi yil 8-mart bayramidan boshlab har yili Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan ikki nafardan eng munosib vakilni davlat mukofoti bilan taqdirlashni taklif etaman.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Ta'lim-tarbiya masalasida ko'p yillar bizni qiynab kelgan og'ir muammolardan biri – bu oliy o'quv yurtlariga qabul kvotalarining cheklangani bilan bog'liq edi. Masalan, 2–3 yil avval oliy ta'lim

muassasalariga qabul darajasi yiliga 60–70 ming kishini, boshqacha aytganda, maktab bitiruvchilarining atigi 9 foizini tashkil etar edi.

Shuning uchun bu sohada ham jiddiy islohotlarni boshladik. O'tgan yili tariximizda birinchi marta 150 ming nafar yoshlarimiz talabalikka qabul qilindi. Shu tariqa maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 20 foizga yetkazdik.

Albatta, bu ishlar osonlik bilan bo'layotgani yo'q. Buning uchun mavjud moddiy-texnik, o'quv-uslubiy bazani mustahkamlash, oliy o'quv yurtlari tarmog'ini kengaytirish, professor-o'qituvchilar, pedagoglar, ilmiy xodimlarning professional malakasini oshirish uchun katta kuch, mablag' va imkoniyatlarni safarbar etishga to'g'ri kelmoqda. Lekin qanchalik qiyin bo'lmasin, farzandlarimiz taqdiri uchun, kelajagimiz uchun biz bu ishlar ko'lamini yanada kengaytirgan holda, albatta amalga oshiramiz. Oliy ta'limga qamrov ko'rsatkichini joriy yilda kamida 25 foizga, kelgusida esa 50–60 foizga yetkazamiz.

Ayollarning ilmiy va madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida bu yil qizlarimiz uchun oliy o'quv yurtlariga alohida qabul kvotalari joriy etiladi. Buyam tariximizda birinchi marta qo'llanayotgan tajribadir. Chunki o'qimishli, oliy ma'lumotli ayol oilada ham, ishda ham, jamiyat hayotida ham hamma narsaga ilm-ma'rifat bilan, ongli va faol yondashadi va munosib ishtirok etadi.

Binobarin, agar biz farzandlarimizni sog'lom va barkamol, Vatanga sodiq insonlar etib voyaga yetkazish niyatida ekanmiz, avvalo xotin-qizlar uchun ilm-fan va kasb-hunar yo'llarini keng ochib berishimiz kerak.

Agar biz bo'lg'usi xorazmiylar, farg'oniylar, beruniylar, buxoriylar, ulug'beklar, navoiylarni tarbiyalamoqchi ekanmiz, birinchi navbatda, har tomonlama sog'lom, yuksak bilimli va ma'naviyatli onalarni tarbiyalashimiz zarur.

Biz joriy yilga yurtimizda **Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili**, deb nom berdik, bu borada Davlat dasturini qabul qildik. Ana shu dasturni ishlab chiqishda biz avvalo hurmatli onalarimiz, opa-singillarimizning orzu-istaklari, talab va

ehtiyojlarini ham inobatga oldik. Bu borada o'z oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda ham, butun xalqimiz qatori, siz, azizlarning boy bilim va tajribangiz, madaniy va ma'rifiy salohiyatingizga tayanamiz.

Ayollarimiz hayotiy muammolarni, oila va mahalladagi o'tkir masalalarni, ularni bartaraf etish yo'llarini, jamiyatning tomir urishini boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladilar. Ular o'zlarining mehribonligi, yuksak mas'uliyat tuyg'usi, mehnatsevarligi bilan barchaga o'mak bo'la oladilar.

Biz davlat va jamiyat boshqaruvida, vazirlik va idoralarda chuqur bilim va malakaga ega bo'lgan tashabbuskor opa-singillarimizga rahbarlik lavozimlarini ishonib topshirish bo'yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettiramiz.

Bu masala shaxsan Prezidentning nazoratida bo'ladi.

Muhtarama opa-singillar!

Xabaringiz bor, mamlakatimizda kambag'allikni qisqartirish ustuvor vazifa etib belgilandi va bu yo'nalishda keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirishni boshladik.

Bir haqiqatni aniq tushunib olishimiz kerak: kambag'allikni qisqartirish uchun birinchi navbatda ishsizlikni kamaytirish kerak. Avvalo, aholini zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, ularning iqtisodiy va moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda, ayniqsa ayollarimizda tadbirkorlikka ishtiyoqni uyg'otish zarur.

Biz bu borada jahon hamjamiyati tajribasini atro xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'ymoqdamiz. Ayni vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa davlatlar bilan tadbirkorlik va xususiy biznesni rivojlantirish, kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha shu yilning o'zida 700 million dollarlik dasturlarni amalga oshirishni ko'zda tutmoqdamiz.

Shu kunlarda O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi boshchiligida tuzilgan respublika ishchi guruhi viloyatlarda bo'lib, turmush sharoiti og'ir bo'lgan xotin-qizlarning ahvolini har bir hudud bo'yicha aniq tahlil qilib, ularga amaliy ko'mak bermoqda.

Ishchi guruh tomonidan qishloq joylarda yashayotgan ayollarning, mustaqil hayotga kirayotgan qizlarimizning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya qilish, ularga har tomonlama yordam berish bo'yicha har bir mahalla kesimida dasturlar ishlab chiqilib, ijrosi tashkil etilmoqda.

Ishchi guruhning kun-u tun uzluksiz ishlaydigan, xotin-qizlarning murojaatlarini qabul qiladigan «Ishonch telefonlari» yoki zamonaviy tilda aytganda, «Koll-sentr» faoliyati yo'lga qo'yildi.

Endi mamlakatimizning istalgan shahar yoki qishlog'idan, chekka ovullardan ham ayollarimiz 1211 qisqa raqamini terib, ushbu markazga bevosita murojaat qilish imkoniga ega bo'ldilar. Biz buni xalq bilan samarali muloqot olib borish yo'lidagi boshlagan ishlarimizning mantiqiy davomi, deb baholaymiz.

Hurmatli vatandoshlar!

Ma'lumki, yurtimizda xotin-qizlarning qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularning mehnatini munosib qadrlashga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, har yili mamlakatimiz bo'yicha 28 nafar iste'dodli qizlarimiz ulug' shoiramiz Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlanadi.

Hozirgi vaqtda ushbu mukofotga sazovor bo'lganlar soni 311 nafarga yetdi. Bu yil ularning safiga yana 28 nafar o'z sohasining eng iqtidorli vakillari bo'lgan aziz farzandlarimiz qo'shilmoqda. Ular o'zlarining samarali mehnati, yorqin iste'dodi, ibratli fazilatlarini bilan barcha tengdoshlariga o'rnak bo'ladilar, deb ishonaman.

Shu kunlarda onalik va bolalikni himoya qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha namunali faoliyat olib borayotgan hurmatli opa-singillarimizdan 287 nafari «Mo'tabar ayol» nishoni bilan taqdirlandilar.

Fursatdan foydalanib, ularning barchasini bunday e'tirof bilan samimiy tabriklashga ijozat bergaysiz.

Ushbu qutlug' ayyom arafasida Prezident Farmoniga muvofiq Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi, sog'lom va barkamol avlod tarbiyasi, oila va jamiyat asoslarini mustahkamlash yo'lidagi munosib

xizmatlari uchun bir guruh qadrli ayollarimiz yuksak unvon, orden va medallar bilan mukofotlandilar.

Bugun sizlarning huzuringizda ana shunday opa-singillarimizning munosib vakillariga hamda Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo'lgan qizlarimizga davlatimizning yuksak mukofotlarini topshirish menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

Qadrli anjuman ishtirokchilari!

Hayotimizning fayz-u farishtasi bo'lgan munis onalarimiz, mehribon opa-singillarimizga munosib mehnat va turmush sharoitini yaratib berish, ularni rozi qilish – barcha darajadagi rahbarlarning nafaqat xizmat vazifasi, balki, eng avvalo, insoniy burchidir.

Biz hammamiz – Prezident, Hukumat rahbarlari, vazirlar va hokimlar, deputat va senatorlar – barcha-barcha yetakchilar ana shunday yuksak burchni aniq natijalar, amaliy ishlar bilan oqlashimiz zarur.

Aziz opa-singillar!

Ushbu shukuhli ayyomda butun xalqimiz dilidagi ezgu tilaklarni mujassam qilib, aytmoqchiman: yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi fidokorona mehnatingiz uchun Sizlardan cheksiz minnatdormiz.

Aql-zakovatingiz, mehr-oqibatingiz, sabr-u qanoatingiz bilan barchamizga ibrat bo'lib, go'zal yurtimizda tinchlik va hamjihatlikni saqlashga beqiyos hissa qo'shib kelayotganingiz uchun Sizlarga ming bora tashakkur.

Sizlarni go'zal bayramingiz bilan yana bir marta tabriklab, barchangizga tinchlik-xotirjamlik, mustahkam salomatlik tilayman.

Dunyodagi eng ulug' saodat – oilaviy baxt Sizlarga doimo yor bo'lsin!

E'tiboringiz uchun rahmat.

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq

2020-yil 7-mart

O'ZBEKISTON XALQIGA NAVRO'Z TABRIGI

Aziz vatandoshlar!

Muhtaram otaxon va onaxonlar, munis opa-singillar, qadrli aka-
ukalar!

Xalqimizning kelajagi, ishonchi va tayanchi bo'lgan navqiron
yoshlar!

Avvalambor, barchangizni, ko'pmillatli butun xalqimizni jonajon
O'zbekistonimizga kirib kelgan Navro'zi olam bilan chin qalbimdan
samimiy tabriklab, yuksak hurmat va ehtiromimni, eng ezgu
tilaklarimni izhor etaman.

Hurmatli do'stlar!

Hammamiz yaxshi bilamiz, Navro'z **tinchlikni, sihat-
salomatlikni qadrlab, asrab-avaylab yashashga da'vat etadi.**

**Tinchlik va sog'liqni asrasak, qolgan narsalarga albatta
erishamiz.**

Lekin hozirgi global dunyoda bu juda murakkab vazifa bo'lib
qolayotganini barchamiz ko'rib-bilib turibmiz.

«Yil yilga o'xshamaydi», degan gap bejiz aytilmagan. Hayot hech
qachon bir tekis kechmaydi. Hayot bor ekan, sinov bor, qiyinchilik
bor.

Bu haqiqatni shu kunlarda yanada chuqur his etmoqdamiz.
Bugun koronavirus infeksiyasi degan jiddiy bir xavfga duch keldik.
Davlatimiz, hukumatimiz bu xatarni tezroq bartaraf etish uchun
barcha zarur choralarni ko'rmoqda.

Go'zal diyorumizda yashayotgan, millati, tili va dinidan qat'i nazar,
barcha yurtdoshlarimiz yanada jiplashib, har tomonlama tartib-
intizomni saqlagan holda, yuksak onglilik va mas'uliyat ko'rsatib,

mo'tabar keksalarimizning duoyi fotihalari bilan bu sinovdan eson-omon o'tamiz, deb ishonaman.

Vujudga kelgan murakkab sharoitni hisobga olib, bu yilgi Navro'z bayramida ommaviy tadbirlar o'tkazishni to'xtatdik.

Fursatdan foydalanib, vaziyatni to'g'ri tushunib, ko'rilayotgan chora-tadbirlarni qo'llab-quvvatlayotgani uchun xalqimizga yana bir bor rahmat aytaman.

Nasib etsa, tez orada bu tashvishli kunlar ortda qoladi. Bunday sayil-tomoshalarni, to'y-u tantanalarni el-yurtimiz bilan birgalikda hali ko'p-ko'p o'tkazamiz.

Aziz va qadrlı vatandoshlarim!

Mavjud qiyinchilik va sinovlarga qaramasdan, hayot davom etadi. Bu yil Navro'z ayyomi xonadonlarda, oilaviy davralarda keng nishonlanmoqda.

Bugun mirishkor dehqon va fermerlarimiz katta umid bilan yerga urug' qadamoqda. Hudud va mintaqalarimizda **«Daraxt ekib, bog' yaratamiz, yurtimizni yanada obod qilamiz»**, degan ezgu maqsadda millionlab ko'chatlar ekilmoqda.

Mana shu xosiyatli kunda barchamiz yilimiz qutlug' kelsin, dehqonlarimizning baxtini, omadini bersin, hosilimiz mo'l bo'lsin, deb niyat qilamiz.

Uzoq-yaqindagi mamlakatlar xalqlarini, O'zbekistonning barcha xorijiy do'st va hamkorlarini sharqona yangi yil – Navro'z ayyomi bilan qutlab, ularga samimiy istaklarimizni izhor etamiz.

Aziz va qadrlı vatandoshlarim!

Ilohim, dilimizdagi barcha olijanob orzu-intilishlarimiz ro'yobga chiqsin!

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Yaratganning o'zi hammamizni panohida asrasin!

Navro'zi olam barchamizga muborak bo'lsin!

2020-yil 21-mart

**BUYUK G'ALABANING 75 YILLIGI HAMDA
XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA
BAG'ISHLANGAN TANTANALI
MAROSIMDAGI NUTQ**

Assalomu alaykum, qadrlı vatandoshlar!

Muhtaram urush va mehnat faxriylari!

Avvalo, Vatanimizning haqiqiy qahramonlari bo'lgan siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda ko'pmillatli butun xalqimizni Ikkinchi jahon urushida erishilgan buyuk G'alabaning 75 yillik shonli bayrami hamda Xotira va qadrlash kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Hurmatli do'stlar!

Barchangiz xabardorsiz, sizlar bilan birga bundan roppa-rosa bir yil muqaddam azim poytaxtimiz Toshkent shahrida muhtasham G'alaba bog'ini barpo etishga qaror qilgan edik. Ushbu qarorimiz zamirida O'zbekiston xalqining jang maydonlarida va front ortida ko'rsatgan beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash, yosh avlodimizni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadi mujassam ekani sizlarga yaxshi ma'lum.

Xudoga ming bor shukurki, el-yurtimiz dilidagi ana shu ezgu niyat ijobat bo'lib, ulug' ayyom kunlarida urush va mehnat faxriylari bilan G'alaba bog'ida va «oynayi jahon» orqali diydor ko'rishib turibmiz.

Buyuk G'alabaning 75 yilligi sharafiga bunyod etilgan bu betakror majmua qahramon xalqimizga munosib bo'lib, ham me'moriy jihatdan, ham tarixiy-ma'naviy jihatdan g'oyat noyob va mahobatli obida bo'lib qad rostladi.

Mana shu ulkan maydonda qisqa muddatda juda katta hajmdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Har jihatdan

puxta ishlangan loyihalar asosida G'alaba bog'i, «Shon-sharaf» muzeyi, «Mangu jasorat», «Matonat madhiyasi» monumentlari bunyod etildi. Xalqimizning qonli janglardagi mardligini, front ortidagi mashaqqatli mehnati va fidoyiligini aks ettirishga bag'ishlangan keng ko'lamlı tarixiy-badiiy ekspozitsiyalar yaratildi.

Agar vaqt imkon berganda edi, ularning har biri haqida soatlab gapirish mumkin bo'lardi.

Urush davridagi janggohlarni eslatadigan baland tepalik ustida afsonaviy general Sobir Rahimov kabi harbiy qo'mondonlarimiz, o'zbekistonlik barcha botir jangchilarning so'nmas xotirasiga atab «Mangu jasorat» deb nomlangan ulug'vor monument barpo etildi.

Zamonaviy muzey san'ati va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng ilg'or yutuqlari asosida «Shon-sharaf» muzeyi bunyod qilindi. Bu yerda namoyish etilayotgan minglab tarixiy eksponatlar buyuk G'alabaga buyuk hissa qo'shgan xalqimizning mislsiz jasoratini tarannum etishga, yosh avlodimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdek olijanob maqsadga xizmat qiladi.

Biz bugun urush yillarida xalqimiz ko'rsatgan beqiyos qahramonlikni ulug'laydigan, o'zida ona Vatan timsolini mujassam etgan «Matonat madhiyasi» monumenti poyiga gulchambar qo'yib, fidoyi yurtdoshlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdik. Shuni aytish kerakki, ushbu yodgorlik majmuasiga qandaydir badiiy obraz emas, balki hayotimizda chindan ham bo'lgan tarixiy voqea – mo'tabar bir inson va uning oilasi to'g'risidagi haqiqat asos qilib olingan.

Men o'tgan yili 9-may bayramida Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog'ida yashab o'tgan Zulfiya Zokirova-ning har qanday odamni ham hayratga soladigan insoniy jasorati haqida so'z yuritgan edim.

Turmush o'rtog'i Xolmat aka vafot etgach, Zulfiya aya yolg'iz o'zi besh o'g'il, bir qizni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ikkinchi jahon urushida Isoqjon, Ahmadjon, Mahamadjon, Vahobjon, Yusufjon degan beshta azamat o'g'lidan judo bo'lgan.

O'zingiz o'ylang, aziz do'stlar, har qanday insonni ham yakson qilib tashlaydigan bunday og'ir zarbaga chidash mumkinmi? Lekin matonatli, metin irodali o'zbek onasi bu cheksiz kulfatga bardosh bera oldi.

Urush tufayli Zulfiya Zokirovaning to'rt kelini beva, besh nabirasi yetim bo'lib qoldi. Onaizor umrining oxiriga qadar suv kelsa – simirib, tosh kelsa – kemirib, qahramon o'g'illarining aziz xotirasi bilan, kelinlari, nabiralarining hayoti, yurtning tashvish va quvonchlari bilan yashadi.

Zulfiya ayaning mehr-oqibatli kelinlari ham undan o'mak olib, unga madad bo'lib, barchasi o'z yoriga, oilasiga sodiq qoldi – boshqa turmush qurmadi.

Mana, bugungi davramizda Zulfiya aya Zokirovaning qarindoshlari – hurmatli Rahimjon Ahmadjonov, Farhod Mahamadjonov, Ma'rifat Ahmadjonova, Sanoat Mahmudova, Mavluda Xolmatova ishtirok etmoqdalar. Boshlariga tushgan og'ir qiyinchiliklarni mardona yengib, Zulfiya aya va otalarining xotirasini pok saqlab, el-yurtimizga sidqidildan xizmat qilib kelayotgan bu yurtdoshlarimizga barchamizning nomimizdan chuqur minnatdorchilik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Men o'tgan yilgi bayramda o'zbek ayollari, o'zbek xalqining mana shunday buyuk jasorati, sabr-u bardoshiga bag'ishlab, «Matonat madhiyasi» degan monument barpo etishni taklif qilgan edim. Keng jamoatchiligimiz, xalqimiz bu tashabbusni qizg'in qo'llab-quvvatladi.

Shu mavzuda ijodkorlarimiz ko'plab maqolalar, she'r va dostonlar yaratmoqdalar.

Bu haqda gapirganda, men «O'zbekkino» milliy agentligi tomonidan yaratilgan «Ilhaq» badiiy filmi to'g'risida alohida to'xtalmoqchiman. Iste'dodli yosh rejissyor Jahongir Ahmedov suratga olgan ushbu ajoyib filmni men kecha juda katta qiziqish va hayajon bilan tomosha qildim. Xalqimiz hayotining eng og'ir, eng fojiali davriga bag'ishlangan bu asar tom ma'noda qahramonlik qasidasi bo'lib, har qanday odamning ham qalbini larzaga soladi.

Dahshatli urush tufayli besh nafar bahodir o'g'lidan ayrilgan, umrining oxirigacha farzandlarini ilhaq, ya'ni yo'llariga ko'z tikib kutgan Zulfiya Zokirova siymosida o'zbek onalari, o'zbek ayollariga mansub eng buyuk fazilatlar nihoyatda teran ifoda topgan. Biz bu badiiy go'zal asarni bugungi ulug' bayram kunida barcha telekanallarimiz orqali keng namoyish etishga qaror qildik.

Fursatdan foydalanib, men butun xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni mana shu filmni oila davrasida ko'rishga, uning qahramonlaridan o'rnak olishga da'vat etaman.

Katta g'urur va iftixor bilan ta'kidlab aytmoqchiman: G'alaba bog'ining markazida «Matonat madhiyasi» deb atalgan muazzam obida barcha O'zbekiston onalariga qo'yilgan haykal bo'lib, ona Vatan ramzi bo'lib qad rostladi. Hech shubhasiz, ushbu yodgorlik butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun qutlug' ziyoratgohga, oila, sevgi-muhabbat, vafo va sadoqat degan muqaddas tushunchalar timsoliga aylanib qoladi.

Bu yerga qadam qo'ygan har bir yigit-qiz millatimizning qonida, suyagida bo'lgan noyob ma'naviy fazilatlarni asrab-avaylab, qadrlab yashash uchun mana shunday ulug' insonlardan tarbiya va ibrat oladi, deb ishonaman.

Aytish kerakki, qisqa vaqt ichida, ayniqsa, karantin sharoitida G'alaba bog'i deb nom olgan bu ulkan majmuani barpo etish oson bo'lgani yo'q. Lekin, barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, mohir quruvchi va me'morlarimiz, muhandislar, turli soha mutaxassisleri, rassom va haykaltaroshlar, azamat yoshlarimiz bu vazifani o'zlari uchun savobli bir ish deb bilib, tun-u kun fidokorona mehnat qildilar. Xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan ushbu betakror majmua 9-may bayramiga qurib bitkazildi.

Fursatdan foydalanib, bu g'oyat ezgu ishga chin yurakdan hissa qo'shgan barcha-barcha insonlarga o'z nomimdan, el-yurtimiz nomidan chuqur minnatdorchilik bildiraman.

G'alaba bog'i, Xotira, Qadr-qimmat bog'i hammamizga, butun xalqimizga muborak bo'lsin!

Aziz faxriylar!

Bugungi qutlug' ayyomda barchamiz, avvalo, o'z jonini ona yurt uchun qurbon qilgan vatandoshlarimizning ruhi poklari oldida bosh egib ta'zim qilamiz. Sizlar kabi minglab urush va mehnat fronti qatnashchilarini – azm-u shijoatli, dovyurak ota-bobolarimiz, sabrmatonatli onalarimiz, momolarimizning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz.

Afsuski, karantin tufayli sizlarning barchangizni bu go'zal maskanga, bugungi tantanali marosimga olib kelolmadik. Lekin mana shunday muqaddas va shukuhli kunda hammamiz ruhan, qalban sizlar bilan birgamiz.

Urush va mehnat faxriylarining aksariyati hozir viloyatlarda, harbiy okruglarda, boshqalari esa o'z xonadonlarida oila a'zolari bilan 9-may bayramini nishonlamoqdalar. Ular «oynayi jahon» orqali bugungi tantanali marosimni to'g'ridan to'g'ri kuzatib bormoqdalar.

Sizlarning hammangizni – markazda va joylardagi bayram tadbirlarida ishtirok etayotgan, shuningdek, ushbu tantanali marosimni uylarida «oynayi jahon» orqali tomosha qilayotgan, mening tabrik so'zlarimni eshitib turgan fidoyi insonlarni ulug' ayyom bilan yana bir bor tabriklab, o'zimning yuksak hurmat va ehtiromimni bildiraman. Siz, azizlarning barchangizni g'oyibona bag'rimga bosib, bugungi erkin va ozod hayotni ta'minlash yo'lida ko'rsatgan mardligingiz, Vatanga sadoqatingiz uchun o'z nomimdan, xalqimiz nomidan rahmatlar aytib, eng ezgu va samimiy tilaklarimni izhor etaman.

Biz sizlarning timsolingizda o'zining dono maslahatlari, boy hayotiy tajribasi bilan hammamizga ustoz va duogo'y bo'lib yurgan mo'tabar insonlarni ko'ramiz. Sizlarning har biringiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Hayot yo'llarida duch kelayotgan turli qiyinchilik va muammolarni, hozirgi kunda boshimizga tushgan sinovlarni yengib o'tishda biz sizlarning mislsiz sabot va matonatingizdan, qat'iyatingizdan doimo kuch va ibrat olamiz. Yosh avlodimizni Vatanga, xalqqa sadoqatli, jasur insonlar etib

tarbiyalashda biz sizlarni doimo o'rnak deb bilamiz va kelgusida ham shunday bo'lib qoladi.

Jonajon yurtimizning fayz-u farishtasi bo'lgan siz, azizlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish uchun bundan buyon ham sidqidildan xizmat qilamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Bugun G'alaba bayramining 75 yilligini nishonlar ekanmiz, xalqimizning urush yillarida ko'rsatgan qahramonligi haqida takror va takror o'ylashimiz albatta tabiiydir.

Men avvalgi chiqishlarimda el-yurtimizning buyuk G'alabaga qo'shgan hissasi hali to'liq o'rganilmagani haqida gapirib, jamoatchiligimiz e'tiborini shu masalaga qaratgan edim. Bugun mamnuniyat bilan aytmoqchimanki, keyingi yillarda ushbu yo'nalishda juda katta ishlarni amalga oshirdik.

Avvalo, ilgari yopiq bo'lgan arxiv hujjatlarini, ilmiy jamoatchilik uchun ma'lum bo'lmagan materiallarni o'rganish uchun imkoniyat yaratildi. Bu borada sobiq Ittifoq respublikalari va chet ellardagi arxiv tashkilotlari, muzeylar va fondlar, tarixchi olimlar va mutaxassislar, keng jamoatchilik bilan hamkorlik kuchaytirildi.

Ana shunday ilmiy izlanishlar natijasida xalqimizning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki haqida, qahramon ajdodlarimiz haqida juda muhim yangi ma'lumotlarga ega bo'ldik. Hozirgi vaqtda ular ommaviy axborot vositalarida, kitob va albomlarda keng yoritilmoqda.

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi, deb aytishga bugun barcha asoslarimiz bor. Masalan, shu vaqtga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 million 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1 million 500 mingga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi.

Yangi topilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistondan 1 million 951 mingga yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, har uch nafar o'zbekistonlikdan bittasi qo'lga qurol olib, fashizmga qarshi jang qilgan.

Ayovsiz janglarda mardona qatnashgan qariyb 451 ming nafar yurtdoshimizning nomlari va taqdiri shuncha yillar mobaynida e'tibordan chetda qolib kelganini albatta adolatdan, deb bo'lmaydi.

Shuningdek, o'sha davrda «quloq» sifatida boshqa o'lkalarga surgun qilingan 59 mingdan ortiq vatandoshimiz ham harakatdagi armiyaga safarbar etilgani ma'lum bo'ldi.

Shu borada yana ba'zi raqamlarni keltirmoqchiman: ilgari 396 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilardi. Aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan.

Bundan tashqari, frontda bedarak yo'qolganlar haqidagi ma'lumotlar ham to'liq emasdi. Hozirgi vaqtda 158 mingdan ko'proq hamyurtimiz urushda bedarak ketgani aniqlandi.

Mana, dahshatli urushda xalqimiz qanday og'ir yo'qotish va talafotlar bergan, qanday azob-uqubatlarni boshidan kechirgan!

Olib borilgan ilmiy izlanishlar tufayli jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan O'zbekiston vakillarining soni bo'yicha ham oydinlik kiritildi. Shu paytga qadar bu ko'rsatkich 120 ming nafar deb qayd etilardi. Yangi ma'lumotlarga asosan 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Jumladan, ilgari 280 nafar deb hisoblab kelingan o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni 301 ta ekani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi Slava ordeniga sazovor bo'lgani hujjatlar orqali o'z tasdig'ini topdi.

Men mana shunday bebaho haqiqatni yuzaga chiqarib, adolatni qaror toptirishga katta hissa qo'shgan tarixchi olimlarimizga, ilmiy va ijodkor ziyolilarimizga katta rahmatlar aytaman. Ayni vaqtda ularni bu boradagi izlanishlarni davom ettirishga, mana shu G'alaba bog'idagi «Shon-sharaf» muzeyini doimiy ravishda yangi ma'lumotlar bilan boyitib borishga da'vat etaman.

Ota-bobolarimiz jasoratini chuqur o'rganish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida yangi tarixiy ma'lumotlar asosida har yili 9 may bayrami arafasida alohida kitob tayyorlab, nashr etsak, o'ylaymanki, ayni muddao bo'ladi.

Olovli urush yillarida butun O'zbekiston xalqi «**Hamma narsa – front uchun**», «**Hamma narsa – G'alaba uchun!**» degan hayotiy e'tiqod bilan yashadi. Mamlakatimiz front ortidagi mustahkam ta'minot bazasiga aylandi. O'zbekiston xalqi jang maydonlariga katta miqdorda qurol-yarog', oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa zarur mahsulotlarni yetkazib berdi. Ko'pmillatli aholimizning fidokorona mehnati bilan respublikamizdagi 300 ga yaqin korxonada harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko'chirib keltirildi va g'oyat qisqa fursatda ishga tushirildi. Ming-minglab urush qatnashchilari mamlakatimizda tashkil etilgan harbiy gospitallarda davolanib shifo topdilar.

Yangi aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, urush o'chog'iga aylangan o'lkalardan O'zbekistonga 1 million 500 ming kishi, jumladan, 250 mingdan ziyod bola evakuatsiya qilindi. Xalqimiz bu odamlarning barchasiga chinakam mehr va e'tibor ko'rsatdi, so'nggi burda nonini ham ular bilan baham ko'rib, yuksak insonparvarlik fazilatlarini namoyon etdi.

Aziz do'stlar!

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli qirg'in – Ikkinchi jahon urushining tugaganiga 75 yil to'lgan bo'lsa-da, afsuski, yer yuzining turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizga yaqin hududlarda qarama-qarshilik, qonli to'qnashuvlar davom etmoqda. Shu sababli biz doimo hushyor va ogoh bo'lishimiz, mustaqilligimizni mustahkamlab, Vatanimiz qudrati, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini yanada oshirishimiz zarur.

Bugun biz sizlar bilan birgalikda yangi O'zbekistonni barpo etmoqdamiz. Yangi hayot, beqiyos o'zgarishlar hammamizdan fidoyilik va bunyodkorlikni, yanada katta safarbarlikni talab etmoqda. Bu jarayonda tinchlik va osoyishtalikni asrash, jahon hamjamiyati, avvalo, qo'shni davlatlar bilan do'stlik va hamkorlikni kuchaytirishni biz eng muhim vazifamiz deb bilamiz.

Bugungi ulug' ayyomda fashizmga qarshi kurashga munosib hissa qo'shgan qardosh xalqlarni, barcha ezgu niyatli insonlarni samimiy tabriklab, ularga tinchlik, ravnaq va farovonlik tilaymiz.

Ishonchim komil, qahramon ajdodlarimizning jasoratiga sodiq bo'lgan olijanob xalqimiz tinch va farovon hayotni qadrlab, uni yanada mustahkamlash yo'lida bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi.

Aziz va qadrlil vatandoshlarim!

Barchangizni yana bir bor buyuk G'alabani 75 yillik bayrami hamda Xotira va qadrlash kuni bilan chin yurakdan tabriklayman.

Mana shunday musaffo osmon, erkin va ozod hayot uchun kurashlarda g'olib chiqqan faxriylarimizga shon-sharaflar bo'lsin!

Mard va matonatli xalqimiz hamisha omon bo'lsin!

G'alaba bayrami barchamizga muborak bo'lsin!

*Toshkent shahri,
G'alaba bog'i,
2020-yil 9-may*

O'ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI

Qadrli va muhtaram vatandoshlar!

Avvalambor, siz azizlarni, yurtimizdagi barcha mo'min-musulmonlarni, nuroniy otaxon va onaxonlarimizni, qadrli akakularimiz, opa-singillarimizni, azm-u shijoatli yoshlarimizni, iymon-e'tiqodli xalqimizni muborak Ramazon hayiti bilan chin qalbimdan tabriklab, samimiy tilaklarimni bildiraman.

Ramazoni sharif ezgulik, xayr-u saxovat va mehr-oqibat oyi sifatida el-yurtimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida azal-azaldan alohida o'rin egallab keladi.

Ushbu qutlug' oyda sabr-u qanoat, shukronalik, ruhiy poklanish, mehr va ko'makka muhtojlarga yanada e'tiborli bo'lish, savobli amallar qilishdek olijanob fazilatlar bu yil yurtimizda har qachongidan ham yaqqol namoyon bo'ldi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz.

Mard va matonatli xalqimiz koronavirus pandemiyasi, boshimizga tushgan turli sinovlar va tabiiy ofatlar sharoitida «**Alloh sabr-toqatli insonlar bilan birgadir**», degan ilohiy o'gitga amal qilib, tushkunlikka berilmasdan, yanada ahil va birdam bo'lib, insonparvarlik, hamjihatlikning yuksak namunasini ko'rsatganini jahon hamjamiyati e'tirof etmoqda. Bu bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Asrlar davomida xalqimiz ongida bag'rikenglik, mehr-muruvvat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mustahkam iroda kabi ibratli fazilatlarni shakllantirishda tabarruk Ramazon oyiga xos qadriyatlarining o'mi va ta'siri albatta beqiyosdir.

Bu yil karantin tufayli Ramazon amallari va ibodatlarini ado etishda yuzaga kelgan ma'lum qiyinchiliklarni to'g'ri tushunib, bu masalaga oqilona yondashgan, ayni vaqtda «Saxovat va ko'mak» umumxalq harakatida faol ishtirok etayotgan himmati baland tadbirkorlarimiz va fermerlarimizga, turli kasb egalari bo'lgan kexsa-yu yosh barcha vatandoshlarimizga shu ulug' ayyom kunlarida yana bir bor chuqur minnatdorchilik bildiraman.

Aziz do'stlar!

Ma'lumki, hozirgi kunda butun dunyo ahli kabi biz ham koronavirus pandemiyasi bilan bog'liq mushkul vaziyatni boshimizdan o'tkazmoqdamiz. Shu o'rinda bir haqiqatni eslatib o'tishni zarur, deb bilaman.

Karami keng Alloh taolo muqaddas Qur'oni karimda insonlarni mas'uliyatli sinov kunlarida sabr va qanoatli bo'lishga da'vat etib, **«Albatta, qiyinchilik bilan birga yengillik ham bordir»**, deb marhamat qiladi.

Chindan ham, har qanday tashvish ortida yengillik va yorug'lik borligini koronavirus kasalligidan sog'ayib chiqayotgan, tabiiy ofatlar tufayli uy-joyidan ayrilgan, lekin davlatimiz va el-yurtimizning katta yordami va ko'magi bilan o'z hayotini yangitdan yo'lga qo'yib olayotgan minglab yurtdoshlarimiz qalbdan his etmoqdalar.

Shu ma'noda, bugungi qiyinchiliklar albatta o'tib ketadi, hali qancha xursandchilik kunlar, bayram va hayitlarni barchamiz birgalikda nishonlaymiz, deb ishonaman.

Shubhasiz, har qanday mashaqqatni mehnat va matonat, sabr-uchidam bilan mardona yengib o'tgan olijanob xalqimiz bu sinovlardan yanada kuchli va qudratli bo'lib chiqadi.

Ana shunday qat'iy ishonch va ko'tarinki kayfiyat bilan bugungi kunda yurtimizni taraqqiy ettirish yo'lida davrning o'zi talab etayotgan, biz boshlagan keng ko'lamlı islohot va o'zgarishlarni bir yoqadan bosh chiqarib, izchil amalga oshirib, oldimizga qo'ygan ulkan marralarga albatta erishamiz.

Siz, aziz va muhtaram vatandoshlarimni ezgu niyatlar ro'yobga chiqadigan, xayrli amallar uchun behisob savoblar yog'iladigan, o'zaro birdamlik, do'stlik va ahillik tuyg'ulari tarannum etiladigan shukuhli Iyd-ul-Fitr bilan yana bir bor chin yurakdan muborakbod etaman.

Fursatdan foydalanib, jahondagi barcha mo'min-musulmon birodarlarimizni ham xalqimiz nomidan samimiy qutlab, ularga tinchlik-osoyishtalik, fayz-u baraka va farovon hayot tilayman.

Niyati pok, maqsadlari ulug' xalqimizning ushbu saodatli onlarda qilayotgan toat-ibodatlari va duolari ijobat bo'lsin!

Parvardigori olam doimo yo'limizni ham, yuzimizni ham yorug' qilsin! Yurtimizni, elimizni turli balo-qazolardan O'zi asrasin!

Vatanimiz tinch, xalqimiz sog'-salomat bo'lsin!

Ramazon hayiti barchamizga muborak bo'lsin!

2020-yil 24-may

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Muhtaram do'stlar!

Barchangizni 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan chin qalbimdan samimiy tabriklab, sizlarga o'zining yuksak hurmatim va ezgu tilaklarimni bildiraman.

Fursatdan foydalanib, jahon miqyosida yuz bergan pandemiya tufayli vujudga kelgan bugungi murakkab vaziyat va qiyinchiliklarga qaramasdan, aholiga tezkor va ishonchli axborot yetkazib berish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarni atroflicha aks ettirish yo'lida o'z professional burchini sidqidildan ado etib kelayotgan siz, jurnalistlar ahliga chuqur minnatdorchilik bildiraman.

Hurmatli ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Sizlarga ayonki, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda axborot sohasini tubdan isloh qilish va rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi uch yilda bu borada o'ndan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Xususan, «Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Prezident qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi.

Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash maqsadida o'tgan bir yil davomida ko'plab vazirlik va idoralarda axborot xizmatlari zamon talablari asosida qaytadan, 201 ta tuman va shahar hokimliklarida esa birinchi marta tashkil etildi.

Ana shu xizmatlar tomonidan ijtimoiy jarayonlar haqida ishonchli axborot berish maqsadida matbuot anjumanlari,

brifinglar, mediaturalar tashkil etilmoqda, hayotimizdagi muammo va hodisalarga tezkor munosabat bildirilmoqda, ularning veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil messenjerlardagi sahifalari yangilab borilmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda katta auditoriyaga ega bo'lgan qariyb 290 ta xususiy va idoraviy Internet nashrlari tashkil etildi. Ular boshqa materiallar qatorida eng muhim rasmiy axborotlar, normativ-huquqiy hujjatlarni o'zbek, rus va ingliz tillarida tarqatmoqda.

Eng asosiysi, ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli o'zgarish va yangilanish jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib, joylardagi ijtimoiy muammolar, xato va kamchiliklarga davlat idoralari va jamoatchilik e'tiborini qaratayotganini alohida qayd etish lozim.

Albatta, bugun biz hamma sohada, jumladan, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish borasida ham izlanishdamiz. Binobarin, bu yo'lda yutuqlar bilan birga, kamchilik va nuqsonlar bo'lishi ham tabiiydir.

Bu haqda gapirganda, milliy media maydonimizda zamonning o'tkir talab va mezonlari, eng muhim tendensiyalarini ochib berish, tanqidiy tahlil, odamlar kutayotgan mavzu va muammolarni dadillik bilan o'rta tashlash hali ham yetakchi o'rin egallamayotganini aytishga to'g'ri keladi. Afsuski, aksariyat axborot vositalarida ijtimoiy salmog'i yengil bo'lgan, hisobot va balandparvoqlik ruhidagi materiallar hanuz ustunlik qilmoqda.

Yana bir muhim masala – ayrim jurnalist va blogerlarimizda bilim va professional malaka, bahs madaniyati yetishmasligi jamoatchilikni tashvishlantirmoqda.

Bu boradagi eng asosiy vazifa – ana shunday kamchiliklarni chuqur o'rganib, ularni bartaraf etish, mavjud miqdor ko'rsatkichlarini sifat ko'rsatkichlariga aylantirish, ommaviy axborot vositalarining samaradorligini oshirishdan iborat.

Biz bugun huquqiy demokratik davlat qurayotgan ekanmiz, jurnalistikaning butun dunyoda e'tirof etilgan, o'zgarmas talab

va mezonlariga amal qilishimiz zarur. **Bu mezonlarning eng asosiysi – xolislik va haqqoniylikdir.** Binobarin, matbuot maydoniga kirgan inson – u jurnalist bo‘ladimi, bloger bo‘ladimi, bundan qat’i nazar – ana shu qoidalarga amal qilishi shart.

Biz bo‘lg‘usi jurnalistlarimiz chuqur bilim va kasb mahoratini, ona tilimiz bilan birga chet tillarni, faol fuqarolik pozitsiyasini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, notiqlik malakasini puxta egallashlariga alohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Ana shunday yetuk kadrlarni tayyorlashda eng avvalo o‘zimizning boy ma’naviy merosimizga tayansak, albatta natija bo‘ladi. Bu borada jadidlar, xususan, bu yil 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanayotgan ulug‘ alloma va publitsist Mahmudxo‘ja Behbudiyning milliy jurnalistika maktabi ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Siz azizlarning bugungi kasb bayramingiz bahona bir ezgu taklifni ilgari surmoqchiman. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabalari uchun **Mahmudxo‘ja Behbudiy nomidagi stipendiyani** ta’sis etsak, o‘ylaymanki, bu ham yoshlarimizni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ayni vaqtda jahondagi yetakchi media kompaniyalarining kadrlar tayyorlash va ular bilan ishlashga oid tajribasini chuqur o‘rganib, chet ellik jurnalistlar bilan tajriba almashish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirishimiz zarur.

Muhtaram matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari!

Sizlarni va sizlarning ijod mahsulingizdan bahramand bo‘ladigan jamiki mushtariy va muxlislaringizni kasb bayramingiz bilan yana bir bor samimiy muborakbod etaman.

Barchangizga sihat-salomatlik, yangi yutuqlar, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

2020-yil 27-iyun

O'ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

Aziz o'g'il-qizlarim!

Barchangizni yurtimiz hayotidagi qutlug' bayram – Yoshlar kuni bilan samimiy tabriklab, o'zimning chuqur mehrim va ezgu tilaklarimni bildirishdan g'oyat mamnunman.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda azm-u shijoatli yoshlarimizning o'rni va ta'siri tobora ortib borayotgani hammamizni quvontiradi.

Hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida, Vatan himoyasidek sharaflı vazifani ado etishda millionlab yoshlarimiz sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilmoqda. Siyosiy saviyasi yetuk, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega yuzlab yigit-qizlar parlamentimiz va xalq deputatlari mahalliy kengashlarining a'zosi sifatida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy hokimiyat idoralarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamizda samarali ishlayotgan 227 mingga yaqin yosh tadbirkor va fermerlar, mohir hunarmandlar iqtisodiyotimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. Yurtimizda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Bu haqda gapirganda, birgina «**Yoshlar – kelajagimiz**» dasturi doirasida yosh avlod vakillarining 7 ming 775 ta biznes loyihasiga 1 trillion 635 milliard so'mdan ziyod imtiyozli kredit mablag'lari ajratilib, shu asosda 40 mingga yaqin yangi ish o'rni tashkil etilganini qayd etish lozim.

Ana shunday e'tibor va g'amxo'rlik tufayli hududlarda 27 ta «Yosh tadbirkorlar» kovorking-markazlari hamda 157 ta «Yoshlar mehnat guzari» foydalanishga topshirildi. Ushbu majmualarda 2 ming 200 nafardan ortiq o'g'il-qizlarimiz o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlagani e'tiborlidir.

Shu bilan birga, «**Har bir yoshga – bir gektar**» loyihasi bo'yicha barcha hududlarimizda 65 mingga yaqin yosh dehqonlarga 54 ming 232 gektardan ziyod yer ajratildi.

Ana shunday muhim chora-tadbirlar tufayli so'nggi uch yilda 560 ming 200 nafarga yaqin yosh fuqaro ish bilan ta'minlandi.

Bu yil koronavirus pandemiyasi hamda Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida ro'y bergan ofatlar butun el-yurtimiz qatori yoshlarimiz irodasini ham sinovdan o'tkazdi. Ana shunday og'ir vaziyatlarda ming-minglab o'g'il-qizlarimiz chinakam mardlik va jasorat ko'rsatib, barcha tengdoshlariga o'mak bo'ldilar.

Xususan, mamlakatimizda tashkil etilgan «**Saxovat va ko'mak**» **umumxalq harakatining** asosiy ishtirokchilari ham yoshlarimiz ekani, Harakat doirasida O'zbekiston yoshlar ittifoqining 4 ming 500 nafar a'zosi ko'ngilli sifatida faol ish olib borayotgani tahsinga loyiqdir.

Sardoba suv omboridagi toshqindan talafot ko'rganlarga yordam va ko'mak ko'rsatish maqsadida Yoshlar ittifoqining xayriya karvoni tashkil etilib, aholiga kiyim-kechak, sanitariya vositalari, oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, katta miqdordagi o'quv qurollari va sport anjomlari, badiiy adabiyotlar yetkazib berildi.

O'z navbatida, bunday ezgu ishlar Buxoro viloyatining kuchli dovuldan zarar ko'rgan Olot va Qorako'l tumanlarida ham amalga oshirilgani sizlarning vatanparvarlik va olijanoblik fazilatlaringsizdan dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, og‘ir sinov kunlarida xalqimizga haqiqiy tayanch va suyanch bo‘lib maydonga chiqqan Qurolli Kuchlarimizning mard va matonatli harbiy xizmatchilariga, jonkuyar shifokorlar, bunyodkor quruvchilar, saxovatli tadbirkorlarimizga, ilm-fan, madaniyat va sport sohasi vakillariga, Yoshlar ittifoqining faol a‘zolariga – barcha O‘zbekiston yoshlariga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Vatanimiz, el-yurtimiz sizlar kabi fidoyi va jasur farzandlari bilan hamisha faxrlanadi!

Muhtaram yosh do‘stlarim!

Bugungi kunda zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda, biz navqiron avlodimizning ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etmoqdamiz.

Shu maqsadda ulug‘ allomalarimiz nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar, Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi, Farg‘ona shahrida «Loyihalar fabrikasi» faoliyati yo‘lga qo‘yilgani, Prezident va ijod maktablari bo‘yicha dasturlarimiz izchil davom ettirilayotgani sizlarga yaxshi ma‘lum.

Iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash uchun har bir hududda Yoshlar texnoparklarini barpo etishni boshladik. Umumiy qiymati 30 milliard so‘mdan ortiq bo‘lgan «Yosh olimlar» amaliy va innovatsion loyihalar tanlovi e‘lon qilindi.

Karantin sharoitiga qaramasdan, 6 milliondan ortiq maktab o‘quvchilari, 468 ming talaba o‘quv dasturlarida belgilangan darslarni o‘z vaqtida va sifatli o‘zlashtirdi. «Online-maktab» loyihasi doirasida 17 ta fan bo‘yicha 4 mingdan ortiq telemashg‘ulotlar o‘tkazildi. Bu

jarayonga eng malakali pedagoglar jalb etildi, jumladan, Toshkentdagi Prezident maktabining xorijlik mutaxassislari tomonidan ham mahorat darslari olib borildi. Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishga alohida e'tibor qaratilib, barcha darslar surdopedagog va surdotarjimonlar tomonidan tushuntirib borildi.

O'zbekistonning bu tajribasi UNESCO, UNISEF, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Bugungi shiddatli zamonda, global miqyosda raqobat kuchayib borayotgan murakkab vaziyatda yuksak intellektual salohiyatga ega kadrlarga ehtiyoj har qachongidan ham ortib bormoqda. Shu bois biz o'z oldimizga qo'ygan ulkan va mas'uliyatli vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimiz oliy ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz.

Jumladan, keyingi uch yilda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari soni 60 foizga oshib, 116 taga yetdi. Ular orasida nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari borligi alohida e'tiborga loyiq. Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalari soni izchil oshirib borilmoqda. Agar 2016–2017-o'quv yilida bu raqam 58 mingtani tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda 150 mingtaga yetadi. Ya'ni, bu yil maktab bitiruvchilarining 25 foizi oliy o'quv yurtlarida o'qish imkoniga ega bo'ladi. Holbuki, 2017-yilda bu raqam 9 foizga teng edi.

Millat genofondini saqlash va davom ettirishning muhim omili bo'lgan yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash masalasi doimo e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. So'nggi uch yilda 2 ming 668 ta yosh oilaga uy-joy uchun 121 milliard 244 million so'm boshlang'ich to'lov mablag'lari 20 yil davomida foizsiz qaytarish sharti bilan to'lab berildi.

Barchamiz guvohimiz – bugun dunyo misli ko‘rilmagan sur‘atlar bilan keskin o‘zgarib bormoqda. Ijtimoiy hayotimizda ko‘plab ijobiy jarayonlar bilan birga, yosh avlodning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma‘naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olmoqda.

Bunday murakkab vaziyatda farzandlarimizni zararli ta‘sirlardan asrash, doimo hushyor va ogoh bo‘lib yashash eng dolzarb vazifamiz bo‘lib qolmoqda.

Yoshlarimizni ona Vatanimizga, mustaqillik g‘oyalariga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning iste‘dod va qobiliyatini, ezgu intilishlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida boshlagan katta ishlarimizni bundan buyon ham qat‘iyat bilan davom ettiramiz.

Ayni shu maqsadda yurtimizning barcha viloyat va tumanlarida, shahar va qishloqlarimizda yangi-yangi ta‘lim dargohlari, madaniyat va san‘at maskanlari, sport inshootlari barpo etilib, yoshlar ixtiyoriga berilmoqda.

Shular qatorida poytaxtimizda bunyod etilgan muhtasham G‘alaba bog‘i, «Shon-sharaf» muzeyi, Toshkent shahrining tarix muzeyi, betakror Adiblar xiyoboni farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Yoshlarimizni jismoniy sog‘lom, ma‘naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun besh muhim tashabbus doirasida ko‘plab stadionlar, suv havzalari, sport majmualari va saroylari barpo etilmoqda.

Eng muhimi, farzandlarimiz o‘rtasida sport bilan muntazam shug‘ullanadigan, sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiy maqsadiga aylantirgan yigit-qizlar safi kengayib bormoqda.

Qadrli vatandoshlar!

Bugun jonajon O‘zbekistonimizda erkin va obod, farovon hayot qurish yo‘lida biz boshlagan ulkan ishlarni davom ettirishga qodir bo‘lgan yangi avlod shakllanmoqda.

Aziz o'g'il-qizlarim, hech qachon unutmang, xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlarni kutmoqda.

Shu muqaddas ishonch va mas'uliyatni har tomonlama oqlash, unga munosib bo'lish – dunyodagi eng ulug' baxtdir. Shunday baxt, shunday sharaf barchangizga nasib etsin!

Sizlarni sevimli bayramingiz, azm-u shijoat, go'zallik va kamolot ayyomi – Yoshlar kuni bilan yana bir bor samimiy tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad tilayman.

2020-yil 30-iyun

MUNDARIJA

XALQIMIZNING HAYOT DARAJASI VA SIFATINI YANGI BOSQICHGA KO'TARISH – ENG MUHIM VAZIFAMIZ

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASI

2020-yil 24-yanvar4

PARLAMENT XALQ IRODASINING HAQIQIY KO'ZGUSI BO'LISHI ZARUR

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining birinchi
majlisidagi nutq*

2020-yil 20-yanvar45

SENATORLIK TASHABBUSKORLIK VA FIDOYILIK DEMAKDIR

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining birinchi majlisidagi
nutq*

2020-yil 20-yanvar64

BOSHLAGAN ISLOHOTLARIMIZNI JADAL DAVOM ETTIRISH – USTUVOR VAZIFADIR

*O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining
qo'shma majlisidagi nutq*

2020-yil 21-yanvar80

KONSTITUTSIYA VA QONUN USTUVORLIGI – HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQAROLIK JAMIYATINING ENG MUHIM MEZONI

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga
bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza*

2019-yil 7-dekabr93

**HARBIY-VATANPARVARLIK TARBIYASINI KUCHAYTIRISH –
DOLZARB VAZIFAMIZDIR**

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashining
kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqdan*

2020-yil 10-yanvar 113

**MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH BIZ UCHUN UMUMMILLIY
MAQSADGA, UMUMXALQ HARAKATIGA AYLANISHI ZARUR**

*Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi
nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga
bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi nutq*

2019-yil 23-avgust 126

MILLIY O'ZLIGIMIZ VA MUSTAQIL DAVLATCHILIGIMIZ TIMSOLI

*O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan
tantanali marosimdagi nutq*

2019-yil 21-oktabr 143

**YANGI FIKR, YANGI G'OYAGA, INNOVATSIYAGA TAYANGAN
DAVLATGINA YUKSAK TARAQQIYOTGA ERISHADI**

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni
chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashgan Muhammad Xorazmiy nomidagi
maktabda yoshlar bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 27-dekabr 155

**EL-YURTIMIZNING MUSTAHKAM IRODASI
VA MATONATIGA TAYANIB,
SINOVLARDAN MUNOSIB O'TAMIZ**

**KORONAVIRUSGA QARSHI KURASH TARTIB-INTIZOM VA SABR-
TOQATNI TALAB QILADI**

*Mahalla va oila masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi
nutqdan*

2020-yil 18-mart 175

**SHIFOKORLARNING O'Z KASBIGA SADOQATI VA FIDOKORONA
MEHNATI – HAQIQIY JASORAT NAMUNASI**

*Mamlakatimizda koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishni
kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishidagi
murojaat*

2020-yil 26-mart 181

XALQIMIZNING AQL-ZAKOVATI VA METIN IRODASIGA ISHONAMAN

Koronavirus pandemiyasi keltirib chiqargan inqirozga qarshi kurashish sharoitida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzadan

2020-yil 3-aprel 186

ULUG' XALQ QUDRATI HAR QANDAY TO'SIQ VA G'OVNLARNI YENGISHGA QODIR

Global inqiroz va pandemiya sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jaligi oldida turgan dolzarb vazifalar muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi nutqdan

2020-yil 14-aprel 193

«SAXOVAT VA KO'MAK» UMUMXALQ HARAKATI HAQIDA

Sanoat, qurilish va infratuzilma tarmoqlari korxonalarining to'liq ishlashini ta'minlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi ma'ruzadan

2020-yil 20-aprel 196

XALQIMIZNING OLIJANOB FAZILATLARI YANA BIR BOR SINOVDAN O'TMOQDA

Aholi bandligi masalasiga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi avvalida koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash doirasidagi so'z

2020-yil 22-aprel 203

HAMJIHATLIK VA MEHR-OQIBAT BILAN

Aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash va narx-navo barqarorligini saqlash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi avvalida koronavirus pandemiyasiga qarshi kurash borasidagi so'z

2020-yil 29-aprel 207

OFAT VA MATONAT

Koronavirus infeksiyasiga qarshi kurash hamda Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida yuz bergan favqulodda hodisalar bo'yicha o'tkazilgan videoselektordagi nutqdan

2020-yil 5-may 213

**DO‘STONA AMALIY HAMKORLIK – BARQAROR
RIVOJLANISH KAFOLATI**

**KONSTRUKTIV TASHQI SIYOSAT O‘ZBEKISTON TARAQ-
QIYOTINING YANGI BOSQICHINI TASHKIL ETADI**

*Xorijiy davlatlarning O‘zbekiston Respublikasiga tayinlangan
Favqulodda va muxtor elchilaridan ishonch yorliqlarini qabul qilib
olish marosimidagi nutq*

2019-yil 20-sentabr 220

**MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGINI IQTISODIY
RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINI TAYYORLASH –
DOLZARB VAZIFA**

*Turkmaniston poytaxti Ashxobod shahrida MDH davlat rahbarlari
kengashida so‘zlangan nutq*

2019-yil 11-oktabr 226

**O‘ZBEKISTON – TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK
KENGASHINING TENG HUQUQLI A‘ZOSI**

*Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik
Kengashining yettinchi sammitida so‘zlangan nutq*

2019-yil 15-oktabr 229

**INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK YO‘LIDAGI YANGI
IMKONIYATLAR**

*Turkiy Kengashning 10 yillik yubileyi sanasi munosabati bilan
Turkiyaning «Hurriyet Daily» gazetasida chop etilgan maqola*

2019-yil 15-oktabr 234

MARKAZIY OSIYO – YAGONA O‘TMISH, UMUMIY KELAJAK

*Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida
so‘zlangan nutq*

2019-yil 29-noyabr 240

**MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI RAHBARLARINING
MASLAHAT UCHRASHUVI YAKUNLARI BO‘YICHA
BRIFINGDAGI BAYONOT**

Toshkent shahri, 2019-yil 29-noyabr 246

**O‘ZBEKISTON – YAPONIYA: XALQLAR VA MADANIYATLAR
MULOQOTI**

*«Markaziy Osiyo madaniy merosi Yaponiya muzeilarida» nomli kitob-
albomga yozilgan so‘zboshi*

2019-yil 16-dekabr 250

YAPONIYANING ADABIY MO‘JIZASI

«Yapon she‘riyati guldastasi» kitobiga yozilgan so‘zboshi

2019-yil 16-dekabr 254

**O‘ZBEKISTON O‘ZARO MANFAATLI HAMKORLIK UCHUN
OCHIQDIR**

Yaponiyaning «Nikkei» gazetasi muxbiri savollariga javoblar

2019-yil 17-dekabr 262

**MILLIY SIYOSAT VA SAVDO MUNOSABATLARI BARQAROR
RIVOJLANMOQDA**

Yaponiyaning «The Japan Times» gazetasida bosilgan maqola

2019-yil 18-dekabr 266

**NAGOYA UNIVERSITETI – SINALGAN VA ISHONCHLI ILMIY
HAMKORIMIZ**

*Yaponiyadagi Nagoya universiteti professor-o‘qituvchilari va
talabalari bilan uchrashuvdagi nutq*

2019-yil 18-dekabr 272

DO‘ST BOG‘INING BULBULI

*Turk mumtoz shoiri Yunus Emroning «O‘lmas ko‘ngul» kitobiga
yozilgan so‘zboshi*

2020-yil 19-fevral 280

MADANIY HAMKORLIKNING YORQIN NAMUNASI

*«Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy
nusxalari» nomli kitob-albom uchun yozilgan so‘zboshi*

2020-yil 19-fevral 285

**KITOB VA KUTUBXONALAR – INSONIYAT TAFAKKURINING
BUYUK KASHFIYOTIDIR**

*Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasining tantanali
ochilish marosimidagi nutq*

2020-yil 20-fevral 290

**TURKIY TILLI DAVLATLAR HAMKORLIK KENGASHINING
KORONAVIRUS PANDEMIYASIGA QARSHI KURASHGA
BAG‘ISHLANGAN NAVBATDAN TASHQARI SAMMITI
(VIDEOKONFERENSIYA)DAGI NUTQ**

2020-yil 10-aprel..... 297

TABRIK VA QUTLOVLAR

O‘ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Toshkent shahri, 2019-yil 11-avgust 304

**«SHARQ TARONALARI» XII XALQARO MUSIQA FESTI-
VALINING OCHILISHIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI
MAROSIMDAGI SO‘Z**

Samarqand shahri, 2019-yil 26-avgust 307

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLI-
GINING YIGIRMA SAKKIZ YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN
TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQ**

2019-yil 31-avgust 312

**BIRINCHI XALQARO HUNARMANDCHILIK FESTIVALINING
TANTANALI OCHILISH MAROSIMIDAGI NUTQ**

Qo‘qon shahri, 2019-yil 14-sentabr 321

**O‘ZBEKISTON O‘QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA
BAYRAM TABRIGI**

2019-yil 28-sentabr 327

O‘ZBEK O‘G‘LONLARI JASORATINING YORQIN NAMUNASI

Rossiya Federatsiyasining Yekaterinburg shahrida bo‘lib o‘tgan boks

<i>bo'yicha jahon chempionatida yuksak natijalarga erishgan sportchi va murabbiylarga mukofotlarni topshirish marosimidagi nutq</i> <i>2019-yil 30-sentabr</i>	331
«OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI» AKSIYADORLIK JAMIYATI JAMOASIGA <i>2019-yil 24-oktabr</i>	338
O'ZBEKISTON SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI XODIMLARIGA <i>2019-yil 9-noyabr</i>	341
O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGI XODIMLARIGA <i>2019-yil 6-dekabr</i>	346
O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI <i>2019-yil 31-dekabr</i>	352
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 28 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI <i>2020-yil 14-yanvar</i>	355
«YANGI O'ZBEKISTON» GAZETASI JAMOASIGA <i>2020-yil 24-yanvar</i>	360
MUNIS ONALARIMIZ, MEHRIBON OPA-SINGILLARIMIZ – HAYOTIMIZ GULTOJI <i>8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq</i> <i>2020-yil 7-mart</i>	362
O'ZBEKISTON XALQIGA NAVRO'Z TABRIGI <i>2020-yil 21-mart</i>	375

BUYUK G'ALABANING 75 YILLIGI HAMDA XOTIRA VA
QADRLASH KUNIGA BAG'ISHLANGAN TANTANALI
MAROSIMDAGI NUTQ

Toshkent shahri, G'alaba bog'i, 2020-yil 9-may 377

O'ZBEKISTON XALQIGA RAMAZON HAYITI TABRIGI

2020-yil 24-may386

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI
XODIMLARIGA

2020-yil 27-iyun389

O'ZBEKISTON YOSHLARIGA BAYRAM TABRIGI

2020-yil 30-iyun 392

Rasmiy nashr

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

**MILLIY TIKLANISHDAN –
MILLIY YUKSALISH SARI**

4-jild

Muharrir *I. Ahmedov*

Badiiy muharrir *Sh. Xodjayev*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kompyuterda sahifalovchilar:

A. Sulaymonov, S. Aziztoyeva

Nashriyot litsenziyasi AI № 158.14.08.2009.
Bosishga 2020-yil 24-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'oz.
«Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 33,15. Nashr tabog'i 29,67.
Adadi 5000 nusxa. Buyurtma №. 20-341.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100011. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20.
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: «O‘zbekiston»

M 54 NMIU, 2020. – 408 b.

ISBN 978-9943-6580-9-7

UO‘K 323.(575.1)

KBK 66.3(50‘)